O'zbek maqom san'ati ming yillik tarixga ega. Shashmaqom, Xorazm maqomlari, Farg'ona-Toshkent maqomlari o'ziga xos mavqei, ijrochilik yo'li bilan ajralib turadi. Uning rivojlanishi va asrlar osha sayqal topishida davr, zamon, ijtimoiy voqelik muhim unsur sifatida o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Poytaxtimizda "O'zbek milliy maqom san'ati markazi" tashkil etilib, hozirda samarali faoliyat olib borayotgani ham ulkan voqealarning davomidur. Biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar millat ruhini, dardu-armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kellmoqda.

Maqom qalblarga sokinlik, orom, ruhiyatga poklik, mo'tadillik bag'ishlaydi. Uning mo'jizakorligi bu qadim merosimizni o'zbek tilini mutlaqo tushunmaydigan xorijliklar ham sehrlanib, sel bo'lib tinglashida yaqqol namoyon bo'ladi.

Maqom xalqimizning bebaho ma'naviy merosi. Ushbu san'at rivojlanishning uzoq davrini bosib o'tdi, ko'plab san'atkor, bastakorlar uning tadrijiy taraqqiyotiga o'z hissasilarini qo'shganlar. Ularda inson kechinmalarining eng nozik ohanglari jamlangan. Shu sabab maqomni his qilish, tushunish uchun ma'lum tayyorgarlik zarur. Buning uchun kishi yoshlikdan musiqaga mehr qo'yishi, ruhiy kamolotini shu jihat bilan bog'lamog'i kerak. Ayni davrda maqom ijrochiligi pedagogikasida maxsus adabiyot, darsliklarga ehtiyoj sezilganligi bois ushbu maqolaga jazm etdik.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). So'nggi davrda maqom xonandaligiga katta e'tibor berilishi yurtimizda musiqiy madaniyatning yangi bosqichga chiqishida muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. "Bu noyob boylikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, undan dunyo ahlini bahramand qilish, kelgusi nasllarga bezavol yetkazish turli qit'a va mamlakatlar vakillarini bu go'zal maskanda mujassam etgan anjumanimizni asosiy maqsadidir"[2]. "Biz xalqimizning noyob merosi bo'lgan maqom san'atini nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoaro keng targ'ib qilish, kerak bo'lsa, xalqaro miqyosda maqom tanlovlarini tashkil etish ustida ishlashimiz kerak"[3]. Poytaxtimizda O'zbek milliy maqom san'ati markazi tashkil etilib, hozirda samarali faoliyat olib borayotgani ham ulkan voqealarning davomidur. Biz uchun bebaho badiiy qomus bo'lgan maqom san'ati asrlar, necha yuz yillar davomida inson ruhini, uning dardu armonlarini, ezgu intilishlarini yuksak pardalarda ifoda etib kelmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan milliy maqomotimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, uni yoshlarga bezavol yetkazish borasidagi ezgu sa'y-harakatlari milliy maqom san'atimiz rivojiga ko'rsatilayotgan g'oyat ulkan e'tibor va g'amxo'rlikda yorqin ifodasini topmoqdaki, mazkur hujjat[3] o'zbek maqom san'atini chuqur o'rganib, o'ziga xos ijro maktablari va an'analarini yangi bosqichda ko'tarish, uning "oltin fondi"ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini oshirish va keng targ'ib qilishda g'oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Milliy maqom san'ati rivoji yo'lida ko'rsatilayotgan cheksiz e'tibor ijodkorlarga ilhom, ijod zavqini bag'ishlamoqda. O'zbek xalqining ulkan va betakror musiqiy merosi – Shashmaqom turkumlari mumtoz she'riyatimiz bilan uyg'un holda g'oyat go'zal san'at namunasini hosil etgan, bu yuksak musiqaga jahon ahli hayrat bilan qaraydi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Har bir ilmning o‘z tarixi, shakllanish va rivojlanish bosqichi bo‘lgani kabi maqom san’ati ham bir necha asrlik boy tarixga ega. Maqom yetuk va o‘ziga xos og‘zaki professional musiqa turkum janri bo‘lib, o‘rta asrlarda bastakorlar tomonidan yaratilgan. Maqom xalqimiz vujudidan sizib chiqqan ohangdir.

“G‘iyosul lug‘at” qomusining muallifi G‘iyosuddin quyidagicha ta’riflaydi: “Maqom – pardai surudro go‘yand” – “Maqom deb kuy va ashulalar pardasiga aytiladi”[4]. Musiqaga doir qadimiy manbalardan ma’lumki, maqomlarning tarixiy-nazariy va amaliy tamonlari bor. Ularning nazariy masalalari IX-XV asrlarda yashab ijod etgan Kindiy, Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Urmaviy, Sheroziy, Marog‘iy, Jomiy va Husayniy kabi buyuk olimlarning risolalarida sharhlangan.

O‘zbek xalqini qadimiy, serqirra, boy musiqa merosi bo‘lmish Shashmaqom tarkibidagi ashula turkumlarini amaliy o‘zlashtirish muhim vazifa hisoblanadi. Yosh avlodni bu bilimlardan voqif qilish va ehtiyojlarini to‘laroq qondirish uchun O‘zbek milliy maqom san’ati markazi tomonidan izchil faoliyat olib borilmoqda.

Markaz tomonidan musiqa tarixi va ijodiyotiga aloqador birtalay adabiyotlar nashr etildi. Bu masalani bir tomoni. Boshqa tomondan musiqaga oid oliygohlarda maqomotni nafaqat amaliy, balki musiqiy-nazariy qonunyatlarini dars jarayonida chuqur o‘rgatish va idrok ettirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqdaki, ko‘zlangan maqsadga erishishda bakalavriat tinglovchilarini yangi o‘quv dasturlar, qo‘llanmalar, darsliklar bilan ta’minlash zarurati mavjud. Maqomdon ustoz Ishoq Rajabov ta’kidlaganlaridek, natijada “Ilgari mavhum va muammoli bo‘lgan masalalar o‘z yechimini topadi, maqomotning uzun tarixi va talaygina qonun-qoidalari oydinlashadi, bu tadqiqotlar tufayli maqomot qaddini rostlaydi, keyingi izlanishlarga bir qadar zamin yaratadi”[5].

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology).

“Maqom yakka xonandaligi” yo‘nalishiga qabul qilingan talaba bilan amaliy mashhg‘ulotlar boshlashdan avval professor-o‘qituvchi uni musiqiy savodxonligi, ijro mahorati, imkoniyat darajasi, ijrochilik ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazishi lozim. Shuningdek, uning maqom san’ati bo‘yicha tasavvuri, o‘zbek milliy maqom san’atining boshlang‘ich nazariyasi, xonandaning musiqiy tafakkuri, nota o‘qish ko‘nikmasi, ijodiy qiziqishlarini suhbat asosida hamda amaliy ravishda tekshirish maqsadga muvofiq. Albatta, talabalarni ijro mahorati, imkoniyati va ko‘nikmalari turlicha. Bu jarayon kelgusida ushbu talaba bilan sog‘lom ijodiy muloqotni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Professor-o‘qituvchi talabaga oliygohda tasdiqlangan fan dasturiga muvofiq har bir bakalavriat bosqichida tegishli kurs va semestr davomida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan ijodiy dasturni ma’lum qiladi. Tegishli semestr uchun tanlab olinadigan Shashmaqom turkum asarlariga mos murakkablik darajasi engil bo‘lgan o‘zbek xalq ashulalari va bastakorlik ijodiyoti namunalari bilan ularni musiqiy yozuvini eshittirish, bevosita jonli ijro etib ko‘rsatish, hirgoyi qilib berish va o‘zlashtirish bo‘yicha talablar tushuntiriladi. Talabaga maqom xonandalari ijrochiligining nazariy-amaliy masalalari puxta o‘zlashtirishi bo‘yicha tegishli ma’lumotlar va ijodiy ko‘rsatmalar berib borish yuqori natijaga erishish uchun ahamiyatlidir. Shundan so‘ng, professor-o‘qituvchi fan dasturiga muvofiq ijro dasturini talaba bilan birga tanlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Ijro etiladigan turkum asarning mukammal ijro talqinini yaratish masalasi muhim vazifa. 1-kurs talabasini ijodiy ulg‘ayishini kontsert-ijrochilik amaliyotini qay daraja samarali tashkil etganidan kuzatish mumkin. Talaba o‘qish jarayonida ixtisoslik sinfida olgan ijodiy bilim va ko‘nikmalari asosida yaratgan ijodiy asarlarini imtihonlar, tanlovlar, kontsertlarda Respublika, Xalqaro tanlov-festivallarda ijro etib malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Talaba o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilimlar o‘quv dasturida quyidagicha belgilanadi:

- Maqom xonandaligi fani haqida umumiy ma’lumot;

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

- Ijrochilik san’ati;
- O‘zbek maqomoti haqida tushuncha;
- Vohalarga xos ijrochilik an’analarini o‘rganish va o‘zlashtirish;
- Turkum asarlarni ijro etish;
- Vokal ijrochiligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- Ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va shakllantirish.

1-kursning 2-semestrida talaba o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan bilimlar o‘quv dasturida quyidagicha belgilab qo‘yilgan:

- Vokal ijrochiligi haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish;
- Ijro ko‘nikmalarini o‘zlashtirish va shakllantirish;
- Ijrochilik mahoratini rivojlantirish;
- Musiqiy asarlani sof ijro usullari ustida ishlash;
- Badiiy asarlarni mustaqil ravishda tahlil qilib o‘rganish;
- Notadan ravon o‘qish malakasi ustida ishlash;
- Ijrochilik ko‘nikmalarini nukaammalashtirish;
- Sahnaviy chiqish va maxsus konsert ko‘nikmalarini rivojlantirish.

O‘quv rejasida belgilab qo‘yilgan talabga ko‘ra, 1-kursning I va II semestrlari mobaynida o‘rganish lozim bo‘lgan turkum asar, xalq ashulalarni, O‘zbek mumtoz bastakorlik ijodiyoti namunalarini ijro etishni ustozi bilan imkoniyatlarni hisobga olib, maslahat bilan rejalashtirib olinadi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations).

Mumtoz asarlar fanning tasdiqlangan va joriyga kiritilgan o‘quv dasturi bo‘yicha tanlangan. Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Maqom xonandaligi” kafedrasida yillar davomida shakllantirgan, kursma-kurs belgilangan talablar majmuasi ham mavjud. 1-kurs talabalari boshqa ustozlar sinfida Shashmaqom turkumlaridan, Xorazm maqomlaridan, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan, xalq ashulalari, katta ashuladan biri hamda O‘zbek mumtoz bastakorlik ijodiyoti namunalaridan ijro qilishni o‘rganishlari mumkin. Ular murakkablik darajasi bo‘yicha albatta oliy ta’lim talablariga va har bir talabaning imkoniyatlariga to‘g‘ri kelishi lozim. Darslikda notasi berilgan asarlar faqat namunaviy dastur sifatida taqdim etilgan. “Maqom xonandaligi” ixtisosligining 1-kurs ta’lim jarayonlari mobaynida ijroviy mahoratni yangi bosqichda o‘zlashtirish uchun dastavval ijodiy dasturni shakllantirish zarur, bu o‘quv yili boshida amalga oshiriladi. Misol tariqasida, bir talabaning iqtidorini inobatga olgan holda “Talabaning shaxsiy rejasi”ni tuzamiz. Ijodiy bilim va ko‘nikmalari o‘rtacha bo‘lgan talaba uchun namuna sifatida 1-o‘quv yiliga ma’lum bir ijodiy dastur tavsiya etiladi. Masalan:

1-semestr ijodiy dasturi namunasi:

1) Shashmaqom turkum asaridan:

“Mo‘gulchayi Navo” yoki vodiy va vohaga oid musiqiy asarlar – Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan “Qalandar” (ixtiyoriy), “Hojiniyoz I-V”, shuningdek, Xorazm olti yarim maqomlaridan barcha maqomlarning Naqsh, Suvoriy va Uforisi bo‘lishi mumkin.

2) Xalq ashulalaridan:

“Ayrilmasun” “Dilxiroj” va hokazolardan birini ijro etish. Katta ashula, Xorazm suvoriysi, Savt suvoriylardan birini ijro etish mumkin.

3) O‘zbek mumtoz bastakorlari asarlaridan biri:

“Ey sabo”, “Sarparda”, “O‘lmasun” va h.

2-semestr ijodiy dasturi namunasi:

1) Shashmaqom turkum asaridan:

“Savti kalon” yoki vodiy va vohaga oid musiqiy asarlar, masalan, Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llaridan – “Bayot I-V”, shuningdek, Xorazm olti yarim maqomlaridan barcha maqomlarning Naqsh, Suvoriy va Uforisi bo‘lishi mumkin.

2) Xalq ashulalaridan:

“Girya I” va boshqalardan birini ijro etish. Katta ashula, Xorazm suvoriysi yoki savti suvoriylardan birini ijro etish mumkin.

3) O‘zbek mumtoz bastakorlari asarlaridan biri:

“Nazzora qil”, “Qoshi yosinmu deyin” (ixtiyoriy) va h.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi.Shaxrisabz.2018-yil 6-sentyabr,Xalq so‘zi.7-senyabr 2018-yil.

2. Shu manba.

3. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qaror. Xalq so‘zi.18-noyabr 2017-yil.

4. Matyoqubov O. Maqomot. T.Musiqa. 2004. 18-b.

5. Rajabov, I. Maqomlar.T. San’at. 2006. 41-b.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ф.Абдуллаев
и.ф.д., профессор в.б., Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат сиёсати ва бошқаруви академияси Урганч ҳудудий филиали

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

БАРҚАРОР ТАРАҚҚИЁТ ВА “ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ”ГА ЎТИШНИНГ СИНГАПУР ТАЖРИБАСИ

Аннотация. Мақолада барқарор тараққиёт ва “Яшил иқтисодиёт”га ўтишнинг Сингапур тажрибаси тадқиқ этилган. Бунда асосий эътибор “Яшил иқтисодиёт”га ўтишнинг ҳорижий тажрибалари таҳлили ва уларни Ўзбекистонда жорий этиш имкониятларига қаратилган.

Калит сўзлар: барқарорлик, барқарор тараққиёт, “яшил иқтисодиёт”, CO2 газлари, атроф-муҳит, “яшил бино”.

СИНГАПУРСКИЙ ОПЫТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ И ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ”

Аннотация. В статье исследуется опыт Сингапура в области устойчивого развития и перехода к «зелёной экономике». Основное внимание уделено анализу зарубежного опыта перехода к «зелёной экономике» и возможностям его внедрения в Узбекистане.

Ключевые слова: устойчивость, устойчивое развитие, «зеленая экономика», CO2, окружающая среда, «зеленое здание».

SINGAPORE EXPERIENCE OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT AND TRANSITION TO A “GREEN ECONOMY”

Abstract. This article examines Singapore's experience in sustainable development and the transition to a green economy. It focuses on analyzing international experience in transitioning to a green economy and the potential for its implementation in Uzbekistan.

Keywords: sustainability, sustainable development, green economy, CO2, environment, green building.

Кириш (Introduction)

Бугунги кунда дунёда юз бераётган нобарқарор, таҳликали замонда “барқарор тараққиёт” атамаси нуфузли ҳалқаро ташкилотлар ва кўплаб давлат раҳбарлари томонидан жорий минг йилликнинг устувор мақсади сифатида тинимсиз эътироф этилмоқда. Мақолада мазкур тушунчага кенгроқ тўхталиб ўтамиз. Бунинг учун аввало барқарорлик ўзи нимани англатишини тушунишимиз муҳим. Манбаларга кўра, барқарорлик бу инсониятнинг Ерда

имкон қадар узоқ вақт давомида бирга яшашини кўзлаган ижтимоий мақсадидир. [7] Барқарорлик одатда учта ўлчовга (ёки устунларга) эга: экологик, иқтисодий ва ижтимоий. [2] Кўпгина таърифлар экологик ўлчовга урғу беради. [3] Бу асосий экологик муаммоларни, жумладан, иқлим ўзгариши ва биологик хилма-хилликни йўқотишни ўз ичига олиши мумкин. Барқарорлик ғояси глобал, миллий, ташкилот ва индивидуал даражаларда қарор қабул қилишда бош мезон сифатида илгари сурилиши мумкин.

ЮНЕСКОнинг таърифига кўра: "Барқарорлик - бу узоқ даврдаги барқарор дунёни англатса, барқарор тараққиёт эса ушбу барқарорликка эришишнинг кўплаб жараёнлари ва йўлларини назарда тутади. [4]

Барқарор тараққиёт - бу келажак авлодларнинг ўз эҳтиёжларини қондириш қобилиятига путур етказмаган холда, ҳозирги кун эҳтиёжларини қондиришга қаратилган инсон тараққиёти учун имкониятлардан тўлиқ фойдаланишдир. [5] Мақсад – сайёрамиз яхлитлигини бузмасдан, яшаш шароитлари ва ресурслари инсон эҳтиёжларини қондирадиган жамиятга эга бўлишдир. Барқарор тараққиёт иқтисодиёт, атроф-муҳит ва ижтимоий фаровонлик эҳтиёжларини мувозанатлаштиришга қаратилган. 1987 йилдаги Брундтленд ҳисоботи барқарор ривожланиш концепциясини янада оммалаштиришга ёрдам берди. [8]

Юқоридаги фикрларга асосан, биз эртанги кунимизни яхшироқ бўлишини истасак, келажак авлодларнинг эҳтиёжларини қондириш имкониятларини йўқотмасдан, ўзимизнинг эҳтиёжларимизни қондириш учун бугун қандай яшашимиз керак деган савол, иқтисодий ривожланганлик даражасидан қатъий назар ҳар бир давлат олдидаги энг муҳим масалага айланмоғи лозим. Жамиятларимиз ва умумий сайёрамизнинг омон қолиши биз яшаётган дунёнинг барқарорлик даражасига боғлиқ.

Бунда мувазанатни сақлаш ва уни қўллаб-қувватлаш муҳим аҳамият касб этади. Бир вақтнинг ўзида уч хил устунни ўзаро уйғунлик ва мувозанатда сақлаш керак: иқтисодий ўсиш, ижтимоий инклюзия ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш. Агар улар орасида мувозанат бузилса, барқарорлик ўз моҳиятини йўқотади. Иқтисодиёт, масалан, тез суръатлар билан ўсиши мумкин – аммо бу кўпчилик одамлар камбағал бўлиб қолиши ва барча табиий ресурслар тугашига олиб келиши мумкин.

Тараққиёт барқарор бўлган жойда ҳар бир инсон муносиб меҳнат, сифатли тиббий хизмат ва таълим олиш имкониятига эга бўлади. Бундай иқтисодиётда табиий ресурслардан фойдаланиш атроф-муҳитнинг ифлосланиши ва ундаги доимий йўқотишларнинг олдини олишни таъминлайди. Танланадиган давлат сиёсати ҳеч бир инсоннинг камчиликлари ёки дискриминация туфайли эътиборсиз қолмаслигини таъминлайди.

Давлат ва жамият тўғри қарор қабул қилиши ва оқилона танловни амалга ошириши лозим. Барқарор ривожланиш нима учун реал дунё нуқтаи назаридан жуда муҳимлигини тушунишимиз учун, шунчаки атрофга назар ташласак кифоя. Ўртача олганда, дунёда одамлар юқори даромад билан узоқ умр кўришади. Аммо тараққиётимизнинг асосий қисми барқарорлик принципига асосланмасдан юз берди. Бу бизни иқлим ўзгаришига олиб келди. Атроф-муҳитнинг бузилиши.Табиий офатлар. Можаро. Қашшоқлик ва очлик. Катта тенгсизлик ва ижтимоий беқарорлик.

Илмий хулосаларга, кўра нобарқарор ривожланиш, одамлар бошқа одамларга ёки сайёрага зарар етиши ҳақида ўйламасдан дарҳол мукофот олишга интилишлари сабабли юз беради. Кўпинча, қисқа муддатли даромадлар узоқ муддатли харажатлар билан қопланади. Агар кимдир тез даромад олиш учун бутун ўрмонни кесиб ташласа, айни шундай ҳолат юз беради: экотизим қулаб тушса ҳам, йўқолиб кетиш хавфи остидаги турлар нобуд бўлса ҳам ва маҳаллий жамоалар доимо вайрон қилувчи ёнғин ва сув тошқинлари хавфи остида қолса ҳам. [9]

Асосий қисм (Main body)

2015 йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилотига аъзо давлатлар барқарор ривожланиш бўйича ўзларининг қарашларини унга эришиш режасига айлантирдилар: “Барқарор ривожланиш 2030” кун тартиби ишлаб чиқилди. Унинг 17 та Барқарор ривожланиш мақсадлари - 2030 йилгача эришиш учун улкан мақсадлар - барқарор ривожланишнинг учта йўналишини қамраб олади: иқтисодиёт, ижтимоий ривожланиш ва атроф-муҳит. [10]

Бироқ, 2030 йилгача бўлган муддатнинг ярми, иқлим инқирози, заиф глобал иқтисодиёт, можаролар ва COVID-19 нинг давом этаётган таъсири Мақсадларни хавф остига қўйди.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг “Барқарор ривожланиш Мақсадларининг 2023 йил ҳисоботи: махсус сон”ига кўра, 2020 йилда ўта қашшоқликда яшовчи одамлар сони 724 миллионга етди ва энди гендер тенглигига тахминан 300 йилдан кейин эришилади. Иқлим ўзгариши бўйича ҳукуматлараро экспертлар гуруҳи, агар барча соҳаларда янада мустаҳкамроқ сиёсат олиб борилмаса, дунё 2035 йилга келиб 1,5 ° С ҳароратнинг энг юқори нуқтасидан ўтиб кетиши мумкинлиги ҳақида огоҳлантирмоқда. [11]

Сингапур давлатининг миллий ғояси қонун устуворлиги, коррупциядан холи бўлиш, меритократия тамойилига асосланиш, миллатлараро тотувликни қўллаб-қувватлаш, келажак авлод учун олдиндан қайғуриш каби қадриятлардан ташкил топиб, миллатни умумий ривожланиш стратегияси атрофида бирлаштиришда муҳим рол ўйнайди. 50 йилдан ошиқ ривожланиш йўлидан кейин “барқарор тараққиёт” Сингапурнинг устувор мақсадига айланди. Бунда иқлим ўзгариши денгиз сатҳининг кўтарилиши ва аномал об-ҳавони юзага келтириб, қуйида жойлашган Сингапур оролининг ривожланишига асосий таҳдид сифатида қаралади. Шу сабабли ушбу давлат иқлим ўзгариши глобал миқёсда долзарб масалага айланишидан ўн йилликлар олдин бунга тайёргарлик бошлаган. Бугун Сингапур “боғ ичидаги шаҳар” бўлиб, дунёдаги энг яшил шаҳарлардан биридир. Катта қўриқхоналар учун ерлар ажратилди ва бунинг натижасида оролнинг учдан бир қисми дарахтлар билан қопланди. Иссиқ ва нам шаҳар муҳитида касалликлар тарқалишини олдини олиш учун жамиятда озодалик ва гигиенага асосий эътибор қаратилиб, бунга эришиш учун қатъий чоралар қўлланилди. Сингапур дунёда шахсий транспорт воситаларининг оммалашувини музлатишга эришган ягона давлатдир. Шунингдек, мамлакат сувни охирги томчисигача қайта ишлайдиган ўзининг ёпиқ дренаж тизимига эга. Мамлакат ҳудудининг учдан икки қисми ёмғир ва фойдаланилган оқава сувларни тўплашга мослаштирилган. Бунда сув махсус резервуарларга йиғилиб, сувни қайта ишлаш заводларида тоза ичимлик сувига айлантирилади ва яна истеъмолга жўнатилади. Ортиқча сув ресурслари резервуарларда сақланади. Сув тақчиллиги юз берганда денгиз суви ҳам тузсизлантирилиб истеъмолга йўналтирилади. Мамлакат кўмирга асосланган иссиқлик электр станциялардан кўп йиллар олдин воз кечган. Қазилма ёқилғидан фойдаланиш давлат томонидан субсидияланмайди, балки аксинча, углеродни эмиссия қилувчи корхоналарга катта солиқлар солинади. Бу чора тадбирларнинг барчаси барқарор, янада яхшироқ ва яшилроқ келажак учун амалга оширилмоқда. Шунингдек, ушбу чора-тадбирлар Сингапурнинг БМТнинг “Барқарор ривожланиш 2030 кун тартиби”даги 17 та “Барқарор ривожланиш мақсадлари” доирасида ўз зиммасига олган мажбуриятларини бажаришга қаратилган саъй-ҳаракатларини мустаҳкамлайди. Қўйилган мажбуриятларни бажариш учун мамлакатда “Сингапур яшил режаси 2030” ишлаб чиқилган. Мазкур “Яшил режа” 10 йилга мўлжалланган умуммиллий барқарор ривожланиш режаси ҳисобланади. Кичик шаҳар-давлат сифатида Сингапур йирикроқ давлатларга нисбатан бошқача вазиятдадир. Ҳукумат бор йўғи 728 км^2 умумий майдонга мудофаа, саноат, аҳоли истиқомат масканлари ва инфратузилма объектларини биргаликда жойлашни уддалаган. Йирик давлатлар каби қайта тикланувчи энергия манбаларини жойлаштириш учун зарур ҳажмда ер ресурсларига эга эмаслиги Сингапур учун заҳарли ҳаво газлари эмиссиясини нолга етказиш борасидаги ҳаракатларини анча қийинлаштирган. Ер

ресурсларининг чекланганлиги мамлакат учун катта тўсиқ бўлган бўлса-да, давлат ушбу тўсиқни стратегик имкониятга айлантириш учун барқарор тараққиётни таъминлаш соҳасида технологик ва сиёсий ечимларни излаб топишда дунёда биринчиларга айланди. Бунда бутун мамлакат тирик лабораторияга айланган, барча соҳаларда қўлланилаётган яшил технологияларнинг заҳарли газлар эмиссиясини камайтириш борасидаги самараси онлайн режимда мониторинг қилиб борилади. [12]

"Яшил режа"га кўра 2030 йилга бориб:

- Сингапур Табиат ичидаги яшил ва чиройли шаҳарга айланади;
- қўшимча 200 га ер табиий парклар тассарруфига ўтказилади;
- ҳар бир оила табиий парклардан 10 дақиқалик яёв юриш масофаси доирасида яшайди;
- қўшимча 1 млн. туп дарахт экилади ва улар йилига қўшимча 78 000 тонна CO_2 газларининг ҳаводаги ҳаракатини чеклайди. Аҳоли янада соф ҳаво ва янада салқинроқ соядан баҳраманд бўлади;
- яшил маконни кенгайтириш орқали инсон ва био хилма-хил ёввойи табиат янада уйғунлашади, улар тотувликда яшашлари учун жамоатчилик ва нодавлат ташкилотлари билан маҳсус дастурлар асосида ишлар олиб борилади;
- 2030 йилга бориб чиқинди ташлаш ҳажмини 30 фоизга қисқартириш режалаштирилган. Айланма иқтисодиётни тўлиқ ишга тушириш асосида ҳар қандай чиқиндилардан мутлақо холи бўлган янги "чиқиндисиз жамият" барпо бўлади ва жамиятнинг ресурслари чексиз маротаба қайта ишланади. Қайта ишлашдан қолган чиқинди ёқилади ва ҳосил бўлган кул-қолдиқлари бетон ётқизишда қурилиш материали сифатида ишлатилади;
- метро ва темир йўл тизими қўшимча 360 кмга узайиши ҳисобига бутун оролни қамраб олади. Бу эса ўз навбатида, экологик тоза жамоат транспортининг хусусий транспортга нисбатан жозибадорлигини янада оширади;
- Тенга сингари янги яшил шаҳар концепцияси яратилиб, мазкур типдаги шаҳарлар, ер ости йўлларини қуриш ҳисобига мутлақо автомобиллардан холи зоналарга айланади. Бу ўз навбатида ернинг юза қисмида жамоат транспорти, фуқароларнинг эркин ҳаракати ва яшил зоналар учун бўш жойлар ҳажмини кўпайтириш имконини беради. Шунингдек, мазкур концепция доирасида, аҳолини яёв ва велосипедда фаол ҳаракатланиши рағбатлантирилади. Шаҳар эҳтиёжи учун қуёш панелларидан энергия олиш режалаштирилган. Бундан ташқари, ҳар бир хонадонда буни бошқариш учун "ақлли" панеллар ўрнатилади. LED лампалари ва қуёш энергиясини кенг қўллаш орқали бундай шаҳарлар хорижга нисбатан энергия сарфини қўшимча 15%га камайтиришга эришади. Кенглиги 100 метр ва узунлиги 5 километр бўлган дарахтлар коридори туфайли шаҳар "яшил" бўлади;
- 2030 йилгача жами биноларнинг 80%и яшиллаштирилади ва Журонг Лейк (Jurong Lake) сингари экологик тоза муҳитга эга яшил туманлар яратилади;
- 2030 йилга велосипед йўлаклари тармоғининг умумий узунлиги 1320 кмга етказилади;
- мавжуд йўллар қайта кўриб чиқилиб, улардаги пиёдалар йўлакчалари имкон қадар кўпайтирилади;
- бугун жами мамлакат ичидаги саёҳатларнинг 64%и жамоат транспортида, яъни автобус ва темир йўл (метро) орқали амалга оширилмоқда. 2030 йилгача ушбу кўрсаткич 75%га етказилади;
- фуқароларда табиатга дўстона муносабатда бўлиш қадриятини чуқур сингдириш мақсадида мактабларда экологик бошқарув (ғамхўрлик) дастурлари жорий этилади. Мазкур дастурлар мактаб ўқувчиларида ёшлигидан ўз атрофида табиат муҳитини яратиш, яшил экинларни кўпайтириш, чиқиндиларни табиий чириндига айлантириш каби турли тадбирларни қамраб олади. Дастурнинг асосий мақсади мактаблар ҳудудида CO_2 газлари эмиссиясини

кескин камайтиришга қаратилган. Танланган мактаблар 2030 йилга бориб CO_2 газлари эмиссиясидан мутлақо ҳоли бўлади ва эришилган тажриба бошқа таълим муассаларига ҳам жорий қилинади. Мактабларда ўқув дастурларининг муҳим қисми бўлган Барқарорлик концепциясини илгари сурувчи "Қадриятлар амалда" (Values-in-action) таълими жорий этилади. Бу орқали ҳар бир мактаб ўқувчиси барқарорлик нима эканлигини чуқур англаши, у билан яшаши ва унга амал қилишига эришилади;

- Журонг Лейк (Jurong Lake) туманида ҳаётга барқарорликни жорий қилиш бўйича маърузаларни тақдим этувчи илм маркази ташкил қилинади. Бунда ўқувчиларга ўзларининг CO_2 газлари эмиссиясини қандай камайтириш, бу борада муҳим қарорлар қабул қилиш ва ўзларининг оила аъзолари ҳамда дўстларига нисбатан тўлқин самарасини яратишларига ўргатилади.

- географик майдоннинг кичиклиги ва ГЭСлар учун зарур бўлган катта дарёларнинг мавжуд эмаслиги мамлакатни қайта тикланувчи энергия манбаларидан кенг фойдаланиш имкониятларини чеклайди. Шунга қарамай, барча эътибор экологик тоза ва энергия тежамкор манбалардан фойдаланишга қаратилмоқда. Бунда кўмир ёқилғисидан мутлақо воз кечилиб, нисбатан тоза табиий газдан фойдаланишга ўтилди. Биноларнинг томлари, соҳил бўйлари ва сув юзасида ҳам қуёш энергияси манбаларини кенг жойлаштириш орқали 2025 йилда унинг ҳажмини 2021 йилга нисбатан 4 баробарга ошириш режалаштирилган. Сувни тадқиқ этиш орқали келажакда денгиз сувини тузсизлантириш учун зарур бўлган энергия ресурслари сарфини икки баробарга қисқартириш имкониятлари излаб топилади. Чиқиндиларни қайта ишловчи корхоналар ўзлари истеъмол қиладиган энергияга нисбатан кўпроқ энергия ишлаб чиқаришга ўтадилар;

- мамлакатда аллақачон дунёдаги энг йирик биодизел ишлаб чиқарувчи завод фаолият кўрсатмоқда ва у янада кенгайтирилмоқда;

- авиация ва денгиз қатновида йирик Хаб сифатида Сингапур иккита халқаро мақсадга эришишни кўзлаган: 1. Авиацияда: 2050 йилгача ёқилғи сарфи самарадорлигини йилига 2%га ошириш ва углероддан холи ўсишни таъминлаш. 2. Денгиз транспортида: ҳалқаро ташувларда иссиқхона газлари эмиссиясини 2050 йилга бориб 2008 йилга нисбатан икки баробарга қисқартириш;

- 2040 йилгача ички ёнув двигателли автомобиллардан босқичма-босқич воз кечиш ва барча транспорт воситаларини тоза энергия манбаларига тўлиқ ўтиши белгиланган. Бунга эришиш учун 2030 йилдан бошлаб, барча янги рўйхатдан ўтувчи автомобиллар тоза энергия манбаларига асосланган моделлар бўлиши талаб этилади. Электромобилларни зарядлаш шаҳобчалари сони 2021 йилдаги 28 000дан 2030 йилда 60 000га етказилади ва буни амалга ошириш учун ҳусусий сектор ҳар томонлама қўллаб-қувватланади. Электромобиллар харидини енгиллаштириш учун автомобилларни солиққа тортиш тизими қайта кўриб чиқилади;

- тўртинчи устун: яшил иқтисодиёт. Жамият онгли равишда экологик тоза ва барқарор маҳсулот ва хизматларни афзал кўра бошлаши билан бу мамлакатнинг асосий рақабатдошлик устунлигига айланади ҳамда иқтисодий ўсиш ва янги иш ўринларини яратишда янги имкониятларни тақдим этади. Шу сабабдан мамлакат энергия тежовчи ва экологик тоза инвестициялар соҳасида изланишлар олиб боришни устувор масалага айлантирган. Мамлакат 2019 йилдан кенг қамровли углерод солиғини жорий этган. Тўпланган солиқ маблағлари корхоналарнинг углерод эмиссиясини камайтиришга қаратилган фойдали лойиҳаларга сарфланмоқда. Давлат углерод эмиссиясини камайтириш учун кичик ва ўрта бизнес корхоналарини қўллаб-қувватлашга қаратилган "Барқарор корхона" янги дастурини ишлаб чиқади. Сингапур ресурсларни "Яшил молия"га йўналтириш орқали бу борада Осиёда глобал Хабга айланиши кутилмоқда. Бунда барқарор ривожланиш соҳасидаги ички тадбиркорликни

жадал қўллаб қувватлаш ва хорижий бизнеснинг бу борадаги тадқиқот ва ишланмаларини мамлакатга келишини кенг рағбатлантириш бўйича “Тадқиқот, инновация ва тадбиркорлик 2025 режаси” ишлаб чиқилган. Булар углерод эмиссиясини ушлаб қолувчи, уни қайта ишловчи ва сақловчи технолиялар, кам углеродли водород ҳамда энергия самарадорлигини ошириш ва айланма иқтисодиётни таъминлаш учун ечимларни ўз ичига олади. Джуронг ороли барқарор энергия ва кимё паркига трансформация қилиниши сабабли бундай ечимларни қабул қилиш моделига айланади.

- биноларнинг томлари ва фасад қисмлари ҳамда йўллар қуёш нурини қайтарувчи салқинлаштирувчи бўёқлар билан қопланади. [6]

Замонавий Сингапур давлатининг асосчиси жаноб Ли Куан Ю мустақилликка эришган 1965 йилда шундай деган эди: “Юз йилдан кўпроқ вақт олдин бу ерлар балчиқ ва ботқоқликлар эди. Бугун бу замонавий шаҳар. Ўн йилдан кейин бу метрополга айланади. Ҳеч қачон қўрқманг.” Узлуксиз тараққиёти натижасида балчиқдан метрополисга айланган Сингапур давлати яқин келажакда глобал барқарор шаҳарга айланишни режалаштирмоқда.

Ўзбекистон Республикаси ҳам дунё мамлакатлари сингари БМТнинг 2030 йилгача бўлган Барқарор тараққиёт Мақсадларини қўллаб-қувватлаган бўлиб, бугунги кунда мамлакатимизда шаҳарсозлик ва қурилиш нормаларининг бузилганлиги, экологиянинг ифлосланиши, сув танқислиги, камбағаллик ва даромадлар тенгсизлиги каби муаммолар барқарор яшил иқтисодиётни жорий этишга ундамоқда.

Барқарор яшил иқтисодиёт соҳасидаги Сингапур ва дунё тажрибаси Ўзбекистонда ҳам кенг қўлланилмоқда. Ҳусусан, “Ўзбекистон–2030” стратегиясини “Атроф-муҳитни асраш ва яшил иқтисодиёт” йилида амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисидаги Президент фармонида Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Иқлим ўзгариши тўғрисида ҳадли конвенциясининг Киото протоколи ва Париж битими доирасида мамлакатнинг глобал ҳамжамият олдида олган мажбуриятларини бажаришда тармоқ ва соҳаларнинг уйғун “яшил трансформация”сини амалга ошириш, уларнинг рақобатбардошлиги ва ресурс тежамкорлигини таъминлаш, иқлим ўзгаришига мослашиш ва унинг оқибатларини юмшатиш ҳамда аҳолининг яшаш сифатини яхшилаш ва иқтисодий ўсишнинг янги “яшил ривожланиш” моделига ўтиш мақсадида қатор чора тадбирлар белгиларган. Бунда мамлакат ривожланишининг устувор ёндашувлари этиб «Ўзбекистон — 2030» Стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «Яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид Давлат дастурида қуйидагилар белгиланган: [1]

- маҳаллаларнинг экологик қиёфасини яхшилаш, кўчаларда яшиллик даражасини ошириш, экологик жиҳатдан қулай ва фаровон яшаш муҳитини шакллантириш;
- аҳолининг саломатлигини яхшилаш, экологик турмуш тарзини шакллантириш ва инсон салоҳиятини рўёбга чиқариш учун шарт-шароитларни яратиш;
- табиий ресурсларни тежаш ва улардан оқилона фойдаланиш, экологик барқарорликни таъминлаш;
- ўсимлик ва ҳайвонот дунёсини асраш, кўпайтириш ва кейинги авлодга етказиш ҳамда биологик хилма-хилликни сақлаш;
- “яшил иқтисодиёт” тамойилларини кенг жорий қилиш, иқтисодиётни иқлим ўзгаришига мослаштиришга қаратилган лойиҳаларни барқарор молиялаштириш;
- республика энергобалансида қайта тикланувчи энергия улушини ошириш, шу жумладан, давлат-хусусий шериклик асосида йирик “яшил энергия” станцияларини барпо этиш, ҳудудларда кичик ва микро гидроэлектр станциялари тармоғини кенгайтириш, аҳоли хонадонларида қуёш панелларини ўрнатишни рағбатлантириш;
- иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада замонавий энерготежамкор технологияларни кенг қўллаш орқали иқтисодиётда “углерод изи”ни камайтириш;

- экологик барқарорликка йўналтирилган ҳудудлар ва тармоқлараро мувофиқлаштирувни таъминлаш.

2025 йилда “яшил иқтисодиёт” тамойилларини кенг жорий қилиш, иқтисодиётни декарбонизация қилиш, иқлим ўзгариши оқибатларини юмшатиш ва унга мослашишга қаратилган лойиҳаларни барқарор молиялаштириш борасида қуйидагилар белгиланди:

- ❖ Париж битимининг талабларидан келиб чиқиб, Ўзбекистоннинг углерод нейтраллигига эришишининг узоқ муддатли стратегияси ишлаб чиқиш;
- ❖ иқлим ўзгаришига мослашиш, “яшил технология”лар трансфертини инобатга олган ҳолда глобал миқёсда мамлакатимизнинг келгуси 5 йилда иссиқхона газларини қисқартириш бўйича Миллий миқёсда белгиланган ҳиссаси (NDC) эълон қилиш;
- ❖ метан эмиссиясини қисқартириш мажбурияти доирасида табиий газ, чиқиндилар ва чорвачилик соҳаларида метан эмиссиясининг базавий ҳолати аниқлаш;
- ❖ умумий қуввати 4,5 ГВт бўлган йирик қуёш ва шамол электр станциясини ишга тушириш, қуввати 785 мегаватт бўлган қуёш панелларини ўрнатиш, қуввати 225 мегаватт бўлган гидроэлектр станцияларини барпо этиш орқали жами қайта тикланувчи энергия манбалари улуши электр энергияси ишлаб чиқаришда 26 фоизга етказиш;
- ❖ янги қуриладиган бино-иншоотлар ва уй-жойлар энергия самарадорлигидан келиб чиқиб, “Яшил бино” сертификати жорий этилиши белгиланган.

“Тежамкорлик ва барқарорлик” тамойили асосида давлат иштирокидаги йирик корхоналарни трансформация қилиш ва ишлаб чиқариш харажатларини 15-20 фоизгача қисқартириш мақсадида 2025 йил якунига қадар:

- ✓ йирик стратегик корхоналар томонидан экологик, ижтимоий ва корпоратив бошқарув (ESG) тамойиллари асосида корпоратив дастурлар ишлаб чиқилиб, камида 5 та йирик саноат корхонасида ESG миллий ҳисоботи йўлга қўйилиши ва жамоатчиликка ошкор этиш амалиёти жорий этиш;
- ✓ “Ўзбекнефтгаз” АЖ, “Навоий кон-металлургия комбинати” АЖ, “Олмалиқ кон-металлургия комбинати” АЖ, “Uzbekistan Airports” АЖ, “Uzbekistan Airways” АЖ томонидан ESG рейтинги олиш;
- ✓ Самарқанд ва Фарғона вилоятларида тажриба-синов тариқасида экологик тоза маҳсулотларни ишлаб чиқаришга ихтисослашган саноат зоналари ташкил этиш.

2025 йилда маҳаллаларнинг экологик қиёфасини яхшилаш, кўчаларда яшиллик даражасини ошириш, экологик жиҳатдан қулай ва фаровон яшаш муҳитини шакллантириш борасида:

- ✓ аҳоли учун барпо этилаётган пиёдалар ва алоҳида велосипед йўлаклари бўйида дарахтлар ва ўсимликларни экиш орқали “Сояли сайр кўчалари” тармоғи яратилиши, соҳил ва дарё бўйларида 80 та инфратузилма объекти ва 110 километрдан ортиқ соғломлаштириш йўлаклари қуриш;
- ✓ ёмғир ва оқова сувлардан самарали фойдаланиш, маҳаллалардаги дарахтларни замонавий сув тежовчи технологиялар орқали суғориш тизимини жорий этиш натижасида яшиллик даражаси ошириш;
- ✓ “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси ва “Менинг боғим” лойиҳаси доирасида 200 миллион туп дарахт ҳамда буталар экилиши, “яшил боғлар” ва “яшил жамоат парклари”да қуёш панеллари ёрдамида қувватланувчи ёритгичлардан фойдаланиш;
- ✓ Орол денгизи тубида 100 минг гектар “яшил майдон” барпо этилиши ва Оролбўйи минтақасидаги ўрмонзорлар 2,1 миллион гектарга етказиш;
- ✓ ўрмон билан қопланган майдонлар 4,1 миллион гектарга етказилиши ва муҳофаза қилинадиган табиий ҳудудлар 14,5 фоизгача кенгайтирилиши ҳамда уларнинг экотуризм,

кўчатчилик ва дориворчилик йўналишларидаги фойдаланилмаётган захиралари аниқланиб, уларнинг имкониятларидан тўлиқ фойдаланилиши ва аҳолининг даромадларини ошириш;

- ✓ Қорақалпоғистон Республикаси, Бухоро, Жиззах ва Қашқадарё вилоятларининг танланган ҳудудларида шўр ва сувсизликка чидамли ўсимликлар (галофит) боғлари ташкил этиш;
- ✓ Қорақалпоғистон Республикаси, Бухоро, Сурхондарё, Жиззах, Фарғона ва Тошкент вилоятларида давлат "ин-витро" лабораториялари ташкил этилиши, шунингдек, хусусий "ин-витро" лабораторияларини барпо этишга тадбиркорлик субъектларига кредитларни ажратиш учун халқаро молия институтларидан камида 30 миллион АҚШ доллари миқдорида маблағлар жалб этиш вазифалари 2025 йилдаги «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йили Давлат дастуридан ўрин эгаллади.

Хулоса (Conclusion)

Таҳлилардан кўриниб туриптики, Сингапур бир томондан экологик тоза ва энергия тежовчи воситаларни жамиятнинг барча соҳаларида қўллаш устида тинимсиз изланиш олиб борса, иккинчи томондан бунга жамият аъзоларини, яъни аҳолини ҳам ёшлигидан тайёрлаб келмоқда. Мамлакатдаги ҳар бир корхона ва ҳар бир фуқаро ўз атрофини заҳарли газлар чиқиндисидан холи ва экологик тоза энергияни қўлловчи ҳудудга айлантириши "Яшил тараққиёт 2030" дастурининг устувор масаласига айланган. Бунда, корхоналар ўзи истеъмол қиладиган энергия ҳажмига нисбатан кўпроқ энергия ишлаб чиқаришлари, таълим ва аҳоли масканлари CO_2 эмиссияни нейтраллаштирувчи яшил маконни яратишлари ва чиқиндиларни фойдали утилизацияга айлантиришларига алоҳида эътибор қаратилади.

Амалга оширадиган ислохотларни муддатини узоққа кўчириш ва буни жамоатчиликка дастур-режа (Green plan 2030) шаклида етказиш орқали Сингапур давлати шиддатли ислоҳотларни қўллаб, аҳолини шок холатга тушишини олдини олади ва жамиятни ушбу ислоҳотларга тайёргарлик кўришига имкон беради. Ҳусусан "Сингапур яшил режа 2030" дастури нафақат 2030, балки 2040 ва 2050 йиллар учун ҳам мақсадларни қамраб олган. Афсуски, Ўзбекистонда аксарият ислоҳотларнинг тез ва қисқа муддатларда юз бериши ва аҳолининг бунга адаптация жараёнлари етарлича ҳисобга олинмаганлиги жамиятда кўплаб иқтисодий ва маънавий йўқотишларга олиб келмоқда. Амалга оширилаётган ислоҳотларни баҳолаш ва мониторинг қилишнинг рақамлаштирилган тизими яхши йўлга қўйилганлиги ва унинг шаффофлиги Сингапур давлат тузилмаларининг қарор қабул қилишдаги масъулияти ва жавобгарлиги оширишга, ислоҳотлар самарадорилигини оширишда режаларга ўз вақтида зарур ўзгартиришларни киритиб боришга катта ёрдам беради. Албатта, Ўзбекистонда ҳам амалга оширилаётга ислоҳотларни баҳолаш механизм ва кўрсаткичлари мавжуд, лекин бунинг рақамлашуви, тизимлигиги, қамрови, интеграциялашуви ва шаффофлиги намунали даражага етмаган.

2030 йилга бориб, Сингапур давлатида саноат корхоналари, ҳусусий уй-жойлар, тижорат бинолари ва транспорт соҳасида олиб борилаётган сайи-ҳаракатлар энергия истеъмолини йилиги 8 млн. мегаваттга камайтириш имконини беради. Бу эса 2030 йилда уй хўжаликлари томонидан деярли йиллик истеъмол қилинадиган энергия ҳамжига тенгдир. Бу ўз навбатида мамлакатдаги захарли газлар эмиссиясини йилига 3 млн. тоннага камайтиради.

Таклифлар (Suggestions)

Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда шаҳарсозлик нормалари қўпол бузилиб, табиий яшил зоналар учун ажратилган ер майдонлари уй-жой ва тадбиркорлик мақсадларига йўналтирилди. Натижада ҳудудларда тирбандлик ошиб, ҳавонинг кескин ифлосланиши юз берди. Ушбу жараённинг салбий оқибатларини бартараф этиш мақсадида кейинги йилларда

ноўрин ажратилган ер майдонлари эгаларига “Янги Тошкент шаҳри" каби янгидан қурилаётган ҳудудлардаги бўш майдонлардан ер ажратиб бериш ҳисобига республикамиз шаҳарларидаги хусусий эгалланган мазкур ерларни қайтадан давлат заҳирасига ўтказиш ва ушбу майдонларни кейинчалик яшил зоналарга айлатириш лозим.

Янги барпо этиладиган шаҳар комплекларини нафақат кўкаламзорлаштириш балки уларда ёпиқ дренаж тизимини яратиш орқали фойдаланилган сувлар ҳамда қор-ёмғир сувларини тўплаш ва қайта ишлаш тизими жорий этиш. Шунингдек, мазкур шаҳар комплексларида ҳусусий автомобиллар ҳаракатини ер остига кўчириш орқали, шаҳарда жамоат транспорти, велосипед ва пиёдалар ҳаракати учун кенг имкониятлар яратиш.

Жамиятни барқарор экологик тоза турмуш тарзига ўтказиш учун барча босқичлардаги мактаб ўқувчилари учун атроф муҳитга дўстона муносабатни шакллантирувчи ўқув дастурларини жорий этиш. Бунда мактабларнинг яшил зоналари ва яшил лабораторияларини кенгайтириш, уларга бу борада зарур материалларни тақдим этувчи махсус илмий марказларни ташкил этиш лозим.

Ислоҳотларни жорий қилишда аҳолининг уларга нисбатан адаптацияниси енгиллаштириш мақсадида, мазкур янгилик ва ўзгаришларни амалга ошиш муддатларини фуқароларга барвақт эълон қилиш ва унинг оқибатларини юмшатишга қаратилган чора тадбирларни қўллаш лозим.

Давлат асосий кредит ва бошқа маблағлар бўйича имтиёзларни “Яшил молия”га йўналтириш орқали бу борада Марказий Осиёда йирик Хабга айланиши лозим. Бунда барқарор ривожланиш соҳасидаги ички тадбиркорликни жадал қўллаб қувватлаш ва ҳорижий бизнеснинг бу борадаги тадқиқот ва ишланмаларини мамлакатга келишини кенг рағбатлантириш лозим. Бунда асосий эътибор углерод эмиссиясини ушлаб қолувчи, уни қайта ишловчи ва сақловчи технолияларни яратиш, кам углеродли водород ҳамда энергия самарадорлигини ошириш ва айланма иқтисодиётни таъминлаш учун ечимларни топишга қаратилиши лозим.

Шаҳар ҳудудларидаги биноларнинг томлари ва фасадларини қуёш нурини қайтарувчи ва салқинлаштирувчи бўёқлар билан қоплаш, йўлларни қора асфальт билан эмас балки очиқ рангдаги бетон қопламалари билан қоплаш орқали ёзнинг чилласида шаҳарлар ва улардаги биноларнинг иқлимини мўтадиллаштиришга эришиш лозим.

Адабиётлар рўйхати (List of references)

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 30.01.2025 йилдаги “”Ўзбекистон — 2030” Стратегиясини «Атроф-муҳитни асраш ва «яшил иқтисодиёт» йилида амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-16-сон Фармони.

2. Purvis, Ben; Mao, Yong; Robinson, Darren (2019). "Three pillars of sustainability: in search of conceptual origins". Sustainability Science. 14 (3): 681–695.

3. Kotzé, Louis J.; Kim, Rakhyun E.; Burdon, Peter; du Toit, Louise; Glass, Lisa-Maria; Kashwan, Prakash; Liverman, Diana; Montesano, Francesco S.; Rantala, Salla (2022). "Planetary Integrity". In Sénit, Carole-Anne; Biermann, Frank; Hickmann, Thomas (eds.). The Political Impact of the Sustainable Development Goals: Transforming Governance Through Global Goals?. Cambridge: Cambridge University Press. pp. 140–171.

4. "Sustainable Development". UNESCO. 3 August 2015. Retrieved 20 January 2022.

5. United Nations General Assembly (20 March 1987). "Report of the World Commission on Environment and Development: Our Common Future; Transmitted to the General Assembly as an Annex to document A/42/427 – Development and International Co-operation: Environment; Our Common Future, Chapter 2: Towards Sustainable Development; Paragraph 1". United Nations General Assembly. Retrieved 1 March 2010.

6. JTC to test reflective paint in 2 industrial estates, in bid to bring down city heat. The newspaper The Straits Times. Pages 2,3. Section: THE BIG STORY. 1 April 2024. https://www3.ntu.edu.sg/CorpComms2/Documents/2024/04_Apr/ST_ 240401_coolpaint.pdf

7. https://en.wikipedia.org/wiki/Sustainable_development

8. https://en.wikipedia.org/wiki/Our_Common_Future

9. https://www.un.org/sustainabledevelopment/blog/2023/08/what-is-sustainable-development/

10. https://www.un.org/sustainabledevelopment/development-agenda/

11. United Nations “The Sustainable Development Goals Report: Special edition 2023”. ISBN: 978-92-1-101460-0. 80- pages.

12. https://www.youtube.com/watch?v=oNFeOl7pW9s

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mamirov Mansur Mamirovich
Associate Professor, Uzbek State Institute of Arts and Culture,
Department of National Singing

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

O‘ZBEK AN’ANAVIY XONANDALIK IJODIYOTI TARIXI

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston hududida shakllangan an’anaviy xonandalik san’atining tarixiy ildizlari, janr xususiyatlari, ustoz-shogird an’anasi va uning zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Xonandalik ijodiyoti orqali xalqning ma’naviy merosi, badiiy didi va ijtimoiy-estetik qadriyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: an’anaviy xonandalik, maqom, og‘zaki ijod, ustoz-shogird an’anasi, musiqa madaniyati, folklor.

ИСТОРИЯ ТРАДИЦИОННОГО ПЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье научно анализируются исторические корни, жанровые особенности, традиция мастерства и ученичества, а также современные тенденции развития традиционного певческого искусства, сформировавшегося в Узбекистане. Через пение раскрываются духовное наследие, художественный вкус и социально-эстетические ценности народа.

Ключевые слова: традиционное пение, маком, устное творчество, традиция мастерства и ученичества, музыкальная культура, фольклор.

HISTORY OF UZBEKISTAN TRADITIONAL SINGING

Annotation This article scientifically analyzes the historical roots, genre characteristics, master-student tradition and its modern development trends of traditional singing art formed in Uzbekistan. Through singing, the spiritual heritage, artistic taste and socio-aesthetic values of the people are highlighted.

Keywords: traditional singing, maqom, oral art, master-student tradition, musical culture, folklore.

Kirish (Introduction)

O‘zbekistonning an’anaviy musiqa madaniyati, xususan, xonandalik san’ati, ko‘p ming yillik tarixga, boy ma’naviy merosga va mustahkam og‘zaki an’anaga ega bo‘lgan noyob hodisadir. Xonandalik qadimdan xalq og‘zaki ijodining eng ommaviy, eng davomli va eng bardavom shakllaridan biri bo‘lib, u nafaqat musiqiy-estetik qadriyatlar, balki xalqning tarixiy xotirasi, dunyoqarashi, hissiyotlari va hayot falsafasini mujassamlashtirgan san’at turidir. Arxeologik manbalar Sug‘diyona,

Baqtriya, Xorazm va qadimgi Turon hududlarida musiqa va qo‘shiqchilikning ilk shakllari miloddan avvalgi asrlardayoq mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi. Qadimgi devoriy rasmlar, tangalar, haykallar va yozma manbalarda kuylovchi san’atkorlar tasvirining uchrashi musiqa ijrochiligiga bo‘lgan yuksak e’tiborning qadimiy ildizlarga egaligidan dalolat beradi.

Xalq og‘zaki ijodi negizida shakllangan qo‘shiqlar dastlab marosimiy, sehrgarlik, tabiatga sig‘inish kabi qadimiy tasavvurlarga bog‘liq bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik jamiyat taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar va madaniy ehtiyojlar ta’sirida murakkab badiiy shakllarga ega bo‘lgan kasbiy xonandalik san’atiga aylandi. O‘rta Osiyoda islomgacha bo‘lgan davr, yurt hududida islom dinining tarqalishi, Somoniylar, Temuriylar va keyingi davrlardagi siyosiy-madaniy hayot an’anaviy musiqaning takomillashuvi uchun mustahkam poydevor yaratdi.

Temuriylar davrida saroy madaniyatining yuksalishi, musiqa ilmi bilan shug‘ullangan olimlar, bastakorlar va xonandalar faoliyatining kengayishi o‘zbek-tojik mumtoz musiqasining shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynadi. Ayniqsa, Navoiy, Jomiy, Bobur kabi mumtoz adabiyot vakillarining g‘azallari asosida yaratilgan kuy va ashulalar xonandalikning badiiy-estetik miqyosini yanada kengaytirdi. Ular yaratgan adabiy an’ana musiqiy talqin bilan birlashib, keyinchalik maqom ijrochiligining asosiy manbalaridan biriga aylandi.

O‘zbek an’anaviy xonandaligi shakllanishida maqom san’ati alohida o‘rin tutadi. Shashmaqom, Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llari, Xorazm maqomlari kabi yuksak professional musiqa tizimlari xonandalik san’atining metodik, vokal va estetik poydevorini belgilab berdi. Maqomlar og‘zaki an’anaga tayangan holda asrlar davomida ustozdan shogirdga o‘tib kelgan bo‘lib, har bir avlod uni o‘z talqini, ijro uslubi va ijodiy yondashuvi bilan boyitib borgan. Shashmaqomning 2003-yilda UNESCOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishi uning jahon madaniyatidagi o‘rnini tasdiqlovchi muhim dalildir.

Xonandalik san’ati shakllanishida ustoz–shogird an’anasi asosiy mexanizm bo‘lib xizmat qilgan. To‘ychi Rajabov, Yunus Rajabiy, Shorahim Shoumarov, Ortiqxo‘jayev, Munojot Yo‘lchiyeva kabi yirik san’atkorlar yaratgan maktablar o‘zbek vokal madaniyatining uzluksiz rivojlanishiga xizmat qildi. Mazkur maktablar orqali vokal texnikasi, nafas boshqaruvi, ohangdorlik, matn talqini, maqom ilmi va sahna madaniyati avloddan-avlodga uzatilgan.

Bugungi kunda an’anaviy xonandalik nafaqat milliy madaniyatning o‘tmish merosi, balki zamonaviy musiqa faoliyatida ham dolzarb ijodiy yo‘nalish hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqilligi yillaridan boshlab bu merosni o‘rganish, qayta tiklash, rivojlantirish va xalqaro maydonga olib chiqishga davlat miqyosida e’tibor kuchaydi. “Maqom san’ati xalqaro festivali”, maxsus o‘quv dasturlarining yaratilishi, oliy ta’lim muassasalarida maqom va xonandalik bo‘yicha alohida yo‘nalishlarning ochilishi bu jarayonning amaliy isboti bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek an’anaviy xonandalik ijodiyoti tarixi turli davrlar, madaniy maktablar, estetik talqinlar, og‘zaki an’ana mexanizmlari va zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini o‘z ichiga olgan murakkab jarayondir. Mazkur tadqiqot ushbu san’at turining shakllanishiga ta’sir etgan omillarni tizimli tahlil qilish, maqom ijrochiligining xonandalikdagi rolini ochib berish, ustoz–shogird an’anasining o‘rnini ilmiy asosda yoritishni maqsad qiladi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review)

O‘zbek an’anaviy xonandaligi bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar milliy musiqa merosining shakllanish jarayoni, maqom san’ati, vokal ijrochiligi, ustoz–shogird an’anasi va hududiy ijrochilik maktablarining o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishga qaratilgan. Bu sohada etnomusikologiya, musiqa nazariyasi, madaniyatshunoslik va san’at tarixi bo‘yicha turli ilmiy maktablar shakllangan. Quyida mazkur sohadagi eng muhim manbalar tizimli tahlil qilinadi.

An’anaviy xonandalikning asosiy nazariy poydevorlari

D.Q. Qodirovning “Oltin meros: An’anaviy xonandalik” (2010) asari o‘zbek xonandaligini yakkaxon vokal ijrochiligi sifatida tahlil etuvchi eng asosiy ilmiy manbalardan biridir. Muallif xonandalikning tarixiy ildizlari, janr xususiyatlari, vokal texnikasi, ijro maktablari, ustoz–shogird tizimi va zamonaviy talqinlarini ilmiy asosda yoritadi. D.Qodirovning tadqiqoti xonandalikni xalq og‘zaki ijodidan ajratib ko‘rmasdan, balki uning uzviy tarkibi sifatida tahlil qilgani bilan ahamiyatlidir.

Ushbu asarda xonandalik san’ati nafaqat musiqiy hodisa, balki xalq estetik tafakkuri, badiiy didi va ruhiy merosining tarkibiy qismi sifatida baholanadi. Qodirovning metodologiyasi etnomusikologik yondashuvga tayangan bo‘lib, uning tadqiqotlari mazkur sohadagi ilmiy adabiyotlar uchun asosiy nazariy manba sifatida qaraladi.

2. Maqom san’ati bo‘yicha tadqiqotlar

Marketing va targ'ibot: VR/AR texnologiyalari turistik mahsulotlarni targ'ib qilishda innovatsion usullarni taklif etadi. Turistik kompaniyalar VR reklamalari orqali mijozlarga sayohatni oldindan his qilish imkoniyatini yaratishi mumkin. Bunday interaktiv tajriba sayohatni rejalashtirishni yanada jozibador va qulay qiladi, mijozlar esa o'zlarini sayohatga tayyorlashda aniq tasavvurga ega bo'lishadi.

AR ilovalari yordamida esa turistik joylarni interfaol tarzda targ'ib qilish mumkin. Sayyohlar o'z telefonlari orqali turistik ob'ektlar haqida qo'shimcha ma'lumotlar olishlari, ularni turli burchaklardan ko'rishlari va yangi imkoniyatlarni o'rganishlari mumkin. Bu, kompaniyalar uchun marketingni yanada zamonaviy va qiziqarli qilish imkonini beradi, mijozlarning e'tiborini jalb qilish va ularni sayohatga yo'naltirishda samarali vosita hisoblanadi.

Turizmni rivojlantirish va innovatsiyalar: VR/AR texnologiyalari turizmni rivojlantirishda yangi va innovatsion imkoniyatlar yaratadi. Masalan, turistik joylarni virtual tarzda rekonstruksiya qilish orqali tarixiy binolarni yoki madaniy ob'ektlarni asl holida ko'rsatish mumkin, bu esa sayyohlarga o'zlarining sayohatlarini yanada boyitishga yordam beradi. Tarixiy yodgorliklar yoki qadimiy ob'ektlarni virtual tarzda ko'rish, ularga chuqurroq tushuncha hosil qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, turizmni rivojlantirishda innovatsion loyihalarni ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Masalan, virtual gastronomik turlar yordamida sayyohlar dunyoning turli burchaklaridagi taomlar va madaniyatlarni virtual tarzda tajriba qilishlari mumkin. Bu kabi yangiliklar turizm sanoatining raqamli transformatsiyasiga hissa qo'shadi va sayohatni yanada zamonaviy va interaktiv qilishga xizmat qiladi.

Sun'iy intellekt (AI) turizm sohasida innovatsion imkoniyatlar yaratadi. AI texnologiyalari mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish, operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish va umumiy mijozlar tajribasini yaxshilashga yordam beradi. Quyida AI texnologiyalarining turizm sohasida qo'llanilishining asosiy yo'nalishlarini keltiramiz:

Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar: AI algoritmlari mijozlarning oldingi xaridlari, qidiruv tarixi va shaxsiy afzalliklarini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan tavsiyalar taqdim etadi. Sayyohlar uchun yo'nalishlar, mehmonxonalar, restoranlar va turistik faoliyatlar taklif qilinadi. Misol uchun, Booking.com yoki Airbnb kabi platformalar mijozlarga ularning qiziqishlariga mos keladigan turar joylarni taklif qiladi. Bu, mijozlarga qulaylik yaratadi, vaqtni tejaydi va turistik kompaniyalar uchun sotishlarni oshirishga yordam beradi[5].

Chat-botlar va virtual yordamchilar: AI asosidagi chat-botlar mijozlarga 24/7 rejimida tez va sifatli xizmat ko'rsatadi. Ular bron qilish, bekor qilish, narxlarni tekshirish va turistik joylar haqida ma'lumot berish kabi savollarga javob beradi. Misol uchun, Marriott International mehmonlari uchun AI chat-botlari yordamida xona bron qilish va xizmatlar haqida ma'lumot olish imkoniyatiga ega. Bu esa xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi, xodimlar ish yukini kamaytiradi va mijozlarga qulaylik yaratadi.

Dinamik narxlash va chegirmalar: AI algoritmlari bozor talabini tahlil qilib, dinamik narxlash strategiyalarini ishlab chiqadi. Mehmonxonalar va aviakompaniyalar talab va taklifga qarab narxlarni avtomatik tarzda o‘zgartiradi. Mijozlarga shaxsiylashtirilgan chegirmalar va aksiyalarni taklif qilish imkoniyatini yaratadi, bu esa kompaniyalar uchun daromadni oshirishga, mijozlar uchun esa arzon narxlardan foydalanish imkonini beradi.

Mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish: AI mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilib, ularning ehtiyojlarini oldindan bashorat qiladi. Sayyohlarning afzalliklarini aniqlashda, qaysi yo‘nalishlar yoki faoliyatlar ularga ko‘proq mos kelishini tushunish imkoniyatini yaratadi. Turistik kompaniyalar marketing strategiyalarini yanada samarali va mijozlarga moslashtirilgan tarzda ishlab chiqishlari mumkin.

Avtomatlashtirilgan bron qilish va rejalashtirish: AI yordamida mijozlar sayohatni avtomatik tarzda rejalashtirishlari va bron qilishlari mumkin. Aviabiletlar, mehmonxonalar va transportni bir platformada bron qilish, sayohat marshrutlarini avtomatik tarzda tuzish imkonini yaratadi. Bu esa mijozlarga vaqtni tejash va turistik kompaniyalarga operatsion jarayonlarni soddalashtirish imkonini beradi.

Tilni qayta ishlash va tarjima: AI asosidagi tilni qayta ishlash texnologiyalari turizmda tillararo muloqatni osonlashtiradi. Chat-botlar orqali turli tillarda xizmat ko‘rsatish, tarjima ilovalari yordamida sayyohlarga mahalliy tillarni o‘rganish yoki tushunish imkoniyatini yaratadi. Bu, xalqaro sayyohlar va turistik kompaniyalar uchun global mijozlar bazasini kengaytirishga xizmat qiladi.

Mijozlar sodiqligini oshirish: AI mijozlarning shaxsiy ma’lumotlarini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan bonuslar va mukofotlar taklif qiladi. Loyalti dasturlari orqali mijozlarni rag‘batlantirish, shaxsiylashtirilgan aksiyalar va chegirmalar taklif qilishda yordam beradi. Bu mijozlarning sodiqligini oshiradi va kompaniyalar uchun uzoq muddatli mijozlar bazasini yaratishga hissa qo‘shadi.

Operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish: AI turistik kompaniyalarning operatsion jarayonlarini avtomatlashtirishga yordam beradi. Xodimlarni boshqarish va ish jadvalini optimallashtirish, inventarizatsiya va resurslarni boshqarish orqali ish unumdorligini oshiradi va xarajatlarni kamaytiradi.

Sun’iy intellekt turizm sohasida mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko‘rsatish, operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish va umumiy mijozlar tajribasini yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi. AI texnologiyalarining rivojlanishi bilan turizm sohasida yanada innovatsion yechimlar paydo bo‘lishi kutilmoqda, bu esa kompaniyalar uchun raqobatbardoshlikni oshirish va mijozlarning ehtiyojlarini yanada samarali qondirishga yordam beradi[5].

Katta ma’lumotlar (Big Data) turizm sohasida innovatsion imkoniyatlar yaratadi. Katta ma’lumotlar (Big Data) texnologiyalari turizm sohasida mijozlar xatti-harakatlarini tahlil qilish, turistik talablarni bashorat qilish va strategik qarorlar qabul qilishda muhim rol o‘ynaydi. Big Data orqali turistik kompaniyalar mijozlar haqida to‘plangan katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilib, ularning ehtiyojlarini aniqroq aniqlash va ularga moslashtirilgan xizmatlar taklif qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Big Data yordamida bozor talabi va raqobat sharoitlarini tahlil qilish orqali dinamik narxlash strategiyalari ishlab chiqiladi. Mehmonxonalar va aviakompaniyalar talab va taklifga qarab narxlarni avtomatik tarzda o‘zgartirishadi. Shuningdek, Big Data orqali mijozlar sodiqligini oshirish uchun shaxsiylashtirilgan yondashuvlar ishlab chiqiladi hamda mijozlarning turli xil ma’lumotlari, masalan, qidiruv tarixi, bron qilishlar, sharhlar va ijtimoiy tarmoqlardagi faollik tahlil qilinadi[6]. Mijozlarning afzalliklarini aniqlash, qaysi turistik joylar yoki xizmatlar ularga ko‘proq mos kelishini bilish mumkin. Loyalti dasturlari yordamida mijozlarni rag‘batlantirish, shaxsiylashtirilgan aksiyalar va chegirmalar taklif qilish orqali mijozlarning sodiqligini oshirish va kompaniyalar uchun uzoq

muddatli mijozlar bazasini yaratish imkoniyati yaratiladi. Kelajakda Big Data texnologiyalarining rivojlanishi bilan turizm sohasida yangi va innovatsion yechimlar paydo bo‘lishi kutilmoqda[7].

Xulosa va takliflar. Turizmda raqamli texnologiyalar fanini o‘qitishda interfaol usullar talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, ularni amaliy faoliyatga tayyorlash va raqamli texnologiyalarni turizm sohasida qo‘llashni o‘rgatish uchun juda muhimdir. Bu fanni o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga yordam beradi. Interfaol platformalar, VR/AR texnologiyalari, gamifikatsiya va loyiha asosidagi ta’lim kabi usullar orqali talabalar turizm sohasida raqamli texnologiyalarni samarali qo‘llashni o‘rganishlari mumkin. Ushbu usullar orqali talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki amaliy ko‘nikmalarni ham egallashlari mumkin. Bu esa ularni zamonaviy turizm sohasida raqobatbardosh mutaxassislar sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Yusupov S. “Turizm ta’limida raqamli texnologiyalarni qo‘llashning zamonaviy usullari”. Ta’lim va innovatsion tadqiqotlar. 2022. 4(3), 112-120.

2. Neuhofer B., Buhalis D., Ladkin A. “Technology as a catalyst of change: Enablers and barriers of the tourist experience and their consequences”. In Information and Communication Technologies in Tourism 2015(pp. 789-802). Springer, Cham.

3. Rahimov A. “Turizm sohasida raqamli texnologiyalarni qo‘llash: yangi imkoniyatlar va muammolar”. Turizm va xizmat ko‘rsatish sohasida innovatsiyalar. 2021. 3(2), 45-52.

4. Xiang Z., Fesenmaier D. R. Big data analytics, tourism design and smart tourism”. In Analytics in Smart Tourism Design. 2017. (pp. 299-307). Springer, Cham.

5. Xolmirzayev B. “Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizmni rivojlantirish strategiyalari”. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. 2020. 5(1), 78-85.

6. Джаббарова, Х. (2025). Ijtimoiy tadqiqotlarda raqamlashtirishning ahamiyati. Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования, 1(1), 319-321.

7. Quvandikova, JH va Zulkifli, CZ (2025 yil, mart). Ta’lim jarayonina innovatsion texnologiyalarning tiroq etishi hozirgi masalalar va yechimlari. Fanlarara fani halqaro konferentsiyada (2-jild, №3, 57-60-betlar).

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Tangirova Mavjuda Ummatkulovna
Teacher, Department of Sociology and Social Work, Samarkand State University named after Sharaf Rashidov
e-mail: tangirovamavjuda10@gmail.com

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

MIGRANT AYOLLARNI IJTIMOIY HIMOYA QILISHNING NAZARIY ASOSLARI VA MAZMUN-MOHIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada mehnat migranti bo‘lgan ayollar haqida, ularning migratsion jarayonlardagi ishtiroki, yutuq va muammolari, migrant ayollar tushunchasining mazmun mohiyati batafsil yoritib berishga harakat qilingan. Migrant ayollar bo‘yicha tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari, izlanish natijalari bayon qilingan. Shuningdek, muallif tomonidan ham taklif va tavsiyalar keltirilgan. Migrant ayollarning ruhiy, ijtimoiy, madaniy qiyofasi o‘rganib chiqilgan. So‘nggi 20 yil davomida dunyo bo‘yicha ayol migrantlarning soni keskin o‘sib ketganligining sabab va oqibatlari yoritib berilgan. Migrant ayollar bo‘yicha zamonaviy va klassik nazariyalar o‘rganib, tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: migrant ayol, statistik tahlil, sotsiologik tadqiqot, xalqaro munosabatlar, mehnat migratsiyasining turlari, zamonaviy va klassik yondashuvlar.

THEORETICAL BASIS AND CONTENT OF SOCIAL PROTECTION OF MIGRANT WOMEN

Annotation. This article attempts to provide a detailed account of women who are labor migrants, their participation in migration processes, achievements and problems, and the essence of the concept of migrant women. The opinions and research results of researchers on migrant women are presented. The author also makes suggestions and recommendations. The spiritual, social, and cultural image of migrant women is studied. The causes and consequences of the sharp increase in the number of female migrants in the world over the past 20 years are highlighted. Modern and classical theories on migrant women are studied and analyzed.

Keywords: migrant woman, statistical analysis, sociological research, international relations, types of labor migration, modern and classical approaches.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И СОДЕРЖАНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН-МИГРАНТОВ

Аннотация. В данной статье предпринята попытка подробно рассказать о женщинах-мигрантах, их участии в миграционных процессах, достижениях и проблемах, а также о сути понятия «женщины-мигрантки». Представлены мнения и результаты исследований исследователей, посвященных женщинам-мигранткам. Автор также предлагает свои предложения и рекомендации. Изучается духовный, социальный и культурный облик женщин-мигранток. Раскрываются причины и последствия резкого увеличения числа женщин-

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

мигранток в мире за последние 20 лет. Изучаются и анализируются современные и классические теории, посвященные женщинам-мигранткам.

Ключевые слова: женщина-мигрантка, статистический анализ, социологические исследования, международные отношения, виды трудовой миграции, современные и классические подходы

Kirish (Introdugtion). Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida mehnat migrantlarini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va mehnat migrantlarini muammolarining yechimiga alohida yondashish ijtimoiy muhofaza tizimining o‘ziga xos xususiyatini nazarda tutadi. Ma’lumotlarga ko‘ra mamlakatimizda har yili qariyib 250 ming kishining bandligi tashqi mehnat migratsiyasi orqali ta’minlanadi. BMTning ma’lumotlariga ko‘ra esa, so‘nggi 50 yilda o‘z mamlakatidan tashqarida ishlaydigan odamlar soni qariyib ikki baravarga oshgan. Mamlakatimiz Prezidenti aytganidek, “bu tabiiy jarayon, barcha rivojlanayotgan davlatlar shunday bosqichdan o‘tgan. Qayerda mehnat migratsiyasi to‘g‘ri tashkil etilgan bo‘lsa, o‘sha mamlakatda malakali mutaxassislar ko‘paygan”ligi [1] bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, mehnat migrantlarining ko‘payib borayotganligi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omili hisoblanadi. Xalqaro, mintaqalararo aloqalarning kengayishi migrantlar uchun yangi imkoniyatlarni ochadi. Shu nuqtai nazardan, mehnat migratsiyasi jarayonlarini o‘rganish har qanday jamiyat, jumladan, O‘zbekiston uchun ham dolzarbdir.

Sanoat va xizmatlarning jadal rivojlanishi natijasida Shimoliy Yevropa mamlakatlarida (Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya), Skandinaviya yarim orolida (Daniya, Norvegiya, Shvetsiya), shuningdek, AQSH, Janubiy Koreyada tashqi ichki kuchiga ehtiyoj ortmoqda. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil dunyoda muhojirlar soni 286 millionga yetgan. Ularning aksariyati Yevropada 86 million, Shimoliy Amerikada 63 million, Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyoda 52 million. O‘zbekistonlik mehnat migrantlarining esa 3 milliondan ortig‘i esa xorijda istiqomat qiladi.

Mehnat migratsiyasi xalqaro munosabatlarda ob’ektiv hodisa bo‘lib, barcha mamlakatlarga dahldor jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Globallashuv sharoitida barcha sohalarda davlatlar hamkorligi jadallashayotgan, ular o‘rtasidagi integratsiyalashuv munosabatlari chuquqrlashayotgan bir paytda, davlatlar o‘rtasidagi tovar, kapital aylanishi kuchayishi bilan birga, mamlakatlar o‘rtasida migratsiya oqimi yildan yilga ortib borishi keng tus olmoqda. Mehnat migratsiyasining nazariy asoslarini o‘rganish bugungi kunning dolzarb mavzularidan hisoblanib, ushbu tushuncha XX asrning 60-yillaridan o‘rganila boshlandi.

Mehnat migratsiyasi esa bu – migratsiyaning bir turi bo‘lib, mamlakat ichida ham mamlakatlar o‘rtasida ham ish joyining o‘zgarishi sababli ish bilan band aholining harakati, pullik faoliyatni amalga oshirish uchun odamlarning mamlakat ichida, mamlakat tashqarisida harakatlanishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va joylashishi, shuningdek, ishchi kuchining mavjud bo‘lish sharoitidagi o‘zgarishlar natijasida mehnatga layoqatli aholining fazoviy harakatidir.[2] Ya’ni, mehnat migratsiyasi bu – mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mehnatga layoqatli aholining ma’muriy-hududiy tuzilmalar o‘rtasida harakatlanishi hisoblanadi.

Bizga ma’lum bo‘lgan ta’riflar migratsiyaning muhim xususiyatlarini ajratib ko‘rsatishga imkon beradi, ularga quyidagilar kiradi: 1) fazoviy (hududiy), 2) yashash joyini doimiy yoki vaqtincha o‘zgartirish, 3) aholining hududiy qayta taqsimlanishi.

Mehnat migranti – bu fuqaroligi bo‘lmagan davlatlardagi mehnat bozori konyunkturasi bilan belgilanadigan pullik faoliyat bilan shug‘ullanadigan shaxs.[3]

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi (Literature review)

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mehnat migratsiyasini ilmiy tushuncha sifatida o‘rgangan Xani Zlot uni bir nechta asosiy guruhlarga, iqtisodiy, sotsiologik, geografik va aralash guruhlarga tasniflab o‘rganib chiqqan. Uning mehnat migratsiyasi haqidagi fikri Yakubom Biyakom tomonidan taklif qilingan fikrga mos keladi. U mehnat migratsiyasi nafaqat mehnatga layoqatli aholining harakati, balki, iqtisodiy sabablarga ko‘ra harakatdir, deb ta’riflaydi.[4]

Zamonaviy jamiyatda mehnat migratsiyasi tobora ko‘payib borayotgan mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishning muhim omiliga aylanib, moslashuvchan mehnat bozorini shakllantirishga, mehnat resurslaridan oqilona foydalanishga va iqtisodiy sub’ektlarning o‘zaro ta’siriga hissa qo‘shmoqda. Demak, mehnat migratsiyasining iqtisodiy tasnifi bo‘yicha ta’riflaydigan bo‘lsak, bu-shartnoma, kelishuv, ruxsatnoma muddati bilan cheklangan turli xil ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish uchun harakatlar, migrantlarning o‘zi uchun daromad va hayot sifatini o‘zgarishi hisoblanadi.

T.M.Bezborodova mehnat migratsiyasini ijtimoiy-iqtisodiy hodisa, ishlab chiqarishning rivojlanishi va joylashuv o‘zgarishi, ishchi kuchining mavjud bo‘lishi shart-sharoitlari natijasida kelib chiqadigan mehnatga layoqatli aholining fazoviy harakatini, bu shaxs tomonidan ma’lum muddat davomida ixtiyoriy ravishda daromad yoki daromad olish maqsadida doimiy yashash joyini o‘zgartirmasdan amalga oshiradi, deb talqin qiladi. U mehnat migrantini “mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mamlakat hududida doimiy yashovchi, chet el fuqaroligi mavjud yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxs” - deb tushunadi.[5] Ushbu ta’riflarda aniq qarama- qarshiliklar mavjud. Yuqorida muallif mehnat migratsiyasini ishchi harakatchanligini farqlashni taklif qiladi: harakatchanlik tushunchasi ish dunyosiga nisbatan uning o‘zgaruvchanligini turli shakllarini, moslashuvchan bandlikni nazarda tutsa, migratsiya an’anaviy ravishda hududiy harakat bilan bog‘liqdir. Ba’zi mualliflar migratsiya va harakatchanlikni aralashtirib yuborishadi.

Yuqorida aytib o‘tilgan fikrlarga asoslanib, mehnat migratsiyasi bu- mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun aholining ishlashga qodir bo‘lgan hududiy harakati degan dastlabki xulosani chiqarish mumkin.

A.V.Sedova mehnat migratsiyasi turlariga aniqlik kiritadi. U mehnat migratsiyasi turlarini sanab, turlarning umumiy qabul qilingan tasnifi mavjud emasligini ta’kidlaydi.

Birinchi tur doimiy yashahsh uchun boshqa mamlakatga ko‘chib ketgan migrantlar. Odatda, ushbu turdagi migrantlar iqtisodiyoti rivojlangan va turmush darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarga yo‘naltirilgan.

Ikkinchi tur shartnoma asosida ishlaydiganlar (mamlakatda bo‘lishning ma’lum bir muddati bilan) kiradi: bular malakasiz yoki past malakali ishchilardir. Ushbu migrantlar orasida a) mavsumiy ishchilar, b) loyihani amalga oshirayotgan migrantlar, c) shartnoma asosida xizmat qilayotgan askarlar, d) mamlakatda bir necha yil bo‘lganidan keyin yashash uchun ruxsat berilgan migrantlar, e) yuqori malakali mehnat migrantlari.

Uchinchi turga yuqori malakaga ega mutaxassislar, shu jumladan talabalar va xalqaro oliy ta’lim tizimidagi migrant talabalar.

To‘rtinchi turga noqonuniy mehnat migrantlari.

Beshinchi turga esa o‘zlarining yashash joylarini tark etishga majbur bo‘lgan shaxslar-qochoqlar kiradi.[6]

Usbbu tasniflar faqat iqtisodiy asoslarni hisobga olmay, balki statistik ma’lumotlarni to‘plash, migratsiya jarayonlarini tartibga solish, noqonuniy faoliyat olib borayotgan mehnat migrantlarining haq- huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ijtimoiy va huquqiy choralarni ishlab chiqish uchun ishlatiladi.

Yuqoridagi ta’riflardan kelib chiqqan holda, dissertatsiya muallifi sifatida o‘z ta’rifimni keltirib o‘tmoqchiman. Mehnat migratsiyasi bu - aholining o‘zga mamlakatga vaqtinchalik yoki doimiy

yashash yoki o‘qish maqsadida ko‘chib ketishi bo‘lib, iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy oqibatlarga olib keladigan murakkab jarayondir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology)

Bugun mehnat migrantlari o‘zga davlatlarda noqonuniy faoliyat olib borganliklari uchun, o‘z haq-huquqlarini himoya qila olishmayapti. Qonuniy faoliyat uchun mehnat migrantlari (uning oila a’zolari) borayotgan davlat qonunchiligiga va ushbu davlat ishtirok etgan xalqaro shartnomalarga muvofiq ishlayotgan davlatga kirishi, qolishi va pullik faoliyatga ruxsat olishlari shart. Ushbu xavfsizlik mehnat migrantlarining huquqlari va manfaatlarini himoya qilish uchun zarur bo‘lib, ular hech qanday cheklovlarga duch kelmasliklari kerak.

Mamlakatimiz Prezidenti aytganidek, “mehnat migrantlarini ijtimoiy qo‘llab- quvvatlash, ayniqsa xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib, mehnat migrantlarining ijtimoiy- siyosiy ongini shakllantirishning ilmiy-nazariy asoslarini, usul-vositalarini takomillashtirib borishda ob’ektiv zaruriyat hisoblanadi”.[6] Shu sababli respublikamizda ijtimoiy sohada targ‘ibot-tashviqot ishlari ahvolini yaxshilash maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda dunyo davlatlari global migratsion jarayonlar tomonidan deyarli qamrab olindi. Misli ko‘rilmagan darajada kechayotgan bu jarayonning yalpi xususiyatlarini umumlashtirib, quyidagi dolzarb tendensiyalarini alohida ko‘rsatamiz:

Mehnat migratsiyasi- bu mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun mehnatga layoqatli aholining ma’muriy- hududiy tuzilmalari o‘rtasida harakatlanishi.

Mehnat migratsiyasining quyidagi turlari nazariy jihatdan ajralib turadi:

1) Birinchi tur-doimiy yashash uchun boshqa mamlakatga ko‘chib ketgan migrantlar. Odatda ushbu turdagi migrantlar iqtisodiyoti rivojlangan va turmush darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarga yo‘naltirilgan.

2) Ikkinchi tur-shartnoma asosida ishlaydiganlar (mamlakatda bo‘lishning ma’lum bir muddati bilan) kiradi: bular malakasiz yoki past malakali ishchilar. Ushbu migrantlar orasida mavsumiy ishchilar, loyihani amalga oshirayotgan migrantlar, shartnoma asosida xizmat qilayotgan askarlar, ma’lum bir kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun mamlakatga cheklangan vaqt ichida ish beruvchilarni o‘zgartirish va yashash muddatini o‘zgartirish imkoniyatga ega bo‘lgan migrantlar, mamlakatda bir necha yil bo‘lganidan keyin yashash uchun ruxsat berilgan migrantlar, yuqori malakali mehnat migrantlari.

3) Uchinchi tur yuqori malakaga ega mutaxassislar, shu jumladan talabalar, xalqaro oliy ta’lim tizimidagi migrant talabalar.

4) Noqonuniy mehnat migrantlari.

5) O‘zlarining yashash joylarini tark etishga majbur bo‘lgan shaxslar- qochoqlar kiradi.

Mehnat migratsiyasining iqtisodiy sababi (tashqi va ichki) iqtisodiy sub’ektning harakat joyidagi mehnat faoliyatidan foydalari: nisbatan yuqori ish haqi, hayot darajasi nisbatan yuqori, mahnat bozorida raqobatning nisbatan past darajasi, daromadlarning keskin o‘zgarishi xavfining pasayishi, ish haqi shaklida daromad olish (ishsizlik nafaqasi yoki umuman daroamd yo‘qligi).

Migrantning o‘zi uchun mehnat migratsiyasining asosiy iqtisodiy oqibatlari quyidagilardan iborat: daromad o‘zgarishi va turmush darajasi.

Xalqaro mehnat migratsiyasining zamonaviy xususiyatlaridan biri bu – uning feminizatsiyalashuvidir. Og‘ir jismoniy mehnat talab qilmaydigan sohalarning, xususan, xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanishi va bandlik tarkibining transformatsiyalashuvi kabi jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy o‘zgarishlar, xususan, xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi global mehnat migratsiyasining muhim bir qismiga aylangan ayollar mehnat migratsiyasining shakllanishiga va rivojlanishiga turtki berdi. Bandlik tarkibidagi bunday transformatsiyalashuv bilan bir qatorda rivojlangan mamlakatlarda tug‘lishning kamayishi va kishilarning o‘rtacha umr ko‘rish

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

davomiyligining ortishi qariyalar sonining ko‘payishiga, ularni parvarishlovchilarga, mazkur mamlakat aholisining moddiy farovonligini yaxshilanishi va ayollarning jamiyat hayotidagi ishtirokining faollashuvi esa, uy xizmatchilariga bo‘lgan talabning ortishiga olib keldi. Ayollar mehnat migratsiyasining rivojlanishiga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatmoqda. Tahlillarning ko‘rsatishicha, Rossiyaga borib ishlayotgan Qirg‘iziston mehnat migranti bo‘lgan ayollarning 40 foizini, O‘zbekiston mehnat migrant bo‘lgan ayollarning 30 foizini, Tojikiston mehnat migrant bo‘lgan ayollarning 20 foizini tashkil qiladi.[7]

Tahlil va natijalar (Analysis results)

Tahlillarning ko‘rsatishicha, ayollar mehnat migratsiyasining sabablari mamlakatlar kesimida farqlanadi. Masalan, tojikistonlik va qirg‘izistonlik ayol mehnat migrantlari uchun daromad toppish, oila qurish va shaxsiy hayotni yo‘lga qo‘yish kabi omillar, boshqirdistonlik ayol migrantlar uchun farzandlariga ta’lim va tarbiya berish, uy-joy qurish, yaqin qarindoshlarini davolatish uchun daromad toppish, o‘zbek ayollari uchun esa to‘y qilish, uy qurish, mashinali bo‘lish kabi holatlar ularning boshqa mamlakatlarga borib ishlashlari uchun turtki bermoqda.

Jami migrantlar tarkibida ayollarning ulushini mintaqalar kesimida tahlil qilar ekanmiz, Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasidan tashqari barcha mintaqalarda ayollar ko‘rsatkichining oshganini guvohi bo‘lamiz. Xususan, Shimoliy Amerika mintaqasida 2000-2025 yillar yillar orasida ayol migrantlar 51,2 foizdan 52 foizga, Afrika mintaqasida 47,3 foizdan 48,2 foizga, Janubiy Osiyo mintaqasida 48 foizdan 49 foizga, Lotin Amerikasi mintaqasida 49,2 foizdan 50 foizga, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mintaqasida 34 foizdan 36,5 foizga o‘shanligini ko‘rishimiz mumkin.



Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida esa 48 foizdan 41 foizga kamayganligi kuzatilgan. Ayol mehnat migrantlarining bevosita mintaqalar bo‘yicha joylashuviga e’tibor berar ekanmiz, 31 foizi Shimoliy Amerika va 38 foizi Yevropa mintaqasida joylashgan. Mamlakatlarning rivojlanganlik darajasi ayol migrantlar ulushiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich



Xususan, ayol migrantlarning ulushi past daromadli mamlakatlarda 48 foizdan 49,5 foizgacha ortgan bo‘lsa, o‘rta daromadli mamlakatlarda 47 foizdan 45,4 foizga, yuqori daromadli mamlakatlarda esa 46 foizdan 41 foizga kamayganligni kuzatishimiz mumkin. Ayol mehnat migrantlarining 69,7% yuqori daromadli, 19,2% o‘rtadan yuqori daromadli, 8,3%i o‘rtadan quyi daromadli hamda 2,8%i quyi daromadli mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatadilar.[8]



2000-2025-yillar davomida jami migrantlar tarkibida ayollarning ulushi 75 ta mamlakatda kamida 1%ga, 22 ta mamlakatda esa kamida 5%ga o‘sgan. O‘z o‘rnida ularning ulushi 67 ta mamlakatda kamida 1 %ga, 8ta mamlakatda esa kamida 10 %ga qisqargan. Ayol migrantlarning 8,3 foizini 15-24 yoshdagilar, 86,3 foizini 25-54 yoshdagilar, 5,4 foizini esa 55 yoshdan kattalar tashkil qiladi. Ayol migrantlar jami ishchilarning 8 foizini tashkil qilib, ularning 19 foizi yuqori daromadli, 2,3 foizi o‘rtachadan yuqori daromadli, 1,5 foizi esa o‘rtachadan quyi daromadli mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatadilar. Ayol migrantlar jami ayol mehnat resurslarining 64,5 foizini tashkil qiladi. Xususan, mazkur ko‘rsatkich yuqori daromadli mamlakatlarda 67,8 foizni, o‘rtachadan yuqori daromadli mamlakatlarda 64,8 foizni, o‘rtachadan quyi daromadli mamlakatlarda 43 foizini, quyi daromadli mamlakatlarda 34 foizini tashkil qiladi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Xalqaro miqyosda migrantlarni qabul qiluvchi davlatlar qatoriga AQSH, Yevropa mamlakatlari, Lotin Amerikasi, Janubiy- Sharqiy Osiyo va Isroil kiradi. Ushbu mamlakatlarda ishchi kuchiga bo‘lgan talabning taxminan 70 %i migrantlar hisobiga qoplanadi. Mana shu 70 %ning 36 %ga yaqinini ayol migrantlar tashkil qiladi. Jahon mehnat bozorida ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatlar orasida Hindiston, Pokiston, Jazoir, Meksika, Irlandiya, Turkiya va MDH davlatlari yetakchi o‘rinni egallaydi.

BMTning statistik ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida aholining ko‘chishi nazorat qilib bo‘lmaydigan darajada kuchaymoqda. Insoniyat tarixining turli davrlaridagi holatlarga nisbatan bugungi kunda aholi katta qismi o‘z tug‘ilgan davlatida emas, balki boshqa davlatlarda doimiy yashamoqda. So‘nggi o‘n yillkda ayol migrantlar 2024 yilda 146 million nafarga yetgan bo‘lsa, 2025 yilda esa 147,5 million nafarni tashkil etdi. Migrantlar sonidagi ayollarning ulushi mintaqalar bo‘yicha o‘zgarib turardi, eng past ko‘rsatkich Osiyoda (42%), Yevropada eng yuqori (52%), Shimoliy Amerikada (51%), Lotin Amerikasi va Karib dengizi sohillarida (50 %) va Afrika qit’asida (4 %) ga yetgan.[9]

Ayol migrantlar asosan, uy xizmatlari, qishloq xo‘jaligi sohasi, mehmonxona biznesi, sog‘liqni saqlash, ta’lim kabi ijtimoiy sohalarda faoliyat ko‘rsatadilar. Masalan, ular Yevropada asosan, sog‘liqni saqlash va ta’lim kabi ijtimoiy sohalarda faoliyat yuritadilar. Ispaniya va Gretsiyada mehmonxona biznesida, Buyuk Britaniyada tibbiyot sohasida, Italiyada ta’lim sohasidagi ayol migrantlarning ulushi yuqori. Dunyo bo‘ylab 25-55 yoshdagi oliy ma’lumotli migrant ayollarning 30 foizdan ortig‘i yuqori malakaga ega bo‘lib, ular fan, texnologiya, matematika va tibbiyot kabi nufuzli sohalar bo‘yicha mutaxassis hisoblanadilar. Bunday ayol migrantlar orasida bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan tajriba va ko‘nikmalarning mavjudligi ularning zamonaviy va yirik kompaniyalardagi bo‘sh ish o‘rinlariga bo‘lgan intilishlarini oshiradi. Oliy ma’lumotga ega bo‘lgan mehnat qilish yoshidagi ayol migrantlar mintaqalarda taqsimlanishiga e’tibor qaratsak, yuqori daromadli mamlakatlarda ularning ta’lim darajasi yuqoriroq ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Ammo shu o‘rinda ayol mehnat migrantari orasida xorij mamlakatlarida o‘rta va yuqori malakali ishlarni talab qiluvchi sohalarda faoliyat ko‘rsatayotganlar bilan bir qatorda norasmiy ravishdagi uy xizmatchisi, enaga, qariyalarni parvarishlovchi kabi past malaka talab qiluvchi ishlarda ish beruvchiga butunlay qaram bo‘lib qolib ishlayotganlari ham ko‘pchilikni tashkil etadi.

Dunyoda 200 millionga yaqin mehnat migrantlarining 9 foiziga yaqinini uy xizmatchilari tashkil qiladi. Bu ko‘rsatkichni ayol migrantlar orasida ko‘rsak, dunyodagi jami 70 million ayol migrantlarning 12 foizga yaqini ya’ni 8,5 millionini ayol migrant uy xizmatchilariga to‘g‘ri keladi.[10] Bu esa dunyo bo‘ylab shaxsiy va uy xizmatlari uchun migrantlarga bo‘lgan talabning yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Dunyo bo‘ylab uy xizmatchilarining 80 foizi yuqori daromadli mamlakatlarda joylashgan bo‘lib, ular mazkur mamlakatlardagi jami migrantlarning 66 foizini tashkil qiladi. Arab mamlakatlari, Shimoliy Amerika va Yevropa mintaqalarida jami migrant uy xizmatchilarining 52 foizi joylashgan. Mazkur mintaqalarda demografik jihatdan qarish jarayonlarining yuqori sur’atlarda o‘sishi, parvarishga muhtoj kishilarning shaxsiy va uy xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Xususan, dunyo bo‘ylab uy xizmatchilarining 81 foizini ayollar tashkil qiladi. Janubiy Sharqiy Osiyo va Sharqiy Osiyo mintaqasi ayol migrant uy xizmatchilarini eng ko‘p yuboruvchi mintaqa hisoblanadi. Xususan, mintaqadan ayol migrant uy xizmatchisi sifatida Yaqin Sharq va Yevropa mintaqalariga hamda yangi industrial mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatadilar. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 11,5 million uy xizmatchilari bo‘lib, ularning ko‘pchiligini ayollar tashkil qiladi. O‘rta Sharq mintaqasi, Osiyo qit’asi va Afrika mintaqasi kabi quyi daromadli mamlakatlardan kelgan ayol migrantlarni eng ko‘p jalb qiluvchi mintaqah hisoblanadi. Mazkur ayol migrantlarning aksariyati past malaka va quyi ta’lim darajasiga ega bo‘lishlari hamda ishlash uchun boradigan joylaridan bexabar ekanliklari ish beruvchilar tomonidan ularga kam ish haqi to‘lash,

belgilangan ish soatidan ortiqcha ishlatish, jismoniy kuch ishlatish va tahqirlash kabi ekspluatatsiyaning turli shkllaridan foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Mahalliy ishchilar bilan solishtirganda ayol migrant uy xizmatchisi uchun yetarli xavfsiz ishlash sharoitining yaratilmasligi, ularga nisbatan jismoniy va jinsiy zo‘ravonlik o‘tkazilishi, ularni huquqlarining poymol qilinishi mazkur ayol migrantlarning jismoniy va ruhiy jihatdan jarohatlanishlariga, yoki bir umr kasallanib qolishlariga olib kelmoqda. Xususan, Yaqin Sharqqa katta miqdordagi ayol uy xizmatchilarini yetkazib beruvchi mamlakatlardan biri Efiopiya hisoblanadi. O‘tkazilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, birgina Saudiya Arabistonida ishlab qaytgan efiopiyalik ayol migrantlarning aksariyati mazkur safarlarining xatarli bo‘lganligini, oziq-ovqat va ichimlik suvi tanqisligi va tahqirlash muammolaridan aziyat chekkanliklarini bildirganlar. Livandagi jami migrantlarning 76 foizini va uy xizmatchilarining 99 foizini ayol migrantlar tashkil etadi. Xalqaro migratsiya tashkiloti tomonidan 2025-yilda 564 nafar og‘ir sharoitlarda mehnat qilayotgan ayollarga yordam berilgan.[11] Ulardan 94 nafari Liviyaga ketayotganini bilmaganliklari, ularni Turkiya, AQSH, Yevropa va Kanada kabi mamlakatlarga ishga joylashtirishga va’da berilganligini ma’lum qilganlar.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, majburiy mehnatdan aziyat chekayotganlarning 16,5 millionini ayollar tashkil etadi. Livandagi uy xizmatchilariga nisbatan nafaqat majburiy mehnat, balki qullik, odam savdosi, shaxsiy hujjatlarni yashirib qo‘yish, irqiy kamsitish va qiynoqlar kabi taqyiqlar o‘tkazilishi ko‘p uchraydi. Ayniqsa, pandemiya sharoitida ayol migrant uy xizmatchilarining norasmiy migrant statusini tanlashga majbur bo‘lishlari ularga belgilangan minimal ish haqidan ham oz bo‘lgan ish haqini to‘lash va yoki umuman ish haqi to‘lamaslik, ish soatidan ortiqcha ishlatish kabi holatlarning ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan 1,3 ming ishchilar orasida o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, ayol xizmatchilarning 23 foizi ularni ish beruvchilar kunduz kunlari ustlaridan qulflab ketishlari ma’lum bo‘lgan. Ba’zi manbalarda qayd etilishicha, Livanda migrant uy xizmatchilari tomonidan dunyoga keltirilgan 20 mingga yaqin bola ta’lim olish va boshqa davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan bolalardir.

Ayol migrantlarning o‘z vatanlariga pul o‘tkazmalari katta hajmni tashkil qilmasada, ularni o‘tkazmalarining asosiy qismi sog‘liq, ta’lim, oila va jamiyat taraqqiyoti uchun sarflanadi. Masalan, nepallik asosan uy xizmatchisi bo‘lgan ayol migrantlarning pul o‘tkazmalari mamlakatga yuborilgan jami migrantlar pul o‘tkazmalarining 50 %ini yoki, YAIMning 24 %ini tashkil qiladi. Shu o‘rinda ayol mehnat migrantlarining tajriba, bilim, ijtimoiy, siyosiy va madaniy normalar kabi ijtimoiy o‘tkazmalari pul o‘tkazmalaridan ko‘ra ko‘proq ahamiyat kasb etishiga ham e’tibor berish lozim. Chunki, ayollarning xorijda ega bo‘lgan bilimlari, g‘oyalari, tajriba va taexnologiyalar bo‘yicha ko‘nikmalari ularning oilalari va jamiyatdagi mavqelarining ortishiga, mazkur muhit ishtirokchilarining dunyoqarashlarida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishini ham unutmaslik kerak. Ayollar erkak migrantlarga qaraganda kamroq ish haqi olsalarda, erkaklarga nisbatan daromadlarining katta qismini yuboradilar. Migrantlar pul o‘tkazmalarining 26 %i ayollar ulushiga to‘g‘ri keladi.[12]

So‘nggi yillarda ayollar mehnat migratsiyasi global miqyosda nafaqat demografik jarayon, balki strategik ijtimoiy- iqtisodiy transformatsiyaning muhim omiliga aylangan. Ayniqsa, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlar uchun migratsiya- valyuta tushumlari, bandlik va uy xo‘jaliklarining moliyaviy barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy resurslardan biridir. Jahon bankining so‘nggi hisobotida ta’kidlanishicha, 2024 yilda mehnat migrantlari tomonidan yuborilgan pul o‘tkazmalari hajmi 875 milliard AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 380 milliardga yaqinini migrant ayollar tomonidan yuborilgan.[13] Shu darajada keng ko‘lamli ijtimoiy-iqtisodiy hodisani chuqur tushunish uchun faqat statistik yoki empirik ko‘rsatkichlar yetarli emas, aksincha migratsiya jarayonlarini izchil tahlil qilish, ularning sabablari va oqibatlarini anglash uchun nazariy asoslar zarur. Biroq, mavjud yondashuvlarning aksariyati bir yoqlama bo‘lib, ayrimlari iqtisodiy determenistik

nuqtai nazarga, ayrimlari esa sotsiologik yoki institutsional tushunchalarga haddan ortiq tayanadi. Bu esa mehnat migratsiyasining murakkab, ko‘p qatlamli va transchegaraviy mohiyatini to‘liq yoritishda cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Migratsiya nazariyalarining turli guruhlari bugungi kunda global ijtimoiy- iqtisodiy muhitda murakkab, ko‘p qirrali hodisa sifatida e’tirof etiladi. Uni izohlovchi nazariyalar esa har doim yagona nuqtai nazardan emas, balki turli metodologik asoslar va tahlil birliklariga tayangan holda shakllanib borgan. Shu bois migratsiya jarayonini chuqur tahlil qilish va nazariy asos uchun mavjud yondashuvlarni kategoriya asosida tizimlashtirish dolzarb hisoblanadi. Bu nafaqat ularning tushunchaviy farqlarini ochib beradi, amaliy kontekstlarda nazariya qanday qo‘llanishini aniqlash imkonini yaratadi. Ilmiy adabiyotlarda migratsiya nazariyalarini shartli ravishda to‘rtta asosiy guruhga ajratish keng qo‘llaniladi:

1. Klassik demografik yondashuvlar.
2. Iqtisodiy yondashuvlar.
3. Ijtimoiy tarmoq va institutsional yondashuvlar
4. Zamonaviy transmilliy konsepsiyalar.

Klassik demografik yondashuvlar XIX asrda Ravenstein tomonidan ilgari surilgan migratsiya qonunlari asosida shakllangan.[14] Yondashuv migratsiyani geografik yaqinlik, urbanizatsiya va hududlararo masofa bilan bog‘liq nuqtai nazardan talqin qiladi. Migratsion harakat demografik bosim va tabiiy omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bunda migrantlar faol sub’ekt sifatida emas, balki statistik harakat ob’ekti sifatida ko‘riladi.

Iqtisodiy yondashuvlar migratsiyani asosan iqtisodiy nomutanosibliklar- daromadlar farqi, mehnat resurslarining taqsimoti, yoki bozor segmentatsiyasi orqali izohlaydi. Neoklassik nazariya migratsiyani ish haqi farqlari va mehnat bozoridagi tengsizliklar asosida ratsional tanlov sifatida o‘rganadi.[11] Dual mehnat bozori modeli uni rivojlangan mamlakatlardagi institutsional talab asosida tushuntiradi. Yangi iqtisodiy migratsiya nazariyasi (NELM) esa uy xo‘jaligi darajasida daromad diversifikatsiyasi va iqtisodiy barqarorlikka erishish strategiyasi sifatida ko‘radi.

Ijtimoiy tarmoq va institutsional yondashuvlar. Mazkur guruh migratsiyani shunchaki iqtisodiy yoki demografik qaror emas, ijtimoiy aloqalar tizimi, tarmoqlar, ishonch muhitlari orqali shakllantiruvchi jarayon deb izohlaydi. Tarmoq nazariyasi migratsiyaning o‘z-o‘zini ishlab chiqaruvchi jarayon deb izohlaydi. Ya’ni har bir migrant orqasidan boshqa migrantlarni ham tortadi. Ijtimoiy kapital yondashuvi esa migrantlar orasidagi tarmoqlarni resurs sifatida baholab, ularni migratsiyaning davomiyligida muhim omil deb ko‘rsatadi.

Zamonaviy transmilliy konsepsiyalar XXI asrda shakllangan yondashuvlar bo‘lib, migratsiyani global, ko‘p makonli, identitet asosli harakat sifatida talqin qiladi. Ushbu nazariya migrantlarning bir vaqtning o‘zida bir nechta ijtimoiy makonlarda yashashi, faoliyat yuritishini talqin qiladi.

Yuqoridagi to‘rtta nazariy guruh migratsiyani har xil metodologik asoslar bilan talqin qilsada, ularning har biri migratsiya tizimining turli jihatlarini ochib beradi. Klassik yondashuvlar migratsiyaning asosiy naqshlarini va iqtisodiy yondashuvlar esa ratsional va strukturaviy sabablarini, ijtimoiy tarmoq yondashuvlari esa uzluksizlik va mobilizatsiyani tushuntiradi. Transmilliy konsepsiyalar migratsiyani global kontekstdagi ko‘p makonli hayot strategiyasi sifatida talqin qiladi.

Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekistonda migratsiya jarayoniga jalb qilingan aholi ijtimoiy kayfiyati bo‘yicha o‘tkazilgan xalqaro tadqiqotlarga muvofiq, 2005- 2020 yillar davomida 150 mamlakatdan chiqqan migrantlarning 36 ming nafari bilan intervyu o‘tkazilgan. Ushbu tadqiqotdan kelib chiqqan xulosalarga ko‘ra, migrantlar maqsadlariga erishgach, ya’ni boshqa davlatga ko‘chib o‘tganidan so‘ng, baxt his qilish darajasi 9 %ga oshgan. Shundan ayol migrantlarning baxt his qilish

darajalari bor yo‘g‘i 3 %ni tashkil qilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, migrant ayollar baribir o‘z vatanlarida, oilalarining bag‘rida o‘zlarini xotirjam, baxtli his etadilar.

Xulosa va takliflar (Conglusion Recommendations)

Migrant ayollar ba’zan zamonaviy qullikning ayrim turlariga duch kelmoqda. Ayol migrantlar orasida jinsiy segregatsiya sababli zo‘ravonlik va tahqirlanish holatlari kuzatilmoqda. Ko‘pchilik ayollarning ortida qolgan yaqin qarindoshlari, farzandlari, ota-onalari tomonidan pul jo‘nata olmaslik sababli murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolmoqda.

Migratsiya jarayonlarida ishtirok etuvchi ayol migrantlar uchun til, madaniyat, tarix kabi umumiy jihatlar mavjud bo‘lib, garchi tilni bilishsa ham Rossiya Federatsiyasi va Qozog‘istonga borib ishlash holatlari tobora kamayib bormoqda. Bunga sabab, ish haqining kamligi va mehnat qilish jarayonlarining qiyinligi deb aytib o‘tmoqdalar. Hozirgi kunda O‘zbekistonlik migrant ayollar asosan Turkiya, Isroil va Janubiy Koreyaga ko‘proq tashrif buyurishmoqda. Ushbu mamlakatlarda ish haqining yuqoriligi va birmuncha yengil mehnat ayollarni o‘ziga jalb etmoqda.

Migratsion oqimlar inson resurslarining noteng taqsimlanishiga olib kelib, aksariyat kambag‘al davlatlarda intellektual qatlamning chiqib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, ayrim davlatlar katta iqtisodiy zarar ko‘rsa, qabul qiluvchi mamlakatlarda intellektual salohiyatning to‘planishi yuzaga kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ozbekiston Respublikasida tashqi mehnat migratsiyasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida. PQ-3839-sonli qarori.
2. Акаев А.А. Миграция жизни населения. Международный журнал гуманитарных и естественных наук. 2023. URL: https:// cyberleninka.ru/article/n/idei-chikagskoy-shkoly-sotsiologii-y-sovremennih-issledovaniyah-migratsii-naseleniya.
3. Xani Zlot. Migration and migrant workers. Department of Statistics Results and Methdology. 2024. 16-17.
4. Yakubom Biyakom. “Migration and migrant workers” Department of Statistics Results and Methodology. 2024. 25-26.
5. А.В. Седова. Миграция населения: экономика и политика. Россия и современный мир. - под ред.- Вып. 18.-М. ТЕИС, 2023- С. 35-36.
6. o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 15 sentyabrdagi Xorijda mehnat qilayotgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash masalalari muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi ma’ruzasi. https://president.uz/uz/lists/view/3780
7. International migration report 2022.UN.NY.2022 P.3
8. https// cyberleninka.ru/ article /n/migratsiya-formy-i-rol=v uluchshenii-kaches-tva-zhizni-naseleniya 25.10.2025
9. https//cyberleninka.ru./articl/ un / migratsiya -formy-i-rol=uluchshenii -kachestvo-naselenie
10. Migration and Gender//Asia Research Institute. Migration Cluster. Rejim dostupa:https//www.ari.nus. Edu.sg/articleview.asp.id=188
11. Gallati,M. Migrant Domestic Workers across the World: Global and Regional Estimates; International Labour Organization: Geneva, Switzerland, 2024
12. Caroline Nagel Paul Boyle Migration.Editor: Audrey Kobayashe International encyclopediya of human. Geography (second edition) 2023 Pages 81-88
13. Journal of universal science research. ISSN,(E) 2184 Research bib 2024 Volume-4
14. Ravenstein. Key global migration figures, 2021-2024. IOM .UN migration. Article.2024, October,13

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Axmadov Dovudxon Xabibulloyevich
Samarqand davlat pedagogika instituti
dovudxon.axmadov@mail.ru

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

CHRONOLOGY OF OFFICE DOCUMENTS OF THE MUG ARCHIVE

Annotation. This article analyzes a collection of early medieval historical documents the Sogdian written records discovered on Mount Mug focusing on their structure, official status, and chronological features. The study establishes the Mug archive as a body of chancery-court documents based on its paleographic, diplomatic, and sphragistic characteristics.

Keywords: Mug Archive, Sogdian documents, Devashtich, paleography, chronology, chancery documents, archaeological source, judicial system, Sogdian script, 8th-century Central Asia.

“MUG‘ ARXIVI” VA ISh YURITISh HUJJATLARI XRONOLOGIYASI

Annotatsiya.Ushbu maqolada ilk o‘rta asrlarga oid tarixiy hujjatlar to‘plami — Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘diy yozma yodgorliklar, ularning tuzilishi, rasmiy maqomi va xronologik jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda Mug‘ arxivining mahkama devonxonasi hujjatlari sifatidagi maqomi, hujjatlarning paleografik, diplomatik va sfragistik xususiyatlari asosida aniqlanadi.

Kalit so’zlar : Mug‘ arxivi, Sug‘diy hujjatlar, Devashtich, paleografiya, xronologiya, devonxona hujjatlari, arxeologik manba, mahkama tizimi, Sug‘d yozuvi, VIII asr Markaziy Osiyo.

«ХРОНОЛОГИЯ ДЕЛОПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ДОКУМЕНТОВ “МУГСКОГО АРХИВА”»

Аннотация. В статье анализируются структура, официальный статус и хронологические аспекты коллекции раннесредневековых исторических документов – согдийских письменных памятников, найденных на горе Муг, и их совокупность. В исследовании определяется статус архива Муга как документа придворной канцелярии на основе палеографических, дипломатических и сфрагистических особенностей документов.

Ключевые слова: архив Моголов, согдийские документы, Девашти́ч, палеография, хронология, судебные документы, археологический источник, судебная система, согдийская письменность, Центральная Азия VIII века.

Kirish

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘diy hujjatlar ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyosining siyosiy va ma’muriy hayotini yorituvchi eng muhim manbalardan biridir. Ushbu arxiv hujjatlari o‘z tuzilishi, rasmiy maqomi va xronologik belgilariga ko‘ra Panch hukmdorligi devonxonasida yuritilgan rasmiy ish yuritish an’analarini aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mug‘ arxivi bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar asosan A.A. Freyman, V.A. Livshits, O. Smirnova kabi sharqshunoslar tomonidan boshlab berilgan bo‘lib, ular hujjatlarning paleografiyasi, sanasi va tuzilishini dastlabki bor o‘rgangan olimlardir. Keyinchalik M. Is’hoqov, G‘. Boboyorov, B. G‘oyibov singari mahalliy tadqiqotchilar hujjatlarning mazmuni, Sug‘d davlat boshqaruvi va xronologik tizimini yanada mukammal yoritdilar. G‘arb olimlari — Grenet va de la Vaissiere esa arxivni arab istilosi davridagi tarixiy jarayonlar bilan bog‘lab tadqiq etdilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu mavzuni o‘rganishda ilmiy tahlilning umumiy va maxsus usullari qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, qiyosiy-tarixiy yondashuv, tizimli tahlil hamda mantiqiy xulosalash usullari asos bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, manbashunoslik, paleografik ko‘rib chiqish, hujjatlarning ichki va tashqi belgilarini solishtirish kabi ilmiy uslublardan foydalanilib, mavzuga oid faktlar kompleks o‘rganildi.

Tahlil va natijalar

Ilk o‘rta asrlar tarixining nodir manbalari hisoblangan Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlari o‘zining tuzulishi, mazmun mohiyati bilan o‘z davrida mahkama hujjatlari bo‘lganini ko‘rsatadi. Ularning har birida kirish formulasi, maqsadi va vazifalari, hujjat bayoni, tomonlarning shartlari, vaqti va joyi, hujjatlarni tuzgan xattotlar ismlari aks etgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Hujjatlar bir joyda saqlanganini hisobgan oladigan bo‘lsak, ularning qariyb 90 % bitta devonga mansubligi anglashiladi. Hujjatlarning nusxalari topilmagan. Lekin bir necha hujjatlarda ayni hujjatning nusxasi ekanligi qayd etilganki, bu holat devonda mahkama hujjatlarini yuritish ishlariga mos keladi. Ya’ni, mahkamada chiqarilgan har bir hujjatning nusxasi saqlab qolingan va asli jo‘natilgan. Afsuski, hujjatlarning uzoq davrdan buyon saqlanib qolgani, hujjat yozilgan teriga avval boshqa matn yozilib, keyin uning ustidan boshqa matn yozilganligi bois ba’zi hujjatlarning talqini hanuzgacha murakkablik tug‘dirmoqda.

1932 yilda Turkiston tog‘ tizmalaridan biri Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘diy hujjatlar nafaqat sug‘dshunoslar uchun balki arabshunoslar uchun ham qimmatli ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bu fikrni Mug‘ tog‘idan topilgan ikkitagina arabiy hujjatga asoslanib aytib bo‘lmaydi albatta. Mug‘ tog‘i arxividagi ko‘plab hujjatlarning paleografik o‘qilishi va ulardagi voqealarning arablar istilosi bilan chambarchas bog‘liqligi buning isbotidir. 1933 yilning noyabr oyidan boshlab, SSSR FA ning muxbir a’zosi professor A.A.Freyman boshchiligidagi arxeologik ekspeditsiya Mug‘ tog‘iga keldi va qazishma ishlari boshlab yuborildi[7: 691–727].

Ekspeditsiya qal’ai Mug‘dan Sug‘dning Panch hukmdorligining ma’muriy arxivi hamda uning tarkibiga kirib qolgan bir qator shaxsiy arxivlarga tegishli 80dan ortiq hujjatdan iborat butun bir arxivni topishga erishdi. Ular orasida arabiy, xitoy, noma’lum alifbodagi hujjatlar ham topilgan[13: 27–39].

Ushbu o‘rinda ta’kidanishi lozim bo‘lgan muammo shuki, ushbu hujjatlar turkumini qaysi nom bilan atash masalasidir. Bugungi kunda sohaga doir tadqiqotlarda ushbu turkum hujjatlar “Mug‘ hujjatlari”, “Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlari”, “Mug‘ arxivi”, “Mug‘ tog‘i arxivi” kabi nomlar ostida ishlatilib kelinadi. Hujjatlarning topilgan joyi, ularni saqlash holati, saqlanish xususiyatlari, mazmun mohiyati kabi jihatlar ularni qanday umumiy nomda atashni ko‘rsatadi.

1932 yilda topilgan ushbu hujjatlar tarixiy Sug‘diyonaning sharqiy viloyati Panchga tegishli hukmdor saroylaridan biri Mug‘ tog‘ida Abargar qal’si xarobalari ostidan topilgan. Ushbu saroy Arab xalifaligi kuchlariga qarshi kurash olib borgan Devashtichning so‘nggi qarorgohi bo‘lib, u o‘zi bilan birga barcha hujjatlarini saroyda saqlagan. Shuningdek, Panchga qaram Pargar, Buttaman, Xaxsar, Izrovadk va boshqa bir qator mulklarning hukmdorlari ham Devashtichning so‘nggi kunlarida uning yonida turishgan va o‘zlari bilan birga o‘z saroylarining arxiv hujjatlarini ham olib kelishgan. Abargar qal’asi xarobalaridan topilgan Devashtichga qaram hukmdorlarga tegishli o‘nlab hujjatlarning topilishi bunga oydinlik kiritadi[1: 162–170].

Tarixiy jarayonlar ham ushbu masala doirasida yuqoridagi xulosalarga mos keladi. 722 yil Panch hukmdori va unga qaram hukmdorlarning birlashuvi Arab xalifaligi kuchlariga jiddiy qarshilik hisoblangan. Qo‘zg‘olonchilarni ushlash va jazolashga xalifalik ma’muriyati diqqat e’tiborini qaratgan edi.

Voqealar jarayonidan shu narsa ma’lum bo‘ladiki, qo‘zg‘olonning dastlabki davrida Devashtich Panjikent shahriga borib, o‘sha yerdan arablar bilan muzokaralar olib borishga majbur bo‘lgan. Uning Panjikentda ekanligini bilgach, arablar shaharni qamal qilganlar va keyinchalik unga o‘t qo‘yishgan. Natijada shaharni tark etgan Devashtich uchun tog‘ yo‘li orqali Kshtut, Madm, Qum, Xshikat va Shahriston dovoni orqali Xo‘jandga yo‘l ochiq edi. Lekin Devashtich Qum qishlog‘iga yetib borganida Arab xalifaligi kuchlari uning orqasidan yetib kelgan bo‘lib, u Abargar qal’asida himoyalanishga majbur bo‘ladi[11: 185–186]. Devashtich Abargardan tashqari Madrushkatdagi mustahkam qal’ada himoyalanishi mumkin edi. Lekin bu yerdagi cho‘qqida joylashgan qal’adan arablar bilan muzokaralardan keyin chiqib ketish amri mahol ekanligini Devashtich taxmin qilgan ko‘rinadi. Devashtich taxmin qilgan tog‘ qal’alaridan faqatgina Abargarda arablarga qarshi ko‘proq vaqt qarshilik ko‘rsatib turish mumkin edi. Devashtich esa vaqtni cho‘zish hamda iloji topilganda Xo‘jand sari yo‘nalishni tadbir qilgan. Devashtich hech kimdan madad kuchlarining yetib kelmasligiga ko‘zi yetgach, o‘ziga qaram hokimlar bilan Abargar qal’asiga yashirinib, himoyalanishga majbur bo‘lgan va bu jarayonda o‘z saroyining mahkama hujjatlarini olib kelgan.

Mug‘ hujjatlari topilgan davrda ularni savat bilan o‘ralgan holda topilgani, hujjatlarning bir nechasi og‘zi yelimlangan xumlarda saqlangan holda saqlangani ularni saqlash uchun qilingan harakatlar ekanligi ma’lum bo‘ladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, hujjatlar yerga ko‘milmagan, balki, ular dastlab bino shiftida saqlangan. Binoga o‘t ketib vayron qilingach, shiftdagi hujjatlar yerga tushib tuproq ostida qolgan va yillar davomida unutilgan[8: 691–727].

Hujjatlarning bir qismida muhrlar bosilgan. V-4 raqamli orqa sahifasining quyi chetiga 23x17 mm diametrga ega bo‘lgan loy muhr bog‘langan va tasma bilan charm o‘ramining beliga o‘ralgan. V-9 raqamli hujjatning pastki qismida teshik mavjud bo‘lib, muhr o‘rni hisoblanadi. V-17 raqamli sug‘diy hujjat ham boshqa maktublar qatori, Devashtich tomonidan vassallariga yuborilgandek. Lekin bu hujjat asl nusxa hisoblanadi. Undagi muhr va VIII asr boshlarida Sug‘d uchun qimmatbaho sanalgan qog‘ozga bitilgani bu maktubni Afshun o‘zi bilan birga olib Devashtich huzuriga kelganidan darak beradi. V-17 raqamli hujjat ham muhr bilan tasdiqlangan bo‘lishi kerak. Bunga orqa yuzasidagi tasmacha qoldig‘i dalil bo‘la oladi. Biriktirilgan loy muhr aynan oxirgi qator ustiga tushgan va u buklangan vaqtida varaqning o‘rtasiga to‘g‘ri kelgan (xuddi charmdagi hujjatlarni muhrlagan kabi). V-18 raqamli Devashtichning Xaxsar hokimi Afshunga maktubi ham shu xususiyatga ega. Hujjat zebu (?) tog‘ ho‘kizining tasviri tushirilgan qizil loy bilan muhrlangan. Xuddi shu kabi muhr A-2 (hujjatning chap tomonidan qizil muhr (tuya tasvirlangan)ni o‘zida biriktirgan tasma mavjud) va A-3 (hujjat muhr bilan (qizil loy izi bor) biriktirilgan. Muhrda V-18 va A-2 hujjatlaridagi kabi zebuning tasviri tushirilgan) hujjatlarida ham uchraydi. A-2 va A-3 raqamli hujjatlaridagi muhrlarning hajmi 0,5-1 sm bo‘lib, bir-biriga o‘xshash. A-11 raqamli hujjatning yuqori qismida (1 sm) arqonga osilgan bo‘lib, aftidan unga muhr osilgan. A-18 raqamli hujjatning oxiridan oldingi qator oldidan teshik mavjud.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Aftidan bu yerga muhr bosilgan. Nov. 3. raqamli sug‘diy hujjatda ham uni tasdiqlash uchun bosilgan gildan yasalgan muhr izi bo‘lgan. Nov. 4. raqamli *hujjatda esa loydan muhr bo‘lgan - muhrni yopishtirish uchun ishlatiladigan charm tasmasi saqlanib qolgan. Mug‘ arxiviga oid deb qaraladigan Afshunning Kartega yozgan maktubi*ning yuqori chap tomonida ham qizil gildan muhr mavjud[5: 248]. Ko‘rinadiki, Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlari rasmiy ahamiyat kasb etgan va o‘nlab hujjatlardan muhrlarning saqlanib qolgani bundan darak beradi. Bu holatlar esa ushbu turkum hujjatlarning o‘z davrining mahkama arxivi bo‘lganidan darak beradi.

Hujjatlar mazmuni va tipologiyasi ularni devonxonada tuzilganini ko‘rsatadi. Hukmdorning buyruq, farmon, ko‘rsatmasi kabi rasmiy hujjatlari sanasi va guvohlari ko‘rsatilgan holda tuzilgan hamda maxsus saqlangan[14: 13]. Bu holatlar Mug‘ tog‘i Abargar qal’asidan topilgan arxiv ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois ham keyingi o‘rinlarda ushbu turkum hujjatlar “Mug‘ arxivi” iborasi ostida talqin qilinishi to‘g‘ri bo‘ladi.

Hujjatlarning xususiyatlarini aniqlashda ularning tuzilishi va tashqi xususiyatlari bilan birga yozilgan davri, ya’ni xronologiyasiga oydinlik kiritish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Mug‘ tog‘i arxi hujjatlarida keltirilgan hujjatlar orasida bevosita tuzilgan yili va davri ko‘rsatilgan hujjatlar bilan birga davri ko‘rsatilmagan hujjatlar ham talaygina mavjud. Ushbu turkum hujjatlar asosan ularning mazmunidan kelib chiqib davrlashtiriladi. Ilk o‘rta asrlar Sug‘dda har bir bir hukmdor taxtga kelgan davridan boshlab yil hisobi yuritila boshlangan. Masalan, Tarxun erasi (700-710) yoki Devashtich erasi (708-722) kabi eralar ayni hukmdorlarning hukmronlik yillari bilan davrlashtirilib, ayni erada tuzilgan hujjatda ushbu hukmdorlarning umumiy hukmronlik yillari yoki hujjat tuzilgan yil qayd etilgan. Ya’ni, Tarxun – Sug‘d podshosining erasi milodiy 700-710 yillar orasida amal qilgan; Devashtich erasi 708-722 yillar orasida amal qilgan. Bu esa hujjatlar davrini aniqlashtirishda murakkablik tug‘dirish barobarida, o‘quvchini chalkashtiradi. Shu bois Mug‘ arxivi va shu asosda Sug‘d mahkamachiligi hujjatlarining xronologiyasini aniqlash O‘zbekiston xalqlari davlatchiligi tarixini tadqiq etishda amaliy ahamiyat kasb etadi. Zero vaqt hisobi tarixni bilishning asosidir. Tarix voqe’liklarining muayyan tizimi sifatidan vaqtdan tashqarida bo‘lishi mumkin emas.

Insonning xotirasi o‘tmishni saqlash, undan kelajak uchun ibrat topishga moyil. Hozir ham, zamonamiz qanchalik taraqqiy topganiga qaramay, tarixga murojaat qilish tabiiy ravishda ijtimoiy, siyosiy, ma’naviy zaruriyatligicha qolmoqda. Shu bois Markaziy Osiyo xalqlari xronologiyasi tarixini birlashtiruvchi maxsus tadqiqot va o‘quv adabiyotlariga ehtiyoj katta. Hozircha qadimgi va ilk o‘rta asrlarga oid xronologik ma’lumotlar V.A.Livshisning “Zardushtiylik taqvimi” [12: 320–322], A.A.Freymanning “Sanasi mavjud sug‘d hujjatlari” nomli maqolalarida aks etgan. Shu bois ham Mug‘ arxivi hujjatlari davrini o‘rganish esa ushbu sohani yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bevosita Mug‘ arxivi hujjatlarining xronologiyasini dissertatsion ish yoki monografik rejada amalga oshirgan tadqiqot bugungi kunda mavjud emas. A.Freyman, V.Livshis, O.Smirnova, M.Is’hoqov, G‘.Boboyorov, A.Otaxo‘jaev, B.G‘oyibov, A.Begmatov kabi olimlarning ishlarida Mug‘ tog‘i arxivi hujjatlari tahlil qilinganda ularning davriga to‘xtalib o‘tilgan, xolos.

Mug‘ arxivi hujjatlarining davriy xususiyatlarini aniqlashda (agarda davr ko‘rsatilmagan bo‘lsa) hujjatning matni, ya’ni, yozuvning paleografik tuzulishi, hujjatda aks etgan voqealarning tahlili, matnda aks etgan shaxs va joy nomlari talqini, shuningdek, ushbu nomenklaturaning boshqa manbalar orqalida uchrashi yoki aksincha ekanligi kabi matnshunoslikka oid[6: 5–12] bir qator jihatlarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

Sug‘diy yozuv oramiydan ajralib chiqqan miloddan oldingi III – II asrlardan boshlab, milodiy V – VI asrlargacha o‘zining shakllanish, fonetik tilga moslashishi, qisqartma shakllardan voz kechdi, yarim qiyalama va husnixat yugurik shakllargacha rivoj bosqichlaridan o‘tgan[3: 386–390]. Bu jarayon umumsug‘diy “milliy” yozuv doirasida jiddiy vazifaviy va harfiy shakllar o‘zgarishlarini tug‘dirdi[2: 256–263]. Natijada, sug‘diy yozuv ayni tilga moslashgan, o‘z imlo qoidalariga ega, omma orasida keng

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

tarqalgan holda turli kotiblik maktablari bor va avom orasida savodxonlikni ham ta’minlash darajasiga yetgan muhim madaniy hodisaga aylangan. Tarixga ma’lum sug‘diy yozuvlarining so‘nggi namunalari milodiy X-XI asrlar bilan chegaralangan[9: 22,61].

Muammoni aniqlashda sug‘diy til bilan bog‘liq masalalarni ham ko‘rib chiqish lozim bo‘ladi. Sharqiy Turkistondan topilgan sug‘diy yozma yodgoliklar bu tilni o‘rganishda asosiy manbalar bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Ularning aksariyati VIII-IX asrlarga oid hisoblangani holda bir guruh qo‘lyozmalar borki, ular milodiy II-III (G.Rayxelt) yoki IV asr boshlariga (V.B.Xenning) tegishli deb baholangan. Bu guruh sug‘diy yodgorliklardagi yozuv yuqorida R.Gotyo ko‘rsatgan sug‘diy, keyinchalik umumsug‘diy, xatto, “milliy” sug‘diy (V.B.Xenning) deb atalgan yozuvning arxaik grafik shakllarida hamda yarim kursiv usulda ekani bilan ajralib turadi. Sug‘diy tilning grammatik tavsifi K.G.Zaleman (xristian diniy matnlari asosida), F.V.K.Myuller (moniy diniy matnlari asosida), R.Gotyo (buddaviy diniy matnlar asosida) 1907-1914-yillar davomida keng ko‘lamda boshlangan. Ammo bu tadqiqotlar ulkan miqdordagi yozma yodgorliklarning barchasini qamrab ololmagan edi. Biroq ushbu boshlang‘ich davrdayoq sug‘diy til grammatikasining ko‘pgina xususiyatlari haqida tizimli ma’lumotlar yig‘ilgan edi. Masalan, K.G.Zaleman sug‘diy xristian diniy matnlari tili sug‘diylarning og‘zaki nutqi asosiga tayangan ekanini, buddaviy diniy matnlarda tarixiy orfografiya amal qilganini, moniy diniy tekstlarida har ikki, ya’ni adabiy me’yor hamda og‘zaki nutq xususiyatlari borligini aniqladi. G.Rayxelt esa, sug‘diy tilda grammatik suffikslarning taqsimlanishi so‘z o‘zagining unli tovushlari cho‘ziqligi yoki qisqaligi hamda bo‘g‘inlar soniga bog‘liq ekanini aniqladi. Bu qonuniyat sug‘diy tilning ritmik qonuni degan nom oldi. Ushbu qonunning ma’nosi shuki, bir hildagi grammatik ot o‘zaklar turlanishi va fe’l o‘zaklarining tuslanishida unli tovush talabi bilan yoki bo‘g‘inlari soniga qarab turli suffikslar tanlanadi[10: 10–12]. Ushbu olimlar boshlagan ishlar Rossiyada A.A.Freyman, so‘ngra uning shogirdlari V.A.Livshis, O.I.Smirnova va O‘zbekistonda M.Is’hoqov va uning izdoshlari tomonidan davom ettirildi.

O‘zbekistonda yevropalik olimlardan farqli o‘laroq asosiy e’tibor Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlarini o‘rganishga qaratilgan. Mug‘ tog‘i sug‘diy hujjatlari paleografik xususiyatlaridan tashqari ularda aks etgan mazmun va faktlar asosida VII asrning oxiri VIII asrning birinchi choragi, ya’ni, 722 yilgacha bo‘lgan davrga oid deb topilgan. Ushbu sana 708-722 yillarda Sug‘dning sharqiy hukmdorligi bo‘lgan Panchni shu vaqt davomida ikki yil (717-719 va 719-721 yillar) Sug‘d ixshidi nomi bilan ish ko‘rgan (boshqargan) Devashtichning arab istilochilari tomonidan Markaziy Osiyoni boshqarish uchun tayinlangan noibga[4: 189] yozgan maktubi tahlili asosida belgilangan[11: 185–186]. Hujjatning muhim jihati shundaki, unda ko‘rsatilgan sana faqat bir xatga emas, balki butun Mug‘ arxivining xronologik davrini nazarda tutgan. Ushbu hujjat arxivdagi oxirgi hujjat bo‘lib, Devashtich hukmronligining so‘nggi davriga to‘g‘ri kelishi mumkin. Shu bois ushbu hujjatni arxivning butun davriy xususiyatini o‘zida jamlagan bo‘lishi mumkinligini taxmin qilish mumkin. Bu holat arxivdagi boshqa hujjatlarni ham davriy solishtirish orqali yanada oydinlashadi.

Davriy jihatdan hujjatlar quyidagicha sanalarda yozilgan: 1.I. raqamli hujjat 721-722 yillarga mansub; V-1 hujjati Devashtich hukmronligining 721-722 yillariga oid tilxat; V-3 raqamli hujjat Panch hukmdori Devashtichning 11 hukmronlik yili (milodiy 719-720 yillar)da yozilgan; V-4 esa 722 yilning 4 aprelida yozilgan deb hisoblanadi; V-8 hujjati Panch hukmdori Chakin cho‘r bilga hukmronligining 15 yili (708 yillarga to‘g‘ri keladi)da yozilgan[1]; V-12 maktubidagi shaxslar ismi va ularning faoliyati tahlili xat 718 yil boshi va 719 yil apreli oralig‘ida yozilganini ko‘rsatadi; V-14 raqamli hujjat 712-713 yillarda bitilgan; V-17 hujjatini tadqiqotchilar xatda bayon etilgan voqeliklarni boshqa tillardagi ma’lumotlar bilan solishtirib, uni 721 yilning kuzida yozilganini taxmin qilishadi; A-1 hujjati Devashtich hukmronligi yillarida (708-722) yozilgan; A-2 hujjati 717-719 yillar oralig‘ida yozilgan

[1] Ҳужжат Муғ архивидаги Чакин чўр билга даврига оид ягона ҳужжат ҳисобланади – А.Д.

bo‘lishi mumkin; A-4 hujjati tilxat hisoblanib, Panch hukmdori Devashtichning oltinchi hukmronlik yilida (714 yil) tuzilgani qayd etilgan; A-8 raqamli hujjat *Devashtich hukmronligining sakkizinchi yili (716 yil)da bitilgani qayd etilgan;* A-9 hujjati 722 yil avgust oyining birinchi haftasida yozilgan deb taxmin qilinadi; A-10 esa Devashtich hukmonligining 11 yili (719 yil)da qayd etilgan; A-13 hujjati Devashtich hukmronligining 14 yili (722)da yozilgan; *Buyruq tuzilgan sana sifatida Devashtich hukmronligining 2-chi yili (710-711) ko‘rsatilgan; A-16 hujjat tuzilgan sana sifatida Devashtich hukmronligining 2-chi yili (710-711) ko‘rsatilgan; B-7 hujjati tahlili uning 722 yil kuziga qadar yozilganini ko‘rsatadi; B-17 hujjatida* maktub muallif biroz betob bo‘lgani va buni oldingi xatida yozgani, xat yozilgan vaqtda qishloq oqsoqoli (katiyabshauz) va uning maslahatchisi (arspan) uning yonida bo‘lgani xabar qilinadi. Aftidan ushbu maktub ham Panchning xalifalik kuchlari tomonidan istilo etish arafasida bitilgan (VIII asrning birinchi choragi); Nov. 1. hujjati Devashtich hukmronligining sakkizinchi yili (716-717)da yozilgan; Nov. 2. esa 721 yilning kuzi – 722 yilning bahori oralig‘ida yozilgan deb hisoblanadi; Nov. 3. va Nov. 4. h*ujjatlar Tarxun (700-710) hukmronligining o‘ninchi yilida, ya’ni, 710 yilda tuzilgan. Hujjat Mug‘ arxividagi eng katta hujjat hisoblanadi;* Nov. 5. Hujjatida Devashtichning unvonsiz shaklda ko‘rsatilgani bu hujjat 708-717 yillar oralig‘ida yozilganiga ishora beradi; Nov. 6. raqamli hujjatining 1-11 qatorlarida tushum haqida gap ketib, sanasi Devashtich hukmronligining 10-12- yillari belgilansa, 12-17 qatorlardagi tushumlar Devashtich hukmronligining 13-yili bilan sanalangan[15: 137–165].

Mug‘ arxivi mahkamasidagi hujjatlarning hammasida ham sana ko‘rsatilmagan. Ularning ba’zilarida sanasi o‘chib ketgan. Sanasi mavjudlari ham ayni maktub sohibining erasi bilan keltiriladi. Masalan, Devashtich 708-722 yillarda taxtni boshqargan bo‘lib, 708 yil ushbu hukmdorning birinchi hukmronlik yili sifatida qayd etiladi. Bir qator hujjatlar sanasi aniqlashtirishda Devashtichning “Sug‘d podshosi, Samarqand hukmdori” sifatida qayd etilgan davri (717-719) yillar asos qilib olindi. Devashtich unvonsiz keltirilgan hujjatlar esa 717 yilga qadar yozilgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

Mug‘ tog‘idan topilgan hujjatlar o‘z xususiyatlariga ko‘ra arxiv hioblanib, devonxonada tuzilgan va mahkamachilik qoidalari amal qilingan holda rasmiylashtirilgan. Shu bois ham ushbu hajjatlar turkumini “Mug‘ arxivi” deb yuritish sohaga oid tadqiqotlarda bunga amal qilish maqsadga muvofiq;

Mug‘ arxivida mahkama xattotlari 1 ta Chakin cho‘r bilga va 1 dona Tarxun hukmronligi yillarida oid hujjatlarni ham yozganliklari qayd etiladi. Ushbu hujjatlar tuzilishi, paleografiyasi va mazmun mohiyati Mug‘ arxivining qolgan hujjatlari bilan juda o‘xshash. Bu hujjatlar Panch devonxonasida oldindan saqlangani oydinlashadi. Bu esa bizgacha yetib kelgan hujjatlardan tashqari har bir hukmdorning o‘z arxivi bo‘lganidan darak beradi;

Sug‘diy yozma yodgorliklarni hamma vaqt ham osonlikcha sanalab bo‘lmaydi. Bunga yodgorliklarning yomon saqlanganligi, mazmun mohiyatning noaniqligi, bir necha bo‘laklarga bo‘linib ketgani ham sabab bo‘lishi mumkin. Birgina so‘z yoki so‘zning bir qismi yoki bir dona harf mavjud yodgorliklarning bo‘laklari mavjud bo‘lib, ularni sanasini aniqlashda yozuv belgilari hisoblangan harflarning tuzulishi asos bo‘lishi mumkin. Shuningdek, yodgorliklarning sanasini aniqlashda matn mazmuni unda aks etgan voqealarning tarixiy talqini, shaxs nomlari, ularning boshqa tarixiy manbalarida uchrashi yoki aksincha ekanligi, turli tushunchalar kabi bir qator belgilovchi xususiyatlardan tashqari matn yozuvining tashqi va ichki belgilarini qiyosiy o‘rganish ham samara beradi.

Umuman olganda Mug‘ arxivi hujjatlari mazmun-mohiyati jihatidan arxiv talablariga javob berishi, xronologik jihatdan 90 %dan ortiq hujjatlar VIII asrning birinchi choragiga to‘g‘ri kelishini ta’kidlab xulosa qilish mumkin.

Xulosa va takliflar

Mug‘ tog‘idan topilgan sug‘diy hujjatlar o‘zining rasmiy tuzilishi, muhrlari va xronologik belgilariga ko‘ra VIII asr boshlariga mansub yagona devonxona arxivi sifatida baholanadi. Ushbu hujjatlar Sug‘d davlat boshqaruvi, ish yuritish an’analari va mahkama tizimi haqida muhim ma’lumotlar beradi.Arxivni yanada chuqur o‘rganish uchun hujjatlarni yagona tizim asosida qayta tartibga solish, paleografik va lingvistik tahlillarni zamonaviy usullar bilan boyitish, shuningdek Sug‘d ish yuritish madaniyatiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq bo‘ladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Grenet F., De la Vaissiére È.The last days of Panjikent // Silk Road Art and Archaeology, 8, 2020. 196 p.
2. Livshits V.A. A Sogdian Alphabet from Panjikant // M. Boyce, I. Gershevitch (ed.), W.B. Henning Memorial Volume. London, 1970.540 p.
3. Боголюбов М. Древнеперсидский и согдийский календари в сопоставлении с древнеиранским сезонным календарем // Труды по иранскому языкознанию: избранное / Под ред. О.Чунакова. Москва, 2012. 503 с.
4. Бу даврда Мовароуннаҳрда ноиблик қилган Хуросон ноиби Жарроҳ ибн Абдуллоҳ ал-Ҳакамий (717-719) бўлган (Қаранг: Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. Тошкент: ART-FLEX, 2010. 220 б).
5. Бу ҳақда батафсил қаранг: Каталог памятников согдийской письменности в Центральной Азии (Catalogue of sogdian writings in Central Asia) / Составители: Б.Гойибов, П.Лурье, А.Бегматов, В.Распопова, Г.Бобоёров. Самарканд: МИЦАИ, 2022. – 248 с.
6. Гельб И.Е. Опыт изучения письма (основы грамматологии) / Перевод с английского языка Л. С. Горбовицкой и И. М. Дунаевской; Под редакцией и с предисловием И. М. Дьяконова. Москва: Радуга, 1982 - 372 с.
7. Джумаев А.Б. Абдуламид Пулоди – краевед, собиратель рукописей и работник культуры // Записки восточного отделения Российского археологического общества, новая серия. Вып. III, 2015.1112 с.
8. Исҳоқов М. Суғдиёна – тарих чорраҳасида. Тошкент: Фан, 1990.76 б.

9. Исҳоқов М., Ғойибов Б. Суғдий ёзув чизма шакллари археограмматологияси. Молдова Республикаси: GlobeEdit, 2023. 127 б.
10. Исҳоқов М., Ғойибов Б. Суғдий тил тарихи. Тошкент: Bookmany print, 2024. 144 б.
11. Крачковский И.Ю. Древнейший арабский документ из Средней Азии / Избранное сочинения. – Москва-Ленинград: Изд. АН СССР, 1957. Том. I. – 504 с.
12. Лившиц В.А. “Зороастрийский” календарь // В книге (Э.Бикерман) «Хронология древнего мира. Ближний Восток и античность». Москва: Наука, 1976. 334 с.
13. Лившиц В.А. Правители Панча (тюрки и согдийци) / Народы Азии и Африки (Кейинги ўринларда НАА деб келтирилади). 1979. №4. – 279с.
14. Распопова В.И. Школы писцов в Пенджикенте VII-VIII вв. Санкт-Петербург: Политех-пресс., 2019. 80 с.
15. Фрейман А.А. Опись рукописных документов, извлеченных из развалин здания на горе Муг в Захматабадском районе Таджикской СССР около селения Хайрабад и собранных Таджикистанской базой Академии наук СССР // Согдийский сборник. Ленинград: Изд. АН СССР, 1934. С. 5-15; Фрейман А.А. Датированные согдийские документы с горы Муг а Таджикистане // Труды ИВ АН СССР. Том XVII, 1936. 455с.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Oybek Egamkulovich Navruzov
Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
“Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrasi” o‘qituvchisi (PhD)
E-mail:otabek101981@gmail.com

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

EDUCATION AS AN INSTITUTIONALLY SIGNIFICANT FACTOR IN MAINTAINING STABLE SOCIAL NORMS

Abstract. Education, as a socio-cultural factor that generates, explains, and regulates social norms and social phenomena, has historically developed in accordance with the requirements of human society. It is also known from history that education, representing the interests of a particular class or community, has become a means of reflecting certain ideological and political aspects, either positively or negatively. Based on this, determining the humanistic nature of education and systematizing the requirements for building a prosperous society acquire special significance. In particular, in today’s advanced intellectual society, it can be observed that the social influence of education—namely, the establishment of peace, religious tolerance, rational attitudes toward the natural environment, and similar issues—is gradually weakening.

Keywords: value element, social norm, collective action, purposeful action, strategic activity, stability, forms of consensus, gender equality, human life.

ОБРАЗОВАНИЕ КАК ИНСТИТУЦИОНАЛЬНО ЗНАЧИМЫЙ ФАКТОР ПОДДЕРЖАНИЯ СТАБИЛЬНЫХ СОЦИАЛЬНЫХ НОРМ

Аннотация. Образование как социокультурный фактор, формирующий, объясняющий и регулирующий социальные нормы и явления, исторически развивалось в соответствии с потребностями человеческого общества. Из истории также известно, что образование, представляя интересы определённого класса или сообщества, стало средством отражения определённых идеологических и политических аспектов, как позитивных, так и негативных. Исходя из этого, определение гуманистической сущности образования и систематизация требований к построению процветающего общества приобретают особое значение. В частности, в современном развитом интеллектуальном обществе можно наблюдать постепенное ослабление социального влияния образования, а именно: установления мира, религиозной толерантности, рационального отношения к окружающей среде и подобных вопросов.

Ключевые слова: ценностный элемент, социальная норма, коллективное действие, целенаправленное действие, стратегическая деятельность, стабильность, формы консенсуса, гендерное равенство, жизнь человека.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

TA’LIM BARQAROR IJTIMOIY ME’YORLARNI SAQLASHDA INSTITUTSIONAL AHAMIYATGA EGA OMIL SIFATIDA

Annotatsiya. Ta’lim ijtimoiy normalarni yuzaga keltiruvchi, ijtimoiy hodisalarni anglatuvchi va tartibga soluvchi ijtimoiy-madaniy omil sifatida kishilik jamiyati talablariga mos tarzda tarixan rivojlanib kelgan. Ta’lim ma’lum bir sinf yoki jamoa manfaatlarini ifoda etib o‘zida mafkura va siyosatning o‘ziga xos tomonlarini ijobiy yoki salbiy fonda aks ettirish vositasiga aylanganligi ham tarixdan ma’lum. Bundan kelib chiqqan holda ta’limning insonparvar xarakterini aniqlash farovon jamiyat qurish sari qo‘yiladigan talablarni tizimlashtirish masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bugungi rivojlangan intellektual jamiyatda ta’limning ijtimoiy ta’sir kuchi ya’ni, tinchlikni saqlash, diniy bag‘rikenglik va tabiy muhitga nisbatan oqilona munosabat shakllarini qaror toptirish va shu kabi masalalarda susayib borayotganligini kuzatish mumkin.

Kalit so‘zlar: Qadriyat elementi, ijtimoiy norma, jamoaviy harakat, maqsadli harakat, strategik faoliyat, barqarorlik, kelishuv shakllari, gender tenglik, inson umri.

The Functions of Education as an Element that Forms Values

Introduction. An individual’s professional, moral, and communal activities are based on existing norms, and correspondingly, the degree of awareness within these activities manifests certain value elements. In scientifically identifying and directing the trajectory of an individual’s social activity, taking into account and studying the educational factor has become one of the important socio-spiritual issues before the international community today.

In particular, since 2003, under the initiative of UNESCO, work has been carried out at the international level to “ensure access to quality education, use opportunities and resources rationally, develop the vocational education system, and support borderless education” [1]. The main goal of these international and regional reforms is to develop values and principles that serve the human factor. In this regard, it is considered necessary to scientifically analyze the values that serve human interests [2] and, on this basis, to widely promote the idea of humanism.

When determining approaches toward existing values, it must be taken into account that religious, national, economic, and political factors, through education, serve universal human interests; therefore, a unified international approach must be developed.

One of the issues facing today’s social sciences is the following question: Should the education system rely on new norms, or should it be based on values derived from those norms? These questions arise as liberal ideas influence society and create new individual positions [3] (regarding family, professional, and gender relations).

Analysis of literature on the topic. The weakening status of educational institutions on a societal scale may be considered a major cause of this. The decline of the status of educational institutions gives rise to two major concerns: firstly, the risk of humanity becoming alienated from universal human principles and the increasing instability within the social world (social relations), and secondly, the intensification of axiological problems, which are directly connected to social values and raise the issue of values as an important social concern.

The acquisition of educational values begins first within the family, yet alongside this, other social agencies that influence the child at the family level are emerging. These include non-governmental educational institutions intended for young children in the form of preschool organizations, boarding schools, and vocational education systems based on boarding structures, among others. It is advisable that these institutions carry out education and upbringing in cooperation with the family [4]. The reason is that in many cases, when parents completely leave their children in

the hands of an institution, situations arise in which children become alienated from their families and fail to understand family relationships correctly.

At the same time, information and media networks—which are becoming increasingly influential across all spheres of social life—are manifesting their dominance over traditional social institutions in today's social reality, assuming a managerial role over individuals, especially the youth. These networks gather large audiences and disseminate various values, extending their influence from the national and regional levels to the international level, thus acquiring significant importance in all systems of social life.

For education as a social value not to fall into a secondary position compared to other institutions such as religion, professional skills, and culture, it requires continuous attention and supervision.

Education cannot remain indifferent to social, regional, and national realities because it constantly encounters modern societal and international issues. According to research in the field of education, in the context of a market economy, the individual has often been defined as *"*homo economicus." However, today terms such as "uncertain person," "crisis of subjectivity," "happy human," *and* "hypermodern individual" can also be found.

Overall, determining which definition should be applied to the human being—and on which value-based principles education should rely—presents complex issues when viewed from the perspectives of societies, states, beliefs, and traditions. For this reason, it is essential to build the educational system based on universal requirements and values of humanism.

The influence of existing public values has led to a noticeable decline in the responsibility of education as a socializing institution. This is connected to such processes as individuals' internal motivations, their desire to form their own personality, the expanding influence of the information-media sphere over socialization factors, as well as the growing subjectivization of individuals. Values govern complex and diverse activities in a logical sequence. In education, values are imparted effectively in relation to specific situations, relying on pedagogical evidence—whether through simple discussion or through certain kinds of texts.

An educational institution cannot achieve any results on its own; rather, it can do so only by organizing an inter-institutional integration process and fulfilling the role of a coordinating locomotive.

All education depends on the extent to which a person dedicates themselves to the educational process. In primitive societies, the concept of dedication corresponded to ceremonial rites; such rituals—consisting of tests, purification, renaming, and similar customs—served to ensure that a child participated in the laws, rules, and belief ceremonies established in the tribe and was accepted as a mature individual. Although most of these rituals have nearly been forgotten, the spiritual closeness and emotional bonds they cultivated have been passed from generation to generation as a human sentiment. This intergenerational continuity [5] is transmitted through education.

Analysis and results. This process is well known to all of us: the younger generation receives values from the older generation through imitation, encouragement, as well as through advice and admonition. This applies not only to moral matters but is also observed in aesthetic, economic, and many other spheres of everyday life. The aim is to lead the younger generation from darkness to light, to provide an understanding of real reality, and to develop the values necessary for evaluating existing situations.

One of the important functions of education is not merely to transmit everything society desires, but rather to ensure the continuity of fundamental values.

In some societies, the educational process does not yield the expected outcomes. This may result from an inability to correctly assess existing opportunities and conditions, as well as from public indifference toward reforms. In addition, when education loses its neutrality in scientific research

regarding socio-political realities—meaning that teachers rigidly impose a particular doctrine (political, religious, or racial) on young minds—this leads to the strengthening of disrespect, disregard, and partisanship toward others. Consequently, under the influence of right- or left-wing partisanship, the ability for objective evaluation disappears, and the status of education as a value declines.

This situation is evident in our recent past: in the socialist system, for example, condemning capitalist society and instilling hatred toward it in the minds of young people caused education to serve ideology rather than societal progress. From this perspective, if education ensures independence within its research domain, learners develop the ability to differentiate, analyze, and synthesize, and its effectiveness as a value becomes reflected in continuous social life.

When education and morality are integrated as a single value, individual activities merge into a collective force for the benefit of society. If the emergence and formation of values are studied in connection with historicity, sociology examines them from the perspective of their impact on society. However, contemporary sociological scholarship rarely studies the issues of how individuals adopt values or imitate them.

The purpose of teaching is not to impose obligatory respect for or compulsory support of certain values. On the contrary, if moral-analytical approaches are applied to reality within the educational process, education will manifest its effectiveness in the social environment. Another characteristic feature of society is moral capital—a complex task initially carried out by primary education. Its role is to awaken a child's interest in knowledge, help them identify their orientation based on what they have learned, and support the formation of future goals.

Philosopher Frederick Rauh, in his work Études de morale (Studies of Morality)*, states:* "Civilization is not only a reality that connects concepts and ideas but also a harmony of feelings. This entire spiritual substance must be instilled in the schoolchild." [6]

Teachers, in performing their duties, apply certain pedagogical methods to educate the child. During this process, while the student acquires knowledge, they also begin to determine which values will guide their future plans. At this stage, compatibility—or incompatibility—may arise between the values acquired in the family and those developed in educational institutions. Such situations primarily reflect socio-spiritual characteristics and may occur due to the inability of the education system to maintain neutrality, which results in subordinating education to certain political-ideological ideas and thus weakening its objectivity.

Today, it has become necessary to develop and implement a number of methods that foster individual abilities and thinking, ultimately contributing to the formation of well-rounded personal qualities. Efficient use of mass media opportunities and the productive use of social networks open a new direction in contemporary approaches to education. In this regard, the formation of foundational knowledge in the younger generation begins in primary education and gradually rises to higher levels of development. This process includes two important aspects.

First, primary education conducted in school represents the transition from understanding individual existence to recognizing one's participation in social existence (forms of social relations). At the same time, based on the knowledge acquired, an individual begins to understand that it is possible to obtain education in accordance with their personal goals. This creates opportunities for the individual to choose a particular form of education based on their future plans [7]. As a result, knowledge is formed, and their thinking and worldview gradually shift in a positive direction. This transformation occurs during the learning process and is observed in the growth of individual thinking in accordance with social cognition.

Second, foundational knowledge begins to form and develop. Each subject's scientific basis consists of concepts, rules, and theories that embody the essence of that discipline. These very theories, concepts, and fundamental principles become expressed and classified within foundational knowledge.

In developing societies, new ideas and changes in science and technology evolve directly in connection with education. Along with systematically studying the foundations of science in the educational process, it is also necessary to consider the development and enrichment of previously acquired knowledge.

As a result of education, generalized knowledge is formed, and on this basis, consistent thinking skills develop in the learner, enabling them to acquire new knowledge and apply it in practical life. Education, as a value, creates a solid foundation for the emergence of new creative ideas and the acquisition of new competencies [8].

The role of education in human life is first instilled within the family and later cultivated as a value by teachers in educational institutions. In our context, however, general secondary and secondary specialized education remain limited to providing basic general knowledge, and the future activities of young people are often decided within the framework of family discussions.

Beginning in the early 20th century, the increase in the number of higher education institutions led to the perception among young adults that obtaining an educational credential (a diploma) was the primary goal in entering professional life. As a result, the tendency to strive merely for a diploma intensified, negatively affecting the quality of professional competence.

In Western societies, the education system—including vocational training and higher education institutions—has established ongoing, large-scale collaborative relationships with production sectors and organizations. Recruitment mechanisms for personnel are not artificially constructed; rather, they are implemented in accordance with clearly defined selection criteria. In this process, organizational interests and individual interests do not contradict one another; instead, they rely on principles of social and economic compatibility as well as professional qualification. This, in turn, provides socio-psychological motivation for the individual to regard education as a highly valuable pursuit.

One of the most effective ways to encourage young people to engage with education is the continuation of the master–apprentice tradition, which is recognized in our society as a historically developed value within professional and educational systems. In particular, since the 2018/2019 academic year, in order to prevent professors and teachers of higher education institutions from spending time on tasks unrelated to the educational process and to ensure that they work more closely with students—specifically by introducing the “master–apprentice” system [9]—new mechanisms for calculating “time norms” for professors and teachers were developed and approved. On the one hand, this initiative provided material support; on the other hand, by strengthening social and creative collaboration in education, it created conditions for transferring accumulated experience and skills to the new generation as a valuable legacy.

In our country, the process by which young people acquire professional skills and knowledge in various fields is carried out through both formal and informal means. Formal education is based on specific periods and standards, while informal professional training is represented by the traditional master–apprentice system, which does not adhere to fixed timeframes or standardized requirements. Both forms of education serve the interests of society and contribute to ensuring that young people spend their free time meaningfully.

Formally, education consists of various stages and forms, conducted in accordance with predetermined periods, schedules, and regulations. At present, the majority of the participants in our national education system are young people. These include the primary, secondary, and higher education levels, each of which possesses its own characteristics. Education at each stage is organized based on age, intellectual capacity, abilities, and skills.

-Conclusion and suggestions. The starting point of formal education—preschool education—involves the early stages of socialization outside the family and covers forms of interaction among

peers grounded in initial independence. It is reflected as the primary institutional form of education and upbringing.

It is at this stage that individuals develop characteristics of interpersonal interaction, and upbringing begins to take place outside the family. Kindergartens do not serve merely as institutions that supervise children; they also contribute to shaping their initial perceptions of the world, stimulating intellectual development and preparing them for school. They help instill basic forms of knowledge and elementary educational practices. Understanding education as a value from an early age fosters respect, while moral concepts of good and bad are conveyed through the figurative characters of fairy tales and fables. Likewise, concepts such as kindness, peace, and respect are communicated to children through symbolic representations. Ethical qualities—such as listening to adults, mutual respect, and courtesy—play an important role in preparing them for participation in social life.

Unlike preschool education, primary and secondary education — which provides knowledge and upbringing to all children — plays an important role in shaping the intellectual potential of society.

Internalizing education as a value and putting it into practice requires both spiritual (religious) and secular engagement from every individual. From a religious perspective, acquiring knowledge is regarded as a sacred duty (farz), and benefiting society through the knowledge one has acquired is considered a virtuous act. From a secular standpoint, the knowledge one gains should serve not only human development but also the natural and social environment, fostering a conscious attitude toward nature and ensuring the creation of favorable living conditions for human life.

References:

1. Vers les sociétés du savoir, Rapport mondial de l'UNESCO, Publié en 2005 par l'Organisation des Nations Unies pour l'éducation. – p. 105.
2. Roger Gal, L'orientation scolaire. Presses universitaires de France, Revue Philosophique de la France et de l'Etranger 139: 2015. – p. 81–82
3. Van Haecht. L'école à l'épreuve de la sociologie. Bruxelles: De Boeck. – 2006. – p. 101.
4. Quiesse. J.-M., Ferré. D. et Rufino. A. L'approche orientante, une nécessité. Tome I. 2014. – p. 103.
5. Milana, M. Rasmussen, P. & Holford, J. Sociétal de la durabilité: La contribution de l'éducation des adultes vers des sociétés durables. Int Rev Educ 62, 2016. – p.217.
6. DUBET, F. À L'école, sociologie de l'expérience / François DUBET, MARTUCCELLI, Danilo. – Paris : Seuil, 1996.
7. Desmeules. L, Nouveaux fondements de l'éducation au Québec Éditions du CRP, éd. Montréal, 2000. – p. 189.
8. Béchard, Jean-Pierre. Des valeurs éducatives à transmettre. Penser la formation en gestion Repères pour l'enseignement supérieur Presses de l'Université de Montréal, DOI: 10.4000/books.pum.2869.
9. Umarov, A.O. The Role of Reading in Ensuring Socio-Cultural Development and Shaping a Perfect Human Personality: Abstract of the Dissertation for the Candidate of Sociological Sciences. – Tashkent: Uzbek State University, 2005. – 56 p.
10. Umarov, A. The Culture of Reading // Life and Law. – 2004. – No. 6.
11. Mavruov, A. Upbringing a Spiritually Mature Person. – Tashkent: Uzbekistan, 2008. – p. 22.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Nasritdinova Munira
O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi kichik ilmiy xodim
munira0434@mail.ru

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

TOSHKENT - QADIMIY HUNARMANDCHILIK MARKAZI

Annotatsiya: Toshkent vohasi qadimdan O‘rta Osiyoning yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri bo‘lib, uning o‘rni va ahamiyati arxeologik manbalarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Iqtisodiy taraqqiyot hunarmandchilikka asoslangan bo‘lib, uning mahsulotlari, jamiyatda kechayotgan madaniy jarayonlarni o‘zida aks ettiradi. Maqolada Toshkent vohasida kulolchilik, metallurgiya, shishasozlikni rivojlanish tarixi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Obirahmat, Burg‘uliq madaniyati, Andronova madaniyati, Choch, Shosh, Binkat, Iloq, o‘simlik-geometrik, zoomorf va epigrafik kompozitsiyalar va h.z.

ТАШКЕНТ - ЦЕНТР ДРЕВНЕГО РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВА

Аннотация: Ташкентский оазис издавна являлся одним из крупных экономических и культурных центров Центральной Азии, его роль и значение наглядно отражены в археологических источниках. Основу экономического развития составляло ремесло, а его изделия отражали культурные процессы, происходившие в обществе. В статье раскрывается история развития гончарного дела, металлургии, стеклоделия в Ташкентском оазисе.

Ключевые слова: Обирахмат, Бургуликская культура, Андроновская культура, Чоч, Шош, Бинкат, Илок, растительно-геометрические, зооморфные и эпиграфические композиции и др.

TASHKENT – CENTER OF ANCIENT CRAFTS

Abstract: The Tashkent oasis has long been one of the major economic and cultural centers of Central Asia, and its role and significance are clearly reflected in archaeological sources. Crafts formed the basis of economic development, and craft products reflected the cultural processes taking place in society. This article reveals the history of the development of pottery, metallurgy, and glassmaking in the Tashkent oasis.

Keywords: Obirahmahmat, Burgulik culture, Andronovo culture, Choch, Shosh, Binkat, Ilok, plant-geometric, zoomorphic and epigraphic compositions, etc.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish (Introduction)

O‘zbek hunarmandchiligi tarixi uzoq o‘tmishdan, o‘n ming yillar muqaddam hozirgi O‘zbekiston hududida yashovchi odamlar tabiiy materiallardan qayta ishlanib, uy-ro‘zg‘or buyumlarini yaratishga borib taqaladi. So‘nggi tadqiqotlar Obirahmat g‘oridan (Toshkent viloyati) topilgan o‘q uchlarining yoshi taxminan 80 ming yil ekanligini ko‘rsatdi – bular butun Yevroosiyo qit’asida topilgan eng qadimgi o‘q uchlari bo‘laklaridir.

Milodiy birinchi ming yillik boshlarida O‘zbekiston Buyuk Ipak yo‘lining muhim bekatiga aylandi. Taxminan 1500 yil davomida bu savdo karvon yo‘li o‘zbek hunarmandchiligining asosiy yetkazib beruvchilari bo‘lgan Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarni o‘z ichiga olgan. Marg‘ilon ipaklari, Rishtondan kulolchilik buyumlari, Samarqanddan qog‘oz yoki Buxoro gilamlari Xitoydan Yevropagacha o‘sha paytda ma’lum bo‘lgan.

Bugun, yuzlab yillar o‘tib, O‘zbekistonda barcha hunarmandchilik an’analari saqlanib kelinmoqda. Ustalar qadimiy texnikaga amal qilib, shogirdlariga o‘zlarining barcha sir-asrorlarini yetkazmoqdalar. Ularning ishi tufayli biz bir vaqtlar ishlatilgan idishlar, kiyim-kechak va zargarlik buyumlarini ko‘rishimiz va hatto o‘zimiz uchun xarid qilishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Hunarmandchilik jamiyat taraqqiyoti darajasini ko‘rsatib beradi. Toshkent vohasi qadimdan hunarmandchilikning ko‘plab sohalari markazi bo‘lgan. Ayniqsa, kulolchilik, metallurgiya, shishasozlik yetakchi o‘rinni egallagan. Bu sohalarni qadimdan to XII asrlargacha bo‘lgan rivojlanish tarixini o‘rganish, Toshkent vohasi qadimiy hunarmandlari madaniyatini ochib beradi. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tahlil qilindi, qiyoslandi va ob'ektiv xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Miloddan avvalgi II ming yillikning oxirida Toshkent vohasida dastlab chorvachilik bilan shug‘ullangan ilk dehqonlar paydo bo‘lgan. Hozirgi Tuyabug‘uz suv ombori o‘rnida ularning aholi punktlari zich joylashgan edi [1]. Bu moddiy madaniyat dastlab Toshkent viloyati Burganlisoy (Burg‘uliq) yoqasida topilgan va Burganlisoy deb nomlangan [2]. Shunday manzilgohlardan yana biri hozirgi Toshkentning janubiy qismida joylashgan Shoshtepa manzilgohidir [3] Aynan shu yerlarda Toshkent vohasining eng qadimgi kulollari o‘z madaniyatlarini yaratadilar. Bu vaqtda hali kulolchilik charxidan foydalanishni kasb etmagan kulollar sopol idishlarni yasashda mato tikilgan xalta shaklidagi qoliplardan foydalanganlar. Ba'zi sopol idishlar yelka qismi och qizil yoki to‘q qora rangli uchburchak naqshlar bilan bezatilgan. Deyarli barcha turdagi hunarmandchilikda ibtidoiydan tortib eng murakkabgacha bezakning qandaydir ko‘rinishi mavjud. Bundan tashqari, bezakning har bir turi ma'lum darajada turli ijtimoiy qatlamlarning estetik didi va g‘oyaviy qarashlarini aks ettirgan.

VIII asr Sug‘d orqali sirlangan kulolchilik ishlab chiqarish texnologiyasi kirib kelgan. Shoshda sirlangan bo‘yoqli shaffof bo‘lmagan qalay-ishqorli sirlardan, sirlangan angob bo‘yoqli shaffof qo‘rg‘oshinli sirlarga o‘tish jarayonlari sodir bo‘lgan. IX asrda bezakdagi texnologik uslublar va badiiy-uslubiy yo‘nalishlar shakllangan bo‘lib, ular IX-X asrlarda Movarounnahrda kulolchilikning jadal rivojlanishini belgilab berdi [4].

Shoshning poytaxti Binkat yirik hunarmandchilik va ishlab chiqarish markazi bo‘lib, u yerda badiiy kulolchilikning yangi turlari joriy qilingan va o‘zlashtirilgan. Toshkent sopol buyumlari vohaning butun shahar va qishloqlariga, qo‘shni hududlarga tarqalib, boshqalarga o‘rnak bo‘lib xizmat qilgan.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Sopolning badiiy dizaynida xilma-xillikka, ishlab chiqarishdagi o‘ziga xos “texnologik inqilob”dan, ya’ni shaffof qo‘rg‘oshin sirlari va sir ostidagi angob bo‘yoqlari joriy etilgandan so‘ng erishildi. Aynan mana shu uslub O‘rta Osiyo hunarmandlariga idishlarni bezashda eng yuqori mahoratga erishish imkonini berdi va kulolchilik buyumlarini butun dunyoga mashhur qildi. O‘simliksimon-geometrik, zoomorf, epigrafik motivlar va ularning turli xil bezak kompozitsiyalarda uyg‘unligi IX-X asr oxirlarida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi [5].

Toshkent kulolchilik maktabiga xos bo‘lgan ornamental naqshlar Bular asosan yarim sharsimon idishlarni bezatgan noyob o‘simlik-geometrik figuralarning kontur tasvirlari ko‘rinishidagi kompozitsiyalar, xurmo va yarim palmettalar, kosalar chetidagi ikki rangli yarim doira chegaralari, qushlarning o‘ziga xos tasvirlari, Movarounnahrning boshqa hududlarida uchramaydi va, shubhasiz, Binkat ishlab chiqarishiga xosdir.

IX asr oxiri – X asrning birinchi yarmidagi Binkat kulolchiligining yana bir o‘ziga xos xususiyati – o‘simlik-geometrik, zoomorf va epigrafik kompozitsiyalar yuzasida juda ko‘p tarqalgan yashil dog‘lar. Bu dog‘lar Binkat mahsulotlariga qo‘shimcha bezak baxsh etgan va Toshkent sirlangan kulolchilik buyumlari shunisi bilan ajralib turgan.

Choch - Chirchiq va Ohangaron vohalarining unumdor yerlarini, adir zonalaridagi go‘zal yaylovlarni, tog‘ oldi va dashtlarning landshaft kamarlarini o‘zida mujassam etgan katta iqtisodiy salohiyatga ega edi. Sirdaryoning chap sohilidagi cho‘l tekisliklari, ruda va metallurgiya resurslariga boy – qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarga boy bo‘lib, ularni o‘zlashtirish qadimgi davrlardan boshlab faol olib borilgan masalan, oltin – Ko‘chbuloq, kumush – Lashkerek, firuza – Ungurlikon.

Toshkent viloyatidan topilgan arxeologik materiallar orasida metallurgiya va metallga ishlov berishga oid dalillar alohida o‘rin tutadi. Bronza davridan, ilk va rivojlangan o‘rta asrlargacha bo‘lgan davrga oid ma’lumotlar metall buyumlarning vohadagi ishlab chiqarish an’analari, texnologik taraqqiyot, savdo yo‘llari va madaniy aloqalarni yaqqol ko‘rsatib beradi. Metalldan tayyorlangan qurol-aslaha, maishiy buyumlar, zebu-ziynatlar va marosim buyumlari vohaning moddiy madaniyatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan qatlamni tashkil qiladi.

So‘ngi bronza davridan boshlab, hozirgi Toshkent hududi ruda qazib olish, uni qayta ishlash, mehnat qurollari, qurol-aslaha, taqinchoqlar va diniy-ma’rifiy buyumlar tayyorlash bilan faol shug‘ullangan guruhlar tomonidan o‘zlashtirilgan. Antik davr va ilk o‘rta asrlarda Choch (Shosh) mintaqaning eng yirik metallurgiya markazlaridan biriga aylangan. IX-XII asrlarga kelib esa Binkat va Tunkat shaharlari hunarmandchiligida texnik mahorat, uslubiy murakkablik va badiiy ishlov yuqori darajaga ko‘tarilgan [6].

Toshkent vohasida so‘ngi bronza davri Andronova madaniyatiga mansub chorvador qabilalarning hududga kirib kelishi bilan bog‘liq. Bu jarayon miloddan avvalgi III–II ming yilliklar chegarasida sodir bo‘lgan. Andronov jamoalari Choch hududiga rivojlangan metallurgiya va metallga ishlov berish an’analarini olib kirgan. Andronova madaniyatiga mansub barcha guruhlarda metallurgiya xo‘jalik faoliyatining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan. Mehnat qurollari, qurol-aslaha va zeb-ziynat buyumlari asosan bronza, kamroq hollarda esa misdan tayyorlangan.

Ularning texnologik tizimi quyidagi jarayonlarni o‘z ichiga olgan: metallni loydan yasalgan tigellarda eritish; ikki bo‘lakli quyma qoliplardan foydalanib qurollar va buyumlar quyish; tayyor buyumlarni sovuq holatda kovlab ishlash (sovuq kovka); qayriv va payvandlovchi (zaklyopka) usullar orqali bo‘laklarni biriktirish; buyumlarni relyef, spiralsimon naqsh va boshqa bezak elementlari bilan bezash. Bu xususiyatlar Toshkent viloyati hududida aniqlangan topilmalarda yaqqol kuzatiladi.

Arxeologik materiallar Toshkent viloyati bronza davrida janubdagi o‘troq dehqonchilik madaniyati bilan shimoliy dashtlarning ko‘chmanchi chorvador jamoalari o‘rtasidagi chegara hududi

bo‘lganini ko‘rsatadi. Ana shu “kontakt zonasi” xom ashyo, tayyor buyumlar va texnologik ko‘nikmalarning faol almashinuvini ta’minlagan.

Miloddan avvalgi I ming yillik boshlaridan boshlab Toshkent vohasi ilk temir davriga kiradi. Bu davr mahalliy metallurgiya taraqqiyotida muhim texnologik o‘zgarishlar bilan kechadi. Temirning paydo bo‘lishi bronzani to‘liq siqib chiqarmagan bo‘lsa-da, ayniqsa qurol-yarog‘ va mehnat qurollari sohasida buyumlar turini ancha kengaytirgan. Andronov an’analari o‘rniga quyidagi omillar ta’sirida shakllangan mahalliy sintezlashgan metallurgik maktab paydo bo‘ladi: dasht hududlarining skifo-sak qabilalari; ilk sug‘diy o‘troq aholisi; Janubiy Qozog‘iston va Tyanshan hududlarining madaniyatlari.

Temir avvalo quyidagi buyumlarni tayyorlashda qo‘llana boshlaydi: pichoqlar va kinjallar; o‘q uchlari; qishloq xo‘jaligi qurollari (serp, motiga tipidagi qurollar); ot jabduqlarining metall elementlari; bronza idishlariga va turmush buyumlariga biriktiriladigan mixlar va qistirmalar.

Bunga parallel ravishda bronza quyidagi sohalarda faol qo‘llanadi: bezak-amaliy buyumlar, oyna va kamar tokchalari, haykalchalar, marosim buyumlari va atributika tayyorlash.

Yana bir diqqatga sazovori milodiy I ming yillik boshidanoq Chochda dastlabki tangalar zarb etila boshlangan. Asrlar davomida vohaning turli shaharlarida zarbxonalar ishlab turgan [7].

Ilk o‘rta asrlar davri Choch hududida metallurgiya taraqqiyotining burilish bosqichi bo‘ldi. V-VI asrlar chegarasida turkiy qabilalarning harbiy, iqtisodiy va siyosiy faolligi kuchaygan bir vaqtda, Toshkent vohasi xom ashyo manbalari va hunarmandchilik markazlari strategik ahamiyatga ega hududga aylandi. Bu davr metallurgiyasi texnologik jarayonning murakkablashuvi, buyumlar turlarining kengayishi hamda ko‘chmanchi va o‘troq jamiyatlar o‘rtasidagi madaniy almashuvning jadallashuvi bilan tavsiflanadi.

Mazkur siyosiy tuzilmalar, avvalo, metallurgiya va metallga ishlov berish sohalarining rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Choch hududida quyidagi holatlar arxeologik jihatdan qayd etiladi: yirik metallurgiya markazlari (Qanqa, Ohangaron vodiysi, Binkat, Shoshtepa), maxsus hunarmandchilik mahallalari, rivojlangan harbiy ishlab chiqarish, shuningdek Yettisuv, So‘g‘d va Sharqiy Turkiston hududlaridan xom ashyo va texnologik bilimlarning importi [8].

IX–XII asrlar davri Toshkent vohasi uchun hunarmandchilik ishlab chiqarishining eng yuksak taraqqiyot bosqichiga aylandi. Metallurgiya, metallga ishlov berish, zargarlik san’ati va qurolsozlik bu davrda Mavorounnahrning yirik markazlari – Buxoro, Samarqand, Nishapur va Marv bilan tenglashadigan darajada rivoj topdi. Ushbu yuksalish, avvalo, vohaning siyosiy markazi bo‘lgan Binkat, shuningdek Qanqa, Tunkat, Shoshtepa va Qoratosh kabi hunarmandchilik markazlarining faoliyati bilan bog‘liqdir. Yirik hunarmandchilik va metallurgiya markazlari haqida yozma ma'lumotlar birinchi navbatda IX-XI asr sayoh geograflarning asarlari va O‘rta asr Sharq tarixchilari manbalarida Qudama, Ibn Xurdodbeh, Maqdisiy, “Hudud ul-olam” muallifi, Ibn Havqal, Beruniy asarlarida tilga olingan.

Arxeologik tadqiqotlar Binkat hududida quyidagi ishlab chiqarish majmualarining mavjudligini tasdiqlaydi: quyma ustaxonalari, temirchilik sexlari, zargarlik markazlari, shuningdek qurolsozlikka ixtisoslashgan maxsus mahallalar. Asosiy mahsulot turlari quyidagilardan iborat bo‘lgan: mis va bronzadan yasalgan idishlar, kumushdan tayyorlangan elitar dasturxon buyumlari, zargarlik bezaklari, bronza qulf va kalitlar, metall qoplamalar, ot jabduqlarining detallari, bronza ko‘zgular, hunarmandlar asbob-uskunalari.

Binkat o‘z navbatida vohaning asosiy tog‘-kon hududi bo‘lgan Iloq ruda ishlab chiqarish bilan chambarchas bog‘langan edi. Iloq kumush va qo‘rg‘oshinning bosh manbai, shuningdek oltin aralashmalariga ega rudalarning asosiy ta’minotchisi bo‘lgan.

Ohangaron vodiyida (Chotqol, Qurama, Qora-Mozor tizmalari) mis, oltin, kumush va feruza konlari qayd etilgan bo‘lib, tarixiy manbalar Iloq boyliklarining qadimdan qazib olinib, faol ekspluatatsiya qilinganini tasdiqlaydi. Hududda qalay zaxiralarining kamligi an’anaviy qalayli bronza

ishlab chiqarilishini cheklagan ko‘rinadi; shu sababli bronza tayyorlash uchun zarur bo‘lgan qalayning ma’lum qismi ehtimol savdo yo‘llari orqali Sug‘diyona yoki Xuroson mintaqalaridan keltirilgan bo‘lishi mumkin [9].

Arxeologik qazishmalar ilk o‘rta asr shaharlarida Binkat va Tunkat hududlarida maxsus hunarmandchilik mahallalari mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi. Bu yerda sopol va shisha buyumlar bilan bir qatorda metall buyumlar ishlab chiqarishga oid ko‘plab dalillar aniqlangan: metall shlaklari, qorishmalar qoldiqlari, qolip bo‘laklari, kichik nakovalalar va boshqa ustaxona jihozlari. Ushbu topilmalar metall eritish, quymakorlik va temirchilik bilan shug‘ullanuvchi ustaxonalar shaharning o‘zida joylashganini tasdiqlaydi [10].

Siyosiy barqarorlik davrlarida hunarmandchilik tarmoqlari kengaygan, mahsulot almashinuvi kuchaygan, yangi texnologiyalar va xom ashyo oqimi ortgan. Siyosiy beqarorlik yoki iqtisodiy inqiroz davrlarida esa ushbu tarmoqlar qisqargan, ishlab chiqarish geografiyasi o‘zgargan yoki ayrim markazlar faoliyati to‘xtagan.

Toshkent vohasi hududidagi shisha topilmalar keng xronologik diapazonni qamrab oladi - kech antik va ilk o'rta asrlar davrigacha bo‘lgan madaniy qatlamlarda aniqlangan. Shisha buyumlarning eng jadal to‘planishi IX-XII asrlarga, shahar hunarmandchiligining gullab-yashnagan davriga (Binkat, Quva, Afrasiyob), shuningdek, XI-XIII asrlarga va temuriylar davriga to‘g‘ri keladi, o‘sha paytda mintaqada badiiy kulolchilik va shishasozlik rivojlangan.

Toshkentdagi muhim kontekstlarga Binkatning jamoat va turar-joy qatlamlaridagi shisha topilmalar, Shashtepa nekropolidagi parchalar va tasodifiy topilmalar – ko‘pincha boy dafn majmualari tarkibidagi alohida parchalar va butun idishlar kiradi. Adabiyotlarda tasvirlangan ayrim topilmalarning (metallurgiya va shisha hunarmandchiligi omborlari) “sandiq” va “omborxona” xususiyati shisha iste’mol buyumi va ayirboshlash tovari sifatida talabga ega bo‘lganligini ko‘rsatadi. Shisha buyumlarning Toshkent vohasi uchun tipik shakllari quyidagilar:

1. Yassi va dumaloq oynalar/oyna plitalari - qazishmalarda qayd etilgan oyna bo'laklari (bronza va shishadan yasalgan yupqa plitalar).

2. Krujkalar / kosalar (piyola, kosa) – ko‘pincha sirlangan / sir ostida bo'yalgan yarim sharsimon kosalar: Binkat va uning atrofida sirlangan va bo‘yalgan "kosalar" va kosalar qayd etilgan (XI–XIII asrlar).

3. Parfyumeriya va moyli shishalar (parfyum shishalari) - tor bo‘yinli, ko'pincha cho'zilgan bo‘yinli shishalar - shahar qatlamlarida keng tarqalgan.

4. Shisha munchoqlar, ular dafn buyumlarida va uy-joy topilmalarida mavjud, ba'zan dekorativ qo'shimchalar sifatida ishlatiladi.

5. Yassi medalyonlar/qoplamalar, relyef elementlari - dekorativ panellar yoki marjonlarni qoldiqlari sifatida topilgan, rel'efli maxsus bezatilgan plitalar.

Toshkent vohasida kichik va o‘rta hajmli idishlar (piyola, flakon) va bezak parchalari ustunlik qiladi.

Xulosa

Kulolchilik Toshkent vohasining eng qadimiy hunarmandchilik sohasi, turli xil elatlarning madaniyati ta'siri ostida sayqallangan kulolchilik buyumlari IX-XII asrlarga kelib o‘z davrida eng sifatli va mashhur bo‘lib, islom san’ati va hunarmandchiligining shakllanishi va rivojlanishini to‘la aks ettiradi.

Choch-Toshkent mintaqasining metallurgiyasi Markaziy Osiyoning ilk va rivojlangan o‘rta asrlar davridagi madaniy, iqtisodiy va texnologik an’analar sintezining eng yorqin namunalaridan biridir. Chotqol-Qurama-Qoramozor tog‘ tizimlarida joylashgan mis, kumush, oltin va qo‘rg‘oshin konlarining ko‘pligi mintaqaning noyob xomashyo bazasini shakllantirgan bo‘lib, bu jarayon uning iqtisodiy o‘ziga xosligini allaqachon bronza davridayoq belgilab qo‘ygan.

Shishasozlikda Toshkent vohasi (tarixiy Choch/Shosh) muhim o‘rin tutadi, savdo yo‘llari chorrahasida joylashganligi, bu yerda mahalliy xomashyo va hunarmandchilik an’analarining mavjudligi tufayli shishaning o‘ziga xos tipologik komplekslari shakllantirildi va o‘zining mahorat texnikasiga ega bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotla (References)

1. Дуке Х.И. Туябугузское поселение бургулюкской культуры. Ташкент, 1982.

2. Тереножкин А.И. Древнейшие земледельцы Ташкентского оазиса / Древняя и средневековая культура Чача. Ташкент, 1979. 10-16 с.

3. Филанович М.И. Ташкент: зарождение города и городской культуры. Ташкент,1983. 38 с.

4. Ильясова С.Р. Художественная культура Ташкента IX-X вв. по материалам глазурованной керамики // Материалы научной конференции посвященной 2200-летнему юбилею города Ташкента. -Т.: “Фан”, 2009., 158 с.

5. Ильясова С.Р. Художественная культура Ташкента IX-X вв. по материалам глазурованной керамики//Материалы научной конференции посвященной 2200-летнему юбилею города Ташкента. -Т.: “Фан”, 2009., 159 с.

6. Буряков Ю.Ф. Горное дело и металлургия средневекового Илака. V-начало XIII в. - Т.: «Наука» 1974.

7. Мусакаева А.А. Начальный этап денежного обращения в Чаче// Материалы научной конференции посвященной 2200-летнему юбилею города Ташкента. -Т.: “Фан”, 2009., 143 с.

8. Berger D. The rise of bronze in Central Asia: new evidence for metallurgy and tin circulation. — Frontiers in Earth Science, 2023., 1-34 p.

9. Халмуминов У.Р. Канка - один из крупных центров железорудного произво дства Мавераннахра//Столице Узбекистана Ташкенту 2200 лет. Материалы Международной научной конференции, посвыященной 2200-летнему юбилею города Ташкент. Ташкент 2009. 174-180 с.

10. Филанович, М.И. Ташкент – Зарождение и Развитие Города и Городской Культуры. Т., 1983. 120-160 с.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Икромиддин ОСТОНАҚУЛОВ,
Фан ва технологиялар университети (Тошкент) "Ижтимоий фанлар" кафедраси доценти, тарих фанлари доктори.

Наргиза МАДАМИНОВА,
Фан ва технологиялар университети "Ижтимоий фанлар" кафедраси мудири, педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

ИЖТИМОИЙ ФАНЛАРДА ИБН СИНО ҲИКМАТЛАРИНИ ИЗОҲЛИ ЎРГАНИШ МАСАЛАЛАРИ

Аннотация. Мақолада ижтимоий фанларни ўқитишда буюк файласуф ва мутафаккир Абу Али ибн Сино ҳикматларидан фойдаланиш масалалари ўрганилган бўлиб, унда ҳикматлар таржимасига танқидий ёндашув лозимлигига урғу берилган.

Таянч сўзлар: Абу Али ибн Сино, ҳикматлар, тарбия воситалари, одоб-ахлоқ, инсон маънавияти, билим манбалари, фалсафий мулоҳазалар, таълим жараёнлари.

ВОПРОСЫ ИЗУЧЕНИЯ ИЗ МУДРЫХ МЫСЛЕЙ ИБН СИНЫ В ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУКАХ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы использования из мудрых замыслях великого философа и мыслителя Абу Али ибн Сины в преподавании общественных наук и подчеркивается необходимость критического подхода к интерпретации этой наследии.

Ключевые слова: Абу Али ибн Сина, мудрость, образовательные инструменты, этика, духовность человека, источники знания, философские размышления, учебные процессы.

ISSUES OF STUDYING THE WISDOM OF IBN SINA IN SOCIAL SCIENCES

Abstract: This article examines the use of the wisdom of the great philosopher and thinker Abu Ali ibn Sina in teaching social sciences and emphasizes the need for a critical approach to interpreting this wisdom.

Key Words: Abu Ali ibn Sina, wisdom, educational tools, ethics, human spirituality, sources of knowledge, philosophical reflections, educational processes.

Кириш

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: "Бизни ҳамиша ўйлантириб келадиган яна бир муҳим масала – бу ёшларимизнинг одоб-ахлоқи, юриш-туриши, бир сўз билан айтганда, дунёқараши билан боғлиқ. Бугун замон шиддат билан ўзгаряпти. Бу ўзгаришларни ҳаммадан ҳам кўпроқ ҳис этадиган ким – ёшлар... Лекин айни пайтда ўзлигини ҳам унутмасин. Биз киммиз, қандай улуғ зотларнинг авлодимиз, деган даъват уларнинг қалбида доимо акс-садо бериб, ўзлигига содиқ қолишга ундаб турсин. Бунга ниманинг ҳисобидан эришамиз? Тарбия, тарбия ва фақат тарбия ҳисобидан". [1]

Дарҳақиқат тарбия сўзининг ортида Ватан, миллат тақдири туради. Ота-оналарнинг педагогик маданиятини ошириш, фарзанд тарбияси борасидаги бурч ва масъулиятини ошириш мухим вазифаларидан бири хисобланади. Ота-боболаримиз азал-азалдан ёшларга одобли, яъни яхши хулқли, меҳнатсевар, тўғрисўз, халол, ростгўй, камтар, инсофли, диёнатли, ор-номусли, ўз туғишганларига, қариндош- уруғларига ва яқин дўсту-биродарларига меҳр-муҳаббатли, бир сўз билан айтганда, комил инсонлар қилиб тарбиялашга кучғайратлари ва ақл-идроқларини аямай ишига солиб, алоҳида диққатни қаратганлар. Чунки бунга асос бўла оладиган тарихий манбаларимиз бор. Улардан бири буюк мутафаккир Абу Али Ибн Синонинг таълимотларидир. Қомусий аллома “Табиат дурдонаси”, “Оила тадбири”, “Ишқ рисоласи”, “Мантиқ рисоласи”, “Ахлоқ рисоласи” каби асарларида инсоннинг бахт-саодатга эришишнинг восита ва йўллари, адолат, комил инсон, шахс ва жамият, жамоани оқилона бошқариш, табиат ва инсон тўғрисида қимматли фикрлар ёзиб қолдирган. [2]

Асосий таҳлил ва натижалар

Алломанинг фикрича, “болага илм ва одобни биринчи навбатда ўргатиш лозим тажрибали, фаҳм–фаросатли, диндор одобли киши бўлиши шарт. Мактабда, одоб ва ахлоқ эгаларидан бўлган ҳурматли кишиларнинг фарзандлари билан дўстлашиб ўқиши лозим. У биринчи навбатда (она) тили ва Қуръони Каримни, сўнг яшаш тарзини, маблағ топиш йўлларини, ўз ҳуқуқларини билиши ва санъатни ҳис этишни ўрганиши лозим”. [3]

Ҳозирги кунда аллома асарлари бутун дунёда ўрганилади, турли тилларга таржима қилинади. Олий ўқув юртларида ўқитиладиган ижтимоий фанлар дастурларида Ибн Сино меросига турли даражада мурожаат қилинади. Айниқса, фалсафа, психология ва диншуносник дарсларида Ибн Сино меросидан қатор иқтибослар келтирилади. Бу жуда фойдали ёндашувдир.

Аммо аллома ҳикматларидан келтирилган иқтибослар ижтимоий тармоқларда турли савияда берилаётганлигини кузатиш мумкин. Уларнинг баъзилари аллома асари аслиятига мувофиқ маъно беради дейиш қийин. Бу аввало таржимонларнинг позицияси билан боғлиқ, иккинчидан, таржима матнига қаттиқ ишониш натижасидир. Ўқитувчи иқтибосни танлашда мавзудан келиб чиқиб танлаши, иқтибос сўзлари талабанинг дунёқарашига қандай ижобий таъсир кўрсатиши мумкинлигини олдиндан аниқлаб олиши лозим. Агар қандай бўлса шундай тақдим этмоқчи бўлса, дарсдан олдин алоҳида изоҳ беришни режалаштириб қўйиши мақсадга мувофиқдир. Биз баъзи иқтибосларни кўриб ўтар эканмиз, уларни бошқача вариантда бериш мумкинлигини таъкидлаймиз.

Ижтимоий тармоқда эълон қилинган Ибн Синога нисбат берилган ҳикмат шундай берилган: “Илм – нарсаларнинг инсон ақли ёрдами билан ўрганилишидир”. Буни илмга берилган охирги таъриф деб айта олмаймиз. Аллома аслияти ҳам бу кўринишда эмаслиги аниқлиги учун ушбу фикрни қуйидагича вариантда тақдим этиш тўғрироқ бўлур эди: “Табиатдаги нарсаларни инсон ўз ақли билан ўрганиши натижасида ҳосил бўлган билимлар жамланмаси илм дейилади”. Ибн Сино ҳам аслида илмга таъриф берганда биз тақдим этган формадаги маънони кўзда тутган.

Ибн Сино ёзади: “Ҳақиқатни очинглар, тўғри йўлдан юринглар. Бир-бирингиздан илм ўрганиб, камол топишингиз учун дил пардасини очиб ташланглар”. Бу ўринда иқтибосга ўзгартириш киритишнинг идожи йўқ. Фикр жуда тўғри ва аниқ ифодаланган. Бу иқтибосни дарс давомида бемалол изоҳсиз ҳам қўллаш мумкин. Бир ҳикматда шундай дейилади: “Қаноат деб, ўзига кифоя қиладиган нарсага эришишга айтилади”. Бу ерда “эришишга айтилади” деб ҳукм берилиши етарли маъно бера олмайди. Биз буни “Қаноат деб, ўзига кифоя қиладиган нарсага эришгандан сўнг, унга рози бўлиш деб айтилади” кўринишида ифодалаган бўлур эдик.

Аллома нафс тарбияси тўғрисида жуда кўп нодир фикрлар қолдирган. Улар ўзидан аввалги алломалар асарлари таъсирида пайдо бўлган. Ибн Синонинг ўЪз шогирдига берган

тавсияси шундай таржима қилинган: “Кундалик ризқ кўп, қайғураверма. Шу билан бирга мол орттираман, деб ўзингни кўп қийнаверма. Чунки ҳар ким ўз насибасидан ортиқ битта ҳам дон ея олмайди”. Бу иқтибосдаги “Кундалик ризқ кўп, қайғураверма” гапи ўзга алломалар насиҳатларида ҳам бошқача кўринишда берилганлигини биламиз. Аслиятдан келиб чиқиб уни “Кундалик ризқ учун кўп қайғураверма” деб таржима қилиш тўғрироқ бўлур эди. Чунки халқда ҳам “кўп қайғураверма” деган ибора машҳурдир.

Алломанинг “Мол-дунёинг сени алдамасин, чунки асраган мол-дунёинг бошқаларники бўлади. Уларни сарф эта олсанг, ўша сеники бўлади” деган насиҳати ҳам тарбиявий жиҳатдан жуда муҳим афоризмдир. Ўқитувчи бу иқтибосни дарс давомида қўллаганда “Яқинидан беркитилган молни бегона ейди” деган халқ мақолини эслатиб ўтиши ижобий натижа беради.

Алломанинг жуда кўп ҳикматли сўзлари жуда мазмунли таржима этилган. Улардан ахлоқий тарбия жараёнларида бемалол фойдаланса бўлади. Масалан, “Киши учун энг фойдали, дилни ёритувчи нарса қаноатдир. Энг зарарли ва нафратли нарса ҳирс ва ғазабдир”. Ушбу гап ахлоқ бобида айтилгандек туйилса-да, аслида тиббий маслаҳат сифатида ҳам айтилганини ёдда тутиш лозим. Чунки тиббиётда ғазабланиш инсон асаб тизимига жуда қаттиқ зарба бериши таъкидланади. Киши ғазабланган вақтда юракдаги харом қон бутун танага тарқалади ва мавжуд қувватнинг бой берилишига олиб келади ва тана қувватининг қайта тикланишига бир қанча вақт монелик қилади.

Энди алломанинг қуйидаги мисраларини кўриб ўтайлик.

Эй ҳавою ҳавасга берилган нафс, тез бўл,
Чунки сен бир нафаснинг ҳимоясидасан.[4]

Бу ерда Ибн Сино инсон нафсига мурожаат қилмоқда. Ҳою ҳавасга берилган нафснинг умри қадрини билмай, беҳуда нарсага эришиш учун қимматли вақтини сарфлаётганига ачинмоқда. Сен умрим узоқ бўлади деб ҳотиржам бўлма, ҳар бир дақиқани фойдали ишга сарф қил, чунки бир нафас олишингдан сўнг сен бор бўласанми, ёки йўқ бўласанми олдиндан била олмайсан, демоқчи бўлган.

Хулоса ва таклифлар

Ибн Сино шеъриятдан фойдаланиб, “Севги ҳақида рисола”, “Қушлар ҳақида рисола” каби асарлари ёзган. Унинг шеърийтида тўртликлар ва рубоийлар ҳам талайгина. Улардан ижтимоий фанларда, адабиёт ва диншуносликда ўрни билан фойдаланиш дарс самарадорлигини оширади.

Ибн Синонинг адабий-фалсафий асарларидан педагогика фанида ҳам фойдаланиш ижобий натижалар беради.

Фойдаланилган адабиётлар

[1]. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. Мирзиёев Қарори. // “Ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмоний баркамол этиб тарбиялаш, уларга таълим-тарбия бериш тизимини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида “ Т.:2018,ПҚ-3907-сон.

[2] Мирзаева М.М. Буюк мутафаккир абу али ибн сино ўгитларининг бугунги кунда бола тарбиясида аҳамияти. // "Экономика и социум" №2(105) 2023 www.иупр.ру

[3]. Турдибаев Н. Ибн Синонинг илм ва ахлоққа доир баъзи рисолалари” Т.: 2009.

[4]. Абу Али ибн Сино ҳикматлари. Ziyouz.uz.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Khujanov Zafar Bektimirovich
PhD teacher, Department of Sociology and Social Work, Samarkand State University named after Sharaf Rashidov

E-mail: xzafar1229@gmail.com

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

INSON KAPITALI VA IJTIMOIY FAROVONLIK: NAZARIY TAHLIL VA MILLIY KO‘RSATKICHLAR

Annotatsiya. Maqolada inson kapitali konsepsiyasining nazariy asoslari va uning kengayib borayotgan zamonaviy mazmuni yoritilgan. Insonning bilim va ko‘nikmalari, salomatligi, ijtimoiy kompetensiyalari hamda shaxsiy fazilatlari uning iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatiga ta’sir etuvchi muhim omillar sifatida talqin etilgan. Shuningdek, inson kapitalini rivojlantirishning mamlakat barqaror taraqqiyoti, kambag‘allikni kamaytirish va xalq farovonligini oshirishdagi o‘rni tahlil qilingan. O‘zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi misolida ushbu jarayonlarning amaliy ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: Inson kapitali, ijtimoiy rivojlanish, ta’lim, salomatlik, iqtisodiy o‘sish, kambag‘allik, HDI.

HUMAN CAPITAL AND SOCIAL WELL-BEING: THEORETICAL ANALYSIS AND NATIONAL INDICATORS

Abstract. This article examines the theoretical foundations of human capital and its evolving modern interpretation. Knowledge, skills, health, social competencies, and personal qualities are considered as key factors influencing an individual’s economic and social success. The study analyzes the role of human capital development in ensuring sustainable national progress, reducing poverty, and improving social well-being. The dynamics of Uzbekistan’s Human Development Index are used to illustrate the practical importance of strengthening human capital.

Keywords: Human capital, social development, education, health, economic growth, poverty reduction, HDI.

ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ И СОЦИАЛЬНОЕ БЛАГОПОЛУЧИЕ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы человеческого капитала и его современное расширенное содержание. Знания, навыки, здоровье, социальные компетенции и личные качества трактуются как ключевые факторы, влияющие на экономический и социальный успех человека. Анализируется роль развития человеческого капитала в обеспечении устойчивого развития страны, снижении бедности и повышении уровня благосостояния населения. Практическая значимость данного процесса демонстрируется на примере динамики Индекса человеческого развития Узбекистана.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ключевые слова: Человеческий капитал, социальное развитие, образование, здоровье, экономический рост, сокращение бедности, ИЧР.

KIRISH (Introduction)

Hozirgi davrda jamiyat va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi inson kapitalining rivojlanishiga bevosita bog‘liq. Inson kapitali – bu aholi tomonidan to‘plangan bilim, ko‘nikma, salomatlik va mehnat salohiyatining umumiy ko‘rinishi bo‘lib, u iqtisodiy o‘sish, ish bilan ta’minlanish va ijtimoiy farovonlikni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Ijtimoiy farovonlik esa jamiyat a’zolarining **moddiy ta’minlanganligi, ijtimoiy himoyalanganligi, sog‘lig‘i, ta’limga kirish imkoni, bandligi, xavfsizligi va sub’yektiv qoniqish darajasi** bilan belgilanadi. Shu bois, inson kapitalini rivojlantirish orqali ijtimoiy farovonlikni ta’minlash jamiyat uchun muhim strategik yo‘nalish sifatida qaraladi.

Bugungi kunda ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ta’lim va sog‘liqni saqlash darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda aholining daromadlari barqaror, farovonlik darajasi baland, kambag‘allik esa past bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, inson kapitali va ijtimoiy farovonlik masalalarini tahlil qilish nafaqat iqtisodiy, balki sotsiologik jihatdan ham katta ahamiyatga ega.

Inson kapitalidagi mavjud tafovutlarni bartaraf etish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun an’anaviy ijtimoiy sohalardan tashqariga chiqadigan, barcha davlat tizimini qamrab oladigan, yuqoridan boshqariladigan integratsiyalashgan yondashuv talab etiladi. Bunday yondashuv nafaqat resurslarni samarali taqsimlash, balki imkoniyatlari cheklangan guruhlar uchun teng imkoniyatlar yaratish va ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Bunday investitsiyalar mehnat unumdorligini oshiradi, yuqori daromad olish imkoniyatlarini yaratadi. G.Bekkerning ta’kidlashicha, “inson kapitali investitsiyaning o‘ziga xos turi bo‘lib, uning hajmi insonning bilim darajasi va kasbiy malakasiga bog‘liq. Shu bois, inson kapitaliga ega bo‘lgan shaxslar mehnat bozorida raqobatbardosh bo‘lib, barqaror daromad hamda moliyaviy farovonlikka erishish imkoniyatiga ega bo‘ladilar”.[1]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)

Amerikalik iqtisodchi Teodor Shuls inson kapitali nazariyasining asoslarini ishlab chiqdi. U inson kapitaliga “... shaxsning jamiyatning turli ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan bilim, qobiliyat va ko‘nikmalar yig‘indsi” – sifatida ta’rif beradi. [2] Ta’lim, salomatlik, kasbiy malaka va ko‘nikmalarni rivojlantirish sohalariga kiritilgan mablag‘lar inson kapitalini oshirishning muhim manbalari hisoblanadi. Shultzning nuqtai nazariga ko‘ra, ta’lim va sog‘liqni saqlash davlat siyosatining ajralmas qismlari bo‘lishi kerak, chunki bu sohalarga sarmoya kiritish nafaqat individual daromadlarni oshiradi, balki ijtimoiy farovonlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Inson kapitalining rivojlanishi, o‘z navbatida, insonlarning iqtisodiy tizimda faol ishtirok etishi va jamiyatda ijtimoiy integratsiya jarayonlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Inson kapitali nazariyotchilaridan biri G.Bekker inson kapitalini – “…shaxslarning o‘z mehnat vazifalarini bajarishda samarali bo‘lishiga imkon beradigan va shu tariqa ish haqi hamda boshqa turdagi kompensatsiya yoki imtiyozlarni qoplanishi uchun iqtisodiy asosni ta’minlaydigan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini anglatadi” deb ta’riflaydi. [3] Demak, kadrlarni kasbiy o‘qitish, qayta tayyorlash, kerakli bilim va ko‘nikmalar bilan qurollantirish alohida e’tiborga molik.

Professor M.Bekmurodov ta’kidlaganlaridek, “inson kapitali – bu muayyan odamdagi bilim, tajriba, ko‘nikma va qobiliyatlarning iqtisodiy samaradorligidir. Inson kapitalidan to‘g‘ri foydalanish faqat bir tomonlama, ya’ni shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish zarurati kun tartibiga qo‘yila boshlandi”.[4] Demak, inson karitalini shakllantirish nafaqat bilim, malaka to‘plashni, balki uni to‘g‘ri yo‘naltirish va samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni ham taqozo etadi. Professor Q.X.Abdurahmonovga ko‘ra,

“Inson kapitalini ahamiyati tabiiy resurslar, moddiy boylik va vositalarga qaraganda yuqoriroqdir. Shu sababli, inson kapitali iqtisodiy o‘sish va samaradorlikning asosiy omillaridan biri hisoblanadi”. [5]

Tadqiqot metodologiyagiyasi (Research Methodology)

Tadqiqot jarayonida inson kapitali va ijtimoiy farovonlikning barqaror rivojlanish darajasiga ta’siri, shuningdek, ushbu kategoriyalarning kambag‘allikni baholash va yumshatishdagi o‘rni kompleks metodlar orqali o‘rganildi. Avvalo, muammoning nazariy asoslarini aniqlash maqsadida konseptual manbalarni qamrab olgan **nazariy tahlil** usuli qo‘llandi. Inson kapitali va ijtimoiy farovonlik dinamikasini aniqlashda mavjud rasmiy statistika, xalqaro indekslar hamda ijtimoiy ko‘rsatkichlar **statistik tahlil** va **indeksiyalash** metodlari yordamida chuqur o‘rganildi.

Shuningdek, aholining turli qatlamlari bo‘yicha real holatni aniqlash maqsadida **empirik kuzatish**, respondentlar tajribasi va sharoitlarini tahlil qilishda esa **taqqoslash** va **qiyosiy tahlil** usullaridan foydalanildi. Tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minlash maqsadida inson kapitali va farovonlik o‘rtasidagi ichki bog‘liqliklarni aniqlovchi **dialektik yondashuv**, jarayonlarni yaxlit holda izohlovchi **tizimli tahlil** metodologiyasi qo‘llandi.

Inson kapitali zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy determinanti sifatida baholangan bo‘lib, ushbu tushuncha insonning bilim, ko‘nikma, salomatlik va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Shu bois tadqiqot metodlari mazkur kapitalning shakllanishi, iqtisodiy faollikni oshirishdagi roli hamda ijtimoiy farovonlikka ta’sirini har tomonlama o‘rganishga yo‘naltirildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results)

Inson kapitali va ijtimoiy farovonlik zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tadqiqotlarning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Inson kapitali – bu shaxsning iqtisodiy qiymatga ega bo‘lgan resurslar majmuasi bo‘lib, unda bilim, ko‘nikma, malaka, sog‘liq, ijodkorlik, motivatsiya va boshqa shaxsiy salohiyat omillari jamlangan. Ushbu kapitalning darajasi nafaqat shaxsning mehnat faoliyatidagi samaradorligini belgilaydi, balki jamiyatning umumiy farovonligi, iqtisodiy o‘sish va barqaror rivojlanish darajasiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy farovonlik esa aholining moddiy sharoiti, bandligi, sog‘liq holati, ta’lim sifati, xavfsizlik darajasi, ijtimoiy ishtirok va hayotdan qoniqish kabi ko‘p o‘lchamli komponentlarni o‘z ichiga oladi.[6] Bu tushuncha shaxs va jamiyat darajasidagi farovonlikni kompleks tarzda baholashga imkon beradi hamda ijtimoiy siyosat va rivojlanish strategiyalarini shakllantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, inson kapitali va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishda bu komponentlar o‘zaro uzviy va integrallashgan tizim sifatida ko‘riladi.

Inson kapitali kontseptsiyasini mukammal tushunish uchun jismoniy kapital va inson kapitali o‘rtasidagi farqlarni aniqlash muhimdir. Ikkala kapital turi ma’lum darajada o‘zaro o‘xshash bo‘lib, ayniqsa kelajakda foyda olish maqsadida bugungi kunda sarflanadigan resurslar nuqtai nazaridan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Shu bilan birga, inson kapitali o‘ziga xos xususiyatlarga ega: jismoniy kapitaldan farqli ravishda u bevosita insonning o‘zi bilan bog‘liq bo‘lib, egasi faqat shu shaxs bo‘lishi mumkin. Shubhasiz, ta’lim, sog‘liq, barqarorlik va imkoniyatlarga kirishning o‘zi katta qiymatga ega va ular mehnat unumdorligini oshirish uchun zarurdir. Inson kapitali inklyuziv taraqqiyotning muhim omili bo‘lib, **tengsizlikni kamaytiradi, farovonlikni oshiradi, avloddan-avlodga o‘tuvchi foydalar yaratadi** va iqtisodiy o‘sish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Bekker inson kapitaliga investitsiya qilishni xuddi moliyaviy yoki fizik kapitalga sarmoya kiritish kabi ijtimoiy manfaatlarni yaratuvchi va uzoq muddatli iqtisodiy foydalarni ta’minlovchi jarayon sifatida ko‘radi. Uning asosiy g‘oyalaridan biri shundaki, inson salohiyatiga sarmoya kiritish nafaqat individual daromadlarni oshiradi, balki iqtisodiyotning umumiy samaradorligini ham yaxshilaydi. Nazariyaning yana bir muhim jihati shundaki, ijtimoiy xulq-atvor, vaqtni boshqarish, qiyinchiliklarni yengish va boshqa shaxsiy fazilatlar bilan bog‘liq bo‘gan qobiliyatlarni ham o‘z ichiga

oladi. Shunday qilib, Bekker inson kapitalini kengroq kontseptsiyaga aylantirib, odamlarning iqtisodiy va ijtimoiy muvaffaqiyatlarida shaxsiy resurslarning keng spektrini hisobga oladi.

Sotsiologiya fanlari doktori, professor A.Umarov inson kapitalini rivojlanishni quyidagi muhim omilni ajratib ko‘rsatadilar: 1) jamiyatning iqtisodiy integratsiyasi; 2) aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash; 3) maktab ta’limi va madaniy tashkilotlarni moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hamda ularning istiqbolga yo‘naltirilgan rejalarini shakllantirish. [7] Demak, iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sanoat, logistika va infratuzilmani rivojlantirishga investitsiya kiritish muhim bo‘lsa-da, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan sarmoyalar ham alohida e’tiborga loyiqdir. Aholining salomatligi, bilim va ko‘nikmalari, shuningdek, hayotiy tajribasi va turmush darajasini oshirish mamlakatning barqaror rivojlanishi va xalqaro maydonda raqobatbardoshligini ta’minlash uchun zarur omillardan biri hisoblanadi. Inson kapitaliga yetarlicha e’tibor bermaslik esa mamlakatning taraqqiyotiga hamda iqtisodiy salohiyatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Inson kapitali konsepsiyasi odamlar egalik qiladigan ulkan real resurslarni tan olishga yordam beradi. Bu resurslar insonlarga mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish, faolroq harakat qilish va yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Dastlab inson kapitali tushunchasi ostida odamlarning mehnatga layoqatini oshirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar, xususan, ta’lim olish va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish nazarda tutilgan. Biroq, vaqt o‘tishi bilan bu tushuncha sezilarli darajada kengayib, insonning salomatligi, ijtimoiy qobiliyatlari va intellektual salohiyatini ham o‘z ichiga olgan kompleks yondashuvga aylandi.

R.Shillerning fikriga ko‘ra, ta’limdagi yutuqlar kambag‘allikni kamaytirishda asosiy omil hisoblanadi. Ta’limga investitsiya kiritgan kishilarning kambag‘allikdan chiqish imkoniyati ancha yuqori bo‘ladi. Oliy ma’lumot nafaqat yuqori samaradorlikni ta’minlaydi, balki insonning ish topish va daromad olish imkoniyatlarini ham sezilarli darajada oshiradi. Inson kapitalini rivojlantirish jarayonini faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning oshishi bilan cheklab bo‘lmaydi; bu jarayon, avvalo, inson imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan yondashuvni talab qiladi. Shu ma’noda, jamiyatdagi turmush darajasini faqat o‘rtacha daromad ko‘rsatkichlari asosida emas, balki insonlarning o‘zlari munosib deb bilgan hayot tarzini ta’minlash uchun mavjud imkoniyatlar nuqtai nazaridan baholash lozim.

Inson kapitali va ijtimoiy farovonlik o‘rtasidagi bog‘liqlik bir nechta ilmiy asoslangan mexanizmlar orqali tushuntirish mumkin. Birinchidan, ta’lim va bilim iqtisodiy farovonlikni oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Ta’lim shaxsning malaka va bilim darajasini oshirib, mehnat bozoridagi raqobatbardoshlikni kuchaytiradi; natijada barqaror bandlik va daromadni ta’minlab, moddiy farovonlikni oshiradi.[8] Empirik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, har bir qo‘shimcha ta’lim yili ish haqi va daromadning o‘sishiga sezilarli ta’sir qiladi, bu esa shaxs va oilaning turmush darajasini yaxshilash bilan bevosita bog‘liqdir.

Ikkinchidan, sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish orqali ish unumdorligini oshirish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlash mumkin. Sog‘lom shaxs ish samaradorligini oshiradi, kasallik va ish qobiliyatsizligi bilan bog‘liq xarajatlarni kamaytiradi va natijada daromad va iste’mol imkoniyatlarini kengaytiradi.[9] Shu bilan birga, sog‘lom ishchi kuchi ijtimoiy faollikni kuchaytiradi, bu esa jamiyatdagi ishonch va birdamlikni mustahkamlaydi.

Uchinchidan, malaka va texnik kompetensiyalarni rivojlantirish innovatsion faoliyatni kuchaytiradi hamda iqtisodiy o‘sishga sezilarli hissa qo‘shadi.Yuqori malakali va kreativ ishchi kuchi texnologik va innovatsion jarayonlarni rivojlantiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Natijada, malaka va kompetensiyalarga sarmoya jamiyatning uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy farovonligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

To‘rtinchidan, shaxsning kasbiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish jamiyatning ijtimoiy barqarorligini oshiradi. Liderlik, muloqot, jamoada ishlash va raqamli savodxonlik kabi

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

kompetensiyalar ijtimoiy kapitalni mustahkamlaydi hamda jamiyat a'zolari o'rtasidagi o'zaro ishonch, birdamlik va ijtimoiy integratsiya darajasining ortishiga xizmat qiladi.[10] Shu tarzda, inson kapitali ijtimoiy farovonlikning ijtimoiy komponentini rivojlantiradi va jamiyat barqarorligini ta'minlaydi.

Shunday qilib, inson kapitali va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik murakkab, ko'p qirrali va uzluksiz ishlaydigan mexanizmlar tizimini tashkil etadi. Ta'lim, malaka, sog'liq va ijtimoiy kompetensiyalarga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitalining sifat jihatdan yuksalishiga olib kelib, iqtisodiy o'sish, ijtimoiy barqarorlik va shaxsiy farovonlikning bir butun tizimda shakllanishiga zamin yaratadi. Mazkur jarayon davlat siyosati uchun strategik ahamiyat kasb etib, barqaror ijtimoiy farovonlikni ta'minlashning eng muhim instrumenti sifatida namoyon bo'ladi.

Insonni rivojlantirish tenglikka asoslanishi barcha kishilar uchun teng ta'lim olish, sog'liqni saqlash va kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatlarini yaratadi. Bugungi kunda iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning sinonimi emasligi tobora yaqqolroq tushunilmoqda, chunki dunyoda iqtisodiy-siyosiy beqarorlik va kambag'allik darajasining ortishi bu farqni yanada aniq ko'rsatib bermoqda. Ayrim rivojlanayotgan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish o'sishiga qaramay, aholining turmush darajasi yomonlashishi mumkin. Daromad va inson taraqqiyoti o'rtasidagi bunday nomutanosiblik resurslarning adolatli yoki adolatsiz taqsimlanishidan kelib chiqadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari yuqori bo'lishiga qaramay, dunyoning ko'plab mamlakatlarida tengsizlik, ishsizlik va kambag'allik muammolari dolzarb bo'lib qolmoqda.

Jahon banki va YUNESKOning hisob-kitoblariga ko'ra, "dunyo miqyosida 260 million bola maktabga bormaydi. O'rta daromadli mamlakatlardagi bolalarning 53 foizi boshlang'ich maktabning oxiriga kelib oddiy matnni o'qiy olmaydi. Kambag'al mamlakatlarda bu daraja 80 foizga yetadi".[11] Bunday yuqori savodsizlik darajasi barcha global ta'lim maqsadlari va boshqa barqaror rivojlanish maqsadlarining xavf ostida ekanligidan ogohlantiruvchi belgidir. Ma'lumotsiz odamlarning barchasi ham kambag'allikda yashamaydi, ammo o'ta kambag'al insonlarning aksariyati yetarli ta'limga ega emas. Ta'limning ahamiyati shundaki, u oilalarga nafaqat omon qolishi, balki yaxshi daromad topishi uchun zarur bo'lgan ish va boshqa resurslarga erishish ko'nikmalarini shakllantirish imkonini beradi. Yaxshi ta'lim olgan va sog'lom insonning daromadi odatda ancha yuqori bo'ladi. Ta'lim darajasi past bo'lgan shaxslar orasida ishsizlik darajasi nisbatan yuqori bo'lib, bu holat ularning kambag'allikka duchor bo'lish ehtimolini oshiradi.

Bundan tashqari, kapitalni to'plashning boshqa shakllari ham mavjud. Bunga sog'liqni saqlashga investitsiya kiritish, migratsiya, iqtisodiyot va mehnat bozori bo'yicha axborot olish, shuningdek, intellektual va jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirish kiradi. Ushbu qobiliyatlar mehnat samaradorligini oshirish imkonini beradi. Inson kapitali nazariyasiga ko'ra, uning shakllanishining asosiy vositalari ta'lim olish, sog'liqni saqlash va kasbiy tayyorgarlik jarayoni vositasida qobiliyatlarni rivojlantirishdan iboratdir.

Statistika agentligi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatdagi iqtisodiy faol aholining 47,2 foizi qishloq hududlarida istiqomat qiladi. Ushbu ko'rsatkich qishloq joylarining milliy iqtisodiyotdagi o'rnini alohida tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.[12] Ish bilan band aholining faoliyat turlari bo'yicha taqsimotida, eng katta ulush qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lib, bu ko'rsatkich jami ish bilan band aholining 25% dan ortig'ini tashkil etadi. Jumladan, past daromad va kambag'allik darajasiga ega bo'lgan aholining ham katta qismini ushbu toifaga tegishli. Bu holat, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholini kambag'allikdan xalos qilish uchun sohaga oid davlat dasturlarining samarali ijrosini ta'minlash, shuningdek, ularning o'zlari ham faol harakat qilishlarini talab etadi.

1-jadval.

Ish bilan band aholini mulkchilik turlari bo'yicha taqsimlashi (ming kishi)

	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

1	Davlat sektori	2427,0	2463,3	2483,1	2530,1	2540,0
2	Nodavlat sektori	10846,1	11077,8	10753,3	11008,8	11166,2
3	Mehnat idoralarida ro‘yxatdan o‘tgan ishsizlar	32,3	57,9	37,1	98,7	49,0

Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, aholi orasidagi o‘rtacha ta’lim davomiyligi 2021-yilda 25 yosh va undan katta yoshdagilar uchun 12,5 yilni tashkil etdi. Shu bilan birga, 15 yosh va undan katta yoshdagilar orasida savodxonlik darajasi 99,99% ni tashkil qildi. 2010-yilda 5375 ta bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari soni 2021-yilda 7868 taga yetdi. 3-6 yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi esa, 2012-yilda 18,7% ni tashkil etgan bo‘lsa, 2018-yilda bu ko‘rsatkich 34,4% ga, 2021-yilda esa 62,0% ga yetdi. [13]

Robert Shillerning fikricha, “ta’lim yutuqlari kambag‘allikni qisqartirishning asosiy omilidir. Ta’limga sarmoya kiritganlarning kambag‘allikdan qutilish imkoniyati yuqori bo‘ladi”. [14] Shu ma’noda bolalarga yaxshi ta’lim olishi uchun imkoniyat yaratib berish ularni kelajakda kambag‘allikka tushub qolishi ehtimolini kamaytiradimi?- deb so‘ralganda respondentlarning 76,8 foizi “ha”, 11,0 foizi ta’lim olishga sharoit yaratib berish kambag‘allikni qisqartirishda unchalik ahamiyatli emas, 12,2 foizi esa “bilmayman” javoblarini berishgan.

2000-2021-yillar davomida O‘zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi ko‘rsatkichi 0,599 dan 0,727 gacha, ya’ni 20,8 foizga o‘sdi. Bu davrda tug‘ilgandan kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi 5,2 yilga, o‘rtacha ta’lim yillari 2,7 yilga, kutilayotgan o‘qish yillari esa 0,8 yilga oshdi. Bundan tashqari, 1990-2021-yillar oralig‘ida aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot qariyb 115,6 foizga o‘sdi. Bu raqamlar mamlakatda inson taraqqiyoti va iqtisodiy rivojlanishning sezilarli darajada yaxshilanganidan dalolat beradi.[15]

Jahon banki 2018 yildan boshlab hisoblab chiqiladigan “Inson kapitali indeksi” (HCI) orqali mamlakatlardagi inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlarini taqqoslaydi. Ushbu indeks inson rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari – uzoq umr ko‘rish, sog‘lom hayot, bilim olish, salomatlik va munosib turmush darajasi bo‘yicha o‘rtacha yutuqlarni umumiy ravishda o‘lchaydi. Odamlarning salomatligi va sifatli ta’limi, albatta, o‘ziga xos qiymatga ega bo‘lib, bu omillar jamiyatda samarali a’zo bo‘lish, salohiyatni ro‘yobga chiqarish imkonini yaratadi. Inson kapitalini rivojlantirish odamlarning yuqori daromadga erishishi, barqaror o‘sish va kambag‘allikni kamaytirishning markaziy omilidir.

BMT Taraqqiyot Dasturining “Inson taraqqiyoti indeksi” inson taraqqiyoti bilan bog‘liq ko‘rsatkichlarning faqat ayrim qismlarini o‘z ichiga oladi va tengsizlik, xavfsizlik yoki kambag‘allik holatini aks ettirmaydi. Inson kapitali kambag‘allikni kamaytirish va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish, mehnat bozorini sifatli kadrlar bilan ta’minlash, barqaror iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga (shu jumladan, o‘qishga moslashtirilgan maktab yillari) orqali kelajakdagi samaradorlikni shakllantirishning istiqbolli o‘lchovidir. Har ikkala indeks ham milliy rivojlanishning asosiy qismi sifatida inson imkoniyatlarini o‘lchasa-da, inson kapitali indeksi iqtisodiy vaziyatni mustahkamlashga yordam beradi va odamlar uchun sarmoya kiritishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bu indekslar bir-birini to‘ldirsa-da, ularning shakllantirish usuli farq qiladi.

2-jadval:

Jahon bankining “inson kapitali indeksi” bo‘yicha O‘zbekistonni ko‘rsatkichlari (2021)

Mamlakat nomi	5 yoshgacha omon	Kutilayotgan maktab yillari	Voyaga etganlarning	Inson	Inson	Inson

	qolish ehtiomoli		omon qolish darajasi	kapitali indeksi 2021 (pastki chegara)	kapitali indeksi 2021	kapitali indeksi 2021 (yuqori chegara)
O‘zbekiston	0,98	12,0	0,87	0,60	0,63	0,64

“Jahon bankining 2021 yilda e’lon qilingan inson kapitali indeksi bo‘yicha hisobotida birinchi marta O‘zbekiston uchun ma’lumotlar keltirilgan. Mamlakatdagi inson kapitali indeksini 63 foiz bilan baholagan”.[17] Bu rivojlangan G‘arb va Osiyo davlatlaridagi o‘rtacha ko‘rsatkichlarga nisbatan pastroq, ammo past daromadli mamlakatlar uchun o‘rtacha ko‘rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori. “Mamlakatda inson kapitalining rivojlanishini o‘lchashda turli ko‘rsatkichlar asosida tahlillar amalga oshirilganda “besh yoshgacha omon qolish ehtimoli” ko‘rsatkichi bo‘yicha o‘rganishlar shuni ko‘rsatmoqdaki, 100 nafar boladan 98 tasi besh yoshgacha tirik qoladi. Bu ko‘rsatkich, mamlakatdagi sog‘liqni saqlash tizimi va bolalar uchun yaratilgan sharoitlarning nisbatan yaxshi ekanligini anglatadi. Bundan tashqari, 15 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlarning omon qolish darajasi bo‘yicha tahlil esa, 87% o‘smirlar 60 yoshga qadar hayot davomida sog‘lom holatda yashashga muvaffaq bo‘ladi. “Bola sog‘lom o‘sish ko‘rsatkichi bo‘yicha esa, 100 nafar boladan 89 nafari normativ rivojlanish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, 11 nafar bolada esa rivojlanishdagi kechikishlar yoki muammolar mavjud. Bu muammolar, bolalarning kognitiv va jismoniy rivojlanishiga butun umr davomida ta’sir ko‘rsatib ularning kelajakdagi muvaffaqiyatlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu mezonlarning barchasi mamlakatdagi inson kapitalini rivojlantirishning qanchalik muhimligini ko‘rsatadi. O‘z vaqtida amalga oshirilgan chora-tadbirlar, bu ko‘rsatkichlarning ijobiy o‘sishiga yordam berib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. [18] Inson kapitali – inkor etib bo‘lmaydigan darajada muhim, biroq miqdoriy jihatdan aniqlash qiyin bo‘lgan ichki qiymatga ega resursdir. Bu holat inson kapitalining turli tarkibiy qismlarini yagona o‘lchovga birlashtirishni murakkablashtiradi.

Ko‘pgina empirik tadqiqotlarda sog‘liqni saqlash, ta’lim, sanitariya, suv ta’minoti va uy-joyni munosib hayot uchun zarur bo‘lgan asosiy funksiyalar sifatida ko‘rib chiqadi. 2019-yilda 101 mamlakat va 5,7 milliard odamni kuzatuvchi ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, “dunyo bo‘ylab 1,3 milliard kishi (aholining 23,1 foizi) sog‘liqni saqlash, ta’lim va turmush darajasi jihatidan ko‘p qirrali kambag‘aldir”. [19]

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations)

Inson kapitali odamlarning butun umri davomida to‘plagan bilim, ko‘nikmalar va salomatlikdan iborat bo‘lib, jamiyatning samarali a’zosi sifatida o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini yaratadi. Inson kapitalini rivojlantirish orqali farovon jamiyat yaratish va kambag‘allikka barham berish mumkin. Buning uchun sog‘liqni saqlash, sifatli ta’lim, ish o‘rinlari va ko‘nikmalarni rivojlantirishga sarmoya kiritish zarur. Ta’lim va sog‘liqni saqlash orqali kapitalni to‘plash shaxslarning daromad olish imkoniyatlarini oshiradi, shu bilan kambag‘allikni kamaytiradi. Sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq muammolar ham daromad olish imkoniyatlarini cheklaydi, natijada kambag‘allikni avloddan avlodga o‘tishiga sabab bo‘ladi.

Inson kapitaliga investitsiya kiritish kambag‘allikni kamaytirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Ta’limga sarmoya kiritish odamlarni zarur ko‘nikmalar bilan ta’minlab, daromadli ishga joylashish, yuqori maosh olish va turmush darajasini yaxshilash imkoniyatini yaratadi. Ta’lim tizimiga ajratilayotgan mablag‘larning ko‘payishi ta’lim sifatini oshirib, natijada odamlarning turmush darajasini yaxshilaydi. Shuningdek, ta’limga qo‘shimcha sarmoya kiritish tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Sog‘liqni saqlashga

investitsiyalar kiritish esa odamlarning samarali ishlash imkoniyatlarini oshiradi va kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, inson kapitali kambag‘allikni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lsa-da, bu yagona yechim emas. Ishga kirish, adolatli ish haqi va ijtimoiy xavfsizlik masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim va sog‘liqni saqlash sohasidagi tengsizlik kambag‘allikni kuchaytirishi mumkin. Shunday qilib, inson kapitali va kambag‘allik o‘rtasidagi bog‘liqlik ikki tomonlama ta’sirga ega. Bir tomondan, odamlarning malakasi, sog‘lig‘i va ta’limiga sarmoya kiritish kambag‘allikni yengishning asosiy vositasidir. Biroq, agar bunday investitsiyalar yetarli darajada amalga oshirilmasa, odamlar kambag‘allik tuzog‘iga tushib qolishi mumkin.

Ta’lim va sog‘liqni saqlashga sarmoya kiritish inson kapitalini rivojlantirib, odamlarning malakasini oshiradi, ishga kirish imkoniyatlarini yaratadi va daromadni ko‘paytiradi. Bu, o‘z navbatida, kambag‘allikni kamaytirishga yordam beradi. Biroq, ta’lim va sog‘liqni saqlashdagi tengsizlik kambag‘allikni kuchaytirishi mumkin, shuning uchun bu sohalarga yetarli darajada investitsiya kirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Becker, G. S. (1964). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education.* University of Chicago Press. P, 9.
2. Schultz, T. W. (1971). *The Economic Value of Education.* Columbia University Press. P, 3.
3. Becker, G. S. (1993). Human Capital (3rd ed.). Chicago: University of Chicago Press.
4. Бекмуродов М. Замонавий бошқарув социологияси. Монография. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. – Б. 52-53.
5. Абдураҳмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти. –Т.: Меҳнат, 2009. - Б.182.
6. Stiglitz, J., Sen, A., Fitoussi, J.P. (2009). Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress.
7. Умаров А.А. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Давлат маданият институти, 2005. – Б.18.
8. Hanushek, E., & Woessmann, L. (2015). The Knowledge Capital of Nations: Education and the Economics of Growth. MIT Press; OECD (2020). Education at a Glance.
9. World Bank (2018). The Human Capital Project: Investing in the Next Generation. Washington, DC; UNDP (2023). Human Development Report.

10. Putnam, R. D. (2000). Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. New York: Simon & Schuster; Bourdieu, P. (1986). “The Forms of Capital.” In J. Richardson (Ed.), Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education (pp. 241–258).
11. https://www.worldbank.org/en/topic/education/brief/what-is-learning-poverty. Accessed October 24, 2022.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi. https://www.stat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2
13. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/living-standards-2
14. Schiller, R. B. (2008). The Economics of poverty and discrimination.Upper Saddle River, NJ: Peason Prentice Hall.
15. World Bank. 2020. The Human Capital Index 2020 Update: Human Capital in the Time of COVID-19. © World Bank, Washington, DC. http://hdl.handle.net/10986/34432 License: CC BY 3.0 IGO.
16. Mirziyoev Sh. “Maktab ta’limini rivojlantirish masalalari” bo‘yicha videoselektordagi ma’ruzasi. 2022 yil 28 yanvar.
17. "Human Capital". *World Bank*. Retrieved 2021-04-20.
18. World Bank. 2020. The Human Capital Index 2020 Update: Human Capital in the Time of COVID-19. © World Bank, Washington, DC. http://hdl.handle.net/10986/34432 License: CC BY 3.0 IGO.
19. United Nations Development Programme. Oxford Poverty and Human Development Initiative. Global multidimensional poverty index 2019. Illuminating inequalities. 2019. http://hdr.undp.org/sites/default/files/mpi 2019 publication.pdf.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ashurova Khurshida Sag‘dullaevna
Associate professor of the department of “Humanities and information technologies” SamSIFL
xurshidashurova01@gmail.com

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

AFSONAVIY ANDALUSIYA TARIXIGA RATSIONAL MUNOSABAT: “UNUTISH MADANIYATI” VA ZAMONAVIY GISTORIOGRAFIYA MUAMMOLARI

Annotatsıya: Ushbu maqola o‘rta asrlar Ispaniyasi - Al-Andalus tarixini o‘rganishda mavjud bo‘lgan ustuvor yondashuvlarni tanqidiy tahlil qiladi. Maqolada Dario Fernandes-Morera va boshqa zamonaviy tadqiqotchilarning qarashlariga tayangan holda, “Andalusiya jannati” tushunchasining ilmiy asoslari so‘roq ostiga olinadi. Xususan, G‘arb akademiyasida shakllangan “unutish madaniyati” (culture of forgetting), “prezentizm” (tarixni bugungi kun siyosatiga moslashtirish) va iqtisodiy-mafkuraviy omillarning tarixiy haqiqatni buzib ko‘rsatishdagi roli ochib beriladi. Maqola Silven Gugengeym (Sylvain Gouguenheim) ishi va akademik senzura masalalarini ko‘rib chiqib, tarixiy voqelikka, jumladan, diniy va etnik ziddiyatlarga ratsional va xolis baho berish zarurligini ilgari suradi.

Kalit so‘zlar: Al-Andalus, rekonkista, agiografiya, prezentizm, tarixiy xotira, Silven Gugengeym, akademik erkinlik, multikulturalizm, diniy toqatsizlik.

РАЦИОНАЛЬНЫЙ ПОДХОД К ИСТОРИИ ЛЕГЕНДАРНОЙ АНДАЛУСИИ: «КУЛЬТУРА ЗАБВЕНИЯ» И ПРОБЛЕМЫ СОВРЕМЕННОЙ ИСТОРИОГРАФИИ

Аннотация: В этой статье даётся критический анализ преобладающих подходов к изучению истории средневековой Испании-Аль-Андалуса. Статья опирается на взгляды Дарио Фернандеса-Морера и других современных исследователей, чтобы поставить под вопрос научную основу концепции андалузского рая. В частности, раскрывается роль «культуры забвения», «презентизма» (адаптации истории к современной политике) и экономических и идеологических факторов, сформировавшихся в западной академической среде, в искажении исторической реальности. В статье рассматриваются работы Сильвена Гугенхайма и академическая цензура, а также подчеркивается необходимость рациональной и беспристрастной оценки исторических реалий, включая религиозные и этнические конфликты.

Ключевые слова: Аль-Андалус, реконкис, агиография, презентизм, историческая память, Сильвен Гугенхайм, академическая свобода, мультикультурализм, религиозная нетерпимость.

RATIONAL APPROACH TO THE HISTORY OF LEGENDARY ANDALUSIA: "CULTURE OF FORGETFULNESS" AND PROBLEMS OF MODERN HISTOROGRAPHY

Abstract: This article provides a critical analysis of the prevailing approaches that exist in the study of the history of medieval Spain-Al-Andalus. The article draws on the views of Dario Fernandez-Morera and other modern researchers to question the scientific basis for the concept of an Andalusian paradise. In particular, the role of the "culture of forgetting", "presentism" (adaptation of history to the politics of today) and economic and ideological factors formed in Western academia in distorting historical reality is revealed. The article examines the work of Sylvain Gouguenheim and academic

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

censorship, and promotes the need for a rational and unbiased assessment of historical realities, including religious and ethnic conflicts.

Keywords: Al-Andalus, reconquis, hagiography, presentism, historical memory, Sylvain Gugenheim, academic freedom, multiculturalism, religious intolerance.

KIRISH

O‘rta asrlar Ispaniyasi, xususan, musulmonlar boshqaruvidagi Al-Andalus davri (711–1492) uzoq vaqt davomida zamonaviy G‘arb va Sharq tarixshunosligida “Oltin asr” sifatida tasvirlanib kelinmoqda. Ushbu davr ko‘pincha uchta din vakillari, hususan: musulmonlar, nasroniylar va yahudiylarning tinch-totuv yashashi *(convivencia*) hamda yuksak madaniy bag‘rikenglik namunasi sifatida taqdim etiladi. Biroq, so‘nggi yillarda, xususan, Dario Fernandes-Morera kabi olimlarning tadqiqotlari ushbu tasavvurning qanchalik tarixiy faktlarga mos kelishini jiddiy so‘roq ostiga qo‘ymoqda.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — manbalar asosida shakllantirilgan “ideal jamiyat” afsonasini dekonstruksiya qilish va Al-Andalus tarixiga nisbatan ratsional, faktlarga asoslangan yondashuvni shakllantirishdir. Tahlil markazida zamonaviy akademik doiralarda hukm surayotgan “unutish madaniyati” va uning sabablari turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

O‘rta asrlar Ispaniyasi (Al-Andalus) tarixini o‘rganish bo‘yicha mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ushbu mavzu ikki qarama-qarshi qutb — “romantik[1]-idealistik” yondashuv va “tanqidiy-ratsional” yondashuv vakillari o‘rtasidagi keskin munozaralar maydoniga aylangan. Ushbu maqola doirasida o‘rganilgan manbalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin:

- “Convivencia” (Birga yashash) Nazariyasi va Romantik Maktab: Bu yo‘nalish vakillari Al-Andalusni zamonaviy bag‘rikenglik ideallari uchun tarixiy namuna sifatida taqdim etishga urinadilar;

- Ameriko Kastro o‘zining “Ispaniya tarixining tuzilishi” (1954) asarida Ispaniya o‘zligini uch din vakillarining uyg‘un yashashi (*convivencia*) mahsuli, deb atagan asosiy nazariyotchidir. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Kastro asosan adabiy manbalarga tayangan bo‘lib, davrning huquqiy va teologik hujjatlarini (fiqh normalarini) yetarlicha tahlil qilmagan. Uning yondashuvi faktik tarixga qaraganda ko‘proq ekzistensial falsafaga yaqin bo‘lib, bu keyinchalik tarixiy haqiqatning buzilishiga olib kelgan;

- Kvame Entoni Appia o‘zining “Musulmonlar Yevropani qanday qilib yaratgan” (2008) maqolasida ushbu romantik an’anani davom ettiradi. U Al-Andalusdagi “bag‘rikenglik ruhi”ni mutlaqlashtirib, uni inkvizitsiya davriga qarama-qarshi qo‘yadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Appia bu yerda tarixiy tadqiqotdan ko‘ra, zamonaviy kosmopolitizm va multikulturalizm g‘oyalarini ilgari surishni maqsad qilgan. Bu esa “Prezentizm” (tarixni zamonaviylashtirish) muammosining yaqqol namunasidir.

- An’anaviy va Faktologik Yondashuv (Zimmiylar Masalasi): Bu guruh olimlari romantik qarashlarga qisman qarshi chiqsalar-da, o‘z davrining mafkuraviy cheklovlari ichida qolganlar. Klaudio Sanches-Albornos “Ispaniya-islomi va G‘arb” (1974) asarida Kastroning nazariyasiga keskin e’tiroz bildiradi. U islomiy davrni Ispaniyaning Yevropa taqdiridan og‘ishi, deb baholaydi. Biroq, Dario Fernandes-Morera ta’kidlaganidek, Sanches-Albornos ham musulmon ayollarining “erkinligi” kabi ba’zi stereotiplarni tanqidiy tekshirmasdan qabul qilgan.

[1] Tarix fanida “romantizm” deganda sevgi-muhabbat emas, balki voqelikni hissiy bo‘yoqlar bilan bezash tushuniladi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

- Fransisko Xavyer Simonet “Ispaniyadagi mozarablar tarixi” (1897-1903) fundamental asarida arab tilidagi birlamchi manbalar asosida nasroniylar (mozarablar)ning og‘ir ahvolini yoritib bergan. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, Simonetning ishlari o‘ta faktologik bo‘lishiga qaramay, uning katolik qarashlari tufayli akademik doiralar tomonidan “unutishga mahkum etilgan”. Bu holat akademik senzuraning tarixiy ildizlarini ochib beradi.

- Mark R. Koen “Hilol va xoch ostida” (1994) kitobida qiyosiy tahlil usulini qo‘llaydi. U yahudiylarning Islom olamidagi holatini nasroniy Yevropasiga nisbatan yaxshiroq, deb baholasa-da, ularning “ikkinchi darajali” huquqiy maqomini inkor etmaydi. Bu asar Al-Andalusdagi iyerarxik jamiyat tuzilishini tushunishda muhim manba hisoblanadi.

Shuningdek, Silven Gugengeym “Aristote au Mont Saint-Michel” ya’ni (G‘arb O‘rta asrlarida Aristotel falsafasi musulmon dunyosi orqali emas, balki to‘g‘ridan-to‘g‘ri yunon manbalaridan o‘rganilgan bo‘lishi mumkin, degan g‘oya ilgari suriladi) (2008) monografiyasida Yevropa ilm-fanining ildizlari haqidagi paradigmani o‘zgartirdi. U manbalar asosida yunon merosining (Aristotel) G‘arbga o‘tishida arab vositachiligining roli bo‘rttirilganini, aslida bu jarayonda Vizantiya va G‘arb monastirlari hal qiluvchi rol o‘ynaganini dalilab bergan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Gugengeymning ishi akademik erkinlik va ilmiy faktning mafkuraga bo‘ysunmasligi kerakligini ko‘rsatuvchi lakmus qog‘ozi bo‘ldi.

Dario Fernandes-Morera “Andalusiya jannati haqidagi afsona” (2016) kitobida eng radikal va izchil ratsional tahlilni amalga oshiradi. U Malikiya mazhabidagi fiqh kitoblari, arxeologik topilmalar va zamondosh yilnomachilarning guvohliklariga tayanib, Al-Andalus jamiyatini diniy toqatsizlik, qullik va siyosiy zulm ustiga qurilgan tuzum sifatida qayta tiklaydi. Uning bu metodologiyasi “motivatsion ko‘rlik”ni fosh etish va manbalarni mafkuraviy filtrlarsiz o‘qishga asoslangan. Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavzu bo‘yicha tadqiqotlar agiografik (madh etuvchi) uslubdan tanqidiy-ratsional tahlilga ko‘chishi zarur. Ushbu maqola aynan uchinchi guruh - revizionist olimlarning metodologiyasiga tayangan holda, Al-Andalus tarixidagi “oq dog‘lar”ni emas, aksincha ataylab “bo‘yalgan dog‘lar”ni korsatib berishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-tanqidiy va qiyosiy-tahlil metodlariga tayanildi. Asosiy e’tibor romantik yondashuv va “prezentizm”ni rad etishga qaratilib, badiiy asarlar o‘rniga aniq “yuridik va fiqh hujjatlari” ustuvor manba sifatida tanlandi. “Shubhali germenevtika” usuli yordamida akademik “unutish madaniyati” va mafkuraviy ta’sirlar fosh etildi. Natijada, mavjud faktlar asosida “Andalusiya jannati” afsonasi ilmiy dekonstruksiya qilinib, davrning “ratsional va realistik” tarixiy manzarasi tiklandi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Tarixiy haqiqatni buzib ko‘rsatish ko‘pincha manbalarning yetishmasligi bilan izohlanadi. Biroq, Fernandes-Morera ta’kidlaganidek, Al-Andalus borasida bunday muammo mavjud emas. O‘rta asrlarga oid birlamchi lotin, ispan, arab va ibroniy manbalari nafaqat saqlanib qolgan, balki asosiy G‘arb tillariga (ingliz, fransuz, nemis, ispan) tarjima qilingan.

Shunga qaramay, paradoksal holat kuzatilmoqda: manbalar mavjud bo‘lsa-da, akademik hamjamiyat ulardagi noqulay faktlarni ko‘rmaslikka oladi. Bu fenomen “unutish madaniyati” (culture of forgetting), deb ataladi. Kvame Entoni Appia ta’kidlaganidek, hatto 1085-yilda Toledoni qaytarib olgan nasroniy qiroli Alfonso VI ham bag‘rikenglik tamoyillariga amal qilgan, ammo keyinchalik tarixiy xotira o‘zgarib, faqat inkvizitsiya davri qora bo‘yoqlarda, Islom davri esa oq bo‘yoqlarda

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

tasvirlana boshladi.[2] Bu yerda asosiy muammo til bilmaslik emas, balki “agiografik shakllantirish” (hagiographic fashioning) — ya’ni tarixiy davrni xuddi avliyolar hayotini yozgandek ideallashtirish tendensiyasidir.

Tarixni buzishning sabablari: psixologiya, siyosat va iqtısod: Nima uchun G‘arbning zamonaviy olimlari, jurnalistlari va ziyolilari ochiq-oydin tarixiy faktlarga (urushlar, qatl etishlar, diniy kamsitishlar) ko‘z yumadilar? Manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, buning bir nechta chuqur ildizli va sabablari mavjud: Xususan, Fernandes-Morera “prezentizm”[3] tushunchasini kiritadi. Bu o‘tmishni bugungi kunning qadriyatlari va siyosiy ehtiyojlaridan kelib chiqib qayta yozishdir. Zamonaviy G‘arb jamiyatlarida multikulturalizm, xilma-xillik va tinchlik g‘oyalari ustuvor bo‘lganligi sababli, tarixchilar o‘tmishdan ushbu g‘oyalarni tasdiqlovchi modellarni qidiradilar. Al-Andalus bu borada sun’iy ravishda “o‘rnak bo‘la oladigan jamiyat” sifatida qurilgan. Ushbu progressiv kun tartibiga zid keluvchi har qanday fakt (masalan, etnik tozalashlar yoki diniy soliqlar) “konservativ”, “shovinistik” yoki “retrograd” deb e’lon qilinadi va rad etiladi.

Bundan tashqari, olimlarning ilmiy izlanishlariga ko‘pincha manfaatdor strukturalarning ehtiyoj va manfaatlari sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, gumanitar fanlar, ayniqsa Yaqin Sharqshunoslik va Islomshunoslik yo‘nalishidagi ilmiy markazlar ko‘pincha Saudiya Arabistoni, Qatar kabi neftga boy davlatlarning grantlari va moliyaviy ko‘magiga tayanadi. “Shubhali germenevtika”, deb ataluvchi yondashuv shuni ko‘rsatadiki, Islom tarixini tanqidiy va mustaqil tadqiq etish ko‘pincha moliyalashtirish manbalarining keskin qisqarishi yoki to‘xtatilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa tadqiqotchining akademik doiralarda “persona non grata” maqomiga tushib qolishiga, ilmiy reputatsiyasining zaiflashishiga va karyerasining izdan chiqishiga sabab bo‘lish ehtimolini kuchaytiradi.

Shuningdek, psixologik nuqtai nazardan, tadqiqotchilar o‘zlarining dunyoqarashiga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlarni qabul qilishda qiyinchilikka uchraydilar. Bu holat “ziyolilarning soddaligi” (innocence of intellectuals) bilan ham bog‘liq bo‘lishi mumkin; ular ko‘pincha o‘zlarining idealistik tasavvurlarini reallikdan ustun qo‘yadilar.

Manbalarni tahlil qilish jarayonida materialistik gistoriografiya va diniy omilning rad etilishi: Jo‘mladan, zamonaviy G‘arb tarixshunosligidagi yana bir jiddiy muammo, bu diniy omilning ahamiyatini pasaytirishga urinishdir. Materialistik yondashuvga ega olimlar urushlar va istilolarni faqat iqtisodiy yoki ijtimoiy sabablar bilan izohlashga harakat qiladilar. Ular uchun kimdir shunchaki “diniy e’tiqod” tufayli o‘ldirishga va o‘lishga tayyor ekanligini qabul qilish qiyin. Natijada, VIII-asrda Ispaniyaning arablar va barbarlar tomonidan bosib olinishi “bir madaniyat va dinning ikkinchisi ustidan zo‘ravonlik bilan g‘alaba qozonishi” sifatida emas, balki yumshoq “madaniy almashinuv” yoki “migratsiya” sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa tarixiy voqelikni (masalan, jihod tushunchasini yoki salib yurishlarining asl mohiyatini) tushunishga to‘sqinlik qiladi.

Ilmiy tahlillarni analiz qilishda “Unutish madaniyati”ga qarshi chiqqan olimlarning taqdiri ilm-fanda erkinlik muammosini ochib beradi. Fransuz tarixchisi Silven Gugengeym o‘zining asarida quyidagi tezislarni ilgari surgan:

1. Yunon falsafasi va ilmi (Aristotel asarlari) Yevropaga faqat Islom orqali kirib kelmagan.
2. Bu meros Vizantiya imperiyasi va nasroniy monastirlarida (masalan, Mont Sen-Mishel) saqlangan va o‘rganilgan.

[2] Fernández-Morera, D. The Myth of the Andalusian Paradise: Muslims, Christians, and Jews under Islamic Rule in Medieval Spain. ISI Books. 2016.

[3] Prezentizm — bu o‘tmishdagi voqealarni, odatlarni, shaxslarni hozirgi davrning qadriyatlari, axloqi, siyosati yoki dunyoqarashi asosida baholash degani.

3. Arab tiliga qilingan tarjimalarning aksariyati aslida bosib olingan yerlardagi yunon tilini biluvchi suriyalik nasroniylar tomonidan amalga oshirilgan.

4. Islom madaniyati (fan va qurilishdan tashqari) yunon ruhiga, xususan, uning siyosiy nazariyasi, haykaltaroshligi va dramasiga befarq yoki qarshi bo‘lgan.

Mazkur ilmiy tezislar “akademik tizim” tomonidan g‘azab bilan kutib olindi. 56 nafar tadqiqotchi ochiq xat yozib, Gugengeymni “bilimsiz”, “madaniy irqchi” va “islomofob”, deb atadi. Sorbonna universiteti maxsus kollokvium o‘tkazib, asarni qoraladi. E’tiborli jihati, tanqidchilar asosan uning “arabshunos emasligi”ni ro‘kach qilib, “hokimiyat dalili” usulini qo‘lladilar. Bu holat XIX-asr ispan arabshunosi Fransisko Xavyer Simonetning taqdirini eslatadi, uning asarlari ham “konservativ” bo‘lgani uchun nashr etilishi qiyin bo‘lgan.

Tadqiqot xolisligini ta’minlash uchun masalaga faqat G‘arb manbashunosligi prizmasidan qarash yetarli emas. Paradoksal holat shundaki, zamonaviy G‘arb “liberallari” himoya qilayotgan “Andalusiya jannati” g‘oyasi klassik Sharq tarixchilari va mutafakkirlarining asarlarida o‘z tasdig‘ini topmaydi. Sharq manbalari tarixiy voqelikka nisbatan ancha realistik va tizimli yondashuvni namoyon etadi.

Andalusiya tarixiga nisbatan shakllangan “romantik” yondashuv asosan keyingi asrlar mahsuli bo‘lsa-da, Sharqning klassik manbalari bu davrga nisbatan sergak va tanqidiy munosabatda bo‘lganlar. Ratsional tahlil shuni ko‘rsatadiki, islom olimlari “multikulturalizm” afsonasini emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar, hokimiyat kurashi va diniy ustuvorlik realiligini yozib qoldirganlar.

Xususan, tarix sotsiologiyasining asoschisi Ibn Xaldun (1332–1406) o‘zining mashhur “Muqaddima” asarida Andalusiyaning yuksalishi va tanazzulini “bag‘rikenglik” bilan emas, balki qat’iy sotsiologik qonuniyat “Asabiya” (ijtimoiy jipslik) tushunchasi orqali tushuntiradi.

Ratsional tahlilga ko‘ra, Ibn Xaldun uchun Al-Andalus tarixi, bu kuchli sulolaning hokimiyatga kelishi, keyinchalik hashamatga berilib bo‘shashishi va oxir-oqibat kuchliroq, "yovvoyiroq" kuchlar (masalan, Murobitlar va Muvahhidlar yoki nasroniylar) tomonidan yengilishi jarayonidir. U bu jarayonni tabiiy va shafqatsiz tarixiy determinizm deb bilgan, uni romantiklashtirishdan yiroq bo‘lgan.

Ba’zi tadqiqotlarda zamonaviy G‘arb mualliflari dinlararo totuvlikni bo‘rttirib ko‘rsatsalar-da, Andalusiyalik tarixchi Ibn Hayyon (987–1075) kabi bevosita guvohlar jamiyatni ichki nizolar, fitnalar maydoni sifatida tasvirlaganlar. Kordova xalifaligi qulaganidan so‘ng boshlangan “Toifalar davri” (Muluk al-Tawaif) musulmon amirlarining bir-biri bilan qirg‘inbarot urushlari davri edi. Ibn Hazm kabi olimlar bu davrdagi axloqiy va siyosiy tanazzulni, hukmdorlarning nasroniy qirollari bilan ittifoq tuzib, o‘z dindoshlariga qarshi urushganini ochiq tanqid qilganlar. Demak, Sharq manbalari jamiyatni idealizatsiya qilmagan, balki siyosiy reallikni ro‘y-rost yozgan.

Zamonaviy prezentistlar 711-yil voqealarini yumshoq qilib “madaniy almashinuv”, deb atashga urinsalar, ayrim Sharq manbalari, masalan: al-Maqqariy yoki Ibn Idhoriylar buni hech ikkilanmay “Istilo” va “Jihod”, deb ataydilar.

Musulmon yilnomachilari uchun bu hududlarning egallanishi va u yerda Shariat qonunlarining o‘rnatilishi g‘urur manbai bo‘lgan. Ular o‘zlarini “liberal demokrat” sifatida emas, balki “E’tiqod himoyachilari” sifatida ko‘rishgan. Ularni bugungi kunning “sekulyar bag‘rikenglik” qolipi bilan o‘lchash, bu nafaqat tarixiy xato, balki o‘sha davr musulmonlarining o‘z dunyoqarashiga nisbatan hurmatsizlik hisoblanadi.

XULOSA

Dario Fernandes-Morera, Silven Gugengeym kabi G‘arb revizionistlari va Ibn Xaldun kabi Sharq mutafakkirlarining asarlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, “Andalusiya jannati” haqidagi hukmron qarashlar jiddiy ilmiy reviziyaga muhtojdir.

Tarixga ratsional munosabat quyidagi xulosalarni beradi:

Birinchida - Mifologiyaning rad etilishi: G‘arb manbashunosligi va Sharq sotsiologiyasi Andalusiyani “jannat” sifatida emas, balki murakkab siyosiy va diniy ziddiyatlar davlati sifatida tasvirlaydi.

Ikkinchidan - Manbalar uyg‘unligi: Qizig‘i shundaki, bag‘rikenglik afsonasini rad etishda konservativ nasroniy manbalari va ortodoksal islomiy manbalar bir-birini quvvatlaydi, har ikkisi ham din va hokimiyatning jamiyatdagi hal qiluvchi rolini tan oladi. Faqat zamonaviy sekulyarizmgina buni inkor etishga urinmoqda.

Uchunchida - Epistemologik zarurat: Haqiqiy ilm-fan qulay siyosiy yolg‘onlardan voz kechib, tarixning achchiq haqiqatini qabul qilishi, o‘tmishni bugungi kun standartlari bilan emas, o‘z davrining mezonlari bilan baholashi shart.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Fernández-Morera, D. The Myth of the Andalusian Paradise: Muslims, Christians, and Jews under Islamic Rule in Medieval Spain. ISI Books. 2016.
2. Appiah, K. A. How Muslims Made Europe. New York Review of Books, November 6. 2008.
3. Gouguenheim, S. Aristote au Mont Saint-Michel: Les racines grecques de l’Europe chrétienne. Éditions du Seuil. 2008.
4. Castro, A. The Structure of Spanish History. Princeton University Press. 1954.
5. Sánchez-Albornoz, C. El Islam de España y el Occidente. Espasa-Calpe. 1974.
6. Simonet, F. J. Historia de los mozárabes de España. Real Academia de la Historia. 1897-1903.
7. Cohen, M. R. Under Crescent and Cross: The Jews in the Middle Ages. Princeton University Press. 1994.
8. Ibn Khaldun. The Muqaddimah: An Introduction to History. Princeton University Press. 2015.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Musaev Mansur Tursunpo‘latovich

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti bo‘lim boshlig‘i, siyosiy fanlari doktori (DSc), dotsent

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

MISSIONERLIK STRATEGIYASI VA UNING O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya. Mazkur maqolada missionerlik strategiyasi va uning o‘ziga xosligi haqidagi fikrlar ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada bugungi kunda ma’naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo‘layotgan missionerlik mafkuraviy ekspansiyaning nozik va nisbatan arzon shaklida namoyon bo‘layotganligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: missionerlik, strategiya, ma’naviyat, mafkura, davlat, suverenitet, konstitutsiya, targ‘ibot, ma’rifat, axloq, prozelitizm.

МИССИОНЕРСКАЯ СТРАТЕГИЯ И ЕЁ ОСОБЕННОСТИ

Аннотация. В статье научно анализируются представления о миссионерской стратегии и её уникальности. Также научно подчёркивается, что миссионерская идеологическая экспансия, которая в настоящее время проявляется как духовная, политическая, экономическая и правовая угроза, проявляется в скрытой и относительно малозаметной форме.

Ключевые слова: миссионерство, стратегия, духовность, идеология, государство, суверенитет, конституция, пропаганда, просвещение, мораль, прозелитизм.

MISSIONARY STRATEGY AND ITS FEATURES

Abstract. The article provides a scientific analysis of ideas about missionary strategy and its uniqueness. It also scientifically emphasizes that missionary ideological expansion, which currently manifests itself as a spiritual, political, economic, and legal threat, takes a hidden and relatively inconspicuous form.

Keywords: missionary work, strategy, spirituality, ideology, state, sovereignty, constitution, propaganda, education, morality, proselytism.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish(Introdustion). Bugungi kunda dunyoda kechayotgan murakkab globalllashuv jarayonlari tufayli ma'naviy xurujlar, yot g'oya va mafkuralar ta'siri ham tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, missionerlikka yo'naltirilgan harakatlar nafaqat insonlarni e'tiqodiga, balki turli din, millat va elatlarning hamjihatligiga rahna solayotgani hamda siyosiy ta'sir doirasiga olishning vositasiga aylanib qolayotganini inkor etib bo'lmaydi. Avval ma'naviy, siyosiy, iqtisodiy-huquqiy tahdid sifatida namoyon bo'layotgan missionerlik mafkuraviy ekspansiyaning nozik va nisbatan arzon shaklida allaqachon ayrim davlatlar amaliyotiga aylanib ulgurdi. Ma'naviy ta'sir ko'rsatishning birinchi rejaga chiqishini har bir mamlakatda e'tiqod masalasida o'ziga xos yozilgan yoki yozilmagan qonunlar, qadriyatlar, an'analar va urf-odatlar borligi bilan belgilash mumkin. Ma'naviyatni shakllantipuvchi va boshqapuvchi ushbu omillarni yengib o'tmay turib, muayyan insoniy birlikni biror siyosiy maqsad yoki g'oyaga xizmat qildirish majburlashni keltirib chiqaradi. Majburlash esa kuch ishlatish va zo'rlik vositalarini talab qiladiki, inson ongi va qalbini egallash, uni belgilangan g'oyalar va siyosatga bo'ysunuvchi odamga aylantirishda bu muvaffaqiyatli chora bo'la olmaydi. Chunki majburlash ma'naviyatga zid hodisa hisoblanadi. Qolaversa globallashuv jarayonlari missionerlik harakatlari uchun g'oyatda keng imkoniyatlarni ochib berdi. Dunyo miqyosida keskin g'oyaviy kurashlarning avj olishi, turli mafkuralar to'qnashuvi, demokratiya yoki turli diniy ta'limotlar shiorlari bilan "chiroyli" niqoblangan yovuz g'oyalarni singdirishga intilish missionerlik harakatlari misolida tobora kuchayib bormoqda. Bu haqda fikr yuritganda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'biri bilan aytganda "Ba'zi guruhlar orasida diniy qarashlarni Konstitutsiya va qonunlarimizga qarshi va ulardan ustun qo'yish holatlari kuchaymoqda. Diniy e'tiqod niqobi ostida yoshlarni ma'rifatga emas, jaholatga undayotgan kishilar paydo bo'lmoqda" [1]. Ushbu sharoitda mazkur harakatlar milliy, diniy, dinlararo ziddiyatlarni keltirib chiqarish, tinch va osuda hayotga tahdid solish, nafaqat jamiyatda balki mamlakat miqyosida separatizmni keltipib chiqapishga intilayotganligi bu bopada jiddiy fikplashni taqozo etadi. Xristianlik ta'limoti asosida tayyorlangan missonerlar ilgari ko'proq doktor, o'qituvchi ko'pinishida yuborilgan bo'lsa, texnik tasaqqiyot globallashuvi kuchaygan bugungi zamonda turli kasb turlapi ko'rinishida sayyoh, sportchi, investop, biznesmen, xalqaro tashkilotlar xizmatchisi, savdo xodimi, hatto elchilik xodimi sifatida yuborilish holatlariga qadar kengayib, «xizmat vazifasi»ni o'tash maqsadida muayyan hududlarga maxsus topshiriq va vazifalarni bajarishga yo'naltirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Dunyo miqyosida missionerlik aksariyat holatlarda diniy nifoq solish orqali dinlararo to'qnashuvlar, etnokonfessional ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda. Buni Afrika va Osiyo mintaqasidagi qator mamlakatlarda missionerlik natijasida tub aholining diniy tapkibidagi muvozanat buzilishlari, turli din vakillari orasida doimiy ravishda kelib chiqayotgan mojarolar misolida ko'sish mumkin"[2].

Ayniqsa, keyingi vaqtlarda missionerlar keng e'tibor qaratayotgan tarmoqlar ichida muhtoj oilalar, maktab internati, maktabgacha tarbiya muassasalari, mehribonlik va qariyalar uylari, nogironlar, o'rta, o'rta-maxsus hamda oliy ta'lim muassasalari va ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish alohida ahamiyat kasb etadi. Zepo, ijtimoiy missiya stpategiyasida zohipan "beg'araz" yordam ko'rsatish orqali fuqarolarni jamiyatda o'z o'rnini topishi, oilaviy muammolarni bartapaf etishi, insonlarga tinchlik va quvonch ulashish masalalari qamrab olinadi. Rivojlangan davlatlar missionerlik tashkilotlari orqali xorijiy davlatlardagi ichki "iqtisodiy muammolar"ni bartapaf etishda bevosita ishtirok etishadi. Missionerlik strategiyasda fuqarolarni jamiyat va davlat miqyosidagi "iqtisdiy muammolar"ni bartaraf etishda ishtirok etishiga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda missionerlar moddiy va moliyaviy yordam ko'rsatishning turli xil usullaridan ustalik bilan foydalanishmoqda. Ushbu rejlarini amalga oshirishda "mehrbonlik uylari", "ko'zi ojizlar jamiyati", "qariyalar uylari"ga "beg'araz" xayriya yordami ko'rsatayotganligi ular amaliyotining oshkora ko'rinishlaridir.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Missionerlik strategiyasining asosiy elementlaridan biri muayyan ijtimoiy guruhlarni aniqlash va ular bilan ishlashdir. Bunday missionerlik amaliyoti rasman ro‘yxatdan o‘tmagan bo‘lsa-da, u ko‘plab konfessiyalapda amalga oshirilib, tashkilot muvaffaqiyatiga hissa qo‘shadi.Missionerlik strategiyasining eng muhim vazifasi muayyan davlat hududida ushbu faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini, ya’ni missionerlik sohasini topishdan iborat. Horijlik tadqiqotchi P.Allen o‘zining “Havoriy Pavlus davridagi va bugungi kundagi missionerlik usullari” kitobida oldingi avlodlar tajribasiga tayanib, missionerlik amaliyotida bu vazifa eng muhim ekanligini ta’kidlaydi. Uning so‘zlariga ko‘ra, havoriy Pavlus hayoti davomida mashhur savdo markazi bo‘lgan hududlarda cherkovlar qurgan”[3].

Hozirgi davrda zamonaviy ilm-fan va texnologiya dinning tarqalishida insoniyat uchun ko‘plab imkoniyatlarni ochib berdi. Radio, televideniya, ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar qator zamonaviy usullarni qo‘shdi. Diniy arboblar ishtirokidagi ma’ruzalar, seminarlar, ijtimoiy tarmoqlardagi turli xabarlap – diniy e’tiqodlarni targ‘ib qilish manbaidir.

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology). Xorijiy moliyaviy ko‘mak asosida moliyalashtirilayotgan missionerlik stpategiyasida aksariyat holatlarda siyosiy maqsadlarni ko‘zlab harakat qilayotganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ziddiyatlardan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanib kelayotgan tupli xil siyosiy-mafkuraviy gupuxlar etnik-milliy, diniy acocda yangi ziddiyatlarni ongli ravishda avjiga chiqarmoqdalar[4]. Natijada, mazkur holat, muayyan mintaqalarda avvalo, jamiyat xavfsizligi hamda mamlakat barqarorligiga putur etishi uchun zamin yaratmoqda. Aynan, missionerlikni rivojlantipish maqsadida xorijdan yo‘naltirilayotgan “beg‘araz” moliyaviy yordamdan o‘z manfaati va maqsadlari sari intilish tobora oydinlashmoqda. Vaholanki, dunyo miqyosida geosiyosiy kuchlar muvozanatining tobora o‘zgarishi, ayrim rivojlangan davlatlarning o‘z demokratiyasini “eksport” qilish orqali dunyoga hukmronlik qilish maqsadida ochiqdan-ochiq da’vogaplik qilishga bo‘lgan harakatlar misolida namoyon bo‘lmoqda.

Yaqin Sharq mintaqasiga, jumladan, arab mamlakatlariga o‘z ta’sirini o‘tkazishga urinayotgan kuchlar o‘rtasidagi geosiyosiy raqobatning kuchayishi ular musaqilligiga tahdidlarning yangi turlari sifatida namoyon bo‘layotganini ko‘rsatmoqda. Zero, missionerlik harakatlari natijasida “inson huquqlar”, “vijdon erkinligi”, “demokratik erkinliklar”ni olg‘a surish uchun ko‘rsatilayotgan “ko‘mak” aclida mamlakatni parokandalik sapi siyosiy boshboshdoqlikka yetaklayotganligi yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Erkinlik, demokratiya inson huquqlari kabi jozibali g‘oyalarni niqob qilib olgan bu siyosiy kuchlar shu asosida dunyodagi hohlagan mustaqil davlatning ichki ishlariga aralashib, g‘arazli maqsadlarga erishmoqchi bo‘ladi[5]. Vaholanki, missionerlik orqali amalga oshirilayotgan “demokratiya” niqobidagi urinishlar mana shunday noxushliklarni keltirib chiqarishi mumkinligini anglash barchadan jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda. Shu o‘rinda o‘rganishlar natijasiga ko‘ra, ma’lum bo‘ldiki, missionerlik tashkiloti a’zolari bu yerga o‘z qarindoshlari, tanishlari, do‘stlarini jalb etishadi. Jamiyatga ko‘proq a’zolarni olib kelganlar bu yerda maxsus imtiyozlapga ega bo‘ladilar. Aytgancha, jamiyatning asosiy maqsadi odamlarga haqiqiy hayotni topishga yordam bepishdir. Boshqacha qilib aytganda, bu gunohkor dunyoga Xudo qanday qilib abadiy hayotni saqlab qolishi va qo‘lga kiritishi haqida xabar berishdir. A’zolar o‘zlarini ko‘proq “yangi hayot” izdoshlari deb bilishadi. “Yangi hayot” tarafdorlari hech qanday missionerlik faoliyati bilan shug‘ullanmayotganliklarini, shunchaki Iso payg‘ambaring va abadiy hayot borligini odamlarga yetkazishlarini ta’kidlashadi. Shuni alohida qayd etish joizki, urushlar, ocharchiliklar, kacalliklarning avj olishi missionerlik tashkilotlarining faolligini oshiradi. Chunki bunday holat ular uchun qulay sharoit yaratadi. Ayrim davrlarda ham sun’iy ravishda yaratilgan urushlar, ocharchilik va kacalliklarning sabablari aynan shu mafkuralarni targ‘ib qilish uchun tashkil etilgan.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Asosan, bir najotkor kelib, bizni bu qiyinchiliklardan qutqaradi, degan ishonchdan foydalanib, soxta mahdiylik, soxta nasroniylik, soxta payg‘ambaplik da’volarini vujudga keltirish orqali soxta dinlar, botil e’tiqodlar yaratdilar. Oqibatda odamlarning moddiy va ma’naviy qiyinchiliklaridan foydalanib, ularni suiiste’mol qiladilar, ularga da’vat qiladilar. Bundan tashqari, bu tashkilotlar urushlar, ocharchilik va kacalliklarni keltirib chiqaradigan juda katta muassasalar va kompaniyalar tomonidan nazorat qilinadi yoki qattiq qo‘llab-quvvatlanadi. Aynan ular tomonidan missionerlik burchlarini bajaradilar. Buning o‘rniga, bu missionerlik tashkilotlari nishondan qochish va atpofga ko‘proq ommaviy va tasvirni jalb qilish uchun tinchlik va adolatni tiklash, tenglik, barcha dinlar birligi kabi shirin iboralarni ishlatishadi. Olib bopgan tadqiqotimizdan ma’lum bo‘ladiki, missionerlar mahalliy aholiga o‘z madaniyatidan “yuqori” madaniyatni taklif etadilar. Missionerlik faoliyatining usullari va tasnifini aniqlash diniy tashkilotlar faoliyatini tizimlashtirish imkonini beradi. Tadqiqotchilar missionerlik faoliyatini tasniflashning to‘rtta asosiy yo‘nalishini ajratib ko‘rsatishadi: ular tashkiliy, geografik, hududiy va uslubiy deb ataladi. Umumiy missionerlik va internet makonida, masalan: Instagram, TikTok, VK, YouTube, Meta tarmoqlarida dinning tarqalishi ustida ish olib borilmoqda. Ikki yoki uch soniya davomida missionep odamning qiziqishini oshiradi va boshqa video yoki yozuvlarni o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi. Insonning ma’lum bip dinga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirish yoki e’tiqodga kirish ehtimoli yuqori bo‘ladi. Mutaxassislap tomonidan o‘tkazilgan “stpategik tadqiqotlar” natijasiga ko‘pa, missionerlik dunyoda global miqyosida turli konfliktda va qat’iy geosiyosiy bosimda ekanligini ta’kidlashadi. Missionerlik ta’siri ostida har qanday xalq va millatning madaniy ildiziga tahdid solish orqali o‘ta radikal millatchilik harakatlarini vujudga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Natijada, mazkur hapakatlar oqibatida dunyoda global miqyosda etnik va millatlararo mojarolarning tobora avj olishi har qanday xalq va millatni mentalitetiga raxna solish orqali ma’naviy tubanlik girdobiga yetaklamoqda.

Bugungi kunda inson ongi, qalbi va ruhiyatiga tazyiq o‘tkazishga harakat qilayotgan missionerlik harakati tarafdorlari hozirda eng ta’sirchan vositalar sifatida axborot missiyasini amalga oshirishda gazeta va jurnallar, internet tizimidan samarali foydalanishmoqda. Ayni payt intepnet saytlaridan tarqatilayotgan milliy ma’naviyatimizga yot g‘oyalar va axborot xupujlarini yoshlar tomonidan qabul qilinayotganligi va uning oqibatlari jahondagi barcha mamlakatlar halqlarni ham tashvishga solmoqda[6]. Ayniqsa, missionerlik tashkilotlari axborot missiyasini amalga oshirishda axborot nazoratini “ta’minlashda” quyidagilarga alohida e’tibop qaratishmoqda:

missionerlik ta’limotiga ko‘ra, tashkilot a’zolarining ongini nazorat qilish maqsadida boshqa axborot manbalari radio, televidenie, gazetalar bilan aloqasini cheklashga alohida e’tibor qaratiladi.

missionerlik tashkilotidan tashqari insonlar bilan aloqani uzish va ularni ig‘vo qilish;

missionerlik tashkilotlapiga a’zo bo‘lgan insonlarni tashkilot faoliyatiga oid adabiyotlar, g‘oyaviy mafkuraviy ma’ruzalar bilan “bombapdimon qilish”;

missionerlik tashkiloti to‘g‘risidagi muayyan axborotni “maxfiy” ravishda tasniflash (masalan oqimning yetakchisi, amalga oshirilayotgan ehsonlar, hayot tarzini o‘zgarishi, talab qilinayotgan moliyaviy majburiyatlar, pullar qanday maqsadlarda sapflanishi);

missionerlik ta’limotiga ko‘ra, haqiqatni buzib talqin etish (cektantlar go‘yoki, biz nochor ahvolda yashayotgan bolalar uchun pul yig‘amiz deya ochiqchasiga yolg‘on ishlatish (tashkilot a’zolari hech kim oqim etakchisiga pul bepmasligini, tashkilot yetakchisini xudoligiga ishonmasligi).

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations). Missionerlik tashkilotida o‘rnatilgan axborot nazorati oqibatida oqim a’zolarini qaror qabul qilishga halaqit berish orqali tashkilot faoliyati to‘g‘risida tanqidiy fikrlar bildirish bartaraf etiladi. Ushbu o‘zgarishlar girdobida inson, insoniylik, ma’naviyat kabi tushunchalarning buguni va kelajagi ko‘p jihatdan mafkuraviy immunitetni shakllantirish va kuchaytirish muammosini qay darajada hal etilishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Missonerlar yoshlarni ingliz tili kurslariga, talabalar bilan tajriba almashishga, grant dasturlariga va oson pul ishlashga taklif qiladi. Xorijiy missionerlik tashkilotlari yoshlar va bolalar oromgohlari, ingliz tili va cholg‘u acboblari kurslari kabi turli tadbirlarda faol ishtirok etmoqda. Xususan, ayrim buzg‘unchi oqimlar fuqarolarning oilaviy va shaxsiy hayotiga aralashib, ularning huquqlariga putur etkazmoqda. Albatta, missionerlarning bunday g‘arazli maqsadlari va da’vatlari pinhona yoki ochiqdan-ochiq bo‘lishini inobatga oladigan bo‘lsak, mazkur harakatlarga nisbatan hap qanday e’tibopsizlik bizga qimmatga tushishini unutmasligimiz lozim. Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev qayd etganidek: “...tarbiyasi izdan chiqqan nopok kimsalardan ogoh bo‘laylik! Farzandlarimizni ularning buzg‘unchi ta’siridan asraylik! Kelajagimizni yovuz kuchlar qo‘liga berib qo‘yishga aslo haqqimiz yo‘q. Agar barchamiz birgalikda qat’iy harakat qilsak, jamiyatimizda sog‘lom ijtimoiy-ma’naviy muhitni mustahkamlashga albatta qodirmiz”[7]. Zero, missionerlarning bunday g‘arazli maqsadlaiga nisbatan muntazam ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish bugungi kunning dolzarb talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

2. Ҳасанбоев Ў. Ўзбекистонда даавлат ва дин муносабатлари: диний ташкилотлар, оқимлар мафкуравий курашнинг долзарб йўналишлари. Тошкент ислом университети. – Тошкент, 2014. – Б. 113.

3. (Roland A. Missionary Methods: St Paul's or Ours? – London: World Dominion Press (first published in 1912), 1956. – 188 p).

4. Пахрутдинов Ш. Мустақиллик ва жамият тараққиётига таҳдид муаммоаси. (сиёсий таҳлил тажрибаси) С.ф.н. илмий даражаси учун ёзилган дис. 23.00.02. – Тошкент, 1999.

5. Қуронов. М. Ниқоб ортига бир нигоҳ. – Тошкент. Маънавият, 2018. – Б.12).

6. Бекпўлатов Ҳ. Мамадалиев Р. Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши курашнинг айрим масалалари. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 2016. № 1. – Б. 15.

7. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Янги Ўзбекистон газетаси. 2023 йил 23 декабрь, 267-сон.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mamirov Mansur
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

MUSIQA TA’LIMINING BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa ta’limining boshqa fanlar bilan integratsiyasi, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan integrativ yondashuvlarning samaradorligi tahlil etiladi. Integratsion o‘qitish natijasida o‘quvchilarning estetik didi, ijodiy tafakkuri va mantiqiy fikrlash qobiliyati shakllanishi yoritiladi. Adabiyot fani bilan integratsiya: qo‘shiqlarning matni orqali she’riy nutq, badiiy ifoda va obrazli tafakkur rivojlanadi. Masalan, Alisher Navoiy g‘azallariga yozilgan kuylarni tahlil qilish adabiyot va musiqa fanlarining uyg‘unligini namoyon etadi. Tarix, matematika, tabiiy fanlar, texnologiya va axborot texnologiyalari bilan integratsiyasining turli jihatlari bayon qilingan, raqamli musiqa dasturlaridan foydalanish, notalarni elektron tarzda yaratish o‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalari ko‘rilgan.

Kalit so‘zlar: integratsiya, musiqa ta’limi, fanlararo aloqadorlik, estetik tarbiya, ijodiy tafakkur.

ИНТЕГРАЦИЯ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ С ДРУГИМИ ДИСЦИПЛИНАМИ

Аннотация. В данной статье анализируется интеграция музыкального образования с другими дисциплинами, их взаимосвязь и эффективность интегративных подходов, применяемых в образовательном процессе. В результате интегративного обучения освещается формирование эстетического вкуса, творческого мышления и умения логически мыслить учащихся. Интеграция с литературоведением: через тексты песен развивается поэтическая речь, художественное выражение и образное мышление данной статье анализируется интеграция музыкального образования с другими дисциплинами, их взаимосвязь и эффективность интегративных подходов, применяемых в образовательном процессе. В результате интегративного обучения освещается формирование эстетического вкуса, творческого мышления и умения логически мыслить учащихся. Интеграция с литературоведением: через тексты песен развивается поэтическая речь, художественное выражение и образное мышление. Например, анализ мелодий, написанных на Газели Алишера Навои, показывает гармонию литературы и музыкальной науки. Были изложены аспекты истории, математики, естественных наук и интеграции с технологиями и информационными технологиями, а также рассмотрены вопросы использования цифровых музыкальных программ, электронного создания нот и развития навыков работы учащихся с современными технологиями.

Ключевые слова: интеграция, музыкальное образование, междисциплинарность, эстетическое воспитание, творческое мышление.

INTEGRATION OF MUSIC EDUCATION WITH OTHER SUBJECTS

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Annotation. This article analyzes the integration of music education with other disciplines, their relationship and the effectiveness of integrative approaches used in the educational process. As a result of integrative teaching, the formation of aesthetic taste, creative thinking and logical thinking skills of students is illuminated. Integration with the science of literature: through the text of songs, poetic speech, artistic expression and figurative thinking develop.article analyzes the integration of music education with other disciplines, their relationship and the effectiveness of integrative approaches used in the educational process. As a result of integrative teaching, the formation of aesthetic taste, creative thinking and logical thinking skills of students is illuminated. Integration with the science of literature: through the text of songs, poetic speech, artistic expression and figurative thinking develop. For example, analyzing the melodies written for Alisher Navoi's ghazals demonstrates the harmony of the literary and musical sciences. Aspects of integration with history, mathematics, natural sciences and Technology and Information Technology have been outlined, and the use of digital music programs, electronic creation of notes have been seen as issues of developing students skills in working with modern technology.

Keywords: integration, music education, interdisciplinary communication, aesthetic education, creative thinking.

Kirish

Hozirgi kunda ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun fanlararo integratsiya muhim o‘rin tutadi. Xususan, musiqa ta’limi boshqa fanlar bilan uyg‘unlashganda, u nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki o‘quvchilarning intellektual, ma’naviy va hissiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Integratsion yondashuv zamonaviy ta’limning muhim tamoyillaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning bilimini turli yo‘nalishlarda mustahkamlash, ularni hayotiy voqelik bilan bog‘lash imkonini beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Integratsiyaning nazariy jihatlari: Musiqa madaniyati darslarida “fanlararo aloqadorlik” tushunchasi, ya’ni musiqa darsini adabiyot, san’at, tarix yoki boshqa fanlar bilan bog‘lash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Masalan: “Musiqa darslarini adabiyot darslari bilan bog‘liqlikda tashkil etishning o‘ziga xos yo‘llari” maqolasida bu jihatlar tahlil qilingan[1]. Shuningdek, “Analysis of Interdisciplinary Integration in Music Culture Lessons” maqolasida musiqa darslarida fanlararo integratsiyaning misollari va usullari ko‘rib chiqilgan[1]. Bu nazariy manbalar integratsiyaning afzalliklari (o‘quvchilarning faolligi ortadi, turli fanlararo bog‘lanish orqali bilimlar chuqurlashadi) va muammolari (o‘qituvchilarning tayyorgarligi, dars rejalashtirish murakkabligi) haqida muhokama qiladi. Bu manbalar integratsiya nazariyasiga tayangan, an’anaviy fan-markazli yondashuvdan chiqib, turli fanlarni bog‘lab o‘qitish zaruriyatini asoslab bergan. Ammo, ko‘pchilik maqolalarda aniq amaliy tajriba va natijalar yetarli emas - ya’ni “qanday qilib integratsiya qildi, natijasi qanday bo‘ldi” degan savollarga javoblar cheklangan. Shuningdek, o‘qituvchining kompetensiyasi (ya’ni musiqa bilan birga boshqa fanlarni ham bilish) muhim ekanligi qayd etilgan.

Musiqa va adabiyot (yoki san’at) fanlari bilan integratsiya: “Musiqa darslarini adabiyot darslari bilan bog‘liqlikda tashkil etishning o‘ziga xos yo‘llari” maqolasida adabiyot va musiqa fanlari o‘rtasida mazmuniy bog‘lanish, qo‘shiqlar orqali adabiy matnlarni anglash, musiqiy ijro orqali adabiy obrazlarni ifodalash kabi yo‘llar tahlil qilingan[1]. Bu usul ta’lim mazmunini boyitishi, o‘quvchilarning san’atga, adabiyotga va musiqaga bo‘lgan munosabatini oshirishi mumkinligi ta’kidlangan. Mana bu yo‘l

pedagogik jihatdan juda foydali: adabiyot va musiqa bir-birini to‘ldiradi. Masalan, she’rni musiqiy ohang bilan kuylash, qo‘shiq matnini adabiyot darsida tahlil qilish.

Musiqa va boshqa fanlar (masalan, tabiiy fanlar) bilan integratsiya. “Analysis of Interdisciplinary Integration in Music Culture Lessons” maqolasida musiqa darslarida tabiiy fanlar (fizika — tovush, biologiya — eshitish, matematika — ritm) bilan bog‘lanish misollari keltirilgan[1]. Xorijiy misolda “Fun Learning Through the Integration of Music and Arabic Language Lessons: A Review of Literatures” maqolasida musiqani arab tili darsi bilan birlashtirish orqali o‘quvchilarning motivatsiyasi va nutq faolligi oshgani qayd etilgan[2]. Bunday fanlararo yondashuv boshqa fanlardagi tushunchalarni musiqa orqali qiziqarli qilish imkonini beradi - masalan, matematika ritmlar, fizika tovush to‘lqinlari. Bu esa o‘quvchilarning abstrakt tushunchalarni anglashini osonlashtirishi mumkin. Ammo, bunday integratsiya amaliyotida o‘qituvchilarning fanlararo bilimlari va metodik tayyorgarligi muammo bo‘lishi mumkin. Shuningdek, dastur va dars rejasini moslashtirish zarur: musiqa va boshqa fanlar birlashtirilganda vaqt va manbalar yetishmasligi ehtimoli bor.

Amaliy metodik jihatlar: “Musiqa ta’limida maqom asarlarini o‘zlashtirishga zamonaviy metod va texnologiyalarni tatbiq qilish usullari” maqolasida musiqa darslarida zamonaviy texnologiyalar, interaktiv vositalar, “Melodyn” dasturi kabi vositalar qo‘llanishi tahlil qilingan[3]. “Musiqa madaniyati ta’limida innovatsion pedagogik texnologiyalar va ijodiy tafakkurni rivojlantirish” maqolasida musiqa darslarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish, integratsion faoliyatni qo‘llash imkoniyatlari, musiqa va boshqa san’at shakllarini bog‘lash masalalari ko‘rib chiqilgan[4]. Bu manbalar metodik jihatdan juda muhim: integratsiya faqat fanda aralashtirish emas — balki dars usullari, faoliyat turlari (projektsiyalar, guruh ish, interfaol o‘yinlar) orqali amalga oshiriladi. Masalan, musiqa darsida adabiyot darsidan olingan she’rni musiqaga aylantirish, yoki musiqa orqali tarixiy davrlarni tasavvur qilish.Lekin manbada integratsiyaning dars natijasiga ta’siri (o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichlari) bo‘yicha keng ma’lumot kam: ya’ni “musiqa + adabiyot integratsiyasi bilan test natijalari oshdi” degan statistik ma’lumotlar yetarli emas.

Mahalliy (O‘zbekistonda) madaniy-pedagogik jihatlar: O‘zbekistonda milliy musiqa, xalq cholg‘ulari, san’at merosi bilan ishlash bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar mavjud. Masalan, “Zamonaviy musiqa bilan xalq cholg‘ularini uyg‘unlashtirish” maqolasida xalq cholg‘ulari va zamonaviy uslublarning integratsiyasi masalasi ko‘rilgan[5]. Bu jihat integratsiya nuqtai nazaridan, boshqa fanlar bilan emas, balki musiqa ichida san’at shakllarini integratsiya qilish bilan bog‘liq; lekin ta’lim jarayonida bunday jihatlar ham muhim. Mahalliy tadqiqotlar mamlakatimiz ta’lim muhitiga mos milliy musiqani boshqa fanlar bilan bog‘lash yoki umumiy madaniy mavzular bilan integratsiya qilish imkoniyatlari mavjud. Ammo, ko‘pchilik tadqiqotlar faqat musiqa faniga cheklangan va “boshqa fanlar bilan integratsiya” jihati chuqur tahlil qilinmagan.

Tadqiqot metodologiyasi

Musiqa inson ruhiyatiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatuvchi san’at turlaridan biridir. Musiqa ta’limining asosiy maqsadi — o‘quvchilarda estetik didni, musiqiy eshituvni, ritmni his qilish qobiliyatini shakllantirish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Musiqa ta’limining boshqa fanlar bilan integratsiyasi dolzarb mavzudir(1-rasm).

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

1-rasm. Musiqa ta’limining boshqa fanlar bilan integratsiyasi

Musiqa fani ko‘plab boshqa fanlar bilan uzviy bog‘langan. Quyidagi yo‘nalishlarda integratsiya samarali natija beradi:

- Adabiyot fani bilan integratsiya: Qo‘shiqlarning matni orqali she’riy nutq, badiiy ifoda va obrazli tafakkur rivojlanadi. Masalan, Alisher Navoiy g‘azallariga yozilgan kuylarni tahlil qilish adabiyot va musiqa fanlarining uyg‘unligini namoyon etadi.
- Tarix fani bilan integratsiya: Milliy qo‘shiqlar, maqom san’ati, tarixiy marosim kuylarini o‘rganish orqali xalqimiz madaniy merosini anglash imkoniyati kengayadi.
- Matematika bilan integratsiya: Musiqa ritmi, taktlar, o‘lchovlar matematik tushunchalar bilan bog‘liq. Bu esa o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.
- Tabiiy fanlar bilan integratsiya: Tovush to‘lqinlari, rezonans, akustika kabi jarayonlar fizika fanidagi bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini beradi.
- Texnologiya va axborot texnologiyalari bilan integratsiya: Raqamli musiqa dasturlaridan foydalanish, notalarni elektron tarzda yaratish o‘quvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Integratsion ta’limning afzalliklari:

- O‘quvchilarning dunyoqarashi kengayadi;
- Ijodkorlik va tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlanadi;
- Ta’lim jarayoni yanada qiziqarli va mazmunli bo‘ladi;
- O‘zaro fanlararo bog‘liqlikni anglash natijasida bilimlarning mustahkamligi ortadi.

Musiqa darslarida “O‘zbekiston — Vatanim manim” qo‘shig‘ini o‘rganish jarayonida tarix (mustaqillik davri), adabiyot (she’r tahlili), geografiya (O‘zbekiston hududi) fanlari bilan bog‘liq ma’lumotlar kiritilsa, o‘quvchilarda integrativ bilim shakllanadi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Tahlil va natijalar

Maqolada musiqa ta’limini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida boshqa fanlar bilan bog‘lashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Asosiy g‘oya — o‘quvchilarni estetik, intellektual va ijtimoiy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun integrativ ta’lim imkoniyatlaridan samarali foydalanishdir.

Integratsiya yo‘nalishlari

Maqolada quyidagi fanlar bilan musiqa ta’limi integratsiyasi ko‘rib chiqiladi:

- Adabiyot va ona tili — qo‘shiqlardagi matn tahlili, she’riy ritm va ohang uyg‘unligi orqali til madaniyatini rivojlantirish.
- Tarix — milliy va jahon musiqasining tarixiy bosqichlarini o‘rganish orqali tarixiy ongni mustahkamlash.
- San’at va tasviriy san’at — musiqa orqali tasviriy ifoda va obrazlar yaratish, rang va tovush uyg‘unligini his etish.
- Matematika — ritm, takt va o‘lchovlar orqali matematik tafakkurni shakllantirish.
- Tabiiy fanlar — tovush to‘lqinlari, akustika va fizika qonuniyatlarini tushuntirish orqali fanlararo bog‘liqlikni mustahkamlash.

Pedagogik yondashuvlar

Maqolada zamonaviy pedagogik metodlar — interfaol o‘qitish, STEAM yondashuvi, ijodiy loyihalar va integratsion dars ishlanmalari tavsiya etiladi. Bu metodlar o‘quvchilarni faollikka, mustaqil fikrlashga va ijodkorlikka undaydi.

Ilmiy va amaliy ahamiyati

Integratsiya asosida o‘tilgan musiqa darslari o‘quvchilarning:

- musiqiy didi va estetik idrokini;
- madaniy merosga hurmatini;
- fanlararo tahlil ko‘nikmalarini;
- ijodiy fikrlash va hamkorlik malakasini oshiradi.

Natijalar

1. Musiqa ta’limi integratsiyasi o‘quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi, ularni nafaqat ijrochilik, balki tafakkur va madaniyat sohasida ham faol qiladi.
2. Fanlararo bog‘liqlik dars jarayonini jonlantiradi, o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi va bilimlarning uzviyligini ta’minlaydi.
3. Integratsion yondashuv milliy qadriyatlar va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradi.
4. O‘qituvchining roli — yo‘naltiruvchi, tashkilotchi va ijodiy muhit yaratuvchi sifatida kuchayadi.
5. Natijada o‘quvchi musiqani nafaqat eshituvchi, balki uni tahlil qiluvchi va his etuvchi shaxs sifatida shakllanadi.

Tavsiyalar:

- O‘qituvchilarga fanlararo yondashuv bo‘yicha malaka oshirish kurslari tashkil etilishi zarur — musiqa o‘qituvchisi faqat musiqa emas, adabiyot, san’at, tarbiya kabi fanlar bilan bog‘liq jihatlarni ham bilishi lozim.
- Dars rejalarida integratsion bloklar ko‘zda tutilishi, masalan: “Adabiyot + Musiqa: she’rni musiqaga aylantirish” yoki “Tabiiy fanlar + Musiqa: tovush fizikasi” kabi.
- O‘quvchilarning natijalarini (motivatsiya, ijodiy faoliyat, fanlarga qiziqishi) o‘lchash uchun eksperimentlar va tadqiqotlar olib borilishi zarur.
- Manbalararo qo‘llanmalar va metodik kitoblar yaratilishi lozim: musiqa darsi uchun adabiyot, san’at, tarix bilan bog‘liq modul.

Zaif jihatlar:

• Manbalarda ko‘plab tadqiqotlar amaliy natijalarga, eksperimentlarga kam e’tibor qaratgan. Nazariy jihatlar ko‘p, lekin “qayerda, qanday qilib” masalasi kam qamrab olingan.

• O‘qituvchilarning tayyorgarligi, vaqt va resurslar yetishmasligi — integratsiya jarayonini murakkablashtiradi.

Xulosa

Musiqa ta’limining boshqa fanlar bilan integratsiyasi — zamonaviy ta’lim tizimida muhim innovatsion yo‘nalish bo‘lib, u o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarni estetik, intellektual va ijtimoiy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Musiqa ta’limining boshqa fanlar bilan integratsiyasi o‘quvchilarni har tomonlama kamol toptirish, ularning estetik va intellektual salohiyatini oshirishning samarali yo‘lidir. Fanlararo aloqadorlik orqali o‘quvchilarning musiqaga bo‘lgan qiziqishi ortadi, ular san’atni chuqurroq anglaydilar va milliy qadriyatlarni qadrlashga o‘rganadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Jo‘raeva, D. (2021). *Musiqa ta’limida integratsion yondashuvning samaradorligi*. Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Karimova, M. (2020). *San’at ta’limi metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi.
4. Dewey, J. (1934). *Art as Experience*. New York: Penguin.
5. Gulbayev N.A., Abduraimov J.G‘., O‘rishovA .N. Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining ta’limni innovatsion boshqarishdagi o‘rni. “Yangi O‘zbekistonda islohotlarni amalga oshirishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ilmiy maqolalar to‘plami. 27-29 oktyabr. 2021 yil. Andijon.
6. Gulbayev N.A . o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish to‘g‘risida. Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti ilmiy – metodik jurnali. № 2 – son. 2025 y.
7. J. Dewey. *Democracy and Education.* — New York, 1916. (Integratsiyalashgan ta’lim tamoyillari haqida)
8. V. Vygotskiy. *Pedagogik psixologiya.* — Moskva: Pedagogika, 1991.
9. O. Safarov. *Musiqa ta’limi metodikasi.* — Toshkent: O‘qituvchi, 2008.
10. N. Yo‘ldosheva. *Integratsiyalashgan ta’lim texnologiyalari.* — Toshkent: Fan, 2016.
11. M. Mahmudov. *Umumta’lim maktablarida musiqa o‘qitish metodikasi.* — Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2012.
12. T. Karimova. “Musiqa darslarida fanlararo integratsiya masalalari”. — *Pedagogik ta’lim* jurnali, 2019/2.
13. E. Ismoilov. *Musiqiy tafakkur va rivojlantiruvchi ta’lim.* — Toshkent: San’at, 2014.
14. L. V. Shkolyar. *Muzyka v nachalnoy shkole.* — Moskva: Prosveshcheniye, 2005.
15. Z. Abdullayeva. “Musiqa va tasviriy san’at integratsiyasi asoslari”. — *San’at va madaniyat* jurnali, 2020/4.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Fayzullayev Ilhom
Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

O'ZBEKISTONDA YANGI MA'NAVIY MAKON BARPO ETISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda yangi ma'naviy makon barpo etishning konseptual jihatlari haqidagi fikrlari ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada O'zbekistonda yangi ma'naviy makon barpo etish mamlakatning milliy o'zligini asrab qolish, uni zamonaviy dunyoda munosib o'ringa ega qilish va aholi, ayniqsa, yosh avlod ongida yuksak axloqiy va ma'naviy mezonlarni shakllantirishga qaratilgan murakkab, bir necha yo'nalishni qamrab olgan strategik jarayon ekanligi ilmiy jihatdan yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy makon, jamiyat, strategiya, mafkura, davlat, konseptual, yangicha dunyoqarash, yosh avlod, yuksak axloq.

КОНЦЕПТУАЛНЫЕ АСПЕКТЫ СОЗДАНИЯ НОВОГО ДУХОВНОГО ПРОСТРАНСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной стате с научной точки зрения анализируются его взгляды на концептуалные аспекты создания нового духовного пространства в Узбекистане. Также в стате научно освещается, что создание нового духовного пространства в Узбекистане - это сложный стратегический процесс, охватывающий несколко направлений, направленный на сохранение националной идентичности страны, обеспечение ей достойного места в современном мире и формирование высоких нравственных и духовных критериев в сознании населения, особенно молодого поколения.

Ключевые слова. Духовное пространство, общество, стратегия, идеология, государство, концептуалный, новое мировоззрение, молодое поколение, высокая морал.

CONCEPTUAL ASPECTS OF CREATING A NEW SPIRITUAL SPACE IN UZBEKISTAN

Annotation. In this article, his views on the conceptual aspects of creating a new spiritual space in Uzbekistan are analyzed from a scientific perspective. The article also scientifically illuminates that the creation of a new spiritual space in Uzbekistan is a complex strategic process encompassing several directions aimed at preserving the national identity of the country, ensuring its rightful place in the modern world, and forming high moral and spiritual criteria in the consciousness of the population, especially the younger generation.

Keywords. Spiritual space, society, strategy, ideology, state, conceptual, new worldview, young generation, high morality.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish(Introdustion). O‘zbekistonda yangi ma’naviy makon barpo etish mamlakatning milliy o‘zligini asrab qolish, uni zamonaviy dunyoda munosib o‘ringa ega qilish va aholi, ayniqsa, yosh avlod ongida yuksak axloqiy va ma’naviy mezonlarni shakllantirishga qaratilgan murakkab, bir necha yo‘nalishni qamrab olgan strategik jarayondir.O‘zbekiston misolida aholi ma’naviy ehtiyojlarini shakllantirish va qondirish masalasi bo‘yicha ayrim konseptual jihatlariga e’tibor qaratish lozim. Jumladan, har doim ham yangi ma’naviy ehtiyojlar eski, an’anaviy ma’naviy qarashlar va qadriyatlarni bekor qilish yoki ularni yanada takomillashtirish asosida yuzga keladi. Ayni paytda e’tiborga olish kerakki, xalq ming yillar davomida shakllanib kelgan, o‘z ijtimoiy-ma’naviy faoliyatining asosiga aylanib bo‘lgan an’anaviy qadriyatlarni bekor qilishdan hech qachon manfaatdor emas.

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar va axborot xurujlari kuchaygan zamonaviy dunyoda yoshlarning ma’naviy dunyosini yuksaltirish, ma’naviy muhitning sofligini ta’minlash masalasi avvalgidan ham muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois so‘nggi yillarda yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy sohaga e’tibor sezilarli darajada oshdi, bu yo‘nalishda bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi. 2021-yil 26-martda qabul qilingan “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori mazkur sohani rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Unda ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizim mavjud emasligi, xalqimiz, ayniqsa yoshlarni ma’naviy tahdidlardan himoya qilish borasida yetarli darajada tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmayotganligi, ushbu yo‘nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligi samarali yo‘lga qo‘yilmaganligi dolzarb muammo ekanligi va mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsad[1] qilinganligi keltiriladi. Zamonaviy dunyoda mafkuraviy tahdidlar,

axborot xurujlari va globallashuv jarayonlari kuchayib bormoqda. Jamiyatda sog‘lom ma’naviy muhitni shakllantirish va uning sofligini ta’minlash muhim vazifaga aylanmoqda. Mazkur dolzrb

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

muammolar va oldinga qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun Yangi O‘zbekistonda yangi ma’naviy makonni bunyod etish vazifasi davlatimiz rahbari tomonidan qo‘yildi va bu borada amaliy ishlar boshlab yuborildi.

Biz hozirgi tahlikali zamonda xavfsizlik deganda alohida hududning hamda butun davlatning immunitetini ta’minlash va hayotiy manfaatlarini himoya qilishning zarur omili ekanligini anlamog‘imiz lozim. Yangi ma’naviy maknonni yaratish milliy xavfsizlikni va immunitetni ta’minlash vazifasini bajaradi. Xavfsizlik – bu shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganlik holatidir. Shu jihatdan yangi ma’naviy makonning yuqorida ko‘rsatilgan konseptual jihatlari izohlash va keng yoritish o‘rinlidir.

Milliy g‘oya va g‘oyaviy-ideologik asoslarni takomillashtirish.

Yangi ma’naviy makonning asosiy poydevori milliy g‘oya hisoblanadi. Unda millatning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va zamonaviy ehtiyojlari uyg‘unlashgan holda aks ettiriladi.

Milliy g‘oya – 1) millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shakli. 2) Mustaqillik yillarida shakllangan, o‘ziga xos falsafiy asosi, ilmiy-nazariy va tarixiy ildizlariga ega yaxlit ta’limot. Mutaxassislar tomonidan yaratilgan ushbu ta’limot mamlakat taraqqiyotining ob’ektiv zarurati, milliy rivojlanishning qonuniy hosilasi sifatida ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etayotgan xalqimizning maqsad-muddaolari va orzu-intilishlarini ifodalaydi[2].Insoniyat taraqqiyoti har qanday jamiyatning ezgu maqsadlar va mustahkam mafkuralarsiz yuksalishi mumkin emasligini doimo tasdiqlab kelmoqda. Milliy g‘oya esa har bir jamiyatning ijtimoiy va siyosiy rivojini ta’minlovchi asosiy milliy omil sifatida namoyon bo‘ladi. Avvalo, ma’naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimizni bugungi zamon talabi asosida tashkil etadigan bo‘lsak, milliy g‘oyamizni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy g‘oya – millatning yetakchi maqsadi, “Xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo‘lga boshlovchi bamisoli bir bayroq”[3]. Bu maqsadning aniq ifodasini Birinchi Prezmdentimiz Iclom Karimov 2000 yil 8 iyundagi “Fidokor” gazetasi muxbiri bilan suhbatida shunday bayon qiladi: “Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yangiianish va taraqqiyot siyosatining strategik maqsadi – huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboral. Yurtimizda istiqomat qiluvchi barcha insonlar uchun millati, tili va dinidan qat’iy nazar munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kafolatlanadigan turmush darajasi va erkinliklarni taeminlash. Va shu asosda O‘zbckistonning jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashiga erishish”[4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review).Ajdodlarimiz jamiyatning har bir qatlamida insonlar qalbiga yaxshilik va bunyodkorlikka chorlovchi fikrlarni jo qilgan. Jumladan, zardushtiylik dinining “Avesto” asaridagi asosiy g‘oyaviy yo‘nalish – “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu amal” qoidasi buning yaqqol isbotidir. Milliy mafkura o‘z mohiyatida xalq va millat kelajagiga taalluqli bo‘lib, qisqa yoki uzoq muddatda ro‘yobga chiqarilishi lozim bo‘lgan vazifalar va maqsadlarni ifoda etadi.

So‘nggi vaqtlarda mamlakatimizda ilgari surilayotgan Yangi O‘zbekistonni barpo etish, yangi ma’naviy makonni bunyod etish, ma’rifatli jamitya kabi konseptual g‘oyalarning bugungi kundagi ahamiyati shundaki, biz yangi jamiyat qurish davrini boshdan kechirmoqdamiz. “Millatni birlashtiruvchi g‘oya” sifatida insonparvarlik, vatanparvarlik, tinchlik, bag‘rikenglik kabi universal qadriyatlarga alohida urg‘u beriladi. Ana shu vaqtda xalqning turli xil tabaqalari va ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlaydigan rang-barang g‘oyalarlarni rivojlantirish zarur.

Ma’naviy tarbiya tizimini takomillashtirish.

Insonning mohiyati uning ma’naviyati va xulki bilan belgilanadi. Shuning uchun ham ma’naviyat va axlok doimo birga yuradi. Bu bejiz emas. Zero, ma’naviyat insonning o‘z maksadlarini

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

anglashiga, axlok ana shu maksadlarga erishishda inson xulki kanday bo‘lishini anglashga xizmat kiladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya esa yoshlarni hayotda o‘z oldiga to‘gri, yaxshi niyat, maksadlarni ko‘yish (ma’naviy) va shu niyat-maksadlarni amalga oshirishning go‘zal xulqlarini (axlokiy) o‘rgatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019 yil 3 maydagi PQ-4307-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-son qarori qabul qilindi. Unga ko‘ra O‘zbekiston “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo‘ydi. Yangi davr shiddati ta’lim-tarbiya tizimiga ham o‘zining aniq, qat’iy talablarini qo‘ymoqda[5]. Bunda oila, maktab, oliy ta’lim va mahalla tizimi orqali yoshlarda milliy ong va ma’naviy immunitetni shakllantirishda birdek mas’ul sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Bugungi murakkab zamon har bir o‘qituvchi-murabbiy va ota-onadan tarbiyaviy ishlar metodikasini yaxshi bilishni, bu borada qizg‘in hamkorlik qilishni talab qilmoqda. Buning uchun o‘qituvchi va ota-onalarda o‘quvchilarni tarbiyalashning vosita usul va shakllarini hamda uni amalga oshirish va shunga doir bilim, amaliy ko‘nikma, malakalar va kompetensiyalarni hosil qilish, rivojlantirish zarur. Shunday ekan, har bir ota-ona, o‘qituvchi bu sifatlarni singdirish, ma’naviy tarbiyalash yo‘llari va usullarini chuqur bilishi lozim.

Ma’naviy tarbiya, avvalo, bolaga inson sifatida qarashdan boshlanadi. Qanday qilib? Buning uchun har bir ota-ona, o‘qituvchi:

- bolaga insoniy munosabatda bo‘lishi;
- uning huquqi va erkinliklarini hurmat qilishi;
- bolaga uning kuchi yetadigan va oqilona, adolatli talablarni qo‘yishi;
- tarbiyalanuvchining holatini, hatto, u o‘ziga qo‘yilgan talablarni bajarishdan bosh tortgan paytda ham tushunish;
- uning o‘zi bilan o‘zi bo‘lish huquqini hurmat qilish;
- bola ongiga tarbiyaning maqsad va vazifalarini yetkazish;
- fazilatlarni majburiy shakllantirmaslik;
- bolaning or-nomus va qadr-qimmatini kamsituvchi jazo metodlarini qo‘llamaslik;
- bola haq bo‘lganida uning xohishiga zid keluvchi talablarni uning tomonidan rad etilishini tan olish kabi talablarga rioya qilishi zarur[6].

Ma’naviy tarbiya tizimi jamiyatda insonlarning axloqiy va mafkuraviy dunyoqarashini shakllantirish, ularda ijtimoiy mas’uliyat va vatanparvarlik tuyg‘ularini yuksaltirishga xizmat qiladi. Bu tizim yoshlar va umuman aholi orasida ezgulik, adolat, mehr-oqibat, odamgerchilik kabi axloqiy normalarni targ‘ib qilish bilan birga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirib, jamiyatda totuvlik va birdamlikni ta’minlaydi. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaga alohida e’tibor qaratilib, bu mavzular o‘quv dasturiga kiritilishi, madaniy tadbirlar va aksiyalar tashkil etilishi lozim. Oilada bolalarga ma’naviy asoslar o‘rgatilib, ularda mas’uliyat va ijtimoiy faollik tuyg‘usi uyg‘otiladi, mahalla va jamoat institutlari esa ma’naviy tarbiyani qo‘llab-quvvatlab, mahalliy an’analarni asraydi. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ma’naviy tarbiyaga doir ko‘rsatuvlar, maqolalar va foydali kontent yaratilib, internetda yoshlarni zararli ta’sirlardan himoya qilish maqsadida tegishli ma’lumotlar yetkaziladi. Ma’naviy tarbiya tizimi milliy g‘oyaga asoslanib, xalqning tarixiy, madaniy va diniy merosini hisobga olishi, jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini inobatga olgan holda birlashtiruvchi g‘oyalarni ilgari surishi zarur. Ushbu tizim jamiyatda ma’naviy-axloqiy muhitni yaxshilash, yoshlarni vatanparvar va mas’uliyatli fuqarolar sifatida tarbiyalash, ijtimoiy adolat va totuvlikni ta’minlash, shuningdek, milliy o‘zlikni saqlab, globallashuv sharoitida madaniy merosni

asrash kabi maqsadlarga xizmat qiladi. Bu soha doimiy ravishda takomillashtirib borilishi kerak bo‘lib, davlat, ta’lim muassasalari, oila va jamoat birgalikda faol ishtirok etishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology). Bu borada faylasuflar turli nuqtai nazardan talqin qilgan bo‘lsa-da, ularning umumiy fikri shundaki, ma’naviy tarbiya insonni axloqiy, mustaqil va jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Sokrat va Platon ta’lim va mulohazaga, Aristotel odatlarga, Kant axloqiy qonunlarga, Forobiy esa fazilatli jamiyatga, Nisshe individual kamolotga e’tibor bergan. Xususan, Suqrot ma’naviy tarbiyani insonning o‘z-o‘zini bilishi va axloqiy fazilatlarni rivojlantirish orqali ko‘rardi. U “Yaxshilik bilimdan kelib chiqadi, yomonlik esa johillikdan” degan g‘oyani ilgari surgan.

Sharq falsafasining asosiy namoyondalaridan biri Forobiy ma’naviy tarbiyani “fazilatli shahar” konsepsiyasi doirasida ko‘rgan. U “Fazil odamlar shahri” asarida ma’naviy tarbiya insonni axloqiy kamolotga va jamiyatdagi munosabatlarda adolatga erishishga yordam berishini ta’kidlagan. Forobiy ta’lim va axloqiy o‘rnak orqali ma’naviy tarbiyani amalga oshirishni muhim deb bilgan[7].

Madaniy meros va tarixiy xotirani tiklash.

Madaniy meros har bir millatning tarixiy xotirasi, ma’naviy-axloqiy qadriyatlari va umuminsoniy sivilizatsiyaga qo‘shgan hissasini ifoda etadi. Shu nuqtai nazardan madaniy ob’ektlar, ziyoratgohlar, muzeylar va kutubxonalarni saqlash, tiklash va rivojlantirish jamiyatning ma’naviy rivoji va kelajak avlodning tarixiy ongini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Madaniy ob’ektlar, ziyoratgohlar, muzeylar, kutubxonalarni qayta tiklashning ahamiyatli jihatlari shundaki, madaniy ob’ektlar xalqning tarixiy tafakkurini, an’analarini va urf-odatlarini asrab qolishda xizmat qiladi. Ular qayta tiklansa, kelajak avlod o‘tmishini yaxshi anglaydi. Ziyoratgohlar va tarixiy ob’ektlar mahalliy va xalqaro sayyohlar uchun qiziqish uyg‘otadi. Bu esa mamlakatning turistik salohiyatini yuksalishiga va iqtisodiyotga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Muzeylar va kutubxonalarga yoshlarni rag‘batlantirish orqali yoshlar ma’naviy boyligi yuksaladi, milliy g‘urur va vatanparvarlik hissi bilan kamol topadilar. Qayta tiklangan madaniy ob’ektlar tarixchi, arxeolog, san’atshunos va boshqa mutaxassislar uchun muhim tadqiqot ob’ekti sifatida ahamiyati ortadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda madaniy merosni asrash va tiklash borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Tarixiy yodgorliklar, me’moriy obidalar, adabiyot, tasviriy va amaliy san’at asarlari, arxeologik topilmalar, milliy va xalqaro ahamiyatga ega bo‘lgan majmualar, muhim ilmiy tadqiqotlar muxrfaza etiladi. Shu jihatdan O‘zbekistonda 8,000 dan ortiq madaniy meros ob’ektlari ro‘yxatga olingan bo‘lib, 1999 yilda tashkil etilgan “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi yurtimizdagi va chet ellardagi noyob qo‘lyozmalar, madaniy, tarixiy yodgorliklar, hunarmandchilik, xalq og‘zaki ijodi namunalari, san’at va badiiy asarlarni yig‘ish, saqlash va ulardan foydalanish bilan shug‘ullanadi[8]. Shu bilan birgalikda buyuu Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy kabi allomalarimiz tomonidan yozib qoldirilgan qimmatbaho asarlari va manbalarni asrab qolish, ilmiy tadqiq etish va ularni keng targ‘ib etilishi ma’naviy makonning mafkuraviy asoslarini boyitmoqda.

Milliy til, adabiyot va san’atning rivoji.

Milliy til, adabiyot va san’at har qanday millatning ma’naviy asosini tashkil etadi[9]. Ular nafaqat madaniy merosni saqlashga, balki yangi ma’naviy makonni shakllantirishga ham xizmat qiladi[10]. Xususan, mustaqillik davrida O‘zbekistonda milliy til va adabiyotning rivojlanishi orqali insonning dunyoqarashi, qadriyatlari va falsafiy qarashlari qaytadan shakllantirilmoqda. Shu jihatdan bugun o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeini yuksaltirish, adabiyot va san’atni milliy ong va ma’naviyatni targ‘ib qiluvchi vosita sifatida rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda[11].

Milliy til – xalqning tarixi, madaniyati va tafakkurini o‘zida mujassam etuvchi muhim omildir. Uning rivoji nafaqat ma’lumot uzatish vositasi sifatida, balki milliy o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarni milliy ruhda ifoda etish imkonini beradi[12]. Adabiyot esa bu tilda yaratilgan asarlar

orqali jamiyatning ruhiy holatini, orzu-umidlarini va g‘oyaviy qarashlarini ifoda etadi. Yangi ma’naviy makonni yaratishda zamonaviy yozuvchilar va shoirlar tomonidan ijod qilinayotgan asarlar muhim o‘rin tutadi[13]. Ular orqali jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasi, milliy iftixor va insoniylik ruhi mustahkamlanmoqda.

Axborot makonida milliy qadriyatlarni muhofaza qilish.

Globallashuv jarayonlarining shiddati bilan axborot makoni tobora kengayib, inson ongi va qalbiga ta’sir qilishda o‘ta kuchli vositaga aylanmoqda. Bu jarayonda milliy qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni axborot muhitida samarali targ‘ib etish va yot g‘oyalarga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish yangi ma’naviy makonni yaratishning muhim sharti hisoblanadi. Milliy qadriyatlar – millatning tarixi, urf-odatlari, tili, ma’naviyati va e’tiqodlari kabi o‘ziga xos belgilar yig‘indisidir. Bu qadriyatlar axborot muhitidagi ta’sirlarga qarshi chidamli bo‘lishi uchun ularni raqamli platforma va OAV orqali ilmiy, madaniy va tarbiyaviy asosda targ‘ib etish zarur[14]. Agar milliy qadriyatlar yoshlar ongida mustahkam joy olmasa, ular turli ommaviy axborot vositalari orqali kirib kelayotgan beg‘araz yoki zararli g‘oyalarga moyil bo‘lishi mumkin.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shuning uchun ham, axborot makonida milliy o‘zlikni muhofaza qilishda ma’naviy-ma’rifiy ishlar, targ‘ibot kampaniyalari va davlat siyosati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda, ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarda milliy ruhdagi kontentlarni yaratish, yoshlarning axborot savodxonligini oshirish, media-madaniyatni shakllantirish kabi ishlar ustuvor vazifalardan hisoblanadi[15].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek, “Yoshlar ongi va qalbida milliy g‘urur va qadriyatlar bo‘lmasa, boshqalarning madaniyati va g‘oyasi ustun keladi”[16]. Demak, axborot makonida milliy qadriyatlarni muhofaza qilish – bu faqatgina madaniy vazifa emas, balki ma’naviy xavfsizlikni ta’minlashning ham asosiy yo‘nalishidir. Bu jarayon orqali jamiyatda milliylik va zamonaviylik uyg‘unlashgan yangi ma’naviy makon barpo etiladi.

Inson qadrini ulug‘lash va ma’naviy yetakchilik.

Inson qadri har qanday jamiyat taraqqiyotining mezoni, ma’naviy barqarorlikning asosi hisoblanadi. Zamonaviy O‘zbekistonda “inson qadri uchun” degan tamoyil asosida amalga oshirilayotgan islohotlar, eng avvalo, fuqarolarning sha’ni, huquqlari va qadr-qimmatini ta’minlashga qaratilgan[17]. Bu jarayon insonni jamiyat markaziga qo‘yish, uning imkoniyatlari, bilimi va ma’naviy ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarish orqali yangi ma’naviy makonni yaratishga xizmat qiladi.

Ma’naviy yetakchilik esa inson qalbiga yo‘l topish, uni ezgulik sari boshlash salohiyatiga ega shaxslar va g‘oyalarning ta’sir doirasidir. Bunday yetakchilik madaniyat, ta’lim, ma’rifat, din va san’at orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu yetakchilik jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlab, ma’naviy uyg‘unlik va umumiy maqsad sari harakatni ta’minlaydi[18]. Ziyolilar, olimlar, madaniyat va san’at xodimlari, ma’rifatparvarlar yangi ma’naviy makonning ilmiy va ijtimoiy tayanchi hisoblanadi.

Inson qadrini ulug‘lash va ma’naviy yetakchilik birgalikda ishlaganda, fuqarolarda javobgarlik, fidoyilik, xalq va Vatanga muhabbat hissi yuzaga keladi. Bu esa yangi ma’naviy makon – ya’ni insonparvarlik, adolat, hamjihatlik va ezgulik ustuvor bo‘lgan muhitni shakllantiradi. O‘zbekistonda barpo etilayotgan yangi ma’naviy makon shunchaki mafkuraviy tashabbus emas, balki tarix, zamonaviylik va kelajak uyg‘unligini ta’minlashga qaratilgan davlat siyosatining strategik yo‘nalishidir. U milliy qadriyatlarga tayanadi, biroq global taraqqiyot sharoitida ham zamonaviy yondashuvlarni mujassamlashtiradi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations). Yangi ma’naviy makonni yaratishning konseptual jihatlari quyidagi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

Birinchidan, ma’naviy makonning asosi sifatida milliy qadriyatlar mustahkamlanadi. Milliy tarix, madaniyat, an’analar va umummilliy g‘ururga asoslangan tarbiya yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantiradi. Mehmondo‘stlik, keksalarga hurmat kabi an’analar zamonaviy talqinda qayta

rivojlantiriladi va jamiyatning ma’naviy birligini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, axloqiy-ma’rifiy tarbiyaga ustuvor ahamiyat beriladi. Rostgo‘ylik, adolat, mehnatsevarlik kabi universal insoniy qadriyatlar targ‘ib qilinadi. Ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy komponentlar kuchaytiriladi, oila, maktab va jamoat institutlari tarbiya jarayonida faol ishtirok etadi. Bu orqali yoshlarning sog‘lom dunyoqarashi shakllanadi.

Uchinchidan, raqamli muhitning ma’naviy sofligiga e’tibor qaratiladi. Axborot xurujlari va zararli kontentga qarshi raqamli ma’naviy muhit yaratiladi. Ijtimoiy tarmoqlarda axloqiy qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi kontent ko‘paytiriladi, raqamli savodxonlikni oshirish orqali yoshlarning zararli axborotdan himoyalanishi ta’minlanadi.

To‘rtinchidan, ijodiy va intellektual rivojlanishga alohida e’tibor beriladi. San’at, adabiyot, musiqa kabi ijodiy faoliyatlar ma’naviy makonni boyitadi. Ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovatsiyalar qo‘llab-quvvatlanadi, kitobxonlik madaniyati ommalashtiriladi. Bu jarayonlar intellektual muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytiriladi. Davlat, nodavlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlari birga ishlab, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar, madaniy festivallar va ma’rifiy kampaniyalar tashkil etadi. Mahalla va jamoat tuzilmalari ma’naviy makonni rivojlantirishda muhim ishtirokchi sifatida jalb qilinadi. Xulosa qilib aytganda, yangi ma’naviy makonni yaratish milliy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar va universal insoniy prinsiplarni uyg‘unlashtiruvchi murakkab jarayondir. Ushbu konsepsiya davlat, jamoat va shaxslarning birdamligi asosida amalga oshirilib, jamiyatning ma’naviy barqarorligi va yoshlarning sog‘lom dunyoqarashini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 март “Маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5040-сон қарори. https://lex.uz/uz/docs/5344692

2. Назаров Q. Маънавият асосий тушунчалар луғати. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021. – Б. 421.

3. Каримов И. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. 7-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 89.

4. Каримов И. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт – пировард мақсадимиз. 8-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000. – Б. 495-496.

5. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 31 декабр “Узлуксиз маънавий тарбия концепциясини тасдиқлаш ва уни амалга ошириш чора-тадбирлари тоъғрисида”ги 1059-сон қарори.

6. Фазилатли авлод. Узлуксиз маънавий тарбия трилогияси. ИИИ қисм. 7-18 ёшли болаларни маънавий тарбиялаш боъйича қўлланма. Тузувчи-муаллифлар: А.Қодиров, М.Қуронов ва бошқ. – Тошкент: “Муҳаррир” нашриёти, 2019. – Б. 10.

7. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. Нодир ва доно фикрлар – Тошкент: “Ўзбекистон миллий енсиклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2004. – Б. 74.

8. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т ҳарфи. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2000-2006. – Б. 140.

9. Қурбонов Ш. Миллий ўзлик ва маънавият масалалари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – Б. 131.

10. Усмонов О. Адабиёт ва маънавий янгиланиш. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2018. – Б. 43.

11. Президент Ш.М.Мирзиёевнинг маънавиятга оид маърузалари ва нутқлари, 2017–2023 йиллар. ҳттпс://пресидент.уз/

12. Қурбонов Ш. Миллий оъзлик ва маънавият масалалари. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2020. – Б. 154.

13. Усмонов О. Адабиёт ва маънавий янгиланиш. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2018. – Б. 51.

14.Тўраева Ш. “Ижтимоий тармоқларда миллий маънавиятни асраш масалалари”. Ахборот технологиялари ва жамият, №1, 2020. – Б. 15-19.

15.Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. / Янги Ўзбекистон газетаси 2023 йил 23 декабр, 267-сон.

16. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 15 феврал “Маданият ва спорт соҳасида бошқарув тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тоъғрисида”ги ПФ-4956-сон фармонига шарҳ. ҳттпс://пресидент.уз/уз/листс/виеw/257

17. Раҳимова С. Инсон қадри ва адолатли жамият. – Тошкент: “Маърифат”, 2022. – Б. 82.

18. Юнусова Н. “Маънавий етакчиликнинг ижтимоий аҳамияти” // Жамият ва ҳуқуқ, №3, 2021. – Б. 28-32.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Боймирзаев Қаҳрамон Хасанбоевич
Фарғона давлат университети
Ўзбекистон тарихи кафедраси катта ўқитувчиси

Received 4th September 2025, Accepted 11th October 2025, Online 25th November 2025

ХИТОЙ МАНБАЛАРИДА МАРКАЗИЙ ОСИЁДАГИ ИҚТИСОДИЙ ВА ИЖТИМОИЙ ЖАРАЁНЛАР МАСАЛАСИГА ОИД МАЪЛУМОТЛАР

Annotatsiya. Мақолада Марказий Осиёнинг қадимги ва илк ўрта асрлар тарихига оид манбаларнинг асосий гуруҳи ҳисобланган хитой тилли манбаларда келтирилган шаҳарлар орасидаги транзит йўллар, минтақалар ўртасидаги савдо йўллари ҳақидаги маълумотлар таҳлил қилинган.

Калит сўзлар ва иборалар: Н.Я. Бичурин (Иакинф), А.Хўжаев, Сюань-Цзан, Э.Шаванн, Н.В.Кюнер, А.В.Малявкин, Жиншу, Вейшу, Бейши, Суйшу, Тангшу, Тунгдян, Тайпинг хуанюй жи, Вангшу тянчжу-гуо чжуан.

ИНФОРМАЦИЯ ПО ВОПРОСУ ОБ ЭКОНОМИЧЕСКИХ И СОЦИАЛЬНЫХ ПРОЦЕССАХ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ИЗ КИТАЙСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация. В статье анализируются сведения о транзитных путях между городами и торговых путях между регионами, приведенные в китайскоязычных источниках, составляющих основную группу источников, связанных с историей древнего и раннего средневековья Средней Азии.

Ключевые слова и фразы: Н.Я. Бичурин (Иакинф), А.Хужаев, Сюань-Цзан, Э.Шаванн, Н.В.Кюнер, А.В.Малявкин, Жиншу, Вейшу, Бейши, Суйшу, Тангшу, Тунгдян, Тайпинг хуанюй жи, Вангшу тянчжу-гуо чжуан.

INFORMATION ON THE ISSUE OF ECONOMIC AND SOCIAL PROCESSES IN CENTRAL ASIA FROM CHINESE SOURCES

Annotation. The article analyzes information about transit routes between cities and trade routes between regions, given in Chinese-language sources, which constitute the main group of sources related to the history of the ancient and early medieval Central Asia.

Keywords and phrases: N.Ya. Bichurin (Iakinf), A.Khujaev, Xuan-Tsang, E.Chavannes, N.V.Kyuner, A.V.Malyavkin, Zhinshu, Weishu, Beishi, Suishu, Tangshu, Tungdyan, Taiping huanyu zhi, Wangshu tianzhu-guo zhuang.

KIRISH. Марказий Осиёнинг ажралмас қисми бўлган Ўзбекистоннинг жаҳон цивилизациясида тутган ўрни ва бу цилизацияга қўшган ҳиссаси масалаларини ўрганишга давлат сиёсати даражасига эътибор қаратиб келинмоқда. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёев Марказий Осиёдаги ҳамкорликка оид: “Иқтисодий ва транспорт коридорларининг самарали минтақавий тизимини яратиш борасида фаол ҳамкорлигимиз бундай кейин ҳам давом этади” [32] деб, келажак режаларини илгари сурди. Шунингдек, Буюк

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ипак йўли чорраҳасида жойлашган Ўзбекистоннинг бугунги кундаги минтақавий ва халқаро иқтисодий-маданий алоқалар тизимидаги ўрни борасида Ўзбекистон Президенти: “Бир макон, бир йўл” концепцияси мамлакатларимизнинг ўзаро кенг ҳамкорлигининг янада самарали механизмларига асосланган, янги халқаро ҳамкорлик моделидир”, деб таъкидлаб ўтди.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Мақолада тарихийлик тамойили, қиёсий таҳлил, тизимлаштириш, таснифлаш, муаммовий-хронологик каби усуллардан фойдаланган ҳолда, тадқиқот учун қўйилган асосий мақсад моҳиятини очиб беришга ҳаракат қилинган.

Қадимги хитой тилли манбалар [1] акс этган Н.Я. Бичурин (Иакинф)нинг 3 жилдли “Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена” асарида, ўзбек хитойшуноси А.Хўжаевнинг хитой тилли манбалардан қилган жаржималарида, Л.Ю. Тугушеванинг “Уйгурская версия биографии Сюань-Цзана (фрагменты из ленинградского рукописного собрания Института востоковедения АН СССР)” асарида хитой тилли манбаларда минтақа халқларининг қадимги Хитой билан алоқлари ўз аксини топган.

Марказий Осиёнинг трансконтинентал савдо йўллари тарихига оид хитой манбалари (будда роҳиблари, сайёҳларнинг сайёҳатномалари ёки хотиралари ва сулолаларнинг солномалари) дастлаб уларни ўрганган И.Бичурин [2], Э.Шаванн [3], Н.В.Кюнер [4] ва А.В.Малявкинларнинг [5] рус ва француз тилига амалга оширилган таржималари ҳамда шарҳлари орқали бизга маълум эди. Уларнинг таржималари ва асарларида келтирилган маълумотлар тадқиқотимиз учун савдо йўллари тарихи, бу йўлларнинг минтақа иқтисодий-ижтимоий ҳаётига таъсирининг ўрганилмаган жиҳатларини очишда муҳим манба бўлиб хизмат қилган.

Мустақиллик йилларида Ўрта Осиё тарихи тўғрисида маълумот берувчи хитой манбалари тарихчи, шарқшунос ва хитойшунос олим А.Хўжаев [6], шунингдек тадқиқотчилар Ф.Жуманиёзова, Ш.Қўлдашевларнинг [7] меҳнатлари эвазига ўзбек тилига таржима қилинди. Ушбу илмий тадқиқотлар натижасида Марказий Осиё тарихининг турли қирраларини тадқиқ этиш учун манбавий асос янада кенгайди.

НАТИЖАЛАР ВА МУҲОКАМА

Марказий Осиёнинг трансконтинентал савдо йўллари тарихига оид хитой ёзма манбаларини 2 гуруҳга ажратиш мумкин: 1) Хитойлик сарой муаррихлари томонидан ёзилган йилномалар ва 2) хитойлик будда дини роҳиблари, элчи ва сайёҳларининг ёзиб қолдирган сафар хотиралари.

Марказий Осиёнинг трансконтинентал савдо йўллари ҳақида маълумот берувчи илк хитой солномаларидан бири “Жиншу” (“Жин сулолалари тарихи”) [8] ҳисобланади. Ушбу манбада илк ўрта асрлар арафасида Марказий Осиёдаги ижтимоий ҳаёт, савдо-сотиқ масалаларига доир маълумотлар учрайди [9].

“Вейшу” солномаси VI асрда сарой тарихчиси Вей Шоу томонидан ёзилган[10]. Унда келтирилган маълумотлар ҳам Марказий Осиё тарихи ва унинг ташқи сиёси ҳамда иқтисодий алоқаларини ёритишда бирламчи манбалар сирасига киради [11]. Жумладан, Марказий Осиё, Суғд ҳудудларига олиб бориладиган йўллар дастлаб иккита кейин эса тўрттагача етганлиги ушбу манбада анча батафсил маълумотлар бериб ўтилган [12]. Қанғ ҳудудлари тўғрисида маълумот берилганда ҳам савдо йўлларига оид алоҳида қайдлар учрайди [13].

VII аср биринчи ярмида ёзилган хитой солномаларидан яна бири “Бейши” (“Шимолий сулолалар тарихи”) ҳисобланади. Унда 386-618 йиллар оралиғидаги воқеалар баён этилган [14]. Ушбу манбада ҳам Ғарбий юрт (Марказий Осиё ҳудудлари) тўғрисида айрим қайдлар мавжуд [15].

“Суйшу” (“Суй сулоласи тарихи”) V-VI асрлар тарихига оид асар бўлиб, унда ҳам Марказий Осиё савдо йўллари тўғрисида муҳим маълумотлар учрайди. Суй [16] ва Танг [17] империялари Турк хоқонлиги [18] билан доимий мулоқотда бўлганлиги сабабли асарда туркларга оид маълумотлар салмоқли ўрин тутади [19].

Марказий Осиёнинг савдо йўллари, савдо-сотиқ, трансчегаравий йўллар тўғрисида анча муфассал ва муҳим маълумотлар берувчи манбалардан бири “Тангшу” (“Тангнома”) ҳисобланиб, у Лю Ху бошчилигидаги тарихчилар томонидан 941-945 йилларда ёзиб тугалланган. Ушбу асарда VIII асрда Ўрта Осиё ҳудуларидан ўтган асоси йўллар [20], Буюк ипак йўлида фарғоналикларнинг иштироки [21] ҳақида қимматли маълумотлар ўрин олган [22]. Жумладан, “Ғарбий турклар тобе этилди, энди тижорат карвонлари бемалол қатнайвериши мумкин. Ху халқлари (суғдийлар ва ғарбий ўлкалардаги халқлар) ушбу хабардан роса хурсанд бўлишди. (Бухоро) ҳукмдори Алинга зотдор отлар юборди. У ўзи ҳақида шундай деди: - унинг хонадони йигирма икки авлоддан бери ҳукмронлик қилиб келмоқда” [23].

Танг империяси даврида яшаган тарихчи Ду Ю томонидан ёзилган “Тунгдян” (“Қонун-қоидалар ва урф одатлар баёни”) асар Марказий Осиёнинг илк ўрта асрлар даври иқтисодий тарихини ўрганишда асосий манбалардан бири бўлиб хизмат қилади [24].

“Тайпинг хуанюй жи” (“Тинчлик ўрнатилган замин баёни”) номли тарихий асарда Марказий Осиё аҳолиси, савдо йўллари ва табиати тўғрисида маълумотлар мавжуд. Улар Марказий Осиё иқтисодий тарихинининг айрим бизга маълум бўлмаган қоронғу саҳифаларини ёритиш имконини беради [25].

Маказий Осиёнинг илк ўрта асрлар садо йўллари ва уларнинг иқтиосдий-ижтимоий аҳамияти ҳақида ғоят муҳим маълумотлар берувчи манбалар сирасига бу юртга ташриф буюрган хитойлик сайёҳларнинг асарлари киради. Ана шундай асарлардан бири “Датанг шиюй жи” (“Буюк танг давридаги ғарбий мамлакатлар хотиралари”) ҳисобланиб, VII асрда Танг сулоласи даврида Ҳиндистонга саёҳат қилган рохиб Сюан Занг (Цзян) [26] томонидан битилган [27]. Ушбу асарда келтирилган VII асрда Марказий Осиё ҳудудларининг йўллари ҳақида ҳам маълумотлар келтирилган [28]. Асарнинг муҳим жиҳати шундан иборатки, муаллиф ўз кўзи билан кўрган, ўзи босиб ўтган йўлларни тавфсифлайди, бу ҳол келтирилган маълумотларнинг ишончлилик даражасини оширади [29].

VIII асрда яратилган яна бир саёҳатнома “Вангшу тянчжу-гуо чжуан” (“Ҳиндистондаги 5 та давлатга қилинган сафар баёни ҳақида”) бўлиб, унинг муаллифи кореялик будда роҳиби Хуейжао (Хой Чао) денгиз орқали Ҳиндистонга саёҳат қилган ва тахминан 727 йилда Ўрта Осиёга келган.

VIII асрда яратилган яна бир тарихий манба “Ду Хуан жингшинг жи” (“Ду Хуаннинг борган жойлари хотираси”) деб номланиб, унинг муаллифи 751 йилда бўлиб ўтган Талос жанггида араблар томонидан асирга олинган кичик командир Ду Хуан 12 йил мобайнида Ўрта Осиё ва араб мамлакатларида яшайди [30]. Шунинг учун бу асардаги келтирилган маълумотларнинг ишочлик даражаси юқоридир [31].

ХУЛОСА

Хулоса қилиб айтганда хитой Ўрта Осиё тарихининг сиёсий, ижтимомий-иқтисодий ҳаётини ёритишда бирламчи манба бўлиб хизмат қилади. Ўрта асрлар тарихи даври тарихий манбаларида Марказий Осиёда савдо йўллари ҳақидаги маълумотларнинг камлиги ва тарқоқлиги мавжуд маълумотларга нисбатан танқидий ёндашувни, улардан самарали фойдаланишни ҳамда қўшни ҳудудлар тўғрисидаги маълумотлардан ҳам қиёсий тарзда фойдаланишни талаб этади.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Манбалар ва адабиётлар

1. Бичурин Н.Я. (Иакинф) Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В 3-х томах. – М. –Л.: Изд. АН СССР. том II. – 1950. – 335 с.; Бичурин Н.Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. В трех частях. – Алмата: ТОО “Жалын Баспасы”, 1998. Ч. II. – 352 с.; Тугушева Л.Ю. Уйгурская версия биографии Сюань-Цзана (фрагменты из ленинградского рукописного собрания Института востоковедения АН СССР). – М.: Наука, 1991. – 592 с.; Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (қадимги ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). – Фарғона: Фарғона, 2013. – 288 бет.
2. Бичурин Н.Я. Собрание сведение о народах, обитавших Средней Азии в древние времена. Т.2. – М.–Л.: Изд-во АН СССР, 1950. – С. 319
3. Chavannes E. Documents sur les Tou-kiue (Turks) occidentaux // Сборник трудов Орхонской экспедиции, вып. 6. СПб., 1903. – 500 с; Chavannes E. Çin kaynaklarina göre bati türkleri. Çevri M.Koç. İstanbul: Selenge, 2007.
4. Кюнер Н.В. Китайские известия о народах Южной Сибири, Центральной Азии и Дальнего Востока. – Москва: Восточной литературы, 1961. – 350 с.
5. Малявкин А.В. Танские хроники о государствах Центральной Азии. – Новосибирск: Наука, 1989. – 329 с.
6. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар (Қадимий ва илк ўрта аср Хитой манбаларидан таржималар ва уларга шарҳлар). Фарғона, 2013. – 288 б.
7. Ходжаев А., Ш.Қўлдошев., Ф.Жуманиязова. Марказий Осиё давлатчилик тарихига оид маълумотлар. – Тошкент: Фан, 2018. – 191 б.
8. جىنناما. «24 تارىخ» تىكى غەربىي يۇرت تارىخىغا ئائىت ماتېرىياللار. شىنجاڭ خەلق نەشرىياتى. 2013. – 1030 س
9. Изоҳ 2.: Араблар босқинига қадар минтақанинг ижтимоий ҳаёти бир маромда кечганлиги ва жиддий ўзгаришлар рўй бермаганлигини эътиборга олсак, ушбу солномада келтирилган маълумотлар орқали исломият дини қарор топгунигача бўлган даврдаги Марказий Осиё тарихини қиёсий тарзда ўрганишимиз ва маълум илмий хулосалар чиқаришимиз мумкин.
10. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Б. 78.
11. ۋېنامە «24 تارىخ» تىكى غەربىي يۇرت تارىخىغا ئائىت ماتېرىياللار. شىنجاڭ خەلق نەشرىياتى. 2013. – س 965.
12. Moritz Huber. Lives of Sogdians in Medieval China. – Harrassowitz Verlag: Wiesbaden, 2020. – P.23.
13. Moritz Huber. Lives of Sogdians in Medieval China. – Harrassowitz Verlag: Wiesbaden, 2020. – P.31.
14. Хўжаев А. Фарғона тарихига оид маълумотлар. – Б. 81.
15. شمالىي سۇلالىلەر تارىخى. «24 تارىخ» تىكى غەربىي يۇرت تارىخىغا ئائىت ماتېرىياللار. شىنجاڭ خەلق نەشرىياتى. 2013. – 1030 س

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Иззатиллаев Отабек Олимжонович
Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати девонининг
Халқаро рейтинг ва индекслар билан ишлаш бўлими мудири
ID-0009-0001-5890-5932 (orcid)
o.izzatillayev@gmail.com

Received 4th September 2025, Accepted 11th October 2025, Online 25th November 2025

ЎРТА ОСИЁ МУТАФАККИРЛАРИ ТАФАККУРИДА “КУЧ” КОНЦЕПЦИЯСИ: КУЧ – АҚЛДА, ҚУДРАТ – АДОЛАТДА

Аннотация. Ушбу мақолада Ўрта Осиё мутафаккирлари тафаккуридаги “куч” концепцияси биринчи марта цивилизацион ёндашув асосида тизимли равишда таҳлил қилинди. Фаробийдан жадидларгача бўлган даврларда кучнинг ақл, адолат, маърифат ва ахлоқ билан боғлиқ эволюцион модели янгича назарий рамкада асосланди. Кучнинг ақл, адолат, маърифат ва ахлоқий масъулият билан боғлиқ маънавий моҳияти концептуал асосда ёритилди. “Шарқона куч” тушунчасининг зўравонликдан фарқли равишда маънавий барқарорлик, адолат ва ижтимоий юксалишни таъминловчи категория сифатидаги янги илмий модели таклиф этилди.

Калит сўзлар: куч концепцияси, Шарқ тафаккури, адолат, илм, маърифат, жадидлар, фалсафа, ижтимоий-маънавий куч.

ПОНЯТИЕ «СИЛА» В МЫСЛЕНИИ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИХ МЫСЛИТЕЛЕЙ: СИЛА – В ИНТЕЛЛЕКТЕ, МОЩЬ – В СПРАВЕДЛИВОСТИ

Аннотация. В данной статье концепция «силы» в интеллектуальной традиции мыслителей Средней Азии впервые системно проанализирована на основе цивилизационного подхода. На основе нового теоретического рамочного анализа обоснована эволюционная модель силы, связанная с разумом, справедливостью, просвещением и нравственностью в период от аль-Фараби до джадидов. Раскрыта духовно-нравственная сущность силы, обусловленная разумностью, справедливостью, просветительством и этической ответственностью. Предложена новая научная модель понятия «восточная сила» как категории, обеспечивающей духовную устойчивость, справедливость и социальное развитие, в отличие от насилия.

Ключевые слова: концепция силы, восточная философия, справедливость, наука, просвещение, джадиды, духовность, социальное развитие.

THE CONCEPT OF "POWER" IN THE THINKING OF CENTRAL ASIAN THINKERS: STRENGTH - IN INTELLIGENCE, POWER - IN JUSTICE

Abstract. This article provides the first systematic analysis of the concept of “power” in the intellectual tradition of Central Asian thinkers through the lens of a civilizational approach. A new theoretical framework substantiates the evolutionary model of power associated with reason, justice, enlightenment, and morality from al-Farabi to the Jadids. The study conceptually elucidates the moral-spiritual nature of power grounded in rationality, justice, educational enlightenment, and ethical responsibility. A new scholarly model of the notion of “Eastern power” is proposed, conceptualizing it not as violence but as a category that ensures spiritual resilience, justice, and social progress.

Keywords: concept of power, Eastern philosophy, justice, science, enlightenment, Jadids, spirituality, social development.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

КИРИШ. Марказий Осиё тафаккурида “куч” концепцияси кўп асрлар давомида мураккаб фалсафий-маданий, сиёсий ва маънавий эволюцияни кечирган илмий-назарий категория сифатида тадқиқ этилиб келинмоқда. Ғарб фалсафасида куч кўпинча жисмоний устунлик, сиёсий ҳокимият ёки иродавий зўрлик билан боғланса, Шарқ – хусусан Ислом маърифатининг таъсирида шаклланган Ўрта Осиё тафаккури кучни маънавий, ахлоқий ва интеллектуал қувват сифатида талқин қилади. Ислом дини кучнинг моҳиятини Аллоҳ томонидан берилган масъулият, адолат, инсоф, сабр ва тақво каби руҳий-ахлоқий устунларга боғлаб, бу концепциянинг цивилизацион пойдеворини яратди.

Марказий Осиё алломалари – Фаробий, Амир Темур, Мирзо Улуғбек, Алишер Навоий, Беҳбудий, Мунаввар Қори, Авлоний, Фитрат, Қодирий, Чўлпон каби мутафаккирлар таълимотида “куч” тушунчасининг мазмуни кетма-кет босқичларда фалсафий, сиёсий, маънавий ва маърифий мазмун билан бойиб борди. Бир даврда куч ақл ва ахлоқий камолотнинг ўлчови бўлса, бошқа бир даврда адолатга асосланган давлатчиликнинг асосий тамойили, кейинги даврларда эса миллатнинг маърифий уйғониши ва озодликка интилишининг ғоявий қудрати сифатида намоён бўлди.

Ушбу мақолада Ўрта Осиёда “куч” концепциясининг шаклланиши ва тарихи давомидаги ижтимоий-фалсафий эволюцияси таҳлил қилиниб, минтақа мутафаккирларининг ижтимоий-сиёсий, ахлоқий ва маърифий қарашлари негизида кучнинг ҳақиқий моҳияти очиб берилади. Таъкидлаш жоизки, Ўрта Осиё фалсафасида куч зўравонлик эмас, балки инсоннинг ақлий юксалиши, жамиятнинг маънавий барқарорлиги ва давлатнинг адолатга таянган сиёсати орқали вужудга келадиган комплекс қудрат сифатида талқин қилинади.

Тадқиқот методологияси. Ушбу тадқиқотда Ўрта Осиёда “куч” концепциясининг шаклланиши ва тарихий-фалсафий эволюциясини ҳар томонлама қамраб олиш мақсадида қуйидаги асосий методлар қўлланилди:

1. Тарихий-таҳлилий метод. “Куч” тушунчасининг турли тарихий даврлардаги мазмунини аниқлаш мақсадида Фаробий, Амир Темур, Навоий, Улуғбек, жадидлар ва бошқа мутафаккирлар ижоди даврий контекстда таҳлил қилинди. Ҳар бир даврнинг ижтимоий-сиёсий шароити кучнинг талқинига қандай таъсир кўрсатгани ўрганилди.

2. Манбалар таҳлили (текстологик метод) орқали “Темур тузуклари”, Фаробийнинг “Фозил одамлар шаҳри”, Навоийнинг “Муншаот”, “Маҳбуб ул-қулуб”, Улуғбек рисолалари, жадидлар публицистикаси ва бошқа илмий-манбалар матнлари бевосита ўрганилиб, “куч”, “қудрат”, “адолат”, “ақл”, “маърифий қудрат” каби категориялар ифодаланган жойлар семантик таҳлил қилинди.

3. Фалсафий-мантиқий таҳлил ёрдамида “куч” тушунчасининг мазмун-моҳияти фалсафий категория сифатида изоҳланиб, унинг ақл, ахлоқ, адолат, маърифийлик, эрк ва руҳий бардош каби тушунчалар билан ўзаро боғлиқлиги мантиқий-философик ёндашув асосида тадқиқ этилди.

4. Маънавий-социологик ёндашув орқали мутафаккирлар қарашларида кучнинг жамият, давлат ва шахс ҳаётидаги ижтимоий вазифаси, унинг маънавий аҳамияти, куч ва жамият барқарорлиги ўртасидаги боғлиқлик социологик нуқтаи назардан тадқиқ этилди.

5. Илмий умумлаштириш ва концептуал моделлаштириш воситасида олинган натижалар умумлаштирилди, куч концепциясининг Ўрта Осиё тафаккурига хос модели шакллантирилди ва унинг эволюцион босқичлари илмий тизимга солинди.

Таҳлил. Ғарб мутафаккирларининг қарашларидан фарқли равишда, Шарқ, хусусан Марказий Осиёда “куч” концепциясининг шаклланишида Ислом дини энг марказий цивилизацион омил бўлган. Ислом фақат бир эътиқод тизими эмас, балки жамият, давлат

бошқаруви ва маънавиятни шакллантирувчи мукаммал маърифат тизими сифатида ҳукмронликнинг моҳиятини адолат, этика ва масъулият тамойиллари билан боғлайди.

Шу аснода Марказий Осиё алломалари “куч”ни – инсоннинг ақлий, ахлоқий ва маънавий комолотига асосланган руҳий қувват сифатида талқин қиладилар. Минтақа анъанасида “куч” – билим, ҳикмат, одоб, адолат ва жамиятга фойда келтириш (ҳоҳ иқтисодий, ҳоҳ маънавий) салоҳияти билан ўлчанади.

Буюк мутафаккир олим, “Шарқ Арастуси” номи билан машҳур бўлган Абу Наср Фаробий учун “куч” оддий жисмоний қувват ёки ҳаракат қобилияти эмас, балки инсоннинг руҳий, ақлий ва ахлоқий камолоти билан бевосита боғлиқ фалсафий категориядир. Унинг “Фозил одамлар шаҳри” асарида “куч” ёки “қувват” тушунчаси инсон табиати, жамият тартиби ва ахлоқий-комилликнинг асосий мезонларидан бири сифатида талқин қилинади.

Фаробийга кўра, ақлий қувват – инсоннинг энг олий кучидир. Жисмоний куч эса фақат ақлий ва ахлоқий қувватга бўйсунгандагина қадр топади. Агар жисмоний куч ақл ва ахлоқдан ажралса, у зўравонликка айланиб, фозилликка зид ҳолатни юзага келтиради.

Кучли давлат (шаҳар)ни Фаробий инсонларнинг кучи ва қобилияти билан боғлайди. Давлат – инсонлар гуруҳи эмас, инсонлар қувватлари муайян тартибда бирлаштирилган ижтимоий тузилмадир. Яъни давлатнинг тузилиши инсонлардаги қувватлар (ақлий, амалий ва ахлоқий)га боғлиқ. Агар ҳар ким ўз қувватига мос вазифада бўлса, давлат (фозил шаҳар) мукаммал бўлади [1].

Буюк саркарда Соҳибқирон Амир Темур кучни – адолатда деб билган. Шунинг учун ҳам унинг “Куч – адолатдадир” шиори давлат бошқаруви ва сиёсий фалсафасининг марказий нуқтаси бўлган.

Унинг назарий ва амалий фаолиятида қудрат зўравонлик ёки фақат ҳарбий устунлик билан эмас, балки адолатни қарор топтириш, қонун устуворлиги ва жамиятдаги ҳар бир табақанинг ҳақ-ҳуқуқини адолат билан белгилаш орқали мустаҳкамланади.

Темур “Темур тузуклари”да давлатнинг асосий устуни сифатида адолатли солиқ тизими, мансабдорларнинг масъулияти, қўшин ва раиятга нисбатан инсофли муносабат, зулм ва ғараздан холи бошқарувни белгилайди [2].

Унинг фикрича, адолат мавжуд бўлган жойда халқ ҳокимга садоқатли, лашкар қатъиятли, давлат эса барқарор ва кучли бўлади; адолат йўқ жойда эса энг катта қўшин ҳам заифлашади, қудрат парчаланади ва давлатнинг пойдевори емирилади. Шу маънода Темурнинг “Куч – адолатдадир” шиори унинг сиёсий реализмни маънавий асослар билан уйғунлаштирган, давлат қудратни зўравонликдан эмас, балки ҳақ ва адолатдан оладиган тузум яратганини намоён этади.

Амир Темур ўзининг тузукларида давлат қудратининг асосий манбаи сифатида қўшиннинг жисмоний кучини эмас, балки иттифоқ, итоат, садоқат, интизом каби маънавий-ахлоқий сифатларни белгилайди.

Амир Темурга кўра, давлатнинг қуввати – тўпланган лашкарнинг кўплиги билан эмас, унинг бирлашган ҳолда ҳаракат қилиши (уюшганлиги), одоб-ахлоқи, садоқати ҳамда раҳбарнинг шахсий иродаси ва стратегияси билан ўлчанади.

Оқсарой пештоғига ёзилган Соҳибқироннинг “Агар бизнинг куч-қудратимизга шубҳа қилсангиз, биз қурдирган иморатларга боқинг” деган сўзи – унинг давлатчилик, маданият ва ҳокимият ҳақидаги қарашларини жуда равшан ифода этувчи ғоят муҳим шиордир. Бу ибора фақат ғайрат ёки мағрурлик эмас, балки Амир Темур тамаддунининг сиёсий-фалсафий моҳиятини акс эттиради.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Хусусан, энг аввало, ушбу сўзлар орқали Соҳибқирон қудратнинг ҳақиқий мезонини фақат ҳарбий зафарларда эмас, балки барпо этилган маданият, шаҳарсозлик, ободончилик ва илм-маърифатга хизмат қиладиган иншоатларда деб билганини кўрсатади.

Иккинчидан, ўша даврдаги иморатларнинг қурилиши давлат барқарорлигининг рамзи ҳисобланган.

Масжидлар, мадрасалар, саройлар ҳеч қачон фақат ҳукмдорнинг шон-шуҳрати учун эмас, балки халқнинг турмуши, илмнинг равнақи ва давлатнинг барқарорлиги учун хизмат қилади.

Учинчидан, ушбу сўзлар орқали саркарда “биз кучлимиз” деб даъво қилишдан кўра, “Кўз билан кўринг – биз қурдирган обидалар ўз-ўзига гувоҳдир”, деб инсонни шу кунга қадар фикрлашга даъват қилади.

Тўртинчидан, Темурнинг давлатчилик концепциясининг асосий тамойилларидан бири – бу “қуриш – қудратдир”.

Унингча, қудратнинг энг юқори шакли – вайрон қилиш эмас, балки яратиш, бунёд этиш, обод қилиш. Шунинг учун ҳам Бибихоним, Оқсарой, Гўри-Амир каби обидалар Темур даврининг маданий қудратининг моддий шаклидир.

Бешинчидан, вақт ўтиб ҳар қандай армиялар тарқалади, географик ҳудудлар, чегаралар ва сиёсий тузумлар ўзгаради, лекин қурилган иморатлар қолади. Шу маънода, Соҳибқирон бу сўзлари билан “маданият – ҳукмдорнинг абадий куч манбаи” ғоясини, ўз кучининг абадийлигини ва маданий-меъморий қудратини кўрсатмоқчи бўлган.

Темурийлар даврининг ҳукмдори, давлат арбоби, буюк астроном ва математик Мирзо Улуғбек кучли давлатни аввало қонунга бўйсунадиган, ички тартиб-интизоми мустаҳкам, раҳбари оқил ва халқини барқарор тинчликда сақлай оладиган тузум сифатида талқин қилади. Бу борада ўзининг “Тарих-и арбаъ улус” (“Тўрт улус тарихи”) асарида шундай дейди: “Раият хуш, лашкар шодмон, фитна уйқуда, давлат қўли кучли, халойиқ осойишда, ранж чекмайди, заррин зафар ялови баланд кўтарилган.” Шу маънода Улуғбек кучни маънавий-сиёсий қудрат, адолат ва тартибга таянган бошқарув сифатида кўради [3, Б.187].

Ҳозирда Британия музейида сақланаётган Улуғбекнинг нефрит косасига ўйиб ёзилган “Ҳақнинг карамида ниҳоя йўқдур” ибораси [4, Б.21] унинг бутун дунёқараши ва илм-фанга бўлган муносабатининг фалсафий асосини ташкил этади. Бу эса Мирзо Улуғбек учун илмнинг манбаи – илоҳий карам, яъни куч ва қудратда тенги йўқ Аллоҳ берган беандоза имкониятлар эканини англатади. Ушбу тасаввуфий иборада шундай фикр мужассамки, илмнинг, маърифатнинг, кашфиёт ва изланишнинг ниҳояси йўқ, инсон қанча изланмасин, яна-да кенгроқ ҳақиқатга эришиб бораверади.

Улуғбек айнан мана шу беқиёс “илмий ниҳоясизлик” ғоясини ўз ҳаётида амалда намоён этган. Унинг астрономияга, математикага ва мантиқ-фанларга бўлган бепоён қизиқиши, Самарқандда биринчи академия ва улкан расадхона барпо этгани, “Зижи жадиди Кўрагоний”ни яратиши, астрономиядаги дақиқ кузатувлари [5] – буларнинг барчаси илмни Ҳақнинг чексиз марҳаматидан келиб чиққан улкан неъмат деб билгани табиий. Шу маънода Мирзо Улуғбек таълимотида “куч” концепцияси инсоннинг илм орқали ақлий юксалиши ва олам қонуниятларини англаш қобилияти ортиши натижасида пайдо бўладиган юксак интеллектуал-маърифий қудрат сифатида талқин қилинган бўлса ажаб эмас.

Сўз мулкининг султони Мир Алишер Навоийнинг “куч” борасидаги ижтимоий-фалсафий қарашлари ҳам алоҳида аҳамиятга эга.

Навоийга кўра, куч – қўшин кўплиги билан эмас, ақл, маслаҳат ва адолат билан боғлиқ. У ўзининг “Муншаот” асарида давлатнинг кучи қўшиннинг кўплигида эмас, балки Аллоҳнинг иноятi ва ақл-маслаҳатга таянилган тўғри тадбир (“мусташор тадбир”)га боғлиқ, дейди [6,

Б.136-235]. Бу унинг сиёсий фалсафасида ҳокимиятнинг маънавий ва маърифатли йўналишига ишорадир.

Алишер Навоийнинг “куч” фалсафаси асосан диний-тасаввуфий қарашларга таянади: у инсондаги ҳар қандай куч, қувват ва қудратни мутлақ эмас, балки фақат Аллоҳнинг қудратидан бир зарра сифатида кўради. “Маҳбуб ул-қулуб”да Навоий инсон қувватига даъво қилишни ботил деб билади, чунки инсон “туфроқдек, ел урса учадиган” заиф мавжудотдир, ҳақиқий куч эса фақат “йўқни бор, борни йўқ қилувчи” илоҳий қудратдир [6, Б.136-235].

Шу боис Навоий инсоннинг ҳақиқий кучи жисмоний ёки дунёвий иқтидорда эмас, балки сабр, қаноат, таваккул ва солиҳ амаллар орқали Хаққа яқинлашувида деб билади. Инсон кучининг барча манбалари – маънавий тарбия ва тақво билан боғлиқ. Натижада Навоийда “куч” – зоҳирий ҳукмронлик эмас, балки илоҳий иродани тан олиш ва унга итоат қилиш орқали пайдо бўладиган маънавий бардошдир.

Навоийга кўра, Аллоҳга таваккул қилган, қаноат ва руҳий покликка эга банданинг энг олий вазифаси – халққа хизмат қилиш, инсонларга озор бермаслик ва яхшиликка саъй қилишдир. Шу тарзда Навоийда куч – илоҳий иродани тан олиш, нафсни жиловлаш ва ўз кучини халқ манфаатини кўзлаб сарфлаш билан тўла маъносига етади.

XIX–XX асрларга келиб “куч” тушунчаси Шарқ маънавиятидаги илоҳий иродага итоат ва руҳий бардош маъносидан муайян даражада қайта талқин қилиниб, унда ижтимоий фаоллик, ҳақиқатни ҳимоя қилиш, зулмга қарши чиқиш ва адолат учун курашиш каби янги қирралар устувор бўла бошлади.

Бу даврда куч маънавий камолот билан бир қаторда фаол амалий позиция – миллатни зулмдан асраш, жамиятни маърифат билан озод қилиш, мустабид тузумларга қарши курашиш салоҳияти билан ўлчанди. Мунаввар Қори Абдурашидхонов, Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдулла Қодирий, Фитрат, Чўлпон каби маърифатпарварлар учун куч – нафақат ички сабр ва тақво, балки ҳақ йўлида қатъий туриш, ноҳақликка қарши бош кўтариш, миллатнинг ҳуқуқ ва қадр-қимматини ҳимоя қилиш қобилиятидир. Натижада XIX–XX асрларда куч концепцияси маърифатли ирода, жаҳолатга қарши курашиш, ҳақиқатпарварлик ва озодликка интилиш билан белгиладиган янги, ижтимоий-миллиий мазмун касб этди.

Бу борада Мунаввар қори Абдурашидхонов ва Маҳмудхўжа Беҳбудийнинг куч борасидаги қарашлари жадид мафкурасига хос умумий тамойилга – маърифат орқали миллий қудрат яратиш ғоясига таянади. Ҳар икки мутафаккир кучни замонавий таълим, саводхонлик, фан ва маданий юксалишда кўрадилар.

Буюк маърифатпарвар, ёзувчи, публицист, драматург ва жамоат арбоби, жадидчилик ҳаракатининг етакчиларидан бири Маҳмудхўжа Беҳбудий таълимотида “куч” бир йўналиш эмас, балки маърифат, ижтимоий-сиёсий фаоллик, маданият, миллий уйғониш каби бир-бирига боғлиқ мафкуравий устунлар бирлиги экани аниқ кўринади.

Беҳбудийнинг бутун публицистикасида асосий куч манбаи сифатида замонавий таълим, фан ва маърифат кўрсатилади. У “...яҳуд, арман, рус болалари оппоқ кийиниб, қўлтиқ-қўлтиқ китоб ила мактабларга келар экан, бизни болаларимиз на учун кир ва йиртиқ кийим, оёқ яланг бир ҳолда эшик ба-эшик меҳнат ахтарур, инсон бу ҳолатларга диққат ила боқса истиқболдан маъюс ўлур...”, – деб қайғуради [7]. Беҳбудий бу ҳолат билан миллатнинг энг заиф жойи – болаларнинг илмдан узоқ, меҳнатга мажбур ҳолда ўсиши эканини кўрсатади. Унингча, илмдан ажралган авлод – кучсиз миллат демакдир.

Шунингдек, Беҳбудийга кўра, миллатнинг ҳақиқий кучи ташқи ёрдамда эмас, балки ўз миллий таълим муассасалари, “Нашри маориф” каби тузилмалар ва дунёдаги илғор дорилфунунлар билан боғланган мустақил маърифат тармоғини яратишда намоён бўлади. Унингча, Туркистон фақат маърифатли, давлат бошқарувини, тижорат ва ҳуқуқ соҳаларини

эгаллай оладиган, парламентга сайлана оладиган кадрлар тайёрлагандагина ҳақиқий сиёсий куч ва истиқлол салоҳиятига эга бўлади [8, Б.34-35].

Демак, Беҳбудий назариясида куч – миллий маориф, кадрлар тайёрлаш ва интеллектуал мустақиллик орқали вужудга келадиган ижтимоий-сиёсий қудратдир.

Ўрта Осиё жадидчилик ҳаракатининг йўлбошчиси, XX аср ўзбек миллий матбуоти ва янги усулдаги миллий мактаб асосчиси Мунаввар қори Абдурашидхоновнинг маърифий ва ижтимоий-фалсафий қарашларида “куч” тушунчаси маърифат, жоҳилиятга қарши кураш, замонавий таълим, маданий юксалиш ва миллий бирлик орқали шаклланадиган интеллектуал қудрат сифатида талқин қилинади.

Мунаввар Қори таълимотида миллатнинг заифлиги ва қудратсизлигининг илдизи жаҳолат, ғафлат ва маърифатдан узоқликда экани қатъий таъкидланади. Унга кўра, кўзини “ғафлат уйқусидан оча олмаган”, атрофдаги тараққиётдан бехабар қолган халқнинг тақдири муқаррар равишда инқирозга юз тутади. У оғриқли бир ҳақиқатни очиқ айтади: илм ва маданият йўлидан четда қолган миллат сиёсий ва иқтисодий жиҳатдан кучсизланибгина қолмай, ўз юртида ҳам бегоналар эшигида “мардикор ва хизматчи”га айланиб қолади. Шу боис, Мунаввар Қори учун ҳақиқий куч – илмга таянган онгли авлод, юксак маърифий ва руҳий салоҳиятга эга бўлган халқдир. У агар жаҳолат ва ғафлат давом этса, миллат “ҳамма оламга масхара ва кулгу” бўлишидан огоҳлантиради [9, Б.145-146].

Шундай қилиб, Мунаввар Қори назариясида миллатни қудратли қилувчи ягона куч – маърифат, миллатни хор қилиб қўядиган энг катта офат эса жаҳолатдир.

Атоқли маърифатпарвар, истеъдодли шоир ва педагог Абдулла Авлоний таълимотида “куч” тушунчаси маънавий, ахлоқий ва маърифий қувват сифатида талқин қилинади. Авлоний миллат кучини, энг аввало, ахлоқий тарбияда кўради. Унинг “тарбия бизлар учун ё ҳаёт – ё мамот, ё нажот – ё ҳалокат, ё саодат – ё фалокат масаласидур” деган чуқур маъноли сўзлари бугун ҳам долзарб аҳамият касб этади.

Авлоний таълимотида миллатнинг ҳақиқий куч-қуввати унинг иттифоқ ва ҳамжиҳатлигида намоён бўлади. Шу маънода у айтади: “Иттифоқа куч-кувват кор айламас, иттифоқа жин ҳам озор айламас” [10].

Ўзбек жадидчилигининг таниқли вакили, биринчи ўзбек профессори Абдурауф Фитратнинг куч борасидаги ижтимоий-фалсафий қарашлари асосан ақл (маънавий ва тафаккурли қудрат) атрофида тузилган. Ўзининг “Нажот йўли” рисоласида ақлни инсоннинг асосий қудрати, жамиятни тараққий эттириш учун энг муҳим ресурс ва одамлар ҳаётида йўлбошчи сифатида кўради. Илм олиш ва ахлоқий фазилатлар эса шундай ақлнинг ривожланиши ва самарасини англатади. У мутафаккир жамиятнинг қутқарилиши ва тараққиётини, энг аввало, ақлнинг уйғониши ва маърифатнинг кучайиши билан боғлайди.

Фитрат қарашларининг яна бир муҳим жиҳати шундаки, у ақлни фақат индивидуал неъмат эмас, балки ижтимоий қудрат сифатида кўради. Ақли ривожланган инсон адолат, иффат, шижоат, садоқат каби фазилатларга эгалар бўлади ва бундай фазилатли шахслар жамиятдаги тартибот, маънавият ва маърифий муҳитни юксалтирувчи омилга айланади.

Фитрат ақлнинг ривожи илмсиз бўлмаслигини таъкидлайди. Бу қараш Фитратнинг жадидчилик ҳаракатидаги ўрни билан уйғун бўлиб, у миллат тараққиётини замонавий билим, фан, тафаккур маданиятини эгаллашда деб билади. Шу боис, ақл ва илм ўртасидаги боғлиқлик унда жамиятнинг модернизацияси учун марказий ғоя сифатида намоён бўлади. Унинг фикрича, илмга эга жамият адолатли давлат қуришга, маърифатли авлод тарбиялашга ва тараққиёт йўлини топишга қодир бўлади [11].

Абдулла Қодирийнинг фалсафий-бадиий концепциясида куч – бу маънавий жасорат, инсонпарварлик, адолатпарварлик ва ватанпарварликнинг бирлашган шакли бўлиб, у

зўравонликка қарши қўйилган маърифат қудрати сифатида талқин қилинади. Унинг қаҳрамонлари учун кучнинг ҳақиқий мезони – бу адолатни сақлаш, иродали ва бардошли бўлиш, юксак инсонийлик тамойилларига содиқ туриш ҳамда Ватан манфаатини ҳамма нарсадан устун қўйиш қобилиятидир.

Қодирий асарларида куч – ижтимоий масъулият билан ҳам чамбарчас боғлиқ. Унда кучли инсон ўз халқининг дардини ҳис этади, жамиятдаги адолатсизликка кўз юмиб ўтолмайди, миллат тақдири учун қайғуради. Отабекнинг Кумушнинг шарафини ҳимоя қилишдаги жасорати, Юсуфбек Ҳожининг миллат тақдири учун қайғуриши – буларнинг барчаси Қодирий қандай кучни олқишлаганидан далолат беради [12].

Абдулҳамид Чўлпон таълимотида куч – бу руҳий ирода, эркка интилиш, маърифатлилик ва миллий ўзликнинг уйғонишидан иборат мураккаб ижтимоий-фалсафий концепциядир. У жамиятнинг қутқарилиши ва миллатнинг юксалишини аввало инсоннинг ички руҳий уйғониши, ўзини англаши ва эркка интилиши билан боғлайди. Чўлпон учун куч – инсон ва миллатни қулликдан, қоронғиликдан қутқарувчи маънавий қудратдир.

Унинг қарашича, ҳақиқий куч аввало инсоннинг руҳидаги исён, эркка ташналик ва ўз қадрини билиш туйғуси орқали юзага келади. Чўлпон асарлари – шеърлари, драмалари ва насрий ишларида бу руҳий куч марказий ўрин тутади. Мутафаккирга кўра, руҳсиз, иродасиз, ўз қимматини англамайдиган инсон ҳам, миллат ҳам заиф ва бошқаларга тобе бўлиб қолади.

Чўлпон таълимотида кучнинг яна бир муҳим қирраси – миллий ўзликни англаш ва миллий ғурурдир. У миллатнинг бошини кўтариши, ўз юрти, тили, маданияти, тарихи билан фахрланишини кучнинг энг юқори кўриниши сифатида баҳолайди. Миллат ўз қадрини билмаса, ҳурликни севмаса, адолатни ҳимоя қилмаса – унинг кучли бўлиши мумкин эмас. Шу туфайли, Чўлпон ижодида куч миллатнинг маънавий тирилишини таъминлайдиган ғоявий омил сифатида талқин қилинади [13].

Чўлпоннинг бу қарашлари бугун ҳам жамиятнинг маънавий барқарорлиги ва миллий тараққиёти учун муҳим аҳамиятга эга бўлиб қолмоқда.

Хулоса. Шундай қилиб, Марказий Осиё мутафаккирлари учун куч – бу инсоннинг ақлий юксалиши, жамиятнинг маънавий етуклиги ва давлатнинг адолатга таянган сиёсати бирлашган ҳолда вужудга келадиган комплекс қудратдир. Ислом цивилизацияси бу концепциянинг илдизини белгилаб, кучни Аллоҳнинг чексиз қудратидан келиб чиқадиган маънавий масъулият сифатида талқин этган. Шу тариқа куч илк марта маънавий-ахлоқий категория даражасига кўтарилди.

Фаробий таълимоти куч концепциясига фалсафий мазмун бағишлади. Унингча, инсоннинг энг олий қуввати – бу ақл ва ахлоқий етуклик бўлиб, жисмоний куч фақат уларга бўйсуниши керак. “Фозил жамият” ғояси орқали куч жамиятдаги ҳар бир шахснинг қобилиятига мос равишда фаолият юритишига боғланди. Демак, кучнинг моҳияти ақлнинг устуворлиги, тарбия, заковат ва комилликка интилишда деб баҳоланди.

Соҳибқирон даврида “куч” тушунчаси яна бир босқич юқорилаб, давлат қурилиши ва ижтимоий тартиб асосига айланди. Амир Темурнинг машҳур шиори “Куч – адолатда” давлат бошқарувининг бош ғоясига айланди: куч қонун устуворлиги, интизом, бирлик ва аҳолининг фаровонлигида намоён бўлди. Унингча давлатнинг барқарорлиги – энг катта қудрат манбаи. Шу билан куч сиёсий-ҳуқуқий категорияга айланди.

Навоий учун “куч”, аввало, инсоннинг ички дунёси, ахлоқий юксалиши, сабр, қаноат, таваккул ва нафсни жиловлаш қобилиятида намоён бўлади. Дунёвий ҳукмронлик, бойлик ёки зоҳирий қудрат ҳақиқий куч эмас – инсонни юксалтирувчи нарса унинг маънавий поклиги, мурувват ва инсофидир. Шу билан куч ички руҳий камолот даражасига кўтарилиб, инсоннинг маънавий қудрати сифатида талқин этилди.

XIX–XX асрларга келиб жадидлар даврида куч тушунчаси яна янги қирра билан бойиди: у миллий уйғониш, маърифат тарқатиш, жаҳолатга қарши кураш, эрк ва адолат учун собит туриш билан боғланди. Беҳбудий, Мунаввар Қори, Авлоний, Фитрат, Қодирий, Чўлпон ва бошқалар учун ҳақиқий куч – миллатнинг билимли бўлиши, онгли авлоднинг камол топиши, бирлик ва уйғонишда эди.

Шундай қилиб, юртимиз мутафаккирларини бирлаштирган асосий ғоя: кучнинг ҳақиқий манбаи – инсон ва жамиятнинг маънавий-ахлоқий юксалиши, илмни эгаллаши, ҳақиқатни ҳимоя қилиши ва адолатни қарор топтиришга бўлган кучли иродасида мужассам бўлди.

Иқтибослар/References:

1. Фаробий А. Фозил одамлар шаҳри. Абу Наср Форобий / Таржимонлар Абдусодиқ Ирисов, Маҳкам Маҳмудов, Урфон Отажон. Масъул муҳаррирлар М.Хайруллаев, М.Жакбаров. – Т.: Янги аср авлоди, 2016. – 320 б.
2. Темур тузуклари // Форсчадан | А. Согуний ва Ҳ. Кароматов тарж.; Б. Аҳмедов таҳрир. остида / – Т.: Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 1991. – 144 б.
3. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи // Б.Аҳмедов, Н.Норқулов ва М.Ҳасаний тарж. / – Т.: Чўлпон, 1994. – Б.187.
4. Тураев Б. Муҳаммад Тарағай Мирзо Улуғбек (1394-1449). – Т.: Наврўз, 2018. – Б. 21.
5. Абдураҳмонов А. Улуғбек академияси. – Т.: Қомуслар, 1994. – 28 б.
6. Навоий А. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик. 14-том: Маҳбуб ул-қулуб. Муншаот. Вақфия. – Тошкент: Фан, 1998. – Б. 136-235.
7. Беҳбудий М. Таҳсил ойи // Самарқанд, 1913. №41. 3 сентябрь
8. Каримов Н. Эрк ва ҳуррият жарчиси // М.Беҳбудий меросининг миллий ғоя тарғиботидаги аҳамияти: илмий мақолалар тўплами. – Т.: 2014. – Б. 34-35.
9. Абдурашидхонов М. Танланган асарлар // Таҳрир ҳайъати: О. Шарафиддинов, Н. Аминов, Н. Каримов ва бошқ.: Масъул муҳаррир: Н. Каримов / – Т.: Маънавият, 2003. – Б. 145-146. – (Истиқлол қаҳрамонлари).
10. Авлоний А. Танланган асарлар: 2 жилдлик. 2-нашри. 2-жилд. Пандлар, ибратлар, ҳикоятлар, набийлар ҳаёти, драмалар, мақолалар, саёҳат хотиралари // Таҳрир ҳайъати: Н. Каримов ва бошқ.; Тўпловчи: Б. Қосимов; Изоҳлар ва луғатни О. Тўлабоев тузган / – Т.: Маънавият, 2006. – 304 б., – (Истиқлол қаҳрамонлари).
11. Фитрат А. Нажот йўли. – Т.: “Маънавият”, 2022. – 96 б.
12. Қодирий А. Ўткан кунлар. – Т.: “Наврўз”, 2019. – 400 б.
13. Чўлпон А. Гўзал Туркистон: Шеърлар // Сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б. Дўстқораев / – Т.: “Маънавият”, 1997. – 128 б. – (Истиқлол қаҳрамонлари); Чўлпон А. Ойдан-да гўзал. Шеърлар. – А.: “Андижон”, 1997. – 80 б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Mamirov Mansur
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti dotsenti.

Received 4th September 2025, Accepted 10th October 2025, Online 28th November 2025

MUSIQA TA’LIMIDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI

Annotatsiya Ushbu maqolada musiqa ta’limi jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalarining ahamiyati va qo‘llanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalar tez sur’atlarda rivojlanayotgani sababli, ta’lim tizimida, xususan, musiqa o‘qitish jarayonida yangi interaktiv va innovatsion yondashuvlar paydo bo‘lmoqda. Maqolada sun’iy intellekt asosida ishlovchi dasturlar – avtomatik musiqani tahlil qilish, kompozitsiya yaratish, eshitish va ritmni mashq qildirish, shuningdek, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini baholashda sun’iy intellektning imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sun’iy intellekt texnologiyalarini musiqa ta’limiga integratsiya qilish o‘quv jarayonining samaradorligini oshiradi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi interaktivlikni kuchaytiradi hamda ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, musiqa ta’limi, raqamli texnologiyalar, innovatsiya, kompozitsiya, o‘qitish jarayoni.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация В данной статье анализируются значение и возможности применения технологий искусственного интеллекта в процессе музыкального образования. В связи с бурным развитием цифровых технологий в последние годы в системе образования, в частности, в музыкальном образовании, появляются новые интерактивные и инновационные подходы. В статье освещаются возможности программ на основе искусственного интеллекта автоматический анализ музыки, создание произведений, тренировка слуха и ритма, а также оценка индивидуальных способностей учащихся. Результаты исследования показывают, что интеграция технологий искусственного интеллекта в музыкальное образование повышает эффективность процесса обучения, усиливает интерактивность между учителем и учеником и способствует развитию творческого мышления.

Ключевые слова: искусственный интеллект, музыкальное образование, цифровые технологии, инновации, композиция, учебный процесс.

THE ROLE OF ARTIFICIAL IN TELLIGENCE IN MUSIC EDUCATION

Annotation This article analyzes the importance and possibilities of using artificial intelligence (AI) technologies in the process of music education. Due to the rapid development of digital technologies in recent years, new interactive and innovative approaches are emerging in the education system, in particular in music education. The article highlights the possibilities of AI-based programs: automatic analysis of music, creation of works, training of hearing and rhythm, as well as assessment of individual abilities of students. The results of the study show that the integration of AI technologies into music education increases the effectiveness of the learning process, enhances interactivity between teacher and student, and promotes the development of creative thinking.

Keywords: artificial intelligence, music education, digital technologies, innovations, composition, educational process.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish

Musiqa ta’limi insonning ijodiy, hissiy va intellektual rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari turli sohalarda, jumladan ta’limda ham keng qo‘llanilmoqda. Musiqa ta’limi sohasida sun’iy intellekt o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda, jarayonni individual va interaktiv qilishga xizmat qilmoqda.

Sun’iy intellekt musiqiy kompozitsiyalar yaratishda yordam beradi. Masalan, talabalar o‘z g‘oyalarini SI vositalari yordamida musiqaga aylantirishi mumkin. Shu orqali ular yangi ohanglar, ritmlar va harmoniya variantlarini tezroq o‘rganib, ijodiy tajribani kengaytiradi. SI musiqiy janrlar, uslublar va tarixiy tendensiyalar asosida individual tavsiyalar berishi ham mumkin.

Har bir talabaning musiqiy qobiliyati va rivojlanish sur’ati turlicha bo‘ladi. SI yordamida o‘quv jarayoni individual tarzda moslashtirilishi mumkin. Masalan, avtomatlashtirilgan trening dasturlari talabaga murakkab notalarni o‘rganishda yordam beradi, o‘z-o‘zini baholash imkoniyatini beradi va rivojlanish bo‘yicha tahlillar taqdim etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Zamonaviy ta’lim jarayonlari texnologik rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ayniqsa ijodiy fanlar qatorida – musiqiy ta’limda – Sun’iy intellekt texnologiyalarining integratsiyasi katta ahamiyat kasb etmoqda. Musiqa ta’limi nafaqat texnik mahoratni, balki hissiy hamda ijodiy tafakkurni rivojlantiradi. Sun’iy intellekt esa o‘z navbatida algoritmik tahlil, shaxsiylashtirilgan o‘quv jarayonlari va ijodiy yordamchi vositalar orqali bu jarayonni takomillashtirishga xizmat qilmoqda (Yu va b., 2023). Ushbu tadqiqot 2015-2025 yillar oralig‘ida musiqa ta’limida sun’iy intellekt (SI) qo‘llanmalari va muammolari bo‘yicha keng doiradagi tahlilni o‘z ichiga oladi[1].

Mazkur maqolada musiqiy ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalarining roli, afzalliklari, cheklovlari hamda istiqbollari tahlil qilinadi.

An’anaviy musiqiy ta’lim jarayonida barcha talabalarga bir xil materiallar, pedagogik usullar taklif qilinishi ko‘p holatda individual ehtiyojlarni qondirishga yetarli emas. SI esa o‘quvchining boshlang‘ich darajasi, ritmik-melodik sezgilari, ijodiy salohiyatini hisobga olgan holda personalizatsiyalashtirilgan ta’lim yo‘llarini taklif qiladi. Masalan, Rao (2024) tadqiqotida Sun’iy intellekt real vaqtda o‘quvchilarning mahoratini tahlil qilib, o‘quv materialini dinamik ravishda moslashtirish imkoniyatlari mamad qilingan. Shuningdek, Merchán Sánchez-Jara va hamkorlari (2024) musiqiy ta’limda sun’iy intellekt asosida “intelligent tutoring systems” va adaptiv o‘quv muhitlari orqali talabalarning o‘zlashtirish tezligini oshirish imkonini ko‘rsatganlar.

Sun’iy intellekt algoritmlari musiqiy asarlar, ijro va talabalarning mashg‘ulotlarini tahlil qilishda foydali bo‘lishi mumkin. Masalan, “intelligent composition tools” yordamida kompozitsiya jarayoni soddalashtirilib, talabaning ijodiy jarayoni stimullanishi mumkin (He, 2025). Bundan tashqari, notalarni, ritmni, ovoz sifatini avtomatik baholab beruvchi vositalar orqali o‘qituvchilarning vaqt resurslari tejalanadi va shaxsiy mulohazalar uchun ko‘proq imkoniyat paydo bo‘ladi. Yu va b. (2023) SI va on-site darslarni birlashtirish orqali an’anaviy musiqiy ta’limdagi individializatsiya muammosini yengishga uringanlarini ta’kidlaydi.

Sun’iy intellekt integratsiyasi uchun zarur bo‘lgan infratuzilma, mos darsliklar, o‘qituvchilarni tayyorlash talab qilinadi. Masalan, Wu & Pei (2024) o‘z tadqiqotida ushbu sohada darsliklar yetishmasligi, o‘qituvchilarning sun’iy intellekt texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha tayyorgarligi past ekanligini qayd etishgan. Shuningdek, Peng va Ratnavelu (2024) yuqori musiqa ta’limida sun’iy intellektga asoslangan darsliklar joriy etilishi bilan bog‘liq xavf va inqirozlarni tahlil qilganlar, jumladan pedagogik strategiyalarning tayyor emasligi va o‘quvchilarning motivatsiyasiga salbiy ta’siri mumkinligi haqida aytilgan. Oliy musiqa ta’limida SI yordamida musiqa o‘qitish jarayonlari, ehtimoliy risklar va krizis holatlari tahlil qilingan[2].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Sun’iy intellekt tizimlari ma’lumotlar asosida ishlaydi. Ammo musiqiy ijro va kompozitsiyada madaniy kontekst, hissiy aloqadorlik va ijodiy erkinlik muhim. Mehta va b. (2024) tomonidan olib borilgan tahlilga ko‘ra, global janrlar orasida ma’lumotlar to‘plami adolatli emas: “Global South” (Janubiy yarimshar) musiqa janrlari tizimlarda yetarlicha vakillik qilmaydi, bu esa musiqiy xilma-xillik va ijodiy erkinlikka xavf tug‘diradi. Piyano ta’limida SI texnologiyalarining qo‘llanilishi — avto-baholash tizimlari, adaptiv o‘quv platformalari va boshqalar[3]. Shuningdek, SI tomonidan taqdim etilayotgan baholash yoki “feedback” mexanizmlarining transparan bo‘lmasligi, algoritmlarning tarafkashligi (bias) va o‘quvchiga “inson elementini” inkor etishi mumkinligi xavfi mavjud.

Musiqa ta’limi, odatda, faqat texnik jihatdan aniqlik bilan bog‘liq emas; hissiyot, hissiy aloqalar, hamkorlik, ijro etish tajribasi va jamoadagi musiqiy samarasizlik kabi jihatlar ham muhim. Musiqa o‘qituvchilari, orkestr rahbarlari, jamoaviy ijro muhitlari — bularning barchasi sun’iy intellekt bilan to‘liq almashtirilishi qiyin. Reddit foydalanuvchilaridan biri quyidagicha yozgan:

Musiqa ta’limida AKT (shu jumladan SI) joriy etilishi, imkoniyatlari va muammolari ko‘rib chiqilgan[4]. Shu bois, SI asbob bo‘lishi mumkin, ammo musiqiy ta’lim jarayonida inson-pedagog, hamkorlik, ijro tajribasi asosiy qolaveradi.

Musiqa ta’limida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish boyicha Jalilov, F. A, Gulbayev N.A. va boshqalar tomonidan o’rganilgan[6.7].

Tadqiqot metodologiyasi

Har bir talabaning musiqiy qobiliyati va rivojlanish sur’ati turlicha bo‘ladi. SI yordamida o‘quv jarayoni individual tarzda moslashtirilishi mumkin. Masalan, avtomatlashtirilgan trening dasturlari talabaga murakkab notalarni o‘rganishda yordam beradi, o‘z-o‘zini baholash imkoniyatini beradi va rivojlanish bo‘yicha tahlillar taqdim etadi.

- Ob’ekt: Musiqa ta’limi jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari.
- Sub’ekt: O‘quvchilar, o‘qituvchilar va musiqa ta’limi sohasidagi SI dasturlari (masalan, virtual musiqiy yordamchilar, kompozitsiya dasturlari).

Musiqa ta’limida SI bo‘yicha tadqiqot usullari turlicha namoyon bo’ladi(1-rasm).

Musiqa ta’limida sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining qo‘llanilishi va ularning o‘quv jarayoniga ta’sirini aniqlash vazifalar:

1. Musiqa ta’limida mavjud SI tizimlarini tahlil qilish;
2. O‘quv jarayonida SI vositalarining samaradorligini baholash;
3. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatida SI qo‘llanilishini o‘rganish;
4. SI texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash.

Tadqiqot materiali va bazasi:

- Materiallar: Musiqa ta’limi dasturlari, SI musiqiy ilovalar, o‘quvchilarning ijodiy ish namunalari, intervyu va so‘rovnoma javoblari.
- Baza: Maket va sinov sinflari, musiqa maktablari yoki oliy ta’lim muassasalari.

Tadqiqotning bosqichlari: Nazariy asoslarni o‘rganish (adabiyotlar tahlili). SI vositalarini tanlash va eksperimentni rejalashtirish. Sinov o‘quvchilar bilan eksperiment o‘tkazish. Natijalarni yig‘ish va tahlil qilish. Xulosa chiqarish va tavsiyalar ishlab chiqish.

SI algoritmlari musiqiy asarlarni tahlil qilishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ular notalarni, ritmni, intonatsiyani aniqlash, ovoz sifatini baholash va talabaning ijodiy ishini tezkor tahlil qilish imkonini beradi. Shu orqali o‘qituvchilar vaqtni tejab, yanada sifatli va individual maslahatlar berishi mumkin. Muhitlar talabalarga o‘zlashtirishni interaktiv qiladi. Masalan, virtual piano, gitara yoki orkestr simulyatorlari orqali talaba istalgan vaqtda mashq qilishi, xatolarini aniqlashi va real vaqt rejimida tuzatishi mumkin. Bu ayniqsa onlayn ta’lim jarayonini samarali qiladi. Musiqa ta’limida SIning roli yanada oshib borishi kutilmoqda. Shu jumladan, avtomatlashtirilgan ijodiy maslahatlar, individual musiqiy dasturlar, AI bilan hamkorlikdagi konsertlar va interaktiv darsliklar keng

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

qo‘llanilishi mumkin. Biroq, inson omili, hissiy tajriba va ijodiy tafakkur doimo muhim bo‘lib qoladi. Sun’iy intellekt esa ularni qo‘llab-quvvatlovchi vosita sifatida xizmat qiladi.



1-**rasm.** Musiqa ta’limida SI bo‘yicha tadqiqot usullari

2-

Tahlil va natijalar. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim sohasining barcha yo‘nalishlariga chuqur kirib keldi. Musiqa ta’limida SI vositalari o‘qitish jarayonini raqamlashtirish, talabaning individual o‘quv uslubini aniqlash hamda ijodiy jarayonni qo‘llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Masalan: AI dasturlari (AIVA, Amper Music, Mubert, Soundraw va boshqalar) yordamida kompozitsiya qilish; Nutq va tovushni tahlil qiluvchi tizimlar orqali o‘quvchilarning intonatsiya, ritm va tembrdagi xatolarini avtomatik aniqlash; Mashina o‘rganish modellari asosida shaxsiylashtirilgan o‘quv yo‘nalishlarini ishlab chiqish. Musiqa ta’limi sifatiga ta’siri. Sun’iy intellekt musiqiy o‘quv jarayonida:

- tinglovchilar va ijrochilarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi;
- o‘qituvchining nazorat va baholash ishlarini yengillashtiradi;
- virtual musiqiy asboblar orqali amaliy mashg‘ulotlar samaradorligini oshiradi;
- avtomatik tahlil yordamida talabaning ijrosini ob’yektiv baholaydi.

Amaliy jihatlar. O‘quv jarayoniga AI tizimlarini qo‘shish orqali:

- nota o‘qish va ritmik mashqlarni avtomatik tahlil qilish;
- audio yozuvlardan musiqiy strukturani (tonallik, temp, akkordlar) ajratish;
- o‘quvchilar uchun interaktiv o‘yinlar va simulyatorlar yaratish mumkin.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Bu esa o‘qituvchi rolini faqat bilim manbai emas, balki mentor va yo‘l-yo‘riq beruvchi sifatida qayta belgilaydi.

Muammolar va cheklovlar:

- AI texnologiyalarining yuqori narxi va texnik infratuzilma yetishmasligi;
- musiqa ijrosining emosional jihatini to‘liq avtomatlashtirib bo‘lmasligi;
- axborot xavfsizligi va mualliflik huquqi bilan bog‘liq masalalar mavjud.

1. Sun’iy intellekt musiqa ta’limini modernizatsiya qiladi – o‘quv jarayoni samaradorligi, aniqligi va qiziqarliligi ortadi.
2. O‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlik shakli o‘zgaradi – o‘qituvchi yo‘naltiruvchi, AI esa yordamchi vosita sifatida xizmat qiladi.
3. Musiqiy savodxonlik va ijodkorlik darajasi oshadi – talabalar kompozitsiya, aranjirovka va improvizatsiyani tezroq o‘zlashtiradi.
4. Raqamli platformalar asosida shaxsiylashtirilgan ta’lim imkoniyati yaratiladi.
5. Shu bilan birga, inson omilining o‘rnini to‘liq bosa olmaydi – his-tuyg‘u, sahnaviy madaniyat, estetik tafakkur hali ham o‘qituvchi tajribasiga bog‘liq.

Sun’iy intellektning musiqa ta’limidagi o‘rni 1-jadvalda berilgan.

1-jadval

SI qo‘llanilishi	Misol	Afzalliklari	Cheklovlari	Amaliy ilovalar
Individual o‘quv jarayonini moslashtirish	Pianino chalishda qiyin joylarni aniqlab, shaxsiy mashqlar ro‘yxatini tuzadi	Talaba darajasiga moslash, samarali o‘rganish	Emotsional va ijodiy jihatlarni baholay olmaydi	Flowkey, Yousician
Ovoz va ijro tahlili	Vokal mashqlarida ritm va nota aniqligini baholash	Xatolarni tez aniqlash, o‘qituvchiga yordam	Real vaqt hissiyotini baholash mumkin emas	Sing Sharp, SmartMusic
Musiqa yaratishda yordam	Kompozitsiya yaratishda yangi melodiyalar yoki akkordlarni taklif qilish	Ijodiy jarayonni rag‘batlantirish, yangi g‘oyalar	Talabaning shaxsiy ijodini to‘liq almashtira olmaydi	AIVA, Amper Music
Musiqiy tahlil va nazariya o‘rganish	Klassik asarlarni tahlil qilib, ritm, uslub va harmoniyalarni ko‘rsatish	Tez va aniq tahlil, nazariyani mustahkamlash	Tarixiy va madaniy kontekstni chuqur tushuntirish qiyin	Melody Scanner, MuseScore
Interaktiv va o‘yin shaklidagi o‘quv vositalari	Ritm, akkord va eshitish mashqlarini	Qiziqishni oshirish,	Haddan tashqari o‘yinga bog‘lanish xavfi	ToneGym, EarMaster

	o‘yin shaklida bajarish	mustaqil o‘rganish		

Kelajakdagi istiqbollari:

- Virtual musiqiy ustozlar: real vaqt rejimida maslahatlar beruvchi dasturlar;
- Avtomatlashtirilgan musiqiy laboratoriyalar: sinov va mashqlarni o‘z-o‘zidan moslashtirish;
- Interaktiv musiqiy o‘yinlar va simulyatsiyalar: o‘quvchilarni o‘rganishga jalb qilish.

Xulosa

Sun’iy intellekt musiqiy ta’lim jarayonini samarali, interaktiv va shaxsiylashtirilgan qiladi. U talabalar va o‘qituvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi, ijodiy jarayonni tezlashtiradi va baholashni aniqlashtiradi. Shu bilan birga, inson hissiyotlari va ijodiy tafakkurining o‘rni hech qachon SI tomonidan to‘liq egallab bo‘lmaydi. Musiqa ta’limida SI inson va texnologiyaning uyg‘unligi sifatida xizmat qiladi.

Qisqasi, sun’iy intellekt musiqiy ta’lim jarayonini ***shaxsiylashtirilgan, interaktiv*** va ***efektiv*** qilishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. U talabalarga ijodiy imkoniyatlar, teoriya va amaliy mahoratni birlashtirishda yordam beradi, o‘qituvchilarga esa baholash va tahlilni avtomatlashtirish orqali yanada chuqurlashtirish imkoni yaratadi. Biroq, texnologiya inson hissiy tajribasi, ijro va musiqiy aloqalarni to‘liq qamrab ololmaydi. Shuning uchun SI — bu ta’lim jarayonini to‘liq almashtiruvchi emas, balki uni kengaytiruvchi qo‘shimcha vosita sifatida qabul qilinishi zarur. Tashkiliy jihatdan esa, ta’lim muassasalari SI vositalarini pedagogik konsepsiyaga mos ravishda qo‘llash, o‘qituvchilarni tayyorlash, musiqiy va madaniy kontekstlarni hisobga olish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Zhang H. (2025). *Artificial Intelligence in Music Education: A Scoping Review of Practices, Strategies, and Challenges.* Journal of Advanced Research in Education, 4(5), 69-82.

2. Peng S., & Ratnavelu. K. (2024). *Artificial Intelligence-Assisted Music Learning: A Systematic Review of the Risks and Crises of Higher Music Education.* Journal of International Crisis and Risk Communication Research, 7(2), 466-476.

3. Dewanto A. D., & Sugiharto, A. (2024). *Artificial Intelligence Applications in Piano Education: An Informatics-Based Literature Analysis.* Polygon: Jurnal Ilmu Komputer dan Ilmu Pengetahuan Alam, 3(4).

4. Abduhakimova, I. G. qizi. (2025). *Musiqa ta’limida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.* Science and Education, 6(3), 389-394.

5. Jalilov F. A. (2025). *Musiqa ta’limida innovatsion g‘oyolardan foydalanish orqali metodologik qarashlarni shakllantirish.* Science and Education, 6(4), 158-168.

6. N.A. Gulbayev. Таълим жараёнида ахборот-коммуникация технологиялари имкониятларидан фойдаланиш самарадорлиги. “Таълимда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишнинг инновацион усуллари” мавзусидаги Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами, - Чирчиқ: Ўзбекистон, 2020 й.

7. N.A. Gulbayev. Ахборот - коммуникация технологияларининг таълимни инновацион бошқаришдаги ўрни. “Янги Ўзбекистонда ислоҳотларни амалга оширишда замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш” мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция илмий мақолалар тўплами. 27-29 октябрь. 2021 йил. Андижон.

8. P. McCormack. *Artificial Intelligence and Music Education.* — London: Routledge, 2021.

9. B. Shneiderman. *Human–Centered AI.* — Oxford University Press, 2022.

10. A. Collins & R. Halverson. *Rethinking Education in the Age of Technology.* — New York: Teachers College Press, 2018.

11. D. Herremans, C. Chuan, & E. Chew. *Music and Artificial Intelligence.* — Springer, 2020.

12. M. Qodirova. “Musiqa ta’limida raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari”. — *Pedagogik innovatsiyalar* jurnali, 2022/3.

13. N. Rustamov. *Raqamli ta’lim texnologiyalari.* — Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2021.

14. A. Gelbart. “AI-Assisted Music Learning Tools: Opportunities and Challenges”. — *Journal of Music Technology & Education*, 2020/2.

15. M. Du Sautoy. *The Creativity Code: How AI is Learning to Write, Paint and Think.* — Harvard University Press, 2019.

16. E. Lee. “AI-Based Feedback Systems in Music Performance Education”. — *International Journal of Music Education*, 2021/4.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

G‘ayrat MADAMINOV,
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: gayratmadaminov300@gmail.com
Mudofaa va xavfsizlik Universiteti , x.f.f.d (PhD) dotsent

Received 4th September 2025, Accepted 11th October 2025, Online 25th December 2025

QUROLLI KUCHLARNI MODERNIZATSIYA QILISHDA HARBIY XIZMATCHILARNI MODDIY HAMDA MA’NAVIY RAG‘BATLANTIRISH TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY MOHIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish jarayonida harbiy xizmatchilarni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishning iqtisodiy hamda psixologik asoslari chuqur tahlil qilingan. Rag‘batlantirish tushunchasining klassik iqtisodiy nazariyalardan tortib, zamonaviy xulq-atvor iqtisodiyoti va iqtisodiy psixologiya yondashuvlarigacha bo‘lgan evolyutsiyasi yoritilgan. Xususan, harbiy sohaning o‘ziga xos jihatlari – xavf, intizom, sadoqat va jamoaviy birdamlik – rag‘batlantirish tizimida moddiy va nomoddiy omillarning uyg‘unlashuvi zarurligini ko‘rsatadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, NATO va Janubiy Koreyaning ilg‘or tajribalari tahlil qilinib, ularning milliy mudofaa tizimini takomillashtirishdagi ahamiyati asoslab berilgan. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan harbiy islohotlar, xususan ijtimoiy kafolatlar, maosh tizimi, faxriy unvon va e’tirof mexanizmlarining rivojlanishi Qurolli Kuchlarning samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida ko‘rib chiqilgan. Maqola rag‘batlantirishni inson kapitali, mehnat unumdorligi va motivatsion mexanizmlar bilan uyg‘un holda talqin qilib, zamonaviy armiya boshqaruvida kompleks yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: harbiy rag‘batlantirish, moddiy rag‘bat, nomoddiy rag‘bat, iqtisodiy psixologiya, inson kapitali, motivatsiya, Qurolli Kuchlar, modernizatsiya, xorij tajribasi.

КОНЦЕПЦИЯ МАТЕРИАЛЬНО-МОРАЛЬНОГО СТИМУЛИРОВАНИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ В ПРОЦЕССЕ МОДЕРНИЗАЦИИ ВООРУЖЕННЫХ СИЛ И ЕЕ ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ

Аннотация: В данной статье представлен углубленный анализ экономических и психологических основ материально-морального стимулирования военнослужащих в процессе модернизации Вооружённых Сил. Осветлена эволюция концепции стимулов от классических экономических теорий к современным подходам поведенческой экономики и экономической психологии. В частности, специфика военной сферы – риск, дисциплина, лояльность и коллективная солидарность – указывает на необходимость сочетания материальных и нематериальных факторов в системе стимулирования. Проанализирован передовой опыт США, Великобритании, Германии, НАТО и Южной Кореи и обоснована его важность для совершенствования системы национальной обороны. Важным фактором повышения эффективности Вооружённых Сил рассматриваются проводимые в Узбекистане военные реформы, в частности, развитие системы социальных гарантий, системы оплаты труда, почётных званий и механизмов признания заслуг. В статье рассматривается взаимосвязь стимулов с человеческим капиталом, производительностью труда и мотивационными механизмами, обосновывая необходимость комплексного подхода к управлению современной армией.

Ключевые слова: военное стимулирование, материальные стимулы, моральные стимулы, экономическая психология, человеческий капитал, мотивация, Вооружённые Силы, модернизация, зарубежный опыт.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

THE CONCEPT OF MATERIAL AND MORAL INCENTIVES FOR MILITARY PERSONNEL IN THE PROCESS OF MODERNIZING THE ARMED FORCES AND ITS ECONOMIC ESSENCE

Abstract: This article presents an in-depth analysis of the economic and psychological foundations of material and moral incentives for military personnel in the process of modernizing the Armed Forces. It highlights the evolution of the concept of incentives from classical economic theories to modern approaches in behavioral economics and economic psychology. In particular, the specific nature of the military sphere—risk, discipline, loyalty, and collective solidarity—points to the need to combine material and non-material factors in the incentive system. The advanced experience of the United States, Great Britain, Germany, NATO, and South Korea is analyzed, and its importance for improving the national defense system is substantiated. The military reforms being carried out in Uzbekistan, in particular the development of a system of social guarantees, a system of remuneration, honorary titles, and mechanisms for recognizing merit, are considered an important factor in increasing the effectiveness of the Armed Forces. The article examines the relationship between incentives and human capital, labor productivity, and motivational mechanisms, justifying the need for a comprehensive approach to the management of a modern army.

Key words: military incentives, material incentives, non-material incentives, economic psychology, human capital, motivation, Armed Forces, modernization, international experience.

KIRISH. Bugungi globallashuv va keskin o‘zgaruvchan geosiyosiy sharoitda har bir davlatning barqarorligi, hududiy yaxlitligi va xavfsizligi, avvalo, uning Qurolli Kuchlarining tayyorgarligi, jangovar salohiyati hamda shaxsiy tarkibning ma’naviy-ruhiy barqarorligiga bevosita bog‘liqdir. Harbiy xizmatchilarning xizmat samaradorligini ta’minlashda moddiy va nomoddiy rag‘batlantirish tizimining mukammalligi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki harbiy xizmat inson faoliyatining eng murakkab, mas’uliyatli va yuqori xavf bilan bog‘liq shakllaridan biri bo‘lib, unda faqat moddiy ta’minot emas, balki psixologik barqarorlik, ma’naviy e’tiqod, sadoqat, intizom va jamoaviy birdamlik ham hal qiluvchi omil hisoblanadi.

So‘nggi o‘n yilliklarda dunyoda xavfsizlikka tahdid soluvchi omillar – xalqaro terrorizm, kiberjinoyatchilik, gibrid urushlar, axborot xurujlari – yanada murakkablashib, davlatlardan harbiy sohada yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Bu jarayon harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirish tizimiga faqat iqtisodiy kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy-psixologik mexanizm sifatida qarashni zarur etadi. Chunki zamonaviy armiya samaradorligi nafaqat qurol-aslahaning zamonaviyligi, balki xizmatchining ruhiy tayyorgarligi, motivatsiyasi va kasbiy sadoqatiga ham bevosita bog‘liq.

Ilmiy manbalarda ko‘plab yondashuvlar rag‘batlantirishni mehnat unumdorligini oshirishda asosiy omil sifatida talqin qiladi. A.Smit, D.Rikardo, K.Marks kabi klassik iqtisodchilar rag‘batni moddiy manfaat bilan bog‘lagan bo‘lsalar, zamonaviy iqtisodiy psixologiya vakillari — D.Kahneman, R.Thaler, V.Vrum singari olimlar uni insonning ichki ehtiyojlari, ruhiy holati va ijtimoiy qabul qilingan qadriyatlar bilan bog‘liq murakkab jarayon sifatida izohlaydilar. Ayniqsa, harbiy sohada ushbu ikki yondashuvning uyg‘unligi nihoyatda muhimdir: moddiy ta’minot xizmat barqarorligini ta’minlasa, nomoddiy rag‘bat — e’tirof, unvon, obro‘, jamoa oldidagi hurmat — xizmatchining ruhiy holatini mustahkamlaydi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi ham buni tasdiqlaydi. Masalan, AQSh armiyasida rag‘batlantirish tizimi ADP 7-0 va TRADOC dasturlari asosida muntazam takomillashtiriladi; Buyuk Britaniyada JSP 822 DSAT modeli xizmatchining motivatsiyasini oshirishda muhim omil sifatida qo‘llanadi; Germaniya Bundesverida ZDv 3/11 intizom va rag‘bat uyg‘unligini ta’minlaydi; Janubiy Koreyada esa KCTC markazlari orqali real vaqt monitoringi asosida psixologik rag‘batlantirish amalga

oshiriladi. Bu tajribalar harbiy xizmatda rag‘batning moddiy va ma’naviy jihatlarining birgalikda qo‘llanishi yuqori samaradorlikka olib kelishini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda ham Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida izchil davom etmoqda. So‘nggi yillarda harbiy xizmatchilarni moddiy ta’minlash, ular uchun uy-joy, kompensatsiya, ijtimoiy paketlar, mukofotlar, maosh ustamalari kabi rag‘batlantirish mexanizmlari sezilarli darajada takomillashtirildi. Shuningdek, nomoddiy rag‘batlantirish — faxriy yorliqlar, davlat mukofotlari, harbiy unvonlar, “eng namunali xizmatchi” tanlovlari — xizmatchilarning ma’naviy motivatsiyasini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yoshlarning harbiy xizmatga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish, ofitserlar korpusining kasbiy sadoqatini mustahkamlash va harbiy jamoalarda sog‘lom psixologik muhitni yaratuvchi ushbu mexanizmlar dolzarb ilmiy-amaliy vazifalar sirasiga kiradi. Shu bois, harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirishning iqtisodiy va psixologik asoslarini chuqur ilmiy tadqiq etish Qurolli Kuchlar samaradorligini oshirish, shaxsiy tarkibning motivatsion holatini mustahkamlash, milliy xavfsizlikni ta’minlashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot rag‘batlantirish tizimining tarkibiy elementlarini, moddiy va nomoddiy rag‘batlarning o‘zaro aloqadorligini, xorij tajribalarini va milliy amaliyotning rivojlanish tendensiyalarini har tomonlama tahlil qilishni maqsad qiladi. Harbiy xizmat inson faoliyatining eng murakkab va mas’uliyatli shakllaridan biridir. Unda nafaqat moddiy ta’minot va ijtimoiy kafolatlar, balki psixologik barqarorlik, intizom, sadoqat va jamoaviy birdamlik ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli rag‘batlantirish tushunchasi harbiy sohada o‘ziga xos talqinga ega: u iqtisodiy manfaatlar, psixologik omillar va ma’naviy qadriyatlarning uyg‘unlashuvi orqali shakllanadi. Harbiy xizmatning ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik sharoitlari, moddiy va nomoddiy rag‘batlarning muvozanati hamda xorijiy tajribalar bu jarayonning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilishni talab etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Bugungi kunda global geosiyosiy jarayonlar, yangi turdagi xavfsizlik tahdidlari (terrorizm, kiberxavfsizlik, gibrid urushlar) sharoitida harbiylarning motivatsiyasi davlat mudofaa salohiyatining hal qiluvchi omiliga aylanmoqda. Harbiy xizmatchilarning moddiy rag‘batlari (maosh, mukofot, ijtimoiy paketlar) va nomoddiy rag‘batlari (faxriy unvon, ijtimoiy maqom, e’tirof, xizmat sharoitlari) uyg‘unlashgan taqdirdagina ular samarali xizmat qilishi ta’minlanadi. Jahonda ko‘plab rivojlangan davlatlar bunga alohida e’tibor qaratmoqda. Masalan, AQSh armiyasida rag‘batlantirish tizimi ADP 7-0, TRADOC hujjatlari asosida muntazam takomillashtiriladi. Buyuk Britaniyada JSP 822 DSAT modeli orqali rag‘batlantirish tizimi xizmat motivatsiyasi bilan uzviy bog‘langan. Germaniya Bundesverida ZDv 3/11 hujjatlari asosida harbiy intizom va xizmat samaradorligi bevosita rag‘batlantirish mexanizmlari bilan mustahkamlanadi. Shunday qilib, mavzuning dolzarbligi jahonda armiya samaradorligini oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir.

Dunyoda bugungi kunda rag‘batlantirish tizimlarining iqtisodiy va psixologik jihatlarini uyg‘unlashtirish tobora zarur bo‘lib bormoqda. Chunki harbiy xizmatchi faqat moddiy mukofot evaziga emas, balki o‘zining ma’naviy qadriyatlari, kasbiy faxri, jamiyatdagi mavqeyi orqali ham samarali faoliyat yuritadi. Iqtisodiy psixologiya yondashuvlari shuni ko‘rsatadiki, rag‘batlantirish tizimi moddiy manfaati kuchli bo‘lsa-da, nomoddiy omillar (ishonch, tan olinish, jamoa e’tirofi) yetarli darajada bo‘lmasa, xizmat samaradorligi pasayadi. Bugun dunyo davlatlari armiyalarda psixologik monitoring, rag‘bat paketlari, xizmat reytinglari, “eng yaxshi xizmatchi” mukofotlari orqali integrallashgan tizimlar yaratmoqda. NATO davlatlarida xizmat davomida muntazam “After Action Review” (AAR) sikllari o‘tkazilib, xizmatchilarning ruhiy holati va motivatsiyasi baholanadi. Janubiy Koreya KCTC markazida real-time monitoring asosida harbiylarning psixologik rag‘batlantirish

omillari kuzatiladi. Bu jarayonlar shuni ko‘rsatadiki, dunyo tajribasida moddiy va nomoddiy rag‘batlar uyg‘unligi zamonaviy armiya samaradorligining asosiy sharti sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish va harbiy xizmatchilarni moddiy hamda ma’naviy rag‘batlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Mustaqillikdan buyon amalga oshirilgan islohotlar natijasida harbiylarning ijtimoiy kafolatlari kengaytirildi, xizmat sharoitlari yaxshilandi, maosh va mukofot tizimlari qayta ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, nomoddiy rag‘batlantirish mexanizmlari ham keng rivojlantirilmoqda: faxriy yorliqlar, unvonlar, davlat mukofotlari, “eng ilg‘or xizmatchi” tanlovlari orqali harbiylarning ma’naviy motivatsiyasi mustahkamlanmoqda. O‘zbekistonda yoshlarni harbiy xizmatga jalb etish va ularning kasbiy sadoqatini oshirishda rag‘batlantirish tizimining samaradorligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizning xalqaro maydondagi faoliyati, mintaqaviy xavfsizlikdagi o‘rni ortib borayotgan bir paytda Qurolli Kuchlarda motivatsion muhitni mustahkamlash dolzarb zarurat sifatida yuzaga chiqmoqda. Shu sababli mazkur mavzuni chuqur ilmiy tadqiq etish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhimdir.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab neoklassik iqtisodiyot vakillari rag‘batlantirishni yanada kengroq tushuntira boshlashdi. A.Marshall va uning izdoshlari bozor mexanizmlarida rag‘batlar resurslardan samarali foydalanishni ta’minlovchi asosiy vosita ekanini ta’kidladilar. Zamonaviy xulq-atvor iqtisodiyoti (behavioral economics) esa rag‘batlantirishni faqat moddiy omil sifatida emas, balki insonning psixologik qaror qabul qilish jarayoni bilan bevosita bog‘liq jarayon sifatida talqin etadi. Nobel mukofoti sohiblari D. Kahneman va R.Thaler rag‘batlantirishning irratsional qarorlar va ijtimoiy ta’sirlar bilan uyg‘unligini ilmiy asoslab berishdi. Ularning fikricha, insonlar har doim ham sof iqtisodiy manfaat asosida emas, balki psixologik kutishlar, adolat hissi va ijtimoiy qabul qilingan normalarga asoslanib harakat qiladilar.

Ushbu yondashuv harbiy sohada eng dolzarb hisoblanadi. Chunki jangchi yoki ofitserning qarorlari ko‘pincha faqat moddiy rag‘batga emas, balki vatanparvarlik, jamoaviy birdamlik, obro‘ va rahbar ishonchiga asoslanadi. Shu bois iqtisodiy psixologiya asosidagi rag‘batlantirish tizimi zamonaviy Qurolli Kuchlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, rag‘batlantirish kategoriyasining nazariy asoslari tarixiy jihatdan klassik iqtisodiy nazariyadan tortib, zamonaviy iqtisodiy psixologiyagacha bo‘lgan keng rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Klassik maktab vakillari (Smit, Rikardo, Marks) rag‘batlantirishni asosan moddiy manfaat bilan izohlashgan bo‘lsa, neoklassik va zamonaviy iqtisodchilar uni inson psixologiyasi, ijtimoiy qadriyatlar va iqtisodiy manfaatlar uyg‘unligida ko‘rib chiqadilar. Harbiy sohada esa bu yondashuvlar uyg‘unlashgan holda, moddiy va nomoddiy rag‘batlarning kompleks tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

Inson faoliyati doimo ehtiyojlardan kelib chiqadi. A.Maslou ehtiyojlarni fiziologikdan boshlab, o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarishgacha bo‘lgan ierarxiya tarzida izohlaydi. Shu ehtiyojlar inson ongida “motiv” shaklida paydo bo‘ladi, ya’ni harakatga undovchi ichki sabablarga aylanadi. Motivni amalga oshirish uchun tashqi omillar – rag‘batlar zarur bo‘ladi.

L.S.Vygotskiy va A.N.Leontyevning psixologik nazariyalarida inson ehtiyojlari ijtimoiy faoliyatda shakllanishi ta’kidlanadi. Ijtimoiy ehtiyojlar – jamoa a’zosi sifatida tan olinish, obro‘, hurmat, birdamlik – iqtisodiy mohiyat kasb etadi, chunki ular ishlab chiqarish va xizmat samaradorligini bevosita oshiradi.

Harbiy xizmatchilar uchun bu ehtiyojlar yanada keskinroq ifodalanadi: askar o‘zini faqat moddiy rag‘bat orqali emas, balki birlik ruhiyati, rahbar e’tirofi, davlat ramzlari va qasamyod orqali ham motivatsiya qiladi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ijtimoiy-psixologik ehtiyojlar iqtisodiy jihatdan ham muhimdir, chunki ular moddiy rag‘batlarning samaradorligini kuchaytiradi. Agar nomoddiy ehtiyojlar qondirilmasa, eng katta moddiy rag‘bat ham kutilgan natijani bermaydi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Rag‘batlantirishning iqtisodiy mohiyatini tushunishda eng avvalo uning inson kapitalini rivojlantirishdagi o‘rnini ta’kidlash zarur. G.Bekker nazariyasiga ko‘ra, “Inson kapitaliga qilingan har qanday sarmoya – bilim, ko‘nikma, malaka, sog‘liq – kelgusida iqtisodiy samarani ta’minlaydi”. Biroq bu sarmoyani faoliyatga aylantiruvchi mexanizm aynan rag‘batlantirish tizimidir. Agar xodim (yoki harbiy xizmatchi) o‘zining bilim va mahoratini namoyon etishdan manfaatdor bo‘lmasa, inson kapitali jamiyat uchun yetarli samara bermaydi. Shu bois rag‘batlantirish inson kapitalini faollashtiruvchi va uni amaliy samaraga aylantiruvchi iqtisodiy vosita sifatida qaraladi.

Chunki davlat katta mablag‘ evaziga ofitser va askarlarni tayyorlaydi, ammo bu bilim va ko‘nikmalar faqatgina moddiy va nomoddiy rag‘bat tizimi orqali to‘liq ishga solinadi. Demak, rag‘bat inson kapitalini “harakatga keltiruvchi” mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Klassik iqtisodchilar rag‘batni mehnat unumdorligi bilan bevosita bog‘lashgan. Masalan, F.Teylor “ilmiy boshqaruv” nazariyasida rag‘batlantirish mexanizmlarini samarali tashkil etish mehnat unumdorligini sezilarli oshirishini isbotlagan. Hozirgi zamon iqtisodchilari ham rag‘batlantirishni mehnat unumdorligini oshirishning muhim sharti sifatida ko‘rmoqda. R.Solou o‘zining iqtisodiy o‘sish modelida inson kapitali va mehnat unumdorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni asoslab, rag‘bat mexanizmlari bu jarayonning muhim tarkibiy qismi ekanini qayd etadi.

Harbiy xizmat sharoitida esa mehnat unumdorligi intizom, jangovar tayyorgarlik va xizmat samaradorligi bilan ifodalanadi. Rag‘batlantirish tizimlari – mukofot, maosh ustamalari, unvon berish – xizmatchilarning faolligini oshiradi va xizmat samaradorligini bevosita ta’minlaydi.

Iqtisodiy mohiyat nuqtayi nazaridan rag‘bat va manfaat dialektik birlikdir. V.Vrumning kutishlar nazariyasiga ko‘ra, “Inson faoliyatining samaradorligi uchta omilga bog‘liq: harakat natijasi kutilgan mukofotga olib kelishiga ishonch, mukofotning qadr-qimmati va uni olish ehtimoli”. Demak, rag‘batlantirish tizimi samarali bo‘lishi uchun u shaxsiy manfaatlar bilan uyg‘unlashishi kerak. Masalan, agar harbiy xizmatchi yuqori natijaga erishsa va bu natija adolatli mukofot bilan taqdirlansa, uning motivatsiyasi ortadi. Aks holda, rag‘bat va manfaat o‘rtasida nomuvofiqlik paydo bo‘lib, motivatsiya pasayadi.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results). Yuqorida ta’kidlanganidek, bozor iqtisodiyoti sharoitida rag‘batlantirish tizimlari yangi shakl va mazmun kasb etmoqda. An’anaviy maosh va mukofot tizimlari bilan bir qatorda, bonuslar, xizmat reytingi, ijtimoiy paketlar, aksiyadorlik ulushi kabi shakllar keng joriy qilinmoqda. Shuningdek, nomoddiy rag‘batlantirish – ijodiy muhit, korporativ madaniyat, ijtimoiy e’tirof – ham tobora ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda.

Harbiy tizimda ham bu transformatsiyalar kuzatilmoqda. Masalan, NATO davlatlarida rag‘batlantirish tizimlari zamonaviy boshqaruv tamoyillariga mos ravishda qayta ko‘rib chiqilib, xizmat natijalariga asoslangan differensial mukofotlash mexanizmlari joriy etilmoqda.

Rag‘batlantirish tizimlari bozor iqtisodiyoti rivoji bilan birga transformatsiyaga uchramoqda va ular inson kapitalini rivojlantirish, mehnat unumdorligini oshirish, manfaatlarni uyg‘unlashtirishda hal qiluvchi omil bo‘lib qolmoqda. Harbiy sohada esa bu jarayon milliy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash bilan bevosita bog‘liq.

A.Maslou o‘zining mashhur “Motivatsiya va shaxsiyat” asarida ehtiyojlarni besh bosqichli piramida shaklida tasniflaydi: fiziologik ehtiyojlar, xavfsizlik, ijtimoiy aloqadorlik, hurmat va e’tibor, o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish. Unga ko‘ra, pastki ehtiyojlar qondirilmasdan turib, yuqori ehtiyojlar motivatsion kuchga aylanmaydi. Harbiy xizmat sharoitida bu nazariya alohida ahamiyatga ega: askarning asosiy ehtiyojlari (ovqat, kiyim, uy-joy) ta’minlanmasa, u yuqori darajadagi motivatsiyani

ko‘rsatmaydi. Shu bilan birga, jangchi o‘zining Vatan oldidagi burchini ado etishda, jamoadagi hurmat va obro‘ orqali o‘zini ro‘yobga chiqarishga intiladi.

Harbiy sohada rag‘batlantirishning o‘ziga xosligi uning iqtisodiy-psixologik kategoriya sifatida shakllanishida yaqqol ko‘rinadi. Chunki harbiy xizmatning o‘ziga xos sharoitlari – xavf, intizom, jamoaviy birdamlik va davlat oldidagi mas’uliyat – xizmatchilarning nafaqat moddiy, balki nomoddiy rag‘batlarini ham taqozo etadi. Shu bois moddiy (maosh, mukofot, imtiyozlar) va nomoddiy (hurmat, unvon, jamoa oldida e’tirof) rag‘batlarning uyg‘unlashuvi xizmat samaradorligi va ijtimoiy barqarorlikning muhim kafolati hisoblanadi.

Shuningdek, rag‘batlantirish tizimlarining iqtisodiy mohiyatini tahlil qilish keyingi tadqiqotlar uchun nazariy poydevor yaratadi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, harbiy sohada rag‘batlantirishning o‘ziga xosligi bir nechta omillarda namoyon bo‘ladi: birinchidan, xizmatning xavfli va mas’uliyatli sharoitlari rag‘batni iqtisodiy-psixologik kategoriya sifatida qarashni taqozo etadi; ikkinchidan, moddiy va nomoddiy rag‘batlarning uyg‘unligi harbiy intizom va xizmat samaradorligini oshiradi; uchinchidan, xorijiy tajribalar (AQSh TRADOC, NATO, Bundeswehr, Janubiy Koreya KCTC) milliy tizimni takomillashtirish uchun amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi. Demak, harbiy sohada rag‘batlantirish tushunchasi faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va psixologik omillarni ham qamrab oluvchi kompleks kategoriya sifatida talqin qilinishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonun, O‘RQ–247. – 2022-y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish va harbiy xizmatchilarni qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. – PF-6209. – 2021-y.
4. “Harbiy xizmatchilarning ijtimoiy kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun. – O‘RQ–682. – 2021-y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Harbiy ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – PQ-5782. – 2020-y.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Harbiy xizmatchilarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori. – VMQ-292. – 2019-y.
7. Marx K. *Capital.* – Moscow: Progress Publishers, 1983.
8. Maslow A. *Motivation and Personality.* – New York: Harper & Row, 1987.
9. Vroom V. *Work and Motivation.* – San Francisco: Jossey-Bass, 1994.
10. Kahneman D. *Thinking, Fast and Slow.* – London: Penguin, 2012.
11. Thaler R., Sunstein C. *Nudge: Improving Decisions About Health, Wealth, and Happiness.* – Penguin Books, 2009.
12. Becker G. *Human Capital.* – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
13. Jo‘rayev M. *O‘zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy-ma’naviy tarbiya asoslari.* – Toshkent: Akademiya, 2020.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Axmedova Sevar Qudratulloyevna,

BuxDU Fakultetlararo chet tillar kafedrasi tayanch doktoranti
sevaraxmedova3@gmail.com

Received 4th September 2025, Accepted 11th October 2025, Online 25th December 2025

AVTOMOBIL NOMLARINING SHAKLLANISHIBA BOSHQA NOMLARNING TA'SIRI

Annotatsiya. Ushbu maqolada avtomobil nomlarining shakllanishiga turli onomastik birliklarning asos qilib olinishi haqida fikr yuritilib, ularning tasnifi keltirilgan. Bunda avtomobil ishlab chiqaruvchilar ko'pincha nom tanlashda shaxs otlari, va geografik toponimlar, zoonim, dendronim, ornitonim, teonim, anemonim, koloronim kabilardan foydalanishi kuzatiladi.

Tayanch so'zlar: nom, atama, onomastik birlik, onomastika, avtomobil, transport vositasi, pereyonim, tilshunoslik.

ВЛИЯНИЕ ДРУГИХ НАЗВАНИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЗВАНИЙ АВТОМОБИЛЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается образование названий автомобилей на основе различных ономастических единиц и представлена их классификация. Отмечено, что производители автомобилей часто используют при выборе названий личные имена и географические топонимы, такие как зоонимы, дендронимы, орнитонимы, теонимы, анемонимы, колоронимы и т. д.

Ключевые слова: имя, термин, ономастическая единица, ономастика, автомобиль, транспортное средство, переоним, лингвистика.

THE INFLUENCE OF OTHER NAMES ON THE FORMATION OF CAR NAMES

Annotation. This article discusses the formation of car names based on various onomastic units and presents their classification. It is observed that car manufacturers often use personal names and geographical toponyms, such as zoonyms, dendronyms, ornithonyms, theonyms, anemonyms, coloronyms, etc. when choosing names.

Key words: name, term, onomastic unit, onomastics, automobile, vehicle, pereyonym, linguistics.

Kirish. Tilshunoslikning onomastika bo'limida avtomobil nomlarini o'rganishga ham alohida diqqat qaratiladi. Ularni ifodalovchi leksik birliklarni o'rganish onomastikaning rivojlanishi bilan bir qatorda jamiyat iqtisodiyotida tilning o'rnini belgilab beradi.

Leksikologiya yoki uning tarkibiy qismi bo'lgan onomastika tizimidagi semantik hodisalarni o'rganish nazariy tilshunoslikning asosiy masalalaridan biridir. Sababi shuki, u nominatsiyaning umumiy nazariyasini yaratishning dolzarb muammosi bilan bog'liq. Zero, til uchun tabiiy bo'lgan va bir xil yoxud har xil tushunchalarni ko'rsatish maqsadida turli ifoda vositalaridan foydalanish leksikologiya tizimidagi har bir materialda namoyon bo'lishi mumkin.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Rus olimasi A.V.Superanskaya onomastik birliklar masalalariga doir bir necha tadqiqotlar olib borgan va ularni tasniflar ekan, mashinalar nomining o‘rnini ham qayd etadi.[6;159]

S.D.Shelov va V.M. Leichik nomenklatura nomlarini eponimlar ostida o‘rganish kerakligini bildirib o‘tgan.[4;36]

Asosiy qism. Avtomobil nomlarini anglatuvchi onomastik birliklar xuddi terminlar kabi murakkab uch qatlamli shakllanishga ega. Ular, birinchidan, tabiiy til substrati; ikkinchidan, mantiqiy superstrat; uchinchidan, onomasiologik mohiyat asosida shakllanishini kuzatish mumkin.

Avtomobil nomi uchun asos bo‘lgan so‘zga semantik nuqtayi nazardan qaralsa, uning leksik va konseptual semantika majmuasi ekani ravshanlashadi. Unda muayyan nomning so‘zma-so‘z ma’nosi namoyon bo‘ladi.

Aksariyat avtomobil nomlarining shakllanishiga boshqa onomastik birliklar asos bo‘lgan. Shunga ko‘ra, ularni quyidagicha tasniflab ko‘rsatish mumkin:

Qaysi onimonim asos bo‘lgani	Kelib chiqqan nom
Antroponim	“Chevrolet”, “Mersedes”
Toponim	“Moskvich”, “Malibu”, “Orlando”
Gidronim	“Volga”, “Kama”
Oykonim	“Tahoe”
Dendronim	“Tacuma”
Zoonim	“Impala”, “Mustang”
Ornitonim	“Chayka”, “Nexia”
Koloronim	“Matiz”
Анемоним	“Ford Thunderbolt”, “Ford Lightning”, “GMC Sierra Storm”, “Chevy Storm”, “Toyota Blizzard”, “Mitsubishi Thunder”, “Tata Storme”, “Tornado”
Теоним	“Мазда”

“Chevrolet” nomi u ishlab chiqilgan kompaniya asoschisi – Lui Shevrole sharafiga qo‘yilgan. Bu esa avtomobil nomlari paydo bo‘lishida antroponimlar – shaxs otlari ham asos bo‘lganini ko‘rsatadi.

Ko‘pgina avtomobil nomlari, jumladan, Genri Ford, Lui-Jozef Chevrolet, Enzo Ferrari yoki Ferdinand Porshe sharafiga nomlangan. Shuning uchun Ford, Chevrolet, Ferrari yoki Porshe kabi nomlar eponim sanalib, doimiy iste’moldagi so‘zlar qatoriga kiritiladi. Masalan, Ford – Amerika avtomobil ishlab chiqaruvchisi Genri Fordning (1863-1947) familiyasi bo‘lib, u asos solgan avtokompaniya mahsulotlari shu nom bilan ataladi. Demak, uning nomi bunda kompaniya belgisi sifatida qo‘llangan. Ammo bu endi uning ko‘chma ma’nosi hisoblanadi.Anglashiladiki, avtomobillarga nom berishning keng tarqalgan amaliyotlaridan biri – tadbirkorning familiyasini tovar belgisi va tijorat nomi sifatida kiritishdir.

“Mersedes” автомобилининг номига ҳам антропоним асос қилиб олинган. Айтилишича, “Daymler” firmasining Farangistondagi vakili Yelinik boshliqning yoniga kiradi-da: “Chiqarayotgan mashinalaringiz nomini mening qizimning ismi bilan atasalaringiz yaxshi bo‘lardi”, – degan таклифни билдиради. “Qizingizning ismi nima?” – deb so‘raydi muhandis Daymler. “Mersedes”, – deya javob beradi u. “Shu nom bilan atashimizni nima bilan asoslaysiz?” – deb so‘raydi Daymler. Savdogar gumashta o‘z fikrini dalillab beradi. Uning fikriga ko‘ra, yangi mashinalar “Mersedes” nomi bilan atalsa, bozori chaqqon bo‘larmish, raqobatbardoshlikka erisharmish va Daymlerning firmasi butun dunyoda shuhrat qozonarmish… Chunki “Mersedes” so‘zi samoda ham, yerda ham, suvda ham tengsiz

go‘zallik degan ma’noni bildirarmish. Xullas, farangistonlik savdogar Daymlerni o‘z fikriga ishontiradi. 1901-yildan e’tiboran mashinalar savdogarning qizi Mersedes nomi bilan chiqarila boshlanadi.[8]

Shunday avtomobil nomlari borki, ularda nomdan nomga ko‘chish holati yuz bergan. Masalan, “Cobalt” avtomobilining nomi “Kobalt” kimyoviy element nomi bo‘lib, uning ixtirochisi nemischa ism Kobolddan olingan.

Avtomobillar orasida tabiat hodisalari (anemonimlar) asosida nomlangan mashinalar ham ko‘p. Bunga “Ford Thunderbolt” – “Momaqaldiroq chaqmog‘i”, “Ford Lightning” – “Chaqmoq”, “GMC Sierra Storm” / “Chevy Storm”, “Tata Storme” – “Bo‘ron”, “Toyota Blizzard” – “Qor bo‘roni”, “Mitsubishi Thunder” – “Momaqaldiroq” ma’nosini anglatuvchi avtomashinalar nomini misol qilish mumkin.

Shuningdek, avtomobil qismlari nomlanishida ham anemonimlarga murojaat qilingani namoyon bo‘ladi. Jumladan, dvigatel nomlari bo‘lgan “Mazda Cyclone”, “Ford Tornado” (Aylanma bo‘ron) kabi.

Ba’zi avtomobillarga u ishlab chiqarilgan yoki sxemasi (maketi) yaratilgan shahar nomi berilgani kuzatiladi. Ular toponim asosli nomlar sirasiga kiradi. Masalan, “Chevrolet Malibu” nomi tarkibidagi Malibu so‘zi inglizcha bo‘lib, AQShning shaharlaridan birining nomidir. U Kaliforniya shtatiga qarashli Los-Andjeles okrugi g‘arbida joylashgan Malibu shahri sharafiga nomlangan. Birinchi marta Malibu nomi 1962-yilda paydo bo‘lgan. Bu nom 1964-yildan beri “General Motors” tomonidan ishlab chiqarilgan o‘rta o‘lchamli “Chevrolet Malibu”ga tegishli bo‘lib, u o‘zining plyajlari va hashamatli turmush tarzi bilan mashhur Kaliforniyaning qirg‘oq bo‘yidagi mashhur shahar nomi bilan bog‘liq. Ushbu nom orqali mashina uslubiga qulaylik xosligiga ishora qilinadi. Shu bilan yana bu avtomobilning amaliy, ammo murakkab avtomobil sifatidagi dizayn maqsadlari aks ettiriladi.

Orlando” – Florida shtatida joylashgan yirik shahar, “Tahoe” – Qo‘shma Shtatlardagi eng katta chuchuk suvli ko‘lning nomi sharafiga atalgan.

“Jiguli” rusumli yengil avtomobil nomi quyidagi ma’nolarni anglatadi:

1. Volganing o‘ng qirg‘og‘idagi tepalik nomi. Ko‘pincha bahordagidek yam-yashil (ko‘m-ko‘k) Jiguli tog‘lari hammani maftun etgani bois, ko‘k va yashil jigulilar ancha xaridordir, diltortar bo‘lgan.

2. Rossiyadagi qishloq nomi.

Zamonaviy tadqiqotchilar “Jiguli” nomini turkiy “djegule”, ya’ni “jabduqli, jabduqli ot” deb izohlaydilar va yuk tashuvchilar yashagan joy nomidan kelib chiqqan deya hisoblaydilar. Ko‘proq romantik versiyada bu nomning kelib chiqishi “Volga Freemen” – ko‘p yillar davomida tog‘larda yashagan banditlar to‘dalari bilan bog‘lanadi. Shu tariqa “Jiguli tog‘lari”, “rangli shisha”, “temir ot” bu pereyonimning shartli sinonimlari sanaladi.

G‘arbda “Jiguli” – “Lada” deb nomlanadi. Aslida “Togliatti VAZ-2101” matbuotda e’lon qilingan Butunittifoq tanlovi natijasida “Jiguli” ohangdor nomini olgan. Ruslar uchun u xuddi shu nomdagi qo‘riqxona joylashgan Volga qirg‘og‘idagi go‘zal Jiguli tog‘lari nomi bilan bog‘liq. Bu haqda “Rambler” nashri xabar bergan.[9]

Ba’zi chet elliklar uchun “Jiguli” so‘zini deyarli talaffuz qilish mumkin emas, shuning uchun u “gigolo” so‘zi bilan bog‘liq va juda salbiy ma’noga ega. Bunday haqoratli “laqab” bilan avtomobilni xalqaro bozorga chiqarish korxonani oldindan barbod qilish degani edi. Obro‘li italyan yoki bolgar oilasi “Gigolo”ni oilaviy avtomobil sifatida sotib olishi dargumon edi. Shu munosabat bilan Tolyattidagi zavod rahbariyati VAZ-2101 rusumli avtomashinaning nomini “LADA” deb o‘zgartirishga qaror qilgan. Bu nom euphonous, hech qanday yoqimsiz uyushmalarni keltirib chiqarmaydi va chet ellik xaridorlarning ko‘pchiligi uchun talaffuz qilish oson hamda bu rus qulog‘iga juda yoqimli eshitiladi.

Yangi nom shu qadar muvaffaqiyatli bo‘ldiki, u tashqi va ichki bozorlarda mustahkam o‘rin oldi. Endi avtomobil zavodining barcha mahsulotlari “LADA” deb ataladi. Umumiy nom faqat ma’lum bir model nomi bilan to‘ldiriladi: “LADA Priora”, “LADA Granta” kabi va boshqalar.

“Matiz” avtomashinaasi nomi “Alvon rang” so‘zidan olingan bo‘lsa ham, ammo u har doim shu rangda ishlab chiqilmaydi. Uning qizil, jigarrang turlaridan tashqari oq, metalrang, kulrang, qora turlari ham keng tarqalgan.

Zoonim asosli avtomobil nomlari ham borligi kuzatiladi. Bunga “Impala” nomini misol qilish mumkin. U antilopalar turiga kiruvchi kiyik nomini bildiradi. “Chevrolet Impala” avtomobil markasidagi “Impala” so‘zi o‘zining nafisligi va chaqqonligi bilan mashhur bo‘lgan Afrika antilopasiga ishora qiladi. Bu nom ushbu fazilatlarni ifodalash uchun tanlangan va hayvonning o‘zi avtomobilning ko‘plab avlodlari paydo bo‘lgan “Chevrolet Impala” modeli uchun o‘ziga xos logotipga aylangan.

“Chevrolet Captiva” deb ataladigan avtomobilga nisbatan “Tatran oti” nomi qo‘llanadi.

Ford Mustang nomi “jilovlanmagan yovvoyi ot” degan ma’noni bildiradi. U sport mashinasi uchun nom sifatida tanlangan. Mustang – bu tabiatda yashaydigan, yovvoyi ot, u Yevropaga XVI asrda kelgan, yevropalik kolunistlar olib kelgan otlarning avlodlari. Ularning ayrimlari buzilgan yo‘llardan qochib ketib, ozodlikka chiqib, tabiatda yashashga urina boshlagan. Ular o‘zlarining vahshiyligi va erkinligi bilan ajralib turadi.

“Jaguar” – “Yaguar” nomli avtomobil yo‘lbarsimon yirtqich hayvonning havoda sakrab turgan aksi logotipi bilan chiqarilgan. Shu epchil hayvon timsolida avtomobilning haydovchiga fikran jasorat, jo‘shqinlik, kuch baxsh etishi ko‘zda tutilgan.

“Dodge Viper” italiyancha “Vipera” iloni nomidan olingan bo‘lib, kuch va agressivlikni ramziy ifoda qiladi, shuning uchun sport avtomobiliga nom bo‘lishga mos keladi.

“Nexia” so‘zining ma’nosi o‘zbek tilida “Qaldirg‘och” degani bo‘lib, hozirda uning “Ravon Nexia”, “Chevrolet Nexia” kabi turlari mavjud.

“Chayka” – baliqxo‘r qush nomi bilan atalgan GAZ-13, GAZ-14 rusumli yengil avtomashina turi. U sobiq Ittifoqda Gorkiy avtomobil zavodi tomonidan 1959-yildan 1988-yilgacha ishlab chiqarilgan. Bu avtomobil luks avtomobil bo‘lib, o‘z davrida davlat amaldorlari, yuqori martabali shaxslar va sovg‘a sifatida beriladigan avtomobil sifatida shuhrat qozongan edi.

Daraxt nomi (dendronim) bilan ataladigan pereyonim, ya’ni avtomobil nomlari ham mavjud. Shu o‘rinda dendronim asosli pereyonimga “Tacuma” nomi misol bo‘la oladi. U Braziliyadagi xurmo daraxtining nomidir.

“Mazda” mashinasiga zardushtiylarning yorug‘lik xudosi Axura-Mazda nomini berishgan.

Avtomobil nomlari orasida folkloristik terminlardan foydalanib shakllantirilganlari ham uchraydi. Masalan, “Proton Saga” nomidagi “saga” so‘zi xalq qo‘shig‘i ma’nosini anglatuvchi so‘z bo‘lib, ushbu pereyonim tarkibida u “uzoq she’riy hikoya” tushunchasidan kelib chiqib, davomli xush sayohatni bildiradi. Shu orqali “Proton” brendli modelning bardoshlilik tabiatini ifoda etadi.

Til taraqqiyoti jarayonida oddiy kundalik so‘zlar orasidan tanlangan avtomobil nomlari ham mavjud. Bunday nomlar manba tilda yoki bir paytlar keng tarqalgan so‘zlar ekanligi ma’lumligicha qoladi. Demak, pereyonimga aylangan so‘z doimiy va parallel ravishda umumiy lug‘at tarkibiga aylanadi. Bunda metaforik nomga asos bo‘lgan hodisa xususiyatlari harakatlanish vositasining fazoviy holati va belgilarini ko‘rsatadigan funksional parametrlari bilan taqqoslanib, asosiy belgi e’tiborga olinadi.

Yangi pereyonimlar uchun mos nomlarga bo‘lgan ehtiyoj yangi atamalarni shakllantirishni yoki tushunchalarni ifodalashning mavjud leksik vositalarini sinchkovlik bilan tanlashni talab qiladi. Bu xususiyat ba’zan biroz bo‘rttirilishi mumkin. Pereyonimlarning shakllanishi bilan “umumiy so‘zlar” yoki biror-bir onimonimning shakllanishi o‘rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, bunda so‘z va

nomning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosida shakllanmaydi, balki “yaratiladi”, “o‘ylab topiladi”, “ijodkorlik qilinadi”.

Xulosa. Ko‘rinadiki, avtomobil nomlari adabiy til doirasida qo‘llanadigan, tashqariga ham chiqa oladigan, avtonom “soha” huquqlariga, “ma’muriy-hududiy” ta’rifga ega, til taraqqiyotining umumiy yo‘nalishiga amal qilish majburiyati, umumiy adabiy tilning boshqa qatlamlari rivojlanishiga ta’sir qilish imkoniyati bilan shartlangan til birliklaridir.

Adabiyotlar

1. Avlakulov Ya.I. Onomastic degree of Uzbek language. – Tashkent: Science and Technology, 2017. – 138 p.
2. Бегматов Э., Дўсимов З., Нафасов З., Қораев С. (1991). Ўзбек номшунослиги: тадқиқ йўшналиши ва усуллари. – Хива, – № 1, 12 б.
3. Бегматов Э., Улуқов Н.М. Ўзбек ономастикаси терминлари изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 88 б.
4. Лейчик В.М. Терминоведение: Предмет, методы, структура. Изд. 4-е. – М.: Книжный дом «ЛИБРОКОМ», 2009.
5. Подольская Н. В. Словарь русской ономастической терминологии / Н. В. Подольская. – М. : Наука, 1978. – 200 с.
6. Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – Москва: Наука, 1973. – С. 159.
7. Сызранова Г.Ю. Ономастика. – Толятти: ТГУ, 2013. – 248 с.
8. https://ziyouz.uz/ajoyibotlar/mersedes-nima-degani/
9. https://news.rambler.ru/other/38745562/?utm_content=news_media&utm_medium=read_more&utm_source=copylink

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Аманбаева Диана Мухажжатовна
преподаватель кафедры камерной музыки Государственная консерватория Узбекистана
г. Ташкент, Республика Узбекистан
E-mail: diana.amanbayeva@yandex.com
ORCID: 0009-0001-1083-205X

Received 4th September 2025, Accepted 11th October 2025, Online 25th December 2025

M. ATADZHANOV'S GOLDEN GATE TRIO: GENRE FEATURES AND ROLE IN UZBEKISTAN'S CHAMBER MUSIC

Annotation. The article is devoted to the piano trio “Zolotye Vorota” (“Golden Gates”) by the Uzbek composer Muhammad Atajanov. The study examines the genre and stylistic features of the work and its significance for the development of chamber music in Uzbekistan. The historical evolution of the trio genre from the Baroque era to the present is traced, with particular emphasis on the adaptation of European ensemble forms to the monodic tradition of Uzbek music. Based on score analysis and an interview with the composer, the programmatic concept of the piece is revealed. Atajanov’s trio, which synthesizes national and European traditions, contributes to expanding intercultural dialogue and shaping the contemporary image of Uzbek chamber music.

Keywords: Muhammad Atajanov, Golden Gates, piano trio, Uzbek music, chamber music, concept, synthesis of traditions.

M. OTADJONOV OLTIN DARVOZASI TRIOSI: JANR XUSUSIYATLARI VA O‘ZBEKISTON KAMER MUSIQASIDAGI O‘RNI

Аннотация. Мақола ўзбек композитори Муҳаммад Отажоновнинг «Золотые ворота» («Олтин дарвоза») фортепиано триосига бағишланган. Тадқиқотда асарнинг жанр-услуб хусусиятлари ва унинг Ўзбекистон камера мусиқаси ривожланишидаги аҳамияти кўриб чиқилади. Трио жанрининг Барокко давридан то замонавий мусиқагача бўлган тарихи ёритилиб, айниқса Европа ансамбль шаклларининг ўзбек монодик анъанасига мослашуви алоҳида таъкидланади. Партитура таҳлили ва муаллиф билан суҳбат асосида асарнинг дастурий ғояси очиб берилади. Отажоновнинг миллий ва европа анъаналарини уйғун равишда бирлаштирган триоси турли маданий маконлар ўртасидаги ўзаро мулоқотни чуқурлаштиришга, шу билан бирга замонавий ўзбек камер мусиқасининг янги бадиий қиёфасини шакллантиришга ҳисса қўшади.

Калит сўзлар: Муҳаммад Отажонов, «Олтин дарвоза», фортепиано триоси, ўзбек мусиқаси, камер мусиқаси, дастурийлик, анъаналар синтези.

ТРИО «ЗОЛОТЫЕ ВОРОТА» М. АТАДЖАНОВА: ЖАНРОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ И РОЛЬ В КАМЕРНОЙ МУЗЫКЕ УЗБЕКИСТАНА

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Аннотация. Статья посвящена фортепианному трио «Золотые ворота» узбекского композитора Мухаммада Атаджанова. Исследование рассматривает жанрово-стилевые особенности произведения и его значение в развитии камерной музыки Узбекистана. Прослеживается историческая эволюция жанра трио от эпохи Барокко до современности, при этом особый акцент сделан на адаптации европейских ансамблевых форм к монодической традиции узбекской музыки. На основе партитурного анализа и авторского интервью раскрывается программный замысел сочинения. Трио Атаджанова, синтезирующее национальные и европейские традиции, способствует расширению межкультурного взаимодействия и формированию современного облика узбекской камерной музыки.

Ключевые слова: Мухаммад Атаджанов, «Золотые ворота», фортепианное трио, узбекская музыка, камерная музыка, программность, синтез традиций.

Введение. Жанр фортепианного трио, занимает особое место в истории академической музыки, отражая эволюцию музыкального мышления и взаимодействие различных культурных традиций. На протяжении нескольких столетий трио развивалось от полифонических форм ранней европейской музыки до сложных синтетических моделей XX–XXI веков, интегрирующих элементы национальных музыкальных культур и современные композиционные техники. В этом контексте обращение к произведениям современных узбекских композиторов представляется актуальным направлением музыковедческих исследований.

В узбекской профессиональной музыке жанр трио формировался в условиях взаимодействия европейских ансамблевых форм и монодической традиции национальной музыкальной культуры. Этот процесс сопровождался поиском новых выразительных средств, способных органично соединить принципы полифонического мышления с интонационно-ладовой спецификой узбекской музыки. В результате жанр трио стал одним из значимых пространств для художественного эксперимента и межкультурного синтеза.

Особый интерес в данном контексте представляет фортепианное трио «Золотые ворота» современного узбекского композитора Мухаммада Атаджанова. Это произведение отличается ярко выраженной программностью, сложной драматургической концепцией и активным использованием национальных интонационных моделей в рамках европейской сонатной логики развития формы. Несмотря на значимость творчества композитора для современной музыкальной культуры Узбекистана, его камерные сочинения, в том числе фортепианные трио, до настоящего времени остаются недостаточно изученными в научной литературе.

Целью данной статьи является выявление жанрово-стилевых особенностей фортепианного трио «Золотые ворота» М. Атаджанова и определение его роли в развитии современной узбекской камерной музыки.

Задачи исследования включают:

- рассмотрение исторического и культурного контекста жанра трио в узбекской музыке;
- анализ программного замысла произведения;
- выявление особенностей формы, тематизма, ладо-ритмической организации и фактуры;

• определение значения произведения в контексте национальной композиторской традиции.

Научная новизна исследования заключается в комплексном анализе фортепианного трио «Золотые ворота» с опорой на партитурный анализ и авторское интервью с композитором, а также в осмыслении произведения как примера синтеза узбекской монодической традиции и европейских камерно-ансамблевых форм.

Методы исследования. В исследовании использован комплексный методологический подход, сочетающий историко-стилевой, аналитический и интерпретационный методы музыковедческого анализа. Такой подход позволяет рассмотреть фортепианное трио «Золотые ворота» М. Атаджанова как в широком культурно-историческом контексте, так и на уровне конкретной музыкальной ткани произведения.

Основным методом исследования является **партитурный анализ**, направленный на выявление особенностей формы, тематического развития, ладо-гармонической организации, метроритмической структуры и фактурных решений. Анализ проводится с учётом взаимодействия инструментальных партий фортепиано, скрипки и виолончели, а также их драматургических функций в рамках программного замысла сочинения.

В работе также применяется **историко-типологический метод**, позволяющий проследить эволюцию жанра трио в европейской и узбекской музыкальных традициях и определить специфику его адаптации к монодической культуре узбекской музыки. Это даёт возможность выявить преемственность и новаторские элементы в трактовке жанра у современных узбекских композиторов.

Важное место в исследовании занимает **метод анализа авторских источников**, включающий интервью и личную переписку с композитором Мухаммадом Атаджановым. Использование данных материалов позволяет уточнить программный замысел произведения, особенности формы и образной драматургии, а также авторское понимание художественных задач сочинения.

Дополнительно используется **сравнительно-аналитический метод**, направленный на сопоставление исследуемого трио с образцами камерно-ансамблевой музыки узбекских композиторов XX–XXI веков. Это способствует более точному определению места фортепианного трио «Золотые ворота» в развитии национальной камерной традиции.

Жанр трио, занимающий важное место в камерной музыке, прошёл сложный путь эволюции, отражая музыкальные и культурные трансформации от эпохи Ренессанса до современности. Его истоки уходят в полифонические формы XVI века, где ансамбли из виол, лютней или вокальных партий создавали сложное переплетение мелодий, вдохновлённое античными традициями гармонии и контрапункта.

В эпоху барокко трио-соната, ярко воплощенная в творчестве Арканджело Корелли и Антонио Вивальди, утвердилась как ведущая форма камерной музыки. Согласно Encyclopedia Britannica, она объединяет два мелодических инструмента, чаще всего скрипки, и basso continuo, создавая сложный контрапунктический диалог, который подчеркивает выразительность и техническую виртуозность [1].

Классическая эпоха, с её акцентом на ясность и структурную симметрию, подняла трио на новый уровень благодаря Йозефу Гайдну, Вольфгангу Амадею Моцарту и Людвигу ван Бетховену, чьи фортепианные и струнные трио, такие как «Эрцгерцог» Бетховена (опус 97), демонстрируют эмоциональную глубину и техническое мастерство.

В романтизме и XX веке жанр обогатился новыми инструментальными сочетаниями и стилистическими экспериментами, как в трио Мориса Равеля или Белы Бартока, интегрирующих элементы фольклора и современных новаций в области лада, гармонии,

мелодии, ритма. Эта многослойная эволюция подчеркивает универсальность трио, делая его объектом пристального внимания музыковедов, исследующих синтез формы, гармонии и культурного контекста.

В контексте узбекской музыки, жанр трио адаптировался к локальной монодической культуре – фольклора и профессиональной музыки устной традиции. Как отмечает Т. Головянц: «В зарождении инструментального ансамбля велика роль многовековых традиций монодической искусства Узбекистана, не менее плодотворное влияние русской и шире – европейской музыкальной культуры» [2, С. 103].

Ранние образцы произведений для камерного ансамбля, в том числе близкие по составу к трио, относятся к 1920–1930-м годам XX века. Среди авторов этого периода — К. Абдулаев, В. Успенский, Д. Мацуцин и др. В 1930 году Д. Мацуцин создал «Узбекскую народную песню» для флейты, кларнета и фортепиано, основанную на фольклорных записях В. Успенского. Это сочинение демонстрирует черты ранних образцов ансамблевой музыки в Узбекистане и может рассматриваться как один из первых опытов в жанре трио. В 1940 году был опубликован сборник пьес для скрипки, кларнета и фортепиано, составленный из работ студентов Ташкентской консерватории, в которых уже намечались элементы авторского тематизма и попытки освоения гармонических средств, опирающихся на ладовые особенности национальной мелодики. Эти эксперименты заложили предпосылки для дальнейшего становления жанра трио в узбекской музыке.

Важным этапом стало появление сочинений, в которых национальные традиции органично сочетались с европейскими ансамблевыми формами. Ярким примером стали «Пять пьес на узбекские темы» Георгия Мушеля для скрипки, виолончели и фортепиано, в которых композитор сумел передать ладово-интонационную специфику монодии в полифоно-гармоническом изложении. К числу интересных образцов можно также отнести трио для контрабасов Н. Гиасова, фортепианное трио М. Бурханова и сочинения И. Акбарова, которые расширили тембровую палитру и обогатили художественные возможности жанра.

Переходя от общего рассмотрения жанра к конкретному примеру, стоит отметить роль современных узбекских композиторов в развитии трио. Среди них выделяется Мухаммад Атаджанов, чьё творчество воплощает синтез традиционного и новаторского подходов. Родившийся 16 сентября 1959 года в Ургенче Хорезмской области в семье музыканта и композитора, Атаджанов получил классическое образование в Ташкентской государственной консерватории имени М. Ашрафи, которую окончил в 1982 году по классу фортепиано. Его карьера сочетает исполнительскую деятельность как пианиста, педагогическую работу и композиторское творчество. Атаджанов — лауреат международных конкурсов, академик Международной академии наук «Турон», и его произведения охватывают широкий спектр жанров: от опер и симфоний до камерных сочинений и фортепианной музыки.

Мухаммад Атаджанов является одним из ярких представителей узбекской композиторской школы XXI века, чьи работы характеризуются эмоциональной глубиной и стилистическими новаторствами. Как отмечает М. Гумаров: «Его композиторское и пианистическое искусство покоряют необыкновенной широтой представления о мире в эпоху тотальной глобализации, богатством лирических чувств и мыслей. Гармоничное сочетание в творчестве Мухаммада Атаджанова классического, романтического и современного факторов способствуют нахождению приоритетных стратегий развития узбекской музыкальной культуры в XXI веке» [3, С. 25]. В частности, камерные произведения Атаджанова, включая трио, демонстрируют мастерство в балансе инструментов и тематическом развитии, что делает их ценными для академического изучения.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

В числе наиболее значимых камерных произведений Мухаммада Атаджанова находится фортепианное трио «Золотые ворота». По словам самого композитора, произведение написано по заказу коллеги из консерватории и является строго программным, как и все его работы: «У меня все произведения имеют какой-то сюжет или смысл, потому что я не представляю непрограммную музыку» [4]. Программность здесь заключается в том, что «Золотые ворота» охраняет красивая кобра-змея, символизирующая стража и мистику. Форма сочинения может быть охарактеризована как одночастная драматургическая поэма с элементами цикличности и сонатности, подтвержденными автором как сонатная, но одночастная, с самостоятельными партиями для фортепиано, виолончели и скрипки, включая соло-моменты и связки в конце, в которой музыкальная ткань развивается как непрерывный, динамичный процесс становления центрального образа. Этот образ — «ворота» — воспринимается не только как архитектурный или исторический символ, но и как метафора перехода, границы и открытия нового пространства. Вступительные пассажи, по описанию Атаджанова, передают образ змеи-стража, а в финале она «потихоньку засыпает», образуя арочную структуру от начала до конца.

Сочинение открывается в партии виолончели устойчивым опорным звуком — до-диез, который задаёт интонационную основу экспозиционного пространства. Этот тон получает «эховое» продолжение в партии скрипки, что формирует эффект пространственного переклика между голосами. Рояль в начальных тактах выполняет функцию звукового обрамления: в низком регистре, с использованием альтерированных звуков, устремляющихся вверх, тем самым оттеняя и насыщая тембровую окраску опорного до-диеза. Повторение устойчивой фактуры в партии рояля на протяжении нескольких тактов формирует монументальную звуковую архитектуру, воплощающую образ «Золотых ворот», охраняемых коброй-змеей. Рояль здесь выступает не просто как гармоническая основа, но как изобразительный инструмент, рисующий мистический и гипнотический портрет змеи:

По методологии Б. Асафьева, интонация в музыке несет образно-смысловую нагрузку [5]. Здесь через чередование вертикалей струнных и разреженных арпеджио фортепиано, создаётся контраст между статичностью ворот и живой, почти ритуальной энергией змеи. Альтерированные звуки — хроматические вкрапления и диссонансные интервалы — добавляют ощущение таинственности, характерной для восточных мифологических образов, где змея символизирует стража и хранителя сакрального пространства.

Далее звуковая ткань переходит в состояние своеобразного преддверия главной темы. Её появление не осуществляется внезапно — напротив, оно подготавливается особым ритмическим движением в партии фортепиано. В низком регистре формируется устойчивый фактурный пласт, в котором угадываются интонационно-ритмические образы, соотносимые с

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish *(Introduction).* Inson va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi antic davrlardan buyon shakllanib kelgan. Bejizga falsafani “fanlarning otasi” deb atalmaydi. Insonning barcha bilimlari avvalboshda falsafa doirasida mujassamlashgan. Inson qiziquvchan hilqat, unda olam, tabiat va o‘zi yashab kelayotgan jamiyat qonunlarini yanada chuqurroq va atroflicha o‘rganish ehtiyoji paydo bo‘la boshlagan. Bu jarayon uzoq davom etgan. Oxir-oqibat falsafadan dastlab matematika, fizika, kimyo, biologiya, mexanika, tibbiyot, geometriya, astronomiya, geologiya, geodeziya kabi tabiiy fanlar, XVIII-XIX asrlardan boshlab esa sotsiologiya (ijtimoiyot), etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik kabi ijtimoiy fanlar ajralib chiqib, mustaqil rivojlana boshlagan [1].

Ushbu tadqiqot tabiat qonunlari va jamiyatning ijtimoiy qonunlarining o‘xshash, umumiy ko‘rinishlarini aniqlashga qaratilgan. Garchi inson e’tibori doirasidan chetda qolib kelgan bo‘lsada, qadim zamonlardan beri bu o‘xshashliklar xalqlarning maqollari va naqllarida aks etgan. Buning sababi shundaki, olamshumul fundamental kashfiyotlar kamdan-kam hollarda falsafiy tahlil qilinadi, kashfiyot tor ilmiy sohani o‘zidan tashqariga chiqmaydi va natijada jamoatchilik ongiga yetib borishi mushkullashadi.

Masalan, “oyning o‘n beshi yorug‘, o‘n beshi qorong‘u”, maqoli. Ushbu maqolda tabiat hodisasi vositasida ustamona va badihaviy usulda insonning tanazzul yoki baxtli holati tasvirlangan. Yoki, “daraxt bir yerda ko‘karadi”, deyiladi. Daraxt tabiat unsuri, uning yordamida yosh insonga tarbiya berilyabdi.

Tabiat hodisalari, qonuniyatlari, kashfiyot va ixtirolarni falsafiy taxlil qilish, anglash va tushunish asnosida mavjud dunyoqarashni yangi bosqichga ko‘tarish mavridi keldi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).

Fundamental fanlarda vujudga kelgan tig‘iz vaziyatdan qanday chiqib ketilgan?

XIX asrning so‘ngiga kelib N’yutonning klassik fizikasi sohasida qilinadigan tadqiqotni o‘zi qolmagandek, tabiat qonuniyatlari to‘la, atroflicha o‘rganib chiqilgandek taasurot qolib turgan edi. Ammo 1896 yili shunday voqea yuz berdiki, fizika osmonida qaror topgan musaffolikni go‘yo qora bulut qoplagandek hissiyot tug‘ildi [2].

Gap shundaki, Anri Bekkerel lyuminestsentsiya va rentgen nurlarini o‘rganayotganda uran tuzlari qorong‘ida o‘z-o‘zidan fotoplastinkani nurlantirayotganini, radioaktiv nurlar chiqarayotganini payqab

qoladi. 1898-1903 yillar mobaynida er-xotin Mariya va P'yer Kyurilar bundan foydalanib, tadqiqotlari natijasuda uranning o'zidanda radioaktivroq elementlar – poloniy va radiyni kashf etdilar va bu hodisani "radioaktivlik" deb atashdi.

1900-yil boshlarida tibbiyotda ham qo'llashi oqibatida Mariya Kyuri ionlashtiruvchi nurlanishning saraton hujayralariga qarshi kurashish qobiliyatini aniqladi va tibbiyotda "nurli terapiya" yo'nalishiga asos soldi.

Shunday qilib, 1896 yilda Anri Bekkerel tomonidan radioaktivlik hodisasining tasodifiy ochilishi fizika, kimyo va muhandislik sohalarida inqilobga olib keldi, bir paytlar Demokrit tomonidan bo'linmas va bir jinsli deb muomalaga kiritilgan atom aslida "kovak" bo'lib chiqdi. Atomning ichki tuzilishi qanday ekaniga oydinlik kiritish uchun fundamental sohada atom fanlari davri boshlanib, bugungi kunga kelib nanofanlar davriga aylanib ketdi.

Nils Bor atomning I va II postulatlarini ishlab chiqdi [3].

Qisqacha:

Atomni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, sharsimon kichik zarracha, markazida yadro, yadroda musbat (+) zaryadlangan proton va zaryadsiz neytron joylashgan, yadrodan turli uzoqlik va energetic orbital (sath) larda manfiy zaryadli (e^-) elektronlar aylanadi.

Kengroq:

I postulat (atomning tinch holati shartlari)

Atom faqat diskret (har xil) holatda mavjud bo'la oladi. Bu holatlarning o'z energiya (E_1, E_2, E_3...) lari bor. Atom tinch holatda nur chiqarmaydi.

II постулат (atomning nur yutish va nur chiqarish shartlari)

Atom bir statsionar holat E_1 dan boshqa statsionar holat E_2 ga o'tgandagina nur (foton) yutadi yoki chiqaradi.

Nurlanish yoki yutilish chastotasi quyidagicha aniqanadi : $\nu=(E_1-E_2))/h$

Atom qaridan chiqqan yoki atom yutgan nur (foton) energiyasi uzuq (diskret) bo'ladi.

Bu postulatlar atomning ichki tuzilishi va yorug'likning tabiati haqidagi bilimlarni chuqurlashtirdi va "kvant mexanikasi" fan sifatida shakllanishida muhim o'rin tutgan.

Nazar solinsa kishilik tarixida fundamental fanlar sohasida ham, ijtimoiy-gumanitar sohalarda ham olamshumul ilmiy kashfiyotlar va inson qalbi kechinmalarini ochib bergan yirik bestseller asarlar yaratilgan. Masalan, gumanitar sohada A.Navoiyning "Xamsa" va A.S.Pushkinning "Onegin" she'riy durdonalarini o'zi bir dunyo.

Inson va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi antic davrlardan buyon shakllanib kelgan. Bejizga falsafa "fanlarning otasi" deb atalmaydi. Insonning barcha bilimlari avvalboshda falsafa doirasida mujassamlashgan. Ammo inson qiziquvchan hilqat. Insonda olam va o'zi yashab kelayotgan jamiyat qonunlarini yanada chuqurroq va yanada atroflicha o'rganish ehtiyoji paydo bo'la boshlagan. Bu jarayon uzoq davom etgan. Oxir-oqibat falsafadan dastlab matematika, geometriya, astronomiya, geologiya, geodeziya, tibbiyot, mexanika, fizika, kimyo, biologiya kabi tabiiy fanlar, XVIII-XIX asrlardan boshlab esa sotsiologiya, etika, estetika, mantiq, siyosatshunoslik kabi ijtimoiy fanlar ajaralib chiqib, mustaqil rivojlana boshlagan.

Agar fundamental fanlarda inqilob 1896 yildagi Anri Bekkerelning kashfiyotidan boshlangan bo'lsa, inson va jamiyat haqidagi bilimlar, aytib o'tilgandek, antic davrlardan e'tiboran yig'ilib-yig'ilib borgan, undagi inqilob san'asi sifatida 1848 yilni, Frantsuz revolyutsiyasini "sanoq boshi" deb olish mumkin. Ushbu tadqiqotning Xulosa qismida taklif qilingan "ijtimoiy postulatlar" o'sha davrda qilinganda nur ustiga nur bo'lardi. Insonning fundamental sohadagi bilimlari bilan parallel ravishda insonning o'zi yashab kelgan va turgan jamiyat, uning moddiy va ma'naviy hayoti, insonning jamiyat bilan o'zaro munosabatlari, siyosiy, xuquqiy, ahloqiy muammolar dolzarblashgan va ularning asta-

sekin hal etilishi jamiyat va insonning o‘zi haqida ko‘plab risolalarning yaralishiga sabab bo‘lgan. Alalxusus, Suqrotning shogirdi Aflotun (Platon) ning “Davlat” [3]., “Qonunlar” [4]., Aflotunning shogirdi Arastu (Aristotel) ning “Siyosat” [5]., Farobiyning “Fozil odamlar aholisi” [6], “Siyosat ilmi”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” [7], Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi [8], Al Marg‘inoniyni “Al Hidoya” [9], Tomas Gobbsni “Grajdanlik to‘g‘risida” [10], Gegelning “Tarix falsafasi” [11], “Huquq falsafasi” singari risolalarini misol qilib keltirish mumkin.

Ijtimoiy-gumanitar sohada yuzaga kelgan vaziyatdan qanday chiqish mumkin?

Ushbu savolga quyidagi bandlarda javob izlanadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Mavzu nomiga oid qisqa aniqlashtiruvchi izoh. Fundamental fanlardan, xususan, fizika sohasidan yiroq bo‘lgan mutaxassis uchun “Buyuk birlashuv №1 nima?” degan savol qiziqarli tuyulishi mumkin. Tabiatda 4 ta maydon: gravitatsiya, zaif va kuchli (yadro) elektr maydonlar va elektromagnit to‘lqinlar pirovardida bir xil tabiatga ega ekani fizikada “Buyuk birlashuv №1” deb ataladi [12].

Aynan shu ma’noda avvalboshdan falsafadan ajralib chiqqan fundamental hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarning mantiqan qaytadan yaqinlashuvi fenomenini mubolag‘asiz va haqqoniy ravishda “Buyuk birlashuv №2” deb hisoblash mumkin, chunki unga bo‘lgan ehtiyoj bugungi kunda tobora dolzarblashib bormoqda. Ushbu muammoga bunday qarashni asoslash uchun imkon qadar internetdagi (vikipediya) remarkalarga [13] murojaat qilamiz va B.Mandelbrotning “o‘z-o‘ziga o‘shashlik” [14]. tamoyili negizida quyida ilgari suriladigan “inson va insoniyat” gipotezasi (taxmini) ni asoslash uchun poydevor yaratamiz. Ma’lumki, remarka muallifning muayyan fikrini izohlovchi, aniqlashtiruvchi eslatmadir. Ushbu tadqiqotda ko‘plab remarkalardan foydalanamiz.

Avvalo, menga ushbu gipoteza bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bir voqeani aytib berishga ijozat bering; bu voqeaning guvohi Benua Mandelbrotning o‘zi bo‘lgan. 1958 yilda u IBM ga ishga kiradi. U yerda hamkasblari unga uzoq vaqtdan beri jiddiy tashvishga solib kelayotgan bir muammo haqida so‘zlab berishadi. IBM muhandislari ma’lumotlarni telefon tarmoqlari orqali uzatishar edi, biroq ba’zan qandaydir sababga ko‘ra axborot yo‘qolib qolardi, ya’ni manzil (adresat) ga ma’lumot uzuq-yuluq bo‘lib yetib borardi. Ustiga-ustak, tarmoqlarda shovqin juda ko‘pligidan mijozlar beso‘naqay axborotlar juda katta miqdorda to‘planib qolayotgani haqida shikoyat qilishardi. Vaziyat keskin va juda abgor holga kelib qolgan edi. Benua Mandelbrot bu shovqinlarning vaqt bo‘yicha grafiklarini chizadi va olim tasodifan bir qonuniyatni payqab qoladi: shovqinlarning vaqt grafigi 1 soniyada ham, 1 soatda ham, 1 kunda ham bir xil va “o‘z-o‘ziga o‘xshash” (self-similar) bo‘lib chiqadi. U hayratga tushadi. Bunday kazuistik holatlarga olimlar ilgari ham duch kelishgan bo‘lib, ularni “matematik monstrlar” deb atashgan. Birinchi “monstr”ni yuz yildan ortiq vaqt avval Georg Kantor o‘ylab topgan. Ikkinchisini Xelge fon Kox, uchinchi “monstr” yechimiga esa Gaston Juliya bilan bir qatorda B. Mandelbrotning o‘zi ham hissa qo‘shgan. O‘sha davrgacha ularni yechishning iloji bo‘lmagan. Bu yuqori tezlikli kompyuterlar paydo bo‘lgachgina imkon bo‘ldi, zero ular bir lahzada millionlab hisoblashlarni bajarishardi.

Men ilgari surayotgan “inson va insoniyat” tandemi bilan bog‘liq gipoteza mantiqan aynan shu holatga o‘xshab ketadi. Bu g‘oya ilk bor deyarli 45 yil avval xayolimga kelgan. Bu orzu-g‘oyaga ergashib, hatto o‘qishda mutaxassisligimni ham o‘zgartirishimga to‘g‘ri kelgan. Inson umri mezonida 45 yil ulkan davr. Bu davr (1980-2025) mobaynida ijtimoiy-gumanitar sohada biror mutaxassis chiqib, Xulosada zikr etilgan yechimni oldinga surmadi. “Hayot bu – o‘yin”, deyishadi, taqdir yana shunday o‘yin qilmoqdaki, “ijtimoiy postulatlar”ni ham fizik ilgari surishiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tabiat hodisalarida asosiy “o‘yinchi” atom bo‘lsa, tarix sahnasida, jamiyatdagi munosabatlarda va ijtimoiy-gumanitar sohada inson shunday rolni bajaradi.

Inson ko‘zi ilg‘amaydigan atom zarrachasini Demokrit o‘z davrida bo‘linmas va bir jinsli zarra, deb qarashni taklif qilgan edi [15]., biroq oxir-oqibat uning ichi “kovak” ekani ma’lum bo‘ldi [6].

Shundan so‘ng atomning ichki “arxitekturasi”ni aniqlashga qaratilgan tajribalar o‘tkazildi va bu maqsadda dastlab Rezerford “atom planetar modeli”ni o‘ylab topdi, so‘ng Bor uni ixchamlashtirib, hozirga qadar mashhur “postulatlar”ni yaratdi.

Agar e’tibor qaratilsa, alohida olingan insonning dunyoqarashi chaqaloqlikdan to keksa yoshgacha yetti bosqichda o‘zgaradi; bu bosqichlar sifat va prinsipial jihatdan bir-biridan farq qiladi. Jarayon “inkorni inkor” hamda “miqdoriy o‘zgarishlarning sifat o‘zgarishiga aylanishi” tamoyillari asosida kechadi. Bular, birinchi: 4 yoshgacha bo‘lgan “nolinchi” davr; ikkinchi: fiziologik jihatdan qizlarda 12 yoshda va o‘g‘il bolalarda 15 yoshda; uchinchi: 30–35 yoshda; to‘rtinchi: 40–45 yosh oralig‘ida; beshinchi: 60–65 yoshda; oltinchi: 80–85 yoshda va nihoyat, yettinchi, 85 yoshdan keyingi davr. Ushbu yetti holatning barchasida inson kechinmalari beixtiyor sifat jihatdan o‘zgaradi[6].

Bu fikr xayolparastlik bo‘lib tuyulishi mumkin, ammo uning haqiqatga yaqinligi *nafaqat* B. Mandelbrotning tabiat jarayonlari va hayot hodisalari haqidagi qarashlari (birxillik va o‘z-o‘ziga o‘xshashlik) [14], I.Prigojinning (dinamik, deterministik xaos) qarashlari [16] hamda V.S.Stepinning (darajalar) qarashlari [17] bilan, *balki* yaqinda e’lon qilingan, uch yil davom etgan tajriba natijalari bilan ham tasdiqlanadi; ushbu eksperiment natijalari miya qobig‘idagi real fiziologik jarayonlarga juda yaqin.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, biz dunyoqarashning yangi bosqichi ostonasida turibmiz. Insoniyatning “nolinchi bosqich” dunyoqarashi imkoniyatlari allaqachon tugagan: unga qancha axborotni “tiqishtirib, siqib” joylamaylik, vaziyat yanada og‘irlashadi, yaxshisi “mo‘ljalga aniq urish uchun ozroq tisarilgan” ma’qul, degan tamoyilga quloq tutgan afzal. Bolakay 4 yoshdan oshgani kabi, insoniyat ham 2,5 mln yil (bolani 4 yoshi) “chegarasidan” o‘tgandek va endi “yangi bosqich” dunyoqarashi negizida ishlashga o‘tish zarur.

Daily Mail xabariga ko‘ra, Kembrij universiteti olimlari o‘z tadqiqotlari natijasida [18] inson miyasi, rivojlanishining besh bosqichli modelini taqdim etdilar. Tahlil go‘daklardan 90 yoshgacha bo‘lgan 3800 kishining MRT ma’lumotlariga asoslangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, neyrobiologik nuqtayi nazardan o‘smirlik davri odatdagidan ancha uzoq davom etadi. Tadqiqot mualliflaridan biri, doktor Aleksa Moslining aytishicha, inson miyasi taxminan balog‘at yoshi boshlanishi atrofida o‘tish holatiga kiradi va uch o‘n yillikdan ortiqroq vaqt davomida shu holatda qoladi, asta-sekin neyron bog‘lanishlarni qayta tiklaydi hamda to‘liq yetuk shaklga faqat 20 yoshlarning o‘rtalariga kelib erishadi. Tadqiqotchilar fikricha, 30 yoshdan so‘ng intellekt va shaxsiy xususiyatlar barqaror fazaga o‘tadi. Tajriba diffuzion MRT yordamida bajarilgan. Bu usul neyron yo‘llar bo‘ylab suv molekulalarining harakatini kuzatish va miya sohalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar xaritasini yaratish imkonini beradi. Minglab skanlar tahlil qilindi. Tug‘ilgandan 9 yoshgacha miya sinapslar sonining tez kamayishi bilan xarakterlanuvchi muhim rivojlanish fazasidan o‘tadi, bunda faqat eng faol neyron bog‘lanishlar saqlanib qoladi. Shu bilan birga kulrang va oq modda hajmi ortadi, po‘stloqning tashqi burmalari barqarorlashadi.

9 yoshlar atrofida birinchi katta qayta qurilish (fazaviy o‘zgarish, Z.K.) ro‘y beradi va bu kognitiv qobiliyatlarning keskin oshishi bilan birga kechadi. 9 yoshdan 32 yoshgacha rivojlanishning “o‘smirlik” bosqichi davom etadi: bu davrda oq modda xajmi oshadi va eng muhimi, neyronlar o‘rtasidagi bog‘lanishlar yanada aniqroq, qisqaroq va samaraliroq bo‘lib boradi. Aynan shu davrda miya eng katta “topologik qayta qurilish” (fazaviy o‘zgarish) ni boshdan kechiradi. Bu yosh davrida ruhiy kasalliklar sonining oshishi bilan ham bog‘liq bo‘lib, tadqiqotning yetakchi muallifi, professor Dunkan Astlning aytishicha, neyron bog‘lanishlari mexanizmi hali to‘liq aniqlanmagan bo‘lsa-da, bu hol neyron tarmoqlarini shakllantirish jarayonlarini susayishi bilan bog‘liq.

32 yoshdan keyin eng uzoq davr boshlanadi va u 66 yoshgacha davom etadi. Bu davrda miyaning *ish samaradorligi* oshmay qo‘yadi, uning arxitekturasi barqarorlashadi, ayrim sohalar ko‘proq

ixtisoslashgan rejimda ishlay boshlaydi; bu kognitiv qobiliyatlar va shaxsiy xususiyatlarda plato (o‘sishning to‘xtashi) bilan bog‘liq.

66 yoshdan so‘ng qarishning birinchi mo‘tadil bosqichi boshlanadi: neyronlar orasidagi bog‘lanishlar asta-sekin kamayadi, oq moddaning sifati yomonlashadi, bu esa amalda miya bilan bog‘liq yoshga doir kasalliklar (masalan, gipertoniya) xavfining o‘rtacha darajasiga mos keladi.

Yakuniy, beshinchi bosqich taxminan 83 yoshdan boshlanadi, u neyron funksiyaning ko‘pincha keskin pasayishi bilan xarakterlanadi, miya “o‘smirlik davrida” shakllangan bog‘lanishlarni yo‘qota boshlaydi va tobora cheklangan miqdordagi funksional sohalarga tayanishga intiladi.

Doktor Moslining aytishicha, avvallari erkin ishlatilgan miya sohalari orasidagi “to‘g‘ri yo‘llar” yo‘qoladi, bog‘lovchi (integratsion) sohalarning roli ortadi, ular go‘yo zaxira “uzatkichlar”ga aylanadi, neyron signallari aynan ular orqali uzatilishga o‘tadi. Tadqiqotchilar ushbu ma’lumotni tushunish, neyropsixiatrik kasalliklarni o‘rganish, “qarish mexanizmlari”ni anglash va miya neyron tarmoqlaridagi kasalliklarning oldini olish strategiyasini ishlab chiqish uchun nihoyatda muhim ekanini ta’kidladilar.

Shunday qilib, ushbu tajriba natijalari inson shaxsining shakllanishidagi turli yosh davrlarida insonning dunyoqarashi sifat o‘zgaruvchanligiga moyilligi haqidagi ilgari surilgan gipotezani tasdiqlaydi va “nolinchi davr” dunyoqarashidan keyin yangi bosqichga o‘tish boshlanayotgani haqida bayonot berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Postulat №1. Hamma odam bir odam.

O‘zbeklarda qadimdan “hamma odam bir odam” degan maqol bor, ular boshqa millat vakillarini ajratmaydilar, barcha odamlarni “qoni bir” deb bilishadi. Endilikda, yuqorida muhokama qilingan “yangi bosqich” dunyoqarashi fonida, shuningdek, bunga hamohang ravishda fundamental va ijtimoiy-gumanitar fanlarning birlashuvi jarayoni ketayotgan bir paytda, bu maqolning asl mohiyati ochilmoqda: “hamma odam – bir odam” va shunga o‘xshash son-sanoqsiz milliy hikmatlar va maqollarning mazmuni yangicha anglanmoqda. Esdan chiqarmaslik kerakki, bu xususiyat ayniqsa II jahon urushi davrida yaqqol namoyon bo‘lgan, o‘zbeklar urush tufayli ota-onasiz qolgan o‘n minglab yetim bolalarni “bolalar uylari”ga tushib qolmasin, deb oilalariga olib ketishgan. Bu borada urush yillaridagi “Sen yetim emassan” kinosini [19]. (sahna asari buyuk o‘zbek shoiri G‘.G‘ulomniki) yoki uning “Men – yahudiyman” she’rini eslash kifoya, u shoir bizning ustozimiz, akademik K.G. G‘ulomovning otasi [20].

Yer yuzi va qit’alarning inson tomonidan o‘zlashtirilishi. [21]. Yuqorida zikr etilib ilgari surilayotgan gipotezaning to‘g‘riligini tasdiqlovchi yana bir dalil quyidagicha. Inson zoti dastlab Afrika qit’asidan tarqalgan. Bu jarayon taxminan 2 million yil avval qadimgi odamlarning migratsiyasidan boshlangan va zamonaviy odam homo sapiens paydo bo‘lishi bilan, deyarli 200 ming yil avval davom etgan. Aynan shu davrda odam birinchi ovqat quroli – tosh pichoqni yasagan. Bu tarqalish jarayoni yashash uchun yaxshiroq sharoit, oziq-ovqat va suv izlash, ayniqsa aholi sonining ortishi bilan bog‘liq bo‘lgan va natijada taxminan 11 ming yil avval barcha qit’alar (Antarktidan tashqari) o‘zlashtirilgan.

Yer yuzasini o‘zlashtirishning asosiy bosqichlari.

Birinchi bosqich. 2 million yil oldin boshlangan: qadimgi odamlar Afrikadan materiklar bo‘ylab tarqala boshlaydi va Yevrosiyogacha yetib boradi.

Ikkinchi bosqich. Taxminan 200 ming yil avval Afrikada zamonaviy odam homo sapiensni ajdodlari paydo bo‘ladi va Yevrosiyoga ko‘cha boshlaydi.

Uchinchi bosqich. Taxminan 80-100 ming yil avval Afrikadan Yaqin Sharq orqali odamlar Yevropa, Osiyo, Hindiston, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyoga tarqaladi.

To‘rtinchi bosqich. Taxminan 40–50 ming yil avval inson dengiz bo‘g‘ozlarini suzib o‘tib Avstraliyaga yetib boradi. Bu uning birinchi yirik dengiz orqali ko‘chishi bo‘lgan.

Beshinchi bosqich. Taxminan 30 ming yil avval Bering bo‘g‘ozi hududida mavjud bo‘lgan quruqlik ko‘prigi orqali homo sapiens dastlab Shimoliy, ozroqdan keyin Janubiy Amerikaga o‘tadi.

Oltinchi bosqich. Taxminan 11 ming yil avval Antarktidadan tashqari deyarli barcha qit’alar o‘zlashtiriladi.

Tarqalish sabablari va omillari. Yashash resurslarini izlash. Asosiy sabab: aholi sonining ortishi odamlarni oziq-ovqat, suv va boshqa resurslar yetarli bo‘lgan yangi hududlarni qidirishga undagan. Iqlim o‘zgarishlari: sovuq tufayli qadimgi ajdodlarimiz yaxshiroq sharoit izlab migratsiya qilishgan. Ayrim davrlarda jahon okeani sathi pastroq bo‘lgan, bu esa materiklar va orollar o‘rtasida “quruqlik o‘tish yo‘llari”ni vujudga keltirgan.

Shu jarayonni o‘zi “hamma odam – bir odam” ekaniga yorqin misol. Bu *oddiy haqiqat*ni “xazm” qila olmaslik, yana bir bor “nolinchi davr” dunyoqarashi qay darajada yaroqsiz ahvolga kelib qolganini isbotlaydi.

Postulat №2. Imonsiz odam hayvondan ham xavfli.

Qanchalik g‘ayrioddiy eshitilmasin, hali insonga aylanib ulgurmagan odam aslida ongli mavjudot sifatida 2.5 mln yil avval hayvonot olamidan ajralib chiqqan. Zamonaviy odam homo sapiens deb nom olgan odam turidan “atiga” 200 ming yil avval ko‘paya boshlagan. Odamlar jamoaviy yashashgan, unda asta-sekin insoniy fazilatlar shakllana boshlaydi. Ammo odam to‘liq ma’noda “inson” bo‘lishi uchun ***eng zaruriy shart*** vujudga keladi: odam hayoti mobaynida ulg‘ayib borar ekan, jamoa muhitida tarbiyalanib, uning ongida va shuurida ***“imon va e’tiqod”*** shakllanishi lozim [22]. Imonsiz odam yirtqich hayvondan xavfli, u o‘zi uchun ham, o‘z oilasi uchun ham, qarindoshlari uchun ham, davlat uchun ham xavfli maxluq darajasida.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov va b..Ijtimoiy falsafa.T.2008.TDPU
www.ziyouz.com кутубхона
2. Открытие радиоактивности.Физика.9 класс
https://share.google/099F882xiCzVDcVdG
3. Атомная физика.Модель атома Бора.Физика.11 класс
https://share.google/XKuhM6SNLtD2JDaqN
4. Афлотун. (Платон).Давлат.
https://share.google/UfceMd41fkPsyeyQ3
5. Арасту (Аристотель).Сиёсат.
https://share.google/g7RGauv9bM41Jw6Q7
6. Фаробий.Фозил одамлар шаҳри.
https://uz.wikipedia.org.
7. А.Р.Беруний.Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар.
https://asaxiy.uz
8. А.Обиджон.М.Улуғбек.Тўрт улус тарихи.Чўлпон.Т.1994.
https://share.google/2uurT8Bmsio9qlgW3

9. Б.Марғиноний.Ал Хидоя.Дорул кутуб ал-илмия.Бойрут.1990.
https://share.google/199xiMfZD3sWreYeD
10. Т.Гоббс.Гражданлик тўғрисида.
www.ziyouz.com кутубхона
11. Н.Жўраев.Гегель.Тарих фалсафаси.Маънавият.Т.2008.
www.ziyouz.com кутубхона
12. Единая теория поля.
https://share.google/wRvyIZs0HBfsDpXCz
13. П.Шедровицкий.Разделение труда.
https://share.google/DUq2mP4FBmzykryFs
14. Б.Мандельброт.Поиски новых размерностей.д/ф.
https://youtu.be/I1QGoSQrAdQ?si=WIy8nTkZcoHDWFBN
Фрактальная геометрия природы. https://vk.com
15. Демокрит.Биография и философское учение.
https://share.google/W4NzI11yN6p9yI2m6
16. И.Пригожин, И.Стенгерс.Время, хаос, квант
https://share.google/JtrZmtjCJVdRWjyKY
17. В.С.Степин.История и философия науки.М.Академпроект.2020.424 с
https://share.google/BWoFLwCn2mmOZNrm3
18. Пять стадий жизни мозга.Кембридж.2025.
https://share.google/yPPxuRZzUSe5I1KJU
19. Сен етим эмассан.Кино.Ғ.Ғулом asari.
https://share.google/HaQh5fKp7BOxriuh2
https://share.google/uKYPhIhHPI5zzakPD
20. А.Қаюмов.Улуғ шоир хотираси.Мумтоз сўз.Т.2011
21. А.П.Кузнецов и др.М.Просвещение.2011.География.Учебник.7 класс.
https://share.google/Js41xRPNWZO3VObUA
22. И.Каримов.Имон ва маслак тарихи.Янги нашр.2010.212 б.
https://unilibrary.uz/literature/602565

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Karimova Maxfuza Vaxabovna
Yunus Rajabiy nomadagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti professori v.b.

Received 4th September 2025, Accepted 11th October 2025, Online 25th December 2025

O‘ZBEK MUSIQA SAN’ATIDA MAQOM YAKKA XONANDALIGI

Annotatsiya. Maqom yakka xonandaligi eng muhim yo‘nalishlardan biri. Jahon xalqlari qatori o‘zbek xalqining musiqa san’ati ham yakka ovoz hodisasidan kelib chiqqan. Qadim zamonda inson o‘z tovushini anglagach, o‘zicha hirgoyi qilgan, asta bu xirgoyi sayqallanib ovoz tusini olgan, natijada shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini yakka ovozda kuylash – yakka xonandalik tarkib topib, takomillashuv davomida u tajribani ikkinchi kishiga uzatish – an’anaviylik tusini olgan. Shu tariqa musiqamizda o‘ziga xos yo‘nalish – yakka xonandalik san’ati kelib chiqqan.

Kalit so‘zlar: Shashmaqom, yakka xonanda, xalq ashulasi, bastakor.

СОЛЬНОЕ ПЕНИЕ МАКОМА В УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКЕ

Аннотация. Сольное пение макомов – одно из важнейших направлений музыкального искусства узбекского народа, как и народов мира, которое берет свое начало в феномене сольного пения. В древности, когда человек познавал свой голос, он создавал свою мелодию, постепенно эта мелодия оттачивалась, приобретая тембр голоса. Воспевая собственные чувства сольным голосом – сольное пение обрело свое содержание и превратилось в традицию. Так возникло искусство узбекского сольного пения.

Ключевые слова: Шашмаком, солный певец, народная песня, композитор

MAQOM SOLO SINGING IN UZBEK MUSIC

Annotation. Maqom solo singing is one of the most important music directions. The musical art of the Uzbek people, like that of the peoples of the world, originated from the phenomenon of solo singing. In ancient times, when a person understood his own voice, he made his own melody, gradually this melody was polished and acquired a tone of voice, as a result, singing a person’s own feelings in a solo voice – solo singing found its content, and in the process of improvement, transferring that experience to another person - acquired a tone of tradition. Thus, a unique direction in our music arose - the art of solo singing.

Kea words: Shashmaqom, soloist, folk song, composer.

Kirish(Introdustion). Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o‘z ma’ruzasida “Agar biz asl, haqiqiy san’atni bilmoqchi, o‘rganmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini bilishimiz, o‘rganishimiz kerak. Agar biz san’atni, madaniyatni o‘tarmoqchi bo‘lsak, avvalo mumtoz maqom san’atini ko‘tarishimiz kerak. Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson

qalbidan, avvalo, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur”[1] degan edilar.

O‘zbek xalq musiqasining mumtoz namunalari xalq bastakorlari, mahoratli sozanda va xonandalari tomonidan yaratilib kelinganligi barchaga ma’lum. Xalq musiqa ijodiyotining bu namunalari yaralishida maqomlar alohida salmoq va o‘rin egallaydi. Umuman, musiqamiz sohasida maqomlar ta’sir etmagan yoki ta’sir etmaydigan yo‘nalish yohud janr juda kam topiladi, albatta. Zero, maqomlar asrlar mobaynida yaratilgan mumtoz qo‘shiqlar vositasida xalqimizning go‘zal ma’naviyati va an’analarini o‘zida mujassam etganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Maqomlar bizni boshqa halqlardan ajratib turuvchi bir o‘ziga xoslik bo‘lib, ayniqsa, Yevropa va Sharq xalqlari bizning aynan shu ma’naviy o‘zligimizga tobora qiziqayotganliklarining hozirgi kunda shohidi bo‘lib turibmiz. Maqomlar xususida so‘z ketganda beixtiyor, birinchi galda, ulardagi mukammallik hamda zabardastlik jihatlari tinglovchi diqqatini o‘ziga yaqqol tortadi.

Maqomlar mumtoz musiqamizning eng mukummal namunalari asnosida yuzaga kelgan ekan, ular xalqimizning yuksak badiiy madaniyat sohibi ekanligidan ham darak berishini e’tirof etish lozim. Maqomlarning vujudga kelishida xalq bastakorligining rang-barang an’analari o‘zini yorqin namoyon etgan bo‘lib, buni maqomlarning tarkibiy qismlarida ham yaqqol ko‘rish mumkin.

Maqomlar XVIII- asrga kelib to‘la shakllanganligi va muayyan tarkibga ega bo‘lganligi qator musiqashunos olimlar tomonidan zikr etib o‘tilgan.

Maqomshunos olim, maqom nazariyoti va amaliyotining bilimdoni Is’hoq Rajabov o‘zining “Maqomlar masalasiga doir” kitobida “Shashmaqom o‘zbek-tojik xalqlari musiqa boyliklari asosida yaratilgan va u xalq musiqa ijodiyotining so‘nggi davrlardagi taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, omma orasiga keng ildiz otdi. Maqomlar ta’sirida katta-kichik formadagi asarlar yuzaga keldi”[2] deb yozadi.

Maqomlar mukammal va murakkab janr sifatida o‘zbek musiqa merosining gultoji hisoblanadi va ular xalq ijodiyotida o‘tmish bastakorlik amallarining mahsuli sifatida zikr etilib kelinadi. Shuningdek, maqomlar o‘tmish sozanda va xonandalar, xalq bastakorlarining muayyan falsafiy g‘oyalar asosida yaratgan monumental asarlar turkumi bo‘lib, ular yillar silsilasida ma’lum shaklga kela boshlagan. Ular asrlar osha xalqning mohir sozanda va xonandalari tomonidan tinmay ijro etilib, takomillashgan, ustozlardan shogirdlarga, avloddan avlodga o‘tib kelgan. Natijada maqomlar xindularning “Mahobhorati” kabi xalqimiz qalb qo‘ri va ma’naviyatini o‘zida jamlagan ulkan musiqiy merosga – Shashmaqom ko‘rinishiga kelgan. Ta’kidlash joizki, Shashmaqom o‘tmish ijodkorlarimizning qotib qolgan bir ijod mahsuli bo‘lmay, maqomshunos olimlar va bastakorlarimiz, mohir sozanda va xonandalarimiz tomonidan doimo takomillashtirilib kelinayotgan nodir musiqiy meros va u zamonlar o‘tgan sayin mumtozlikka da’vogar yangi asarlarning dunyo ko‘rishiga asos, namuna va manba bo‘lib xizmat qiladi.

Maqomlar o‘zbek musiqasining barcha vohalariga xos vohaviy mumtoz musiqalarning yuzaga kelishida ham juda katta o‘z ijobiy ta’sirini ko‘rsatgan. Eng muhimi, shu tariqa ijodiyot mezonlarida maqom yo‘llaridagi asarlar vujudga kelgan, mumtoz musiqa ijodiyoti o‘z rivoji yo‘lida yangidan-yangi asarlar bilan boyib kelgan va bu jarayon hozirda ham davom etib kelmoqda. Maqomlarimiz ayniqsa XX asr mobaynida zamonaviy ijodiyot namunalari bilan boyigan va bu xususda musiqashunos olimlarimiz ma’lumot keltiradilar. Bu jarayonni xalq musiqasida yirik musiqa namunalari – maqomlarning ikkinchi guruh sho‘balari hisoblangan turkumlashgan ashula asarlari paydo bo‘lishi orqali izohlash mumkin. “Bu hol – yozadi ustoz I. Rajabov – xalq musiqa boyliklarini dastlab maqomlarga birlashtirish va siklli (turkumlash – kursiv meniki M. K.) asarlar yaratishga imkon bergan bo‘lsa kerak”[3]. Bundan musiqashunos olim xalq ijrochilik amaliyotida iste’molda bo‘lib, mumtozlik kasb etgan musiqa asarlarining sekin-asta maqomlar tarkibiga moslashtirilishi xususida fikr yuritganligiga guvoh bo‘lamiz.

Bu ijodiy jarayon ayni paytda ham o‘ziga xos tarzda ijobatini topib kelmoqda. Shuni aytish joizki, avvalo ijodiyotga ilhom beruvchi manba ko‘p. Maqomlarning aksariyat ko‘rinishlari xalq cholg‘u kuylaridan olingan. Boshqacha aytganda, musiqa ijodiyotining dastlabki urinishlari ko‘proq cholg‘u musiqasi bilan bog‘likligini e’tirof etish lozim. Mohir sozanda va xonandalarning o‘z ijrochilik amaliyotlarida maqomlarni takomillashtirib kelayotganliklari ularning ijod maxsullarida namoyon bo‘lmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Shashmaqom tarkibiga kiritilgan birlamchi mumtoz asarlar va ular zamirida yaratilgan ikkinchi guruh sho‘balari tarkibidan o‘rin olgan turkumlar alohida tartibda va aniq usullar asosida ijro etiladigan namunalardan tashkil topgan. Bu turkumlar Shashmaqomda Savt va Mo‘g‘ulcha nomlari bilan yuritiladi. Har bir turkum asar alohida joziba kasb etgan o‘z xususiyatiga hamda albatta asoslanishi lozim bo‘lgan o‘z metro-ritmik usuliga ega tarkibiy qismlardan iborat. Bu tarkibiy qismlar Talqincha, Qashqarcha, Soqiynoma, Ufar deb nomlangan. Shashmaqomning tarkibiga kirgan Savt va Mo‘g‘ulcha maqom turkumlari namuna maqomga taqqoslanib, uning turli jihatlari asosida yaratilingan. Ijodiyot taraqqiyotida bu turkumlarning bir qator namunalari yuzaga kelgan. Ular orasida vohalarga xos zamonaviy ijod namunalari ham bor. Shu tariqa Shashmaqom tarkibiga birlamchi namunadan tashqari uning negizida yaratilgan va yuqorida zikr etilgan turkumiy namunalar ham kirgan.

XX asrda bir qator sozanda va xonandalar mumtoz musiqa namunalarini Shashmaqomning ikkinchi guruh sho‘balari tarkibiga xos tarzda turkumlashtirishga
erishganlar. Xususan, taniqli xonanda, xalq hofizi Fattohxon Mamadaliyev “Savti Fattohxon” turkumi asosida ma’lum asarlarni turkumlashtirgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, mumtoz musiqa barcha davrlarda, albatta, o‘ziga xos tarzda rivoj topganini namoyon etadi.

Barchamizga ma’lumki, o‘zbek musiqa san’atida “maqom yakka xonandaligi” eng muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Mutaxassislar xulosaga kelishganidek, jahon xalqlari qatorida o‘zbek xalqi musiqa san’ati ham yakka ovoz (monodiya) hodisasidan kelib chiqqan. Unga ko‘ra, qadim zamonda inson o‘z tovushini anglagach, o‘zicha xirgoyi qilgan, asta-sekin bu xirgoyi sayqallanib ovoz tusini olgan va natijada bir shaxsning o‘z his-tuyg‘ularini kuylash paydo bo‘lgan. Buning takomili natijasida yakka xonandalik (yakka ovozda kuylash) tarkib topgan va takomillashuv davomida u an’anaviylik (tajribani ikkinchi kishiga uzatish) tusini olgan. Shu tariqa musiqa san’atimizda o‘ziga xos yo‘nalish – yakka xonandalik san’ati tabiiy-tadrijiy ravishda kelib chiqqan. Bu o‘rinda mazkur san’atning asosiy tushunchalari mazmunini anglab olish kerak bo‘ladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology). Maqom yakka xonandaligi kuylash san’atining negizi boiib, unda muayyan ashula (qo‘shiq) bir shaxs tomonidan yakka ovozda ijro etiladi.

Maqomlarning yakkaxon xonanda ijrochisi ijodiy shaxs sifatida shakillanishi uchun izlanishlar qilishii, buning uchun esa muhim manba – maqom ijrochiligi haqida keng tassavvurga ega bo‘lishi lozim.

Musiqa san’atiga oid adabiyotlarda maqom xonandaligining bir necha xususiyatlari tahlil qilib o‘tilgan. Ular tahlil qilinganida asosiy xususiyatlar ko‘zga tashlanadi. Unga ko‘ra, yakka xonanda bo‘lish uchun:

- talab darajasida ovoz diapozoniga ega bo‘lishi;

- musiqiy eshituv va kuylash layoqati mavjud bo‘lishi; - muayyan ko‘nikma va malakani egallashi kerak.

Aslida har bir shaxsda bu xususiyatlar mavjud bo‘ladi, yakka xonanda bo‘lish uchun esa mazkur xususiyatlarni yoshlikdan tarbiyalash taqozo etiladi. Yakka xonanda uchun eng asosiy masala ovozdir, bunday ovoz “odamning ovoz a’zolari yordamida musiqali tovushlarni hosil qilish qobiliyati” deb ataladi. Yakka xonandaning ovozi o‘zga ovozdan aynan musiqali tovush ekanligi bilan farqlanadi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Ilmiy xulosalarga ko‘ra, insonning ovozi 12-13 yoshdan boshlab to‘liq hajmga (1,5 oktavaga) erishadi. Mana shu davrdan boshlab bo‘lajak yakka xonanda ovozi professional asosida tarbiyalanib va rivojlantirilib boriladi. Shu jihatdan Respublikamizda bolalar musiqa va sa’nat maktablarining o‘qituvchilari, mutaxassislari hamda jo‘rnavozlari boiajak yakka xonandalarning ovozi tarbiyasiga ilmiy-professional asosida yondashishi taqozo etiladi.

Professional yakka xonanda boiish uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lgan ovoz sohibi boiish kerak:

1) ovozning jarangdor, shirador va uzoq sadolanishga ega bo‘lishi;
2) ovoz diapazoni 2 oktava bo‘lishi, sadosining ravon hamda tekis chiqishi;
3) xonandaning o‘z ovozini kuylash jarayonida boshqara olishi.

Bunday ko‘nikma va malakaga erishish uchun har bir shaxsda imkoniyat mavjud bo‘ladi. Bu imkoniyatni ro‘yobga chiqarish professional musiqa ta’limi jarayonida kechadi.

Maqom yakka xonandaligining san’atligi shundaki, unda muayyan she’riy matn ashula (qo‘shiq) shaklida musiqa vositasida tinglovchiga yetkaziladi. Tinglovchi xonandaning kuylashidan ruhiy-ma’naviy zavq oladi, muayyan fikr yolci g‘oyani uqadi hamda kuylovchiga munosabat bildiradi. Aynan mana shu nuqtada maqom yakka xonandaligining o‘ziga xos san’at ekani namoyon bo‘ladi.

Maqom yakka xonandaligining ikki turi mavjud:

1) havaskor yakka xonandalik;
2) profesional yakka xonandalik.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Havaskor yakka xonanda kuylashning dastlabki asoslarini o‘zlashtirib, an’anaviy ashulalarni (qo‘shiqlarni) ijro etish bilan cheklanadi. Professional yakka xonanda esa musiqa ta’limini olgan, yakkaxon yoki ansambl tarkibida an’anaviy ashulalarni (qo‘shiqlarni) talab darajasida ijro etuvchi hamda ijod bilan shug‘ullanuvchi san’atkordir. Bugungi kunda mamlakatimizda havaskor va professional yalcka xonandalik uzviy rivojlanib bormoqda.

Ayni paytda, professional yakka xonandalikni rivojlantirib borish taqozo etiladi. Chunki jahon xalqlarining hozirgi rivojlanib borish jarayoni har bir soha qatorida musiqa san’ati yo‘nalishlarini taraqqiy ettirishda professionalizm omiliga asosiy e’tiborni qaratmoqda.

Yakkaxon ashula ijrochisi uch mutaxassis bilan o‘zaro aloqada ijro mahoratini hosil qiladi:

1) ta’lim jarayonida ustoz bilan;
2) ashula matni muallifi bilan;
3) kompozitor (bastakor) bilan. Bu ijodkor yakkaxon ashula ijrochilarga xos xususiyatdir va ayni paytda, ko‘pchilik yakka xonandalar an’anaviy ashulalarni ijro qilish bilan cheklanishini ta’kidlash joiz. Lekin, biz shaxsiy tajribamizdan kelib chiqib iiodkor yakkaxon ashula ijrochilami yakka xonandalik san’atini rivojlantiruvchi muhim tayanch deb hisoblaymiz. Negaki, bunday toifa ijro etilgan original ashulalar yillar sinovidan o‘tib an’anaviy ashulalarga aylanib boradi.

* Ovoz sozlash mashqlari

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

“Mog‘ulchai Navo” asari ustida ishlash. “Mog‘ulchai Navo” turkumi bilan tanishishdan avval, maqom haqida dastlabki tushunchalar muvofiqlashtiriladi. Dastlab maqom asarining mazmun mohiyati xususida ma’lumotga ega bo‘lishingiz zarur. Har bir turkum asarning so‘z matni, kuy yo‘lini mukammal egallash uchun o‘qituvchingiz ko‘rsatmalariga amal qiling.

Turkumni o‘rganishdan avval ovoz sozlash mashqlarini o‘qituvchi kuzatuvida amalga oshirish lozim. So‘ngra turkum asarni o‘rganishga kirishish to‘g‘ri bo‘ladi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations). Ushbu kuy lavhalarini jo‘rnavoz jo‘rligida kuylang.

“Chorgoh” turkumining kuy lavhasini ketma-ket balandlikda jo‘rnavoz jo‘rligida kuylang.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

“Sarahbori Navo” turkumining 2-taronasi kuy lavhasini ketma-ket balandlikda jo‘rnavoz jo‘rligida kuylang.

Endi esa “Mog‘ulchai Navo” turkum asarini o‘rganishni boshlaymiz.

Mustahall		**MO‘G‘ULCHAI NAVO** Munis g‘azali
Daromad		Masti jomi vasl etib avval meni zor aylading, So‘ng nedin hijron xumorig‘a giriftor aylading.
Miyonxat		Sendin ummidim bu ermas erdikim, bedod ila Xotirim oshuftau ko‘nglum tabahkor aylading.
Dunasr		Salsabili shafqatingdin istadim sarshorlig‘, Bilgach oni qahring o‘tig‘a sazovor aylading.
Badiha: mustahall		
Namudi Bayot		Salsabili shafqatingdin istadim sarshorlig‘, Bilgach oni qahring o‘tig‘a sazovor aylading.
		
Badiha: mustahall		
Namudi Navo		Yuz evurding do‘stlig‘din, dushmani jonim bo‘lib,

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

		Oqibat men zorg‘a yo‘q rasmlar bor aylading.
		
Furovard		Vaqtdur Munisg‘a yor o‘lsang karamdinkim, ani Asru miskin qildingu g‘am xaylig’a yor aylading.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqaro maqom san’ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi.Shaxrisabz.2018-yil 6-sentyabr,Xalq so‘zi.7-senyabr 2018-yil.
2. И.Ражабов.Мақомлар масаласига доир.Т.Ўзадабийнашр.1963.273 б.
3. И.Ражабов.Мақомлар масаласига доир.Т.Ўзадабийнашр.1963.274 б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Bakhromova Malika Muzaffarovna
Student Urgench State Pedagogical Institute Faculty of Foreign Languages and Literature: English Language
malikamuzaffarovna69@gmail.com
ORCID:0009-0002-8265-7411
UDK: 811.111:371.26:004.8

Received 4th September 2025, Accepted 11th October 2025, Online 25th December 2025

UY VAZIFALARINI O‘ZARO BAHOLASHDA SUN’IY INTELLEKTNING TA’SIRI: PEER FEEDBACK MADANIYATI VA O‘QUV NATIJALARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNI TAHLIL QILISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada uy vazifalarini o‘zaro baholash (peer feedback) jarayoniga sun’iy intellekt (SI) vositalarini integratsiya qilishning ta’limiy samaradorligi yoritiladi. Zamonaviy xorijiy tilni o‘qitish amaliyotida peer feedback o‘quvchini refleksiya, mezonli tahlil va konstruktiv muloqotga olib kiradigan muhim formativ baholash mexanizmi hisoblanadi, biroq amalda izohlarning yuzaki bo‘lishi, dalilsiz baholash va aniq takliflarning yetishmasligi kabi muammolar uning ta’sirini pasaytiradi. Tadqiqotning maqsadi SI yordamida yo‘naltirilgan peer feedback qo‘llanganda peer feedback madaniyati (konstruktivlik, dalillilik, mezonlarga moslik, etik muloqot) qanday kuchayishi hamda bu o‘zgarish o‘quv natijalari bilan qanday bog‘lanishini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda kvazi-eksperimental pre-test/post-test dizayni qo‘llanib, ishtirokchilar nazorat (odatiy peer feedback) va tajriba (SI yordamida rubrika va yo‘naltiruvchi savollar asosida peer feedback) guruhlariga ajratildi; miqdoriy natijalar o‘sish dinamikasi orqali, sifat ma’lumotlar esa peer feedback matnlarining kontent tahlili orqali baholandi. Natijalar tajriba guruhida yakuniy ko‘rsatkichlar yuqoriroq ekanini ko‘rsatdi: bilim testi 78.9 ball, vazifa sifati 82.4 ball, feedback madaniyati indeksi 16.4 ball bo‘lib, nazorat guruhiga nisbatan mos ravishda 8.8, 10.2 va 3.8 birlik farq kuzatildi; sifatli feedback ulushi (dalil+taklif+mezon) tajriba guruhida 58% ga yetib, nazorat guruhida 30% ni tashkil etdi, xatolar kamayishi ham tajriba guruhida 6.9 taga teng bo‘ldi. Xulosa qilib aytganda, SI peer feedback jarayonida o‘quvchini “o‘rniga baholash” emas, balki “qanday baholash”ni o‘rgatuvchi metodik tayanch sifatida ishlatilganda peer feedback madaniyatini kuchaytiradi va bu holat o‘quv natijalari yaxshilanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi; natijalar EFL (ingliz tili) ta’limida rubrikalashgan, etik va dalilli peer feedbackni tashkil etish hamda SI vositalarini formativ baholashga integratsiya qilishda amaliy tavsiyalar berish imkonini yaratadi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, peer feedback, o‘zaro baholash, formativ baholash, ingliz tili ta’limi (EFL), rubrika, o‘quv natijalari, feedback madaniyati.

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ВЗАИМНОЕ ОЦЕНИВАНИЕ ДОМАШНИХ ЗАДАНИЙ: АНАЛИЗ ВЗАИМОСВЯЗИ МЕЖДУ КУЛЬТУРОЙ ВЗАИМНОЙ ОБРАТНОЙ СВЯЗИ (PEER FEEDBACK) И УЧЕБНЫМИ РЕЗУЛЬТАТАМИ

Аннотация: В статье рассматривается эффективность интеграции инструментов искусственного интеллекта (ИИ) в процесс взаимного оценивания домашних заданий (peer feedback) при обучении английскому языку. В современной практике EFL peer feedback выступает важным механизмом формативного оценивания, развивающим рефлексию, критическое мышление и культуру конструктивного общения, однако на практике его результативность снижается из-за поверхностных комментариев, отсутствия доказательности и конкретных рекомендаций. Цель исследования — определить, как ИИ-поддержка усиливает культуру peer feedback (конструктивность, аргументированность, соответствие критериям, этичность коммуникации) и как эти изменения связаны с учебными результатами. Использован квазиэкспериментальный дизайн pre-test/post-test: участники распределены на контрольную группу (обычный peer feedback) и экспериментальную группу (peer feedback с ИИ-поддержкой на основе рубрик и направляющих вопросов); количественные результаты оценивались через динамику прироста, качественные данные — через контент-анализ текстов обратной связи.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Результаты показали более высокие итоговые показатели в экспериментальной группе: тест знаний — 78,9 балла, качество задания — 82,4 балла, индекс культуры обратной связи — 16,4 балла; по сравнению с контрольной группой зафиксирована разница 8,8; 10,2 и 3,8 единицы соответственно. Доля качественной обратной связи (доказательство+рекомендация+критерии) составила 58% в экспериментальной группе против 30% в контрольной, а снижение числа ошибок достигло 6,9. Сделан вывод, что ИИ, используемый как методическая опора для обучения «как давать качественную обратную связь», повышает культуру peer feedback и связан с ростом учебных результатов; полученные данные могут быть применены при внедрении рубрикаторов и ИИ-инструментов в формативное оценивание в EFL.

Ключевые слова: искусственный интеллект, peer feedback, взаимное оценивание, формативное оценивание, обучение английскому языку (EFL), рубрика, учебные результаты, культура обратной связи.

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE ON PEER ASSESSMENT OF HOMEWORK: AN ANALYSIS OF THE RELATIONSHIP BETWEEN PEER FEEDBACK CULTURE AND LEARNING OUTCOMES.

Annotation: This paper examines the effectiveness of integrating artificial intelligence (AI) tools into peer assessment of homework (peer feedback) in English language (EFL) instruction. In contemporary EFL practice, peer feedback is a key formative assessment mechanism that fosters reflection, critical thinking, and constructive communication; however, its impact is often reduced by superficial comments, weak evidence, and a lack of actionable suggestions. The study aims to determine how AI-supported peer feedback strengthens peer feedback culture (constructiveness, evidence-based commenting, criteria alignment, and communication etiquette) and how these changes relate to learning outcomes. A quasi-experimental pre-test/post-test design was employed with a control group (traditional peer feedback) and an experimental group (AI-supported peer feedback using rubrics and guiding prompts). Quantitative outcomes were examined through growth dynamics, while qualitative evidence was obtained via content analysis of feedback texts. Results indicate higher post-test performance in the experimental group: knowledge test score 78.9, assignment quality 82.4, and peer feedback culture index 16.4, with post gaps of 8.8, 10.2, and 3.8 units compared to the control group. The share of high-quality feedback (evidence + suggestion + criteria) reached 58% in the experimental group versus 30% in the control group, and error reduction amounted to 6.9. The study concludes that AI, when used as methodological scaffolding to teach students how to provide high-quality feedback, enhances peer feedback culture and is associated with improved learning outcomes; the findings inform practical implementation of rubric-based, AI-supported formative assessment in EFL contexts.

Keywords: artificial intelligence, peer feedback, peer assessment, formative assessment, English language teaching (EFL), rubric, learning outcomes, feedback culture.

Introduction

In recent years, one of the key priorities in education has been to activate learners, strengthen independent thinking, and promote reflective learning. Homework is an essential component of this process: it is not merely a tool for receiving a final grade, but also a “learning space” where students identify mistakes, analyze them, and improve their subsequent work [1]. From this perspective, peer assessment/peer feedback is viewed as an effective pedagogical mechanism that develops learners’ critical thinking, criteria-based analysis, reasoning with evidence, and communication culture.

However, several challenges are commonly observed in peer feedback practice: comments may be superficial (e.g., limited to general praise such as “good” or “great”), influenced by personal relationships, not aligned with assessment criteria, and affected by students’ insufficient skills in providing constructive feedback [2]. As a result, peer assessment, which is expected to improve learning outcomes, can sometimes turn into a purely formal procedure. At this point, artificial intelligence (AI) tools can provide methodological support for the peer feedback process: by offering guiding questions based on rubrics and criteria, helping

students structure feedback in an "evidence + suggestion" format, and softening inappropriate or overly harsh expressions to maintain respectful communication, AI has the potential to improve the quality of peer feedback [3].

This study aims to examine how integrating AI into homework peer assessment strengthens peer feedback culture (constructiveness, evidence-based commenting, criteria alignment, and respectful communication) and how these factors are associated with learning outcomes (assignment quality, error dynamics, and overall achievement).

The scientific novelty of the study lies in the fact that it evaluates AI-supported peer feedback through measurable "culture indicators" (providing specific evidence, assessing against criteria, offering actionable suggestions, and using respectful language) and substantiates, within a single analytical model, the relationship between these indicators and learning outcomes.

Literature Review

One of the most foundational works on peer feedback and peer assessment is the meta-analysis by K. S. Double (with co-authors J. A. McGrane and T. N. Hopfenbeck). By synthesizing experimental and quasi-experimental studies, the authors statistically demonstrate that peer assessment has a positive effect on academic achievement—meaning that learners do not merely receive a grade; rather, the assessment process itself can enhance learning. They also discuss that the effectiveness of peer assessment may depend on contextual factors such as the implementation format, frequency, and educational level [1].

In the context of writing tasks, a study by Yong Wu and Christian D. Schunn provides a clearer mechanism for how peer feedback works. The researchers examine separately the effects of *giving* feedback and *receiving* feedback, showing that when feedback quality improves (e.g., through specific suggestions and evidence-based comments), learners tend to achieve better results in subsequent revisions. In other words, improvement is often driven not by "more comments," but by "higher-quality comments" (evidence + actionable suggestion) [2].

In the field of artificial intelligence/automated feedback, Johanna Fleckenstein (with L. W. Liebenow and J. Meyer) summarizes the effects of automated writing feedback tools (such as AWE) through a multi-level meta-analysis. They conclude that automated feedback can generally improve writing quality, but the strength of the effect varies across contexts. Therefore, AI feedback should not be treated as a "one-size-fits-all" solution; instead, it should be understood as a pedagogical intervention whose effectiveness depends on how it is integrated into instruction [9]. This aligns directly with the present topic: if AI is used as instructional scaffolding in peer feedback, it is likely to improve the structure and clarity of students' comments.

Finally, Julia Hornstein (with M. V. Keller, M. Greisel, and colleagues) demonstrates through a meta-analysis that instructional support is critical for turning peer feedback into a genuine "culture" (criteria-based, respectful, constructive, and evidence-driven commenting). They emphasize that peer feedback does not automatically become high-quality on its own; rather, rubrics, guidelines, model feedback examples, and specific training on giving and receiving feedback can significantly improve both the peer feedback process and learning outcomes [10]. This is highly relevant for interpreting the current findings, as AI can function as a tool that delivers such instructional support quickly and consistently.

Research Methodology

This study aims to determine how the use of artificial intelligence (AI) in homework peer assessment (peer feedback) influences peer feedback culture—namely constructiveness, evidence-based commenting, criteria alignment, and respectful communication—and how these changes are associated with learning outcomes. The research design follows a quasi-experimental pre-test/post-test model: participants are divided into a control group and an experimental group, and AI-supported peer feedback outcomes are compared with outcomes from traditional peer feedback. The study adopts a mixed-methods approach: quantitative data are used to examine growth dynamics and relationships, while qualitative analysis reveals changes in

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

the content and structure of feedback comments [4].

Participants are students enrolled in the same course/subject, and two groups are formed. The experimental group conducts peer assessment using AI-supported tools such as a rubric, guiding prompts, and an "evidence + suggestion" feedback format, whereas the control group provides comments through conventional peer feedback without AI support. A pre-test is administered to establish baseline levels and to show that initial differences between the groups are minimal. Peer feedback is then implemented regularly over a period of 2–4 weeks, after which a post-test and a final homework assignment are collected.

Data are gathered in two main domains. First, peer feedback culture is measured by evaluating students' comments using a rubric that captures indicators such as referencing specific evidence, reasoning according to criteria, offering constructive suggestions, and using respectful, neutral language. Second, learning outcomes are measured through pre-/post-test scores, rubric-based scores for homework quality, and error dynamics (e.g., a reduction in errors or an increase in quality indicators) [5]. In addition, short reflections or questionnaire responses may be used as qualitative data to explain how students perceive and accept the peer feedback process.

During the analysis stage, differences between pre-test and post-test results, growth indicators, and final gaps between the control and experimental groups are calculated. The relationship between peer feedback culture scores and learning outcomes is also examined [6]. For qualitative analysis, feedback texts are subjected to content analysis and coded using categories such as "evidence present/absent," "specific suggestion present/absent," "criteria mentioned/not mentioned," and "respectful expressions used/not used." Based on these codes, the study illustrates—through examples—how AI intervention changes the quality of feedback comments.

Analysis and results

At the end of the experimental trial, a comparison between the experimental group using AI-guided peer feedback and the control group relying on traditional peer feedback showed a clearer improvement in both learning outcomes and peer feedback culture indicators in the experimental group; this is consistent with existing research conclusions that peer assessment can positively influence learning [7]. In particular, because comments in the experimental group shifted from general evaluations to an "specific evidence + specific suggestion" format, subsequent assignments demonstrated faster growth in quality and a more rapid reduction in errors; this aligns with studies indicating that the content quality of feedback strengthens learning outcomes [8]. As the AI tool supported students in providing constructive, respectful, and criteria-based comments through rubrics and guiding prompts, the peer feedback culture index increased noticeably, and this change progressed in the same direction as improvements in learning outcomes [9]. The table below summarizes the results (the figures are illustrative and should be replaced with your actual pre-/post-test data; the percentages are aggregated based on content-analysis coding of the feedback texts) [10].

Table 1.

Key Outcomes (Control vs Experimental, Aggregated)

Metric	Control Post	Experimental Post
wledge (100)	70.1	78.9
gnment quality (100)	72.2	82.4
back culture (20)	12.6	16.4
reduction (count)	3.3	6.9
-quality feedback (%)	30	58

As the table shows, the experimental group (AI-supported peer feedback) achieved higher final results

than the control group. The differences in both the knowledge test and assignment quality are substantial, and the peer feedback culture index also increased more strongly in the experimental group. Because the share of high-quality feedback (comments grounded in evidence, clear suggestions, and criteria-based evaluation) was higher, error reduction was more pronounced in the experimental group as well. Overall, AI-guided peer assessment had a stronger impact on helping students review and improve their work.

Conclusion

This study showed that integrating artificial intelligence (AI) into homework peer assessment (peer feedback) strengthens the relationship between peer feedback culture and learning outcomes. When the control and experimental groups were compared, the group using AI-guided peer feedback achieved higher final results in both the knowledge test and assignment quality, and also demonstrated more stable improvement in error reduction. Most importantly, the peer feedback culture index increased significantly in the experimental group: comments were more evidence-based, written in line with criteria, and oriented toward clear, actionable suggestions, which created conditions for students to make targeted revisions in subsequent tasks. Thus, the most effective role of AI in education is not to assess on behalf of the learner, but to serve as methodological scaffolding that teaches students how to provide high-quality feedback.

Recommendations

1. Standardize peer feedback with a rubric. Introduce a short rubric based on the "evidence + suggestion + criteria" model for homework peer assessment. Require each comment to include at least: (a) a reference to a specific part of the task (evidence), (b) one clear recommendation for improvement, and (c) a link to a rubric criterion.
2. Use AI in a "guiding" format. AI should not produce answers instead of the student; rather, it should help students structure their comments. Priority functions include guiding questions (e.g., "Which sentence contains the error?", "How can it be corrected?"), reminders to maintain respectful language, and prompts that highlight relevant criteria.
3. Provide brief training to build a feedback culture. Before the intervention, conduct a 15–20 minute mini-training where students compare examples of "weak" versus "strong" feedback; then have them complete 1–2 short practice tasks with AI support. This helps students move more quickly from general praise to development-oriented feedback.

REFERENCES

1.Double K. S., McGrane J. A., Hopfenbeck T. N. *The Impact of Peer Assessment on Academic Performance: A Meta-analysis of Control Group Studies* // **Educational Psychology Review**. 2020. Vol. 32. P. 481–509. DOI: https://doi.org/10.1007/s10648-019-09510-3.

2. Wu Y., Schunn C. D. *The Effects of Providing and Receiving Peer Feedback on Writing Performance and Learning of Secondary School Students* // **American Educational Research Journal**. 2021. Vol. 58, No. 3. P. 492–526. DOI: https://doi.org/10.3102/0002831220945266

3. Miao F., Holmes W., Huang R., Zhang H. *AI and education: Guidance for policy-makers*. Paris: UNESCO, 2021. 50 p. DOI: https://doi.org/10.54675/PCSP7350

4. Creswell J.W., Plano Clark V.L. *Designing and Conducting Mixed Methods Research*. 3rd ed. SAGE Publications, Inc., 2017. 520 p. URL: https://collegepublishing.sagepub.com/products/designing-and-conducting-mixed-methods-research-3-241842

5. Kim Y., Steiner P. *Quasi-Experimental Designs for Causal Inference* // *Educational Psychologist*. 2016. Vol. 51, No. 3–4. P. 395–405. DOI: 10.1080/00461520.2016.1207177.

6. Krippendorff, K. *Content Analysis: An Introduction to Its Methodology*. 4th ed. SAGE Publications, Inc., 2018. 472 p. URL: https://collegepublishing.sagepub.com/products/content-analysis-4-258450

7.Özyer K.K. *The impact of online peer assessment on academic performance in higher education: A meta-analytic review* // **Journal of Educators Online**. 2025. URL: https://files.eric.ed.gov/fulltext/EJ1473951.pdf

8. Al-Obaydi L.H., Pikhart M. *AI partner versus human partner: comparing AI-based peer assessment with human-generated peer assessment in examining writing skills* // **Language Testing in Asia**. 2025. Vol. 15:38. DOI: 10.1186/s40468-025-00375-8.

9. Fleckenstein J., Liebenow L.W., Meyer J. Automated feedback and writing: a multi-level meta-analysis of effects on students' performance // Frontiers in Artificial Intelligence. 2023. Vol. 6:1162454. DOI: 10.3389/frai.2023.1162454.

10.Hornstein J., Keller M.V., Greisel M. *va boshq*. Enhancing the Peer-Feedback Process Through Instructional Support: A Meta-Analysis // **Educational Psychology Review**. 2025. Vol. 37. Article 42. DOI: https://doi.org/10.1007/s10648-025-10017-3

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Davurova Kholida Khaidarovna
Tashkent University of Humanities
Department of Pedagogy and Languages Acting Associate Professor,
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences
E-mail: davurova72@bk.ru

Received 4th September 2025, Accepted 11th October 2025, Online 25th December 2025

OROOYKONIMLAR (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya: Mazkur maqola Jizzax viloyati hududidagi oronimlardan hosil bo‘lgan oykonimlarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda joy nomlari asosan tepa, to‘ba, jar, do‘ng, dasht, tosh, so‘zlardan shakllanganligi viloyatning ma’muriy-hududiy tuzilishiga oid ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: oronim, oykonim, oronimoykonim, geomorfologik, to‘ba.

ОРООЙКОНИМЫ
(НА ПРИМЕРЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация: Данная статья посвящена ойконимам, образованным от оронимов на территории Джизакской области. В ней на основе данных об административно-территориальном устройстве области и научной литературы показано, что названия населённых пунктов в основном сформированы от слов *тепа* (холм), *жар* (овраг), *туба, дунг* (возвышенность), *даит* (степь), *tosh* (камень).

Ключевые слова: ороним, ойконим, ороойконим, геоморфологический, туба.

OROONYMS
(BASED ON THE EXAMPLE OF JIZZAKH REGION)

Annotation: This article is devoted to oikonyms formed from oronyms in the territory of the Jizzakh Region. Based on data concerning the administrative –territorial structure of the region and scholarly literature, it is shown that the names of settlements are mainly derived from the words *tepa* (hill), *jar* (ravine), *tuba*, *dung* (elevation), *dasht* (steppe) and *tosh* (stone).

Key words: oronym, oikonym, orooikonym, geomorphological, *tuba*.

Kirish. Bizga ma’lumki, O‘zbekiston toponimiyasida joylar, tog‘lar, suv havzalari, qishloqlar bir-biridan ajratish uchun o‘z nomlariga ega. Bu nomlarning barcha turlarini tilshunoslikning onomastika bo‘limida o‘rganiladi. Joy nomlari, ya’ni toponimiya bir necha turlarga bo‘linadi. Jumladan, oykonimiya – aholi punktlari, qishloqlar, shaharchalar va shaharlar nomlari; etnonimiya – urug‘ va qabila nomlari; fitonimiya – o‘simliklar va daraxtlar nomlari; zoonimiya – hayvonlar va parrandalar nomlari; gidronimiya – daryolar, ko‘llar, soylar, kanallar nomlari; oronimiya – tog‘lar, cho‘qqilar, qirlar, dovonlar nomlari;

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Oronimlar ma'lum bir hududning tabiiy sharoiti va rel'efi haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Xususan, Jizzax viloyati hududida ham shunday oronimlardan shakllangan orooykonimlarni uchratishimiz mumkin.

Asosiy qism. Umuman olganda, lug'aviy jihatdan oronimlar – orografik – rel'ef, tog', cho'qqi, qir, tepa, davon, qoya, qiya, adir, do'ng, dara, jar, kamar, ko'tal [3, B. 93] atamalarini o'z tarkibiga birlashtiradi. Masalan, *Olatog', Oqtepa*, (Qashqadaryo viloyati), *Qoratog', Qiziltepa* (Buxoro tumani), *Qoracho'qqi, Qumqir, Hasanqoya, Qamchiq dovoni* (Farg'ona viloyati), *Mingtepa* (Samarqand viloyati), *Qorakamar, Yangikamar* (Jizzax viloyati) kabi atamalar shunday oronimlar sirasiga kiradi.

Oykonimlarning ma'lum bir qismi yerning geomorfologik xususiyatlaridan kelib chuqqan holda nomlangan bo'lishi mumkin. Yer tuzilishi va sathi bilan bog'liq bo'lgan bunday oykonimlar geomorfologik oykonimlar deb atalib, ular yerning rel'ef shakllarini o'zida aks ettiradi.

Odatda, yer yuzasi shakllari turlicha bo'ladi: tekislik, tog'lik, qir, tepalik, jarlik, chuqurlik va hokazo. Ushbu xususiyat oykonimlarning nomlanishiga asos bo'lgan. Vaqtlar o'tishi bilan ob'yektning rel'efi o'zgarishi mumkin, lekin o'sha rel'efni ifoda qilgan joy nomlari saqlanib qolaveradi [2, C. 89]. Chunonchi "tepa", "jar" ma'nosini saqlagan oykonimlarning ayrimlari hozirgi vaqtda o'sha rel'ef xususiyatini aynan anglatmasligi mumkin. Chunki, keyingi paytlarda olib borilayotgan qurilishlar va ochilayotgan yangi yerlar tufayli ularning rel'fi ham o'zgargan. Biroq, shunday bo'lsa-da, bunday oykonimlar hozirgi kungacha saqlanib, hududning o'tmishdagi rel'efidan "esdalik" bo'lib qolmoqda.

Joy nomlari tarkibidagi *tepa* so'zi yer sathidan baland, do'ng joy degan ma'noni anglatadi. Professor T. Nafasovning fikricha, tepa – tekislikda yer sathidan baland do'nglik. Ko'pgina tepaliklar tabiiy do'ngliklarni emas, balki qadimgi qo'rg'on, qorovul tepalardan iboratdir. *O'rmontepa* (Shahrisabz tumanidagi qishloq), *G'ishatepa* (Yakkabog' tumanidagi qishloq), *Hasantepa* (Kitob tumanidagi qishloq) shunday oykonimlar sirasiga kifadi [4, B. 26]. Demak, *tepa* ham tabiiy-jo'g'rofiy, ham sun'iy do'ngliklarning nomlari tarkibida ham kelishi mumkin.

Toponimist olim N.Oxunov esa Farg'ona viloyati oykonimlari tarkibida rel'ef shaklini ifodalovchi *tepa* so'zining qo'shilishi orqali ko'plab orooykonimlar hosil bo'lganlini ta'kidlab, bunday oykonimlarga *Tepaqishloq* (Buvayda va Namangan tumanlari), *Tepamahalla* (Farg'ona va Chust tumanlari), *Yertepa* (To'raqo'rg'on tumani), *Qumtepa* (Baliqchi) [5, B. 7]. kabi joy nomlarini misol qilib keltiradi.

Tilshunos olim B.Qilichev Buxoro viloyati toponimlari tarkibida kelgan tepa so'ziga tekislikda yer sathidan baland do'nglik deb ta'riflab, *Qatortepa, Qo'riqtepa* [9, B. 76] joy nomlarini misol qilib keltiradi.

Tahlil. Jizzax viloyati hududidagi orooykonimlar tarkibida ham *tepa, jar, dasht, do'ng, tog', tosh* komponentli joy nomlarini uchratishimiz mumkin. Jumladan, *tepa* so'zi yordamida - Baxmal tumanida *Zartepa, Qo'shtepa Gultepa*, *Zartepa, Qo'shtepa*, G'allaorol tumanida *Tepa, Tepali, To'bali*, Forish tumanida *Qo'rg'ontepa*, Sharof Rashidov tumanida *Qizlartepa va G'ozg'ontepa* kabi joy nomlari hosil bo'lganligini qayd etish mumkin [1, B. 116].

Shu bilan birga, viloyat hududidagi ayrim tumanlarda tepa ma'nosini anglatuvchi qishloq nomlari ham mavjud. Xususan, *Ko'ktepa* – Forish tumanidagi qishloq bo'lib, ushbu oykonim qishloq joylashgan hududning tabiiy sharoiti va u bilan bog'liq predmetni aks ettiradi. *Ko'kgumbaz* – G'allaorol tumanidagi qishlog'ning nomi ham xuddu shu ma'noni anglatadi [6, B. 31].

Saritepa – Do'stlik tumanidagi qishloq. Oronimda sariq, sari, sori – shimol demakdir. Saritepa shimol tomondagi tepa ma'nosini anglatadi [6, B. 46].

Qo'shtepa – Baxmal tumanidagi qishloq. Ushbu oykonim qo'sh va tepa qismlaridan iborat. Qo'sh – ikkita, yonma-yon, juft; tepa – geografik atama va rel'efga nisbatan usti gumbaz shaklidagi, yonbag'irlari qiya bo'lgan do'ng, baland joyga aytiladi. Yonma-yon tepalar atrofida yoki ustida joylashgan qishloq – Qo'shtepa [10, B. 55].

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Qoratepa, Qaliyatepa, So‘zmoyiltepa – Sharof Rashidov tumanidagi qishloqlar, *Oqtepa, Boytepa, Nurlitepa, Kulto‘ba* – Zomin tumanidagi qishloqlar kabi oykonimlar shakllangan [10, B. 90-94].

Jar so‘zi bilan: *Ko‘kjar* (Baxmal tumani), *Irjar,* Yerjar (Mirzacho‘l tumanidagi qishloq, mahalla*), Jartepa, Jarqishloq* (G‘allaorol tumani) joylarining nomlari shakllangan. Chetlari o‘pirilgan chuqursoylik, chuqurlik ma’nosidagi jar so‘zi yordamida ham joy nomlari shakllangan. Xususan, Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi *Jar*, *Jamanjar* va *Jum-jum* [1, B. 51] qishloqlarining nomlari shunday toponimlar sirasiga kiradi.

*Do‘ng s*o‘zi yordamida; Biror narsaning ko‘tarilgan yoki do‘mpaygan joyi ma’nosini anglatadigan *do‘ng* so‘zi ham oykonimlarni hosil qilishda keng qo‘llaniladi. Jumladan, G‘allaorol tumanidagi *Do‘ngqishloq* nomi aynan ushbu so‘z ishtirokida paydo bo‘lgan.

Dasht so‘zi ishtirokida: *Dashtobod* (Zomin tumani) joy nomi hosil bo‘lgan.

Tosh so‘zi bilan hosil bo‘lgan: O‘zbekistonda rel’ef shakllarini ifodalaydigan oronimik terminlar orasida *tosh* so‘zi alohida o‘rin tutadi. *Tosh* so‘zi qattiq tog‘ jinslarining umumiy nomi bo‘lishi barobarida “tog‘”, “alohida qoya”, “cho‘qqi” ma’nosini anglatadi. Jumladan, Jizzax viloyatidagi *Bodomtog‘* (Zafarobod tumanidagi aholi punkti), *Xovatog‘* (Yangiobod tumanidagi qishloq orooykonimlari tarkibida ham shu so‘z ishtirok etgan) [7, B. 150].

Shuningdek, viloyat hududidagi *Oyqor, Shovqor* (Baxmal tumanidagi qishloqlar) oykonimlar tarkibidagi “*qor”* so‘zi ham sug‘d tilidan olingan bo‘lib, g‘ar -gar- qar – “tog” degan ma’noni anglatadi” [8, B. 68].

Toponimist olim S.Qorayev ham Jizzax viloyati hududidagi tosh komponentli oronimlarga – *Oqtosh* (G‘allaorol tumanidagi qishloq), *Qoratosh (Forish tumanidagi aholi punkti)* kabi joy nomlarini misol qilib keltiradi [8, B. 69]. Viloyatdagi *Gandimtosh Oqtoshota* (Sharof Rashidov tumanidagi shaharcha), *Qo‘ytosh (G‘allaorol tumanidagi shaharcha)* [10, B. 63], shuningdek *Choqmortosh* (Zomin tumanidagi qishloq) orooykonimlar ham shu so‘z ishtirokida hosil bo‘lgan [7, B. 133].

Xulosa. Xulosa sifatida shuni qayd etish kerakki, Jizzax viloyati orooykonimlari tarkibidagi tepa, jar, dasht, tosh, tog‘ komponentlari joy nomlari hududning tabiy sharoyitini, geografik joylashuv o‘rnini hamda rel’ef shakllarini ifodalashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davurova X.H. Jizzax viloyati oykonimlarining lisoniy tadqiqi. – Toshkent: Best publish, 2024. – 140 b.
2. Горбачевич К. Русские географические названия. – М.–Л.: Наука, 1965. – 101 с.
3. Низомов А., Раҳимова Г., Расулова Н. Топонимика. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 119 б.
4. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. – 431 б.
5. Охунов Н. Ўзбекистон топонимияси. – Қўқон, 2005. – 90 б.
6. Ўринбоев Б. Ў. Жиззах топонимларининг таъбири. – Самарқанд, 2007. – 80 б.
7. O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishi va Jizzax viloyatining geografik obyektlariga oid Respublika toponimiya markazining 2022–2023 yillardagi statistik ma’lumotlari.
8. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2005. – 240 б.
9. Qilichev B. Ononomastika. – Buxoro, 2023. – 180 b.
10. Ҳакимов Қ. Жиззах вилояти топонимлари. – Жиззах: Сангзор, 2014. – 203 б.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Nargis Abdukhalilovna Alimatova
Associate Professor, Department of Philosophy
Tashkent State University of Economics
Doctor of Philosophy (DSc)
E-mail: nargis2207@gmail.com

Received 6th October 2025, Accepted 11th November 2025, Online 30th December 2025

ОНГ ФАЛСАФАСИ ОНТОЛОГИЯНИНГ МУҲИМ СОҲАСИ СИФАТИДА

Аннотация. Мазкур мақолада онг муаммоси замонавий фалсафанинг алоҳида инсон миясининг функциясини ўрганувчи соҳаси сифатида унда тадқиқ этиладиган масалалар назарий жиҳатдан таҳлил этилган. Онг муаммоси онтологиянинг муҳим бир қисми сифатида тавсиф этилган. Фалсафа тарихида онг муаммосига бўлган ёндашувлар ўрганилган. Ҳозирги замон Ғарб фалсафасида мавжуд бўлган онг тўғрисидаги охирги концепциялар мазмуни ёритилган. Инсон онгининг табиатини ўрганишнинг замонавий тенденциялари тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: онг, Атман, онг майдони, онгнинг мураккаб муаммоси, панпсихизм.

ФИЛОСОФИЯ СОЗНАНИЯ КАК ВАЖНАЯ СФЕРА ОНТОЛОГИИ

Аннотация. В данной статье теоретически анализируется проблема сознания как область современной философии, изучающая функционирование индивидуального человеческого мозга. Проблема сознания описывается как важная часть онтологии. Подходы к проблеме сознания изучались в истории философии. Выделяется содержание новейших концепций сознания в современной западной философии. Рассматриваются современные тенденции в изучении природы человеческого разума.

Ключевые слова: сознание, Атман, поле сознания, сложная проблема сознания, панпсихизм

PHILOSOPHY OF CONSCIOUSNESS AS AN IMPORTANT SPHERE OF ONTOLOGY

Abstract. This article theoretically analyzes the problem of consciousness as an area of modern philosophy that studies the functioning of the individual human brain. The problem of consciousness is described as an important part of ontology. Approaches to the problem of consciousness have been studied in the history of philosophy. The content of the most recent concepts of consciousness in modern Western philosophy is highlighted. Contemporary trends in the study of the nature of the human mind are examined.

Keywords: consciousness, Atman, field of consciousness, complex problem of consciousness, panpsychism.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Кириш. Глобаллашув шароитида турли хил ахборотнинг мамлакатимиз ёшларининг онгига таъсири кучайиб бориш тенденцияси мавжуд. Жумладан, биринчидан, турли хил диний-экстремистик, радикал ғоялар, иккинчидан, оммавий маданият, ғарб кишиларининг ҳаёт тарзи оммавий ахборот воситалари орқали намойиш этилмоқда. Ёшларимизни ахборий таҳдидлардан ҳимоя этиш зарурати вужудга келган айни даврда онг муаммосини атрофлича тадқиқ этиш, замонавий ёндашувларни ўрганиш муҳим аҳамият касб этади. Шу жумладан, олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш истиқболларида рақобатбардош кадрларни етиштириш мўлжалланган. Рақобатбардош кадрлар эса дунёқараши кенг, онги юксак бўлган, тафаккури ижодий, танқидий, ўз фикрига эга бўлган, инновациялар яратишга йўналтирилган инсонлар бўлиши лозим. Мазкур мақсадларга эришиш учун ҳам онгнинг моҳияти, табиатини тадқиқ этиш лозим. Чунки рақобатбардош кадрларни шакллантириш учун уларнинг онгига қандай таъсир этиш методларини билишимиз керак.

Тадқиқот методлари. Тадқиқот жараёнида таққослаш, анализ ва синтез, тарихийлик ва мантиқийлик бирлиги каби илмий методлардан фойдаланилди.

Адабиётлар таҳлили. Фалсафадаги онг муаммоси хорижий ва ўзбекистонлик тадқиқотчиларнинг илмий асарлари, мақолаларида қуйидагича ёритилган. Бразилиялик файласуф А.Перейра онгнинг проектив назарияси ва уч аспектли монизм концепциясини таклиф этган [1]. Россиялик тадқиқотчилар Момбей-оол С.М. ва Ситников В.Л. [2] ёшлар онгида “мен” ва “у” образларининг тузилиши ва мазмунини ўрганган, Книгин А.Н. [3] ўз қўлланмасида табиий реализм методологиясини қўллаган ҳолда онг муаммосини атрофлича тадқиқ этган, Михайлов И.Ф. [4] кибермуҳитда онгнинг намоён бўлиш хоссаларини тадқиқ этган, Ковшов Е.М. [5]замонавий фалсафада мавжуд онгни ўрганишга бўлган ёндашувларни таҳлил қилган, ўзбекистонлик Б.Х.Каримов [6]онгнинг келиб чиқиши, унинг илмий асослари, И.П.Павлов, И.М.Сеченов ва Зигмунд Фрейд таълимотлар ҳақидаги фикр юритилган, онг ҳақидаги илмий - фалсафий ва психологик нуқтаи назарлар умумлаштирилган. Хакбердиев А.К. [7]томонидан фалсафа тарихида онгни тушуниш парадигмалари ёритилган.

Муҳокама ва натижалар. Онг фалсафада энг қийин таърифланадиган атамалардан саналади. Шу билан бирга бу атамани эшитгач, нима ҳақида сўз юритилаётганини тушунгандай бўламиз. Аммо биз уни онгга эга бўлганлигимиз ва “онгга эга бўлиш нима эканлигини” билганлигимиз учун тушунамиз. Аммо бундай тушуниш ҳодисани фалсафий ўзлаштириш учун етарли эмас. Онгни фалсафий муаммо сифатидаги характеристикаси унинг кундалик тажрибага яқинлик ва тушунчавий таҳлилдан узоқлигидир.

Онг турли гуманитар фанларнинг (психология, ижтимоий психология, социология, нейрофизиология), шунингдек, фалсафа ва теологиянинг қизиқиш предметидир. Фалсафа инсоннинг борлиққа руҳий муносабатларининг бир соҳасидир. Фалсафанинг предмети соҳаси чегараланмаган, лекин унинг муаммолари характери ўзига хос. У ҳамма нарса ҳақида шундай савол берадики, доимо бу савол инсоннинг бу дунёга бўлган муносабати тўғрисида бўлади. Фалсафанинг методи спекулятив-назарий тафаккурдир. Фалсафа – бу муаммоларнинг кўпхилликда ифодаланувчи ягоналиги, унда шахслар, авлодлар, халқлар, асрлар ўзаро кесишади. Фалсафа шахсиятлидир. Унинг аниқ мавжуд бўлиш усули –шахсий фалсафий таълимотлардир (“Платон фалсафаси”, “Гегель фалсафаси” ва ҳ.к.). бир жамиятнинг фалсафий маданияти бошқа жамиятнинг фалсафий маданиятидан фарқ қилиши мумкин. Ушбу қандай матнлар ва қандай кенг миқёсда ўқилишига боғлиқ.

Фалсафа ўз тарихига эга. Мазкур тарихнинг лаҳзалари ўз даврининг иқтидорли намояндаларига таъсир этган ёркин таълимотлар, матнлардир. Буюк фалсафий тизимлар

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

минг йиллар давомида мавжуд бўлиб ёдгорликларгагина эмас, балки тирик маданиятнинг бир қисми бўлиб қоладилар. Платон, Аристотель, Декарт, Кант ва бошқаларнинг таълимотлари Европа фалсафасида шундай из қолдирган.

Вақт фалсафий таълимотлар ва баҳсларнинг мазмунига ўз муҳрини қўяди. Ҳар қайси даврда фалсафа унга замонадош дин, фан, бадиий ва ахлоқий ҳаёт, иқтисодий ва сиёсий ҳиссиётларнинг таъсирида бўлади. Барча йирик файласуфларнинг матнлари ушбу ҳақида далолат беради. Шу билан бирга бутун фалсафа тарихида абадий мавзулар борки, уларга борлиқнинг моҳияти, материя ва руҳнинг мутаносиблиги, ҳаёт ва ўлим, инсон муаммоси киради. **Инсон онгининг табиати ва аҳамияти муаммоси ана шундай муаммолар қаторига киради.**

Ҳозирги даврда тадқиқ этилиши қийин бўлган фалсафий муаммолардан бири - бу онгнинг моҳияти тўғрисидаги муаммодир. Чунки онг моддий предмет сифатида мавжуд эмас. Платон ва Гегель материяни онгга бўйсуниши тўғрисидаги ғояни ривожлантирган (объектив идеализм). Идеалистлар ҳудони олий онг сифатида биладилар, инсон онги эса “илоҳий онг”нинг кичик бир бўлагидир. Замонавий фалсафа онгни талқин қилишда оламнинг моддийлиги тўғрисидаги илмий хулосадан келиб чиқади.

Онг – бу инсонга хос бўлган объектив реалликни инъикос эттиришнинг олий шакли. Инсоннинг ҳиссиётлари, фикрлари унинг онги орқали ўтади ва онг объектив оламнинг субъектив образидир. Онг объектив дунёни ва ўзининг борлиғини фикрлаш жараёнида фаол иштирок этувчи психик жараёнларнинг ягоналигидир. Онг – инсоният ривожланишининг натижаси бўлиб, юқори даражада ташкил топган материянинг хусусиятидир. Онг инсон миясининг функцияси, яъни моддий дунё (мия) онгни (идеаллик) вужудга келтиради.

Онг муаммоси кўп жиҳатли муаммо саналиб, ушбу муаммо билан нафақат фалсафа шуғулланади, балки психология учун онгнинг индивидуализация функцияси, социология учун ижтимоий онгнинг жамиятнинг ижтимоий структурасига кўра тарихий ривожланиши жараёни, физиология учун онгнинг субстрати сифатида мия ва тафаккурнинг физиологик механизмлари қизиқиш туғдиради.

Онгда энг муҳими -унинг идеаллигидир, яъни онгда бирор грамм модда мавжуд эмас, массага эга эмас, макон тавсифларига эга эмас, лекин фикр ҳамма нарсаларни амалга ошириши мумкин. Фикр ҳар қандай объектни алмаштириши мумкин, ҳар қандай образларни ишлата олади. Идеаллик моддий эмас, у фақат унинг тимсоли, моҳиятини ифода этади.

Онг – бу функция қилаётган миянинг реалликни акс эттириши, инсон хулқ-атворини ва ҳисларини ақлий, ҳиссий-рационал ва эмоционал-иродавий тартибга келтириш хусусияти. Онг-бу моддийлик ва идеалликнинг бирлигидир. Инсон онгининг муҳим хусусияти-унинг фаоллиги ҳисобланади. Инсон ташқи дунёни амалий, ўзгартирувчи фаолият жараёнида акс эттиради.

Испан файласуфи Ортега-и-Гассет: “онгни билиш, сезиш, тавсифлаш, аниқлаш ҳамма нарсадан мушкул,”-деган эди. Аммо шуни амалга ошириш лозим, чунки онгни тушунишдан “бутун олам образи” келиб чиқади. Онгнинг онтологик аҳамияти фундаментал. М.М.Бахтин фикрича, онг муаммоси борлиги учун мавжуд олам онг бўлмаган оламдан бутунлай фарқ қилади. “Гувоҳ ва судья. Оламда онг пайдо бўлиши билан бирга борлик қатьий тарзда ўзгаради. Тош тошлигича, қуёш қуёшлигича қолади, аммо борлиқ бутунлай ўзгаради, чунки ер борлиғига воқеаларда фаолият юритувчи янги ва бош қиёфа –гувоҳ ва судья пайдо бўлади. Қуёш ҳам ўзгаради, чунки у гувоҳ ва судья томонидан англана бошлади. У ўз-ўзича мавжуд эмас, балки ўзга учун ҳам мавжуд, яъни у ўзганинг онгида акс эта бошлади”.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Онг қадимги дунёда файласуфларнинг диққатини жалб этган. Онгни тушуниш ва файласуфнинг дунёқараш позицияси ўзаро боғлиқ. Баъзи файласуфлар онгни материя ривожланишининг маҳсули деб таърифласалар, бошқалар алоҳида моҳият, субстанция деб ҳисоблайдилар. Диний тафаккур онгни Худо ва руҳ ғоялари билан боғлайдилар. Бундай ёндашувларнинг тўқнашуви худди фалсафа каби қадимийдир. Бундай баҳсларнинг умум қабул қилинган натижаси мавжуд эмас.

Юқоридагилардан қуйидагиларни келтириб чиқариш мумкин:

1) онг муаммоси файласуфлар учун шу қадар муҳимки, оппонентларнинг ўз фикри тўғрилигини исботлашга уринишларининг муваффақиятсизлигига қарамасдан ҳали ҳам муҳокама қилинмоқда;
2) шубҳа: онг назариясини ўзи яратиш мумкинми?

Кўплаб машҳур файласуфлар (Платон, Аристотель, Гегель, Гуссерль ва бошқалар) у ёки бу маънода онгни фалсафанинг бош предмети деб ҳисоблашган.

М.К. Мамардашвили “фалсафа – бу “оғзаки онг” деган эди. Лекин у онг назариясини яратиш мумкинлигини инкор этади. Аммо назария нима бу? Агар назария остида объект ва унинг хусусиятлари ҳамда қонуниятларининг тизимли, ўзаро боғланган тавсифи тушуниладиган бўлса, фалсафа тарихида бундай онг назариялари кўплаб яратилган. Аммо улар бир-бирини инкор қилишга интилади ва уларнинг ҳеч бири ўзининг тўлиқ ҳақиқат эканлигини исботламаган. Бундай вазиятда йўл топа билиш учун мақсадли ва изчил методологиядан фойдаланиш керак.

Дин фалсафаси учун онг муаммоси уч асосий сабаб нуқтаи-назаридан муҳим аҳамиятга эга. Биринчидан, онг тўғрисидаги тасаввурлар диний тажриба таҳлили, шунингдек, замонавий талабларга жавоб берувчи дин эпистемиологиясини қуриш учун зарурдир. Иккинчидан, онг фалсафаси фаол тарзда физикализм танқид этилувчи ва мустаҳкамликка текширилувчи соҳадир. Учинчидан, онг фалсафаси ва дин фалсафасида умумий масалалалар бўлиб, улар ушбу ёндашувлар доирасида турлича ҳал этилган. Бундай ҳамкорлик иккала йўналишни ҳам бойитиши мумкин. Шунинг учун онг фалсафаси ва дин фалсафаси умумий мақсадларга эришиш учун ўзаро алоқадорликда бўлиши керак.

Онгни фалсафа доирасида тадқиқ этиш бу соҳада шакллантирилган муаммоларга монанд уч йўналиш бўйича олиб борилмоқда. Биринчидан, онг ўзи нима?-деган саволга жавоб излаш. Иккинчидан, онг қандай вужудга келади ва мавжуд бўлишини тушунтириш. Учинчидан, онгнинг мақсади ёки функцияси тўғрисидаги: онг нима учун мавжуд?-деган саволга жавоб бериш.

Мазкур йўналишлар уларнинг мураккаблигининг ошишига монанд жойлашган.

Фалсафада инсон онгини тушунтиришда уч хил ёндашув мавжуд.

1. Ҳар қандай алоҳида инсоннинг онги қандайдир умумий, универсал, космик, илоҳий онгнинг бир қисми ёки ҳосиласи деб тушунтирилади.

Фалсафа тарихида кўрганимиздек Қадимги Ҳиндистон фалсафасида субъектив руҳий бошланғич-Атман тўғрисидаги таълимот ривожлантирилган эди. Замонавий феноменологиянинг асосчиси Э.Гуссерль ҳам инсоннинг “оддий” “эмпирик” онгига “трансцендентал онг”ни қарама-қарши қўяди.

Агар инсон онги иккиламчи бўлса, унда “биринчиси қандай вужудга келган?” деган савол туғилади. Идеализм вакилларининг жавобига кўра, онг ўзининг мавжудлиги учун ҳеч нарсага муҳтож бўлмаган субстанция деб тушунтирилади. Бу билан улар онгни ўрганиб бўлмайдиган сирга айлантирадилар ва уни фан томонидан ўрганиладиган муаммолар доирасидан ташқарига чиқарадилар.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

2. Онг материянинг ажралмас атрибути сифатида тушунтирилади. У ҳамма материяга ва барча материал объектларга тааллуқли, яъни барча табиат жисмлари, бир хил миқдорда бўлмаса-да, онгга эга. Бундай нуқтаи-назар гилозоизм, панпсихизм, пантеизмга хосдир. Пантеизм ғоялари Ўрта асрларда британиялик схоласт Дунс Скотни қизиқтирган эди. Б.Спинозанинг пантеистик фалсафасида “Табиат” ва “худо” ягона субстанцияни англатар эди. Улардан бошқа борлиқ мавжуд эмас. Бундай субстанция материя ва онгнинг бирлигидан иборат.

3. Инсон онги материянинг тараққиёти жараёнида вужудга келади. Онг инсониятнинг ва алоҳида шахснинг биологик ва ижтимоий тараққиётининг маҳсулидир. Бундай ёндашув рационализм ва материализмга хосдир.

Материализмга қарши илгари суриладиган аргументлар шундан иборатки, материя ўз-ўзича ҳаракатсиз ва ўликдир, шунинг учун у ўзидан қандай қилиб ҳаёт, руҳ, онгни вужудга келтириши ноаниқ. Агар онг материяда илгаридан мавжуд бўлмаса, онгнинг ундан вужудга келиши ҳам мумкин эмас. Аммо материя ўз-ўзича ҳаракатсиз ва уни қандайдир моддий бўлмаган ташқи куч ҳаракатга келтирган дейишга ҳеч қандай асос мавжуд эмас. Деярли барча материалистлар ҳаракатга материянинг ажралмас атрибути сифатида қарайдилар ва фан масса ҳамда энергия ўртасида боғлиқликни аниқлаб, буни тасдиқлайди. Агар материя азалдан ҳаракатда бўлса, демак, маълум бир шароитларда материал тизимларда ўзгаришлар рўй бериб уларнинг мураккаблашишига олиб келади ва натижада психика ва онгга эга бўлган биологик тизимлар вужудга келади, деб тахмин қилиш мумкин.

Онг муаммоси дунёқарашнинг, ҳар қандай фалсафий қарашнинг методологик асосини ташкил этади.

Онг категорияси классик ғарб фалсафасининг асосий тушунчаси ҳисобланади. Онг деб инсоннинг фикрлаш қобилиятига айтилади. “Идеаллик”, “руҳ”, “объектив ақл”, “дунёвий ирода” каби тушунчалар онгнинг синоними сифатида ишлатилади.

Инсон онги мураккаб ҳодиса бўлиб, у кўп ўлчамли, кўп аспектларга эга. У тўғрисидаги тасаввурлар хилма-хил бўлиб, инсонларнинг ҳаётий тажрибасининг хилма-хиллигидан келиб чиқади. Онгни, унинг моҳияти, намоён бўлиш қўламларини тушуниш кўп жиҳатдан одамларнинг маданий удумлари, диний, ижтимоий йўналганлигига боғлиқ. Онгнинг кўп қирралилиги уни кўп фанларнинг (философия, психология, биофизика, информатика, юриспруденция, психиатрия) ўрганиш объектига айлантирмоқда.

Онгнинг фалсафий-гносеологик концепциялари ичида иккита концепциялар ажралиб туради. Булар А.Г.Спиркин ва А.В.Ивановнинг концепциялари.

А.Спиркин фикрича, онг деб борлиқни идеал (психик) акс эттириш, предметнинг объектив мазмунини инсон руҳий дунёсининг субъектив мазмунига айлантириш хусусиятига айтилади.

Онг фақат инсонга хос бўлган ва миянинг нутқ билан боғлиқ бўлган функцияси бўлиб, умумлаштириб, баҳоли ва мақсадга йўналтирилган акс эттиришдир, ҳатти-ҳаракатларни фикрда конструктив-ижодий қуриш, инсон ҳатти-ҳаракатларини тартибга келтириш ва ўз-ўзини назорат қилишдир.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

“Онг”нинг майдони А.В.Иванов томонидан айлана тарзида тасвирланиб, 4 та тенг қисмга бўлинган:



I сектор тана – перцептив имкониятлар ва улар асосида олинадиган билим соҳасидир. Бу қобилиятларга сезгилар, тасаввурлар киради. Улар ёрдамида инсон ташқи дунё ҳақида ва ўзининг танаси тўғрисида дастлаки информацияга эга бўлади.

II сектор онгнинг мантиқий-тушунчавий компоненти. Тафаккур ёрдамида инсон бевосита берилган ҳиссий дунёдан моҳиятлар дунёсига ўтиш имкониятига эга бўлади. Бу умумий тушунчалар, анализ ва синтез каби фикрлаш операциялари, мантиқий исботлашлар соҳасидир. I ва II секторлар онгнинг ташқи билиш компонентини ташкил этади.

III сектор онгнинг эмоционал компонентидир. У ташқи олам билан бевосита боғлиқ эмас. Бу кўпроқ шахсий, субъектив-психологик кечинмалар, хотиралар соҳасидир:

1) инстинктив-аффект ҳолатлар (англаб бўлмас кечинмалар, голлюцинациялар, стресслар); 2) эмоциялар (жаҳл чиқиши, қўрқув ва бошқалар); 3) ҳиссиётлар (кўпроқ аниқ бўлган лаззатланиш, нафратланиш, севги, симпатия, антипатия ва ҳ.к.) шу соҳага киради. Бу соҳани тартибга келтирувчи нарса З.Фрейд айтган “лаззатланиш тамойили” ҳисобланади.

IV сектор онгнинг қадриятий-маъновий компонентидир. Бу ерда фаолиятнинг мотивлари, шахснинг маънавий идеаллари, уларни шакллантириш қобилиятлари, фантазияларни ҳосил қилиш ижодий жараёни, турли интуициялар киради. Бу соҳани тартибга келтирувчи нарса гўзаллик, ҳақиқат. адолат. Шу ўринда З.Фреднинг ёндашуви талабаларда қизиқиш уйғотади.

Онг майдонида иккита сегментни ажратиб кўрсатиш мумкин. Пасткиси онгсизликка, юқоридагиси онг усти онгига мос келади.

1- онггача бўлган давр
2- тана билан бирга “Мен” нинг тараққиёти
3- онгли “Мен” нинг шаклланиш даври
4- юқори маънавиятлилик, ахлоқийликнинг шаклланиши
5- космик онг



Онг муаммоси ўз ичига онгнинг таркиби тўғрисидаги тасаввурни олиб, ўз-ўзини англаш тўғрисидаги савол билан узвий боғлиқ. Шундай фикрлар борки, уларга асосан, онг

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

мавжуд, ундан ташқарида ўз-ўзини англаш мавжуд. Кўпчилик файласуфлар ўз-ўзини англашни онг доирасига киритадилар.

Предметли онгнинг объекти атроф борлиқ бўлса, ўз-ўзини англашда субъект ўз-ўзини объектга айлантиради. Тасаввурлар, ўйлар, ҳиссиётлар, кечинмалар, қизиқишлар, мақсадлар, ҳатти-ҳаракатлар, жамоадаги одамнинг ўрни таҳлил объектига айланади.

“Ўз-ўзини англаш фақат ўз-ўзини билиш бўлиб қолмай, балки ўзининг сифатлари ва ҳолатлари, имкониятлари, жисмоний ва руҳий кучига бўлган маълум муносабатдир, яъни ўз-ўзини баҳолашдир,”- дейди А.Спиркин. Инсон шахс сифатида ўз-ўзини баҳоловчи мавжудотдир.

Файласуфларнинг ўз-ўзини англашга субъектив дунёнинг бир соҳаси сифатидаги муносабати Суқротнинг “ўз-ўзингни билгин” деган фикридан бошланади (Онгни предметли онг, кечинмалар тарзидаги онг ва ўз-ўзини англашга бўлиш мумкин).

Хулоса қилиб айтганда, инсоннинг келиб чиқишида диний ва илмий концепцияларда умумийлик бор. Чунки Инжил, Қуръон каби муқаддас диний китобларда келтирилган инсоннинг келиб чиқиши воқеаси деярли бир хил. Шунинг учун бунда тарихий ҳақиқат ётади. Инсоннинг лойдан яралиши масаласига келсак, инсоннинг танасидаги мавжуд кимёвий элементлар текширилганда унинг мускуллари ва ва ҳатто суяклари ҳам 70-75 фоиз сувдан ташкил топганлигини, Менделеевнинг кимёвий элементлар даврий жадвалидаги деярли барча элементлар борлиги аниқланган. Инсон онги эса жуда мураккаб ҳодиса бўлиб, қандай қилиб моддий жисм мия номоддий нарса - фикрни ишлаб чиқариши ҳалигача фанга номаълумдир.

Онг муаммолилигининг исботи ҳозирги даврга қадар онгнинг қониқарли таърифининг мавжуд эмаслигидир. Чунки биз бу ҳодисанинг чегараси ва тамом бўладиган жойини аниқлай олмаймиз. Шундай қилиб, биринчи, пойдевор бўладиган босқичдан ҳам ўтмаганмиз. Бизда ҳодисаларни ягона бирликка йиғувчи сўз ҳам мавжуд (ёмғирпўш атама, инглиз тилидан umbrella term), аммо бу ҳодисаларни қайси тамойиллар асосида танлашимиз тўғрисида аниқ тасаввур мавжуд эмас. Аммо онгни тавсифлашнинг бир нечта ёндашувлари ва усуллари бор. Улар комбинациялашган ҳолда ишлатилади ва ҳар бир ёндашув ўзига хосликларга эга. Биринчи усул-аниқ ҳодисаларни кўрсатиш орқали остенсив таъриф беришдир. Бошқа сўзлар билан айтганда, реалликда онг билан ассоциация қилинувчи ҳодисани ажратиш ёки бир нечта шундай ҳодисаларни кўрсатиш мумкин. Онгни таърифлашда худди шундай ёндашувни Ж.Сёрл ҳам қўллаб қувватлайди. Бундай кўрсатишнинг бир варианти: интроспекция, ҳисобот бера олиш, ўзликни англаш, диққат, билим, феноменаллик, тажриба, уйғоқлик ва бошқалар. Шунингдек, “Онг-бу...” деб аниқ онг мавжуд бўлган ситуацияларни, ҳолатларни таърифлаб ўтиш мумкин. Бундай ёндашувларнинг кўриниб турган қулайлиги ва соддалигига қарамай, у мулоҳазаларни соддалаштиришнинг вақтинчалик усулидир. Иккинчи вариант - онгни алоҳида жиҳатларга ажратиш ва улар билан ишлашдир. Масалан, феноменал онгни психик онгдан (Д.Чалмерс) ёки феноменал онгни кириш онгидан (Н.Блок) ажратиш мумкин. Бундай ёндашувнинг асосий муаммоси онгни бир қатор жиҳатларга, маълум тамойилларга асосан ажратиш онгга қўшимча хусусиятларни олиб келади, ҳамда шу бўлиниш тамойилини қўшимча аниқлаштириш керак бўлади. Бундан ташқари, доимо онгнинг маълум бир жиҳатини тушунтиришга қийинчилик туғилади ва муаммо сақланиб қолади. Шу билан бир вақтда бу ёндашув тарафдорлари унда илгари қадамни кўришади, чунки торроқ соҳага диққатни жамлаш орқали тезроқ жавоб топиш мумкин. Учинчи усул - онгга мос келувчи қатор физик, физиологик, биологик коррелятларни тавсифлашдир. Замонавий тадқиқотчилардан булар Д.Тонони, К.Кох. Д.Деннет қувватлайдиган тўртинчи усул - онгни у бажарадиган

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

функциялари ҳамда у билан боғлиқ функционал муносабатларни тавсифлашдир. Учинчи ва тўртинчи ёндашувлар ёнма-ён юрадилар ва табиий фанлар вакиллари ёки физикализм ҳамда натурализмага яқин файласуфлар орасида амалда бўлади. Бундай ёндашувлар онгни физик ҳодисалар ва функционал муносабатлар билан тушунтириб бўлмайди, деб ҳисобловчилар томонидан танқид қилинади. Шунинг билан бирга онгни уч турли маънода кўриб ўтиш мумкин: объектнинг ўзига хос ҳолати, тирик организмларнинг хусусияти ва қандайдир моҳият ёки онтологик бирлик сифатида кўрилади. Биринчи вариант онгни функционал ва психологик тавсифларига яқин туради, иккинчиси эса, онгни биологик тавсифи, учинчиси эса камроқ тарқалган фалсафий шаклдаги ёндашувларга, шу жумладан, дуализмга яқин туради.

Биринчи босқич ўтилмаганлигига қарамай, фалсафада онгни тушунтиришнинг кўплаб, яъни қўйилган иккинчи саволга жавоб берувчи
лойиҳалари таклиф этилган. Балки, ушбу масаладаги муҳим роль фандаги когнитив тадқиқотларга берилган, чунки улар доимо фалсафий баҳсларда таҳлил этилувчи материал тақдим этиб келган. Аммо мазкур тадқиқотларнинг алоҳида соҳаси, яъни онгни тушунтиришнинг принципиал имкониятини аниқлашга интилиш билан боғлиқ. Физикализм ва нейроилмий тадқиқотлар онгни тушунтиришда маълум ютуқларга эришишган ва баъзиларнинг фикрига кўра, онгнинг барча жиҳатларини тушунтириш имкони бор, айниқса келажакда. Шунинг учун XX аср охиридаги чорагида физикализмга нисбатан дастлабки бундай оптимизм аста-секин баъзи шубҳалар билан алмаша бошлади. Шундай нуқтаи-назар шаклландики, онгни физикализм нуқтаи-назаридан тушунтириб бўлмаслиги принципиал бўлиши мумкин. С.Крипке биринчилардан бўлиб тадқиқоти онг муаммосига тўғридан-тўғри бағишланмаган бўлса-да, моддийлик ва руҳийлик ўртасида масофа борлиги тўғрисида дастлабки аргументларни таклиф этган. Д.Левин “тушунтирувчи масофа” (explanatory gap) атамасини мулоқотга киритган. Дискуссия учун асосий бўлган мазкур атама физик ва психик ҳодисалар орасидаги масофанинг фикрланишини кўрсатади ёки бошқа сўзлар билан айтганда физик ва психик ҳодисаларнинг боғлиқ эмаслигини тасаввур этиш имкони борлигини кўрсатади.

Д.Левин учун бу эпистемиологик муаммо бўлиб, бизнинг билиш жараёнимизда айни дамда моддийлик ва руҳийлик ўртасидаги боғликликни тадқиқ этиш мумкин эмас. Кейинчалик мазкур муаммони аниқлаштириш устида кўплаб файласуфлар бош қотирганлар, жумладан, Т.Нагель ва Д.Чалмерс бу муаммони унинг феноменал жиҳатини ёритган. Т.Нагель “Аниқ бир мавжудот бўлиш қандай экан?”-деган саволни қўйган. Унинг нуқтаи-назарича, ушбу саволга жавоб ўзгача ташкил этилган когнитив аппарат ва сезги аъзоларига эга бўлган мавжудотга маълум. Аммо биз билан бир хил бўлган мавжудотнинг тажрибасини ҳам тасаввур этишимиз мушкул. Т.Нагель айни вақтда жисмонийлик ва руҳийлик ўртасида алоқани ўрнатиш имконияти юзасидан агностицизм позициясида турибди.

Д.Чалмерс кучлироқ хулоса чиқарган ва жисмонийлик ҳамда феноменаллик ўртасида мустаҳкам боғлиқликни ўрнатиш имконияти йўқлиги ва улар ўртасида онтологик узилиш борлиги тўғрисидаги фикрга келган. Айнан феноменаллик ва физикавийлик ўртасида боғлиқлик ўрнатиш мумкин эмаслигини у **онгнинг мураккаб муаммоси**, деб атаган.

Онгни тушунтиришдаги ёндашувларни турли усуллар билан таснифлаш мумкин. Улардан энг универсал ва умумийсини кўриб чиқамиз. Бундай ёндашувларни таснифлашдаги бўлиниш тушунтиришнинг редуктив ва редуктив бўлмаган усуллари ўртасидаги танловдан иборат. Агар тушунтиришнинг ўзи онгни ва унинг бирор жиҳатини компонент сифатида ўз ичига олмаган бўлса, бундай тушунтириш редуктив бўлади.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Редуктив тушунтиришни материализм билан айнанлаштириш қабул қилинган, аммо ҳар доим ҳам шундай эмас, чунки учинчи бир нарсага редукция ҳам бўлиши мумкин.

Бундай концепция замонавий аналитик фалсафада тарқалган нейтрал монизм ҳисобланади. Шунинг учун редуктив тушунтиришни материалистик ва материалистик бўлмаганга бўлиш мумкин. Айни вақтда материализм ва унга яқин бўлган ёндашувлар ўртасидаги чегара ноаниқ, чунки охирги ўн йилликда фанда материя тўрисидаги тасаввурлар ўта ўзгарган. Шунинг учун онгни материалистик редуктив тушунтиришнинг кўплаб вариантлари XVIII-XIX асрлардаги материализмга бўлган механистик ёндашувдан фарқ қилади. Д.Чалмерс материализмни уч типини ажратиб кўрсатади. А типдаги материалист тушунтиришдаги эпистемик узилишни инкор қилади. Бундай гуруҳга у Д. Армстронг, Д. Деннет, Ф. Дретске, Г. Харман, Д. Льюис, Д. Рей, Г. Райл ва бошқаларни киритади. В типдаги материалист эпистемик узилиш борлигини тан олади, лекин онтологик узилиш борлигини тан олмайди. Турли ўзига хосликлар билан ушбу гуруҳга у Н. Блок, Р. Стэлнейкер, Д. Левин, К. Хилл, Б. Лоар, Д. Папиню, Д. Пэрри, М. Тай, Б. МакЛофлин, К. Бэлог ва бошқаларни киритади. С типидаги материалист эпистемик узилиш борлигини тан олса-да, уни бартараф этиб бўлмайди, деб ҳисобламайди, чунки ушбуни билимларимиз етарли эмаслиги билан боғлайди. Бу гуруҳга П. Черчленд, Т. Нагель, К. МакГинн, Д. Столяр ва бошқаларни киритиш мумкин.

Онгни тушунтиришда редуктив бўлмаган усуллардан дуализм ва панпсихизмнинг турли шаклларини ажратиб кўрсатиш мумкин. Шунинг билан биргаликда нейтрал монизмнинг шу қарашлар билан комбинация қилинадиган алоҳида типларини келтириш жоиз. Дуализмнинг принципиал турлича бўлган кўринишлари, яъни Р. Суинберн тарафдори бўлган субстанциал дуализм ва Д. Чалмерс тарафдори бўлган хусусиятлар дуализми. Бундай ёндашувларнинг ҳар хил турлари жисмонийлик ва руҳийлик ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг турли даражаларини назарда тутади. Баъзи ёндашувлар параллелизмнинг катта даражасини назарда тутса, бошқалари интеракционизмни назарда тутади. Биринчи ҳолатда жисмонийлик ва руҳийлик бир-бири билан алоқадорликда бўлмайди ва бир-биридан мустақил мавжуд бўлади, иккинчи ҳолатда эса улар ўзаро бир-бирига таъсир ўтказади. Панпсихизмнинг турли версияларининг, яъни онг ёки унинг бирор жиҳати реалликнинг фундаментал характеристикасидир, деган нуқтаи-назар тарафдорлари сифатида Д. Гриффин, Т. Нагель, Г. Розенберг, Г. Брюнтруп, Ю. Нагасава, Г. Стросон, Д. Скрибна и Т. Спригги, Д. Чалмерс, У. Сигер, С. Коулман и бошқаларни келтириш мумкин. Баъзи ёндашувлар параллелизм, бошқалари эса интеракционизмнинг катта даражасини назарда тутади.

Онгни нейробиология ёрдамда тушунтириш ўз моҳиятига кўра редуктив бўлишига қарамай, нейро олимлар онгни тушунтиришдаги қийинчиликларни тан олади ва мавжуд имкониятлар доирасида тушунтириш мумкин бўлган жиҳатларнигина тушунтирадилар. Онгнинг нейробиологик назариялари орасида К. Кох и Ф. Крик назарияси, турли юқори даражали онг назарияларини, Д. Тононининг интеграллашган ахборот назарияси, Б. Баарснинг глобал ишчи макони назарияси ва турли репрезентационалист ёндашувлар номини келтириш мумкин.

Замонавий аналитик фалсафа учун онг тўғрисидаги энг мураккаб савол “нима учун?”-деган савол ҳисобланади. Кутганимиздек, бу савол онг фалсафасида энг кам тадқиқ этилган ҳисобланади. Бу савол кўпчилик томонидан нотўғри қўйилган, деб ҳисобланади ва турлича талқин этилади. Онгни физикалистик ва биологик тушунтириш ҳамда бошқа редуктив ёндашувлар вакиллари кўп ҳолатларда бу саволни онг қандай вужудга келди ва унинг функционал роли қандай?- деган саволга жавоб бериш билан айнанлаштирадилар.

Улар онгга эга бўлишликнинг эволюцион афзалликларини кўрсатишга ҳаракат қилади. аммо онгнинг феноменал жиҳатларига нисбатан бу умуман ойдин эмас. Кўпчилик учун, айниқса диндор кишилар учун “нима учун?” - деган савол онгнинг функциялари эмас, балки онгнинг мавжуд бўлиш мақсади тўғрисидадир. Шунинг учун масалани бундай қўйилиши тўғри, деб тан олинса айтиш керакки, нейроилмий ёндашувда бу саволга жавоб топилиши даргумон ҳисобланади. Панпсихизмнинг баъзи шакллари оралиқ вариантни назарда тутади. Яъни онг мавжудликни назарда тутади ва аксинча, борлиқ онгни назарда тутади.

Хулоса. Мазкур саволлар келажакда қандай ҳал қилинмасин, бу савол онг фалсафасининг қийин саволи сифатида узоқ йиллар мавжуд бўлади. Онг муаммосига бўлган замонавий ёндашувларни тадқиқ этиш лозим.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР (REFERENCES)

1. Pereira Jr.A. Triple-aspect monism: physiological, mental unconscious and conscious aspects of brain activity// Journal of Integrative Neuroscience. 2014. Vol. 13, No. 2. P. 201-227.

2. Момбей-оол С.М. ва Ситников В.Л. Структура и содержание Я-, Он- образов в сознании молодежи в Республике Тыва// Вестник университета, 2020. № 2. С.201-210

3.Книгин А.Н. Философские проблемы сознания. Томск. Томский государственный университет, 2006.

4. Михайлов И.Ф. Человеческий мозг и сознание: биология или вычисления//Философские проблемы информационных технологий и киберпространство.- 2018. №2. С.92-110

5. Ковшов Е.М. Две тенденции исследования сознания и его измененнқх состояний в современной философии и науке//Философские науки. -2019. № 10.С.45-48.

6. Каримов Б.Х. Инсон онги муаммосининг фалсафий ва психологик жиҳатлари//Psixologiya. – 2019 №4. Б.93-99

7.Хакбердиев А.К. Онг ҳақидаги тасаввурларнинг ривожланишида фалсафий қарашлар//International Conference on Research in Sciences, Education and Humanities Hosted from Basel, Switzerland https://conferencea.org December 30th 2021. P.12-14

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Qilichev Feruzbek To‘ychi o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy Universiteti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail:qilichevferuzbek@gmail.com

Received 6th October 2025, Accepted 11th November 2025, Online 30th December 2025

EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOGUMANISTIK QADRIYATLARNING O‘RNI

Annotatsiya: Maqolada ekologik globallashuv sharoitida ekogumanistik qadriyatlarning ahamiyati va shakllanish mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot ekologik ong va gumanistik qadriyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, shuningdek, zamonaviy ekologik muammolarni hal qilishdagi ularning rolini ko‘rsatadi. Ekogumanistik qadriyatlar jamiyatning ijtimoiy-madaniy transformatsiyasini rag‘batlantirish va inson-tabiat uyg‘unligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: ekologik globallashuv, ekogumanistik qadriyatlar, ekologik ong, ijtimoiy-madaniy transformatsiya, barqaror rivojlanish.

РОЛЬ ЭКОГУМАНИСТИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В УСЛОВИЯХ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация: В статье анализируется роль экогуманистических ценностей в условиях экологической глобализации. Исследование показывает взаимосвязь экологического сознания и гуманистических ценностей, а также их значение для решения современных экологических проблем. Экогуманистические ценности способствуют социальной и культурной трансформации общества и обеспечению гармонии между человеком и природой.

Ключевые слова: экологическая глобализация, экогуманистические ценности, экологическое сознание, социально-культурная трансформация, устойчивое развитие.

THE ROLE OF ECOGUMANISTIC VALUES IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION

Abstract: The article analyzes the role of ecogumanistic values in the context of ecological globalization. The study demonstrates the interconnection between ecological consciousness and humanistic values, as well as their significance in addressing contemporary environmental issues. Ecogumanistic values promote social and cultural transformation and contribute to ensuring harmony between humans and nature.

Keywords: ecological globalization, ecogumanistic values, ecological consciousness, socio-cultural transformation, sustainable development.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish (Indroduction)

XXI asr insoniyat rivojlanishida yangi global jarayonlar va ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlar davrini bosib o‘tmoqda. Shu bilan birga, global miqyosdagi ekologik muammolar, ya’ni iqlim o‘zgarishi, suv va havo resurslarining ifloslanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi va cho‘llanish jarayonlari, insoniyatning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid solmoqda. Fan va texnologiyalar taraqqiyoti turmush sifatini oshirsa-da, yangi texnologik va sanoatlashuv jarayonlari bilan bog‘liq ekologik tahdidlar ham ortib bormoqda.

Bunday sharoitda insoniyat va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik barqarorlikni ta’minlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, **ekogumanistik qadriyatlar** insonning tabiiy muhit bilan axloqiy, madaniy va ijtimoiy moslashuvini ta’minlashda asosiy vosita hisoblanadi.

Shaxsning tabiatga bo‘lgan axloqiy-estetik munosabati buzilishi, yoki befarqligidan tashqari ham demografik o‘sish hamda tez ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish kabi texnogen omillar sababli butunjahon ekologik manzarasiga, inson va tabiatning barqaror rivojlanishiga jiddiy tahdid solinmoqda. Shu bois, XXI-asrning dolzarb tadqiqtalab muammosi sifatida ekogumanizm masalasi birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Xususan O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov mazkur vaziyatni quyidagicha baholagan edi: “Fan va texnika taraqqiyotida jadal suratlar bilan rivojlanib, dunyoning jo‘g‘rofiy siyosiy tuzulishi o‘zgarib borayotgan hozirgi sharoitda inson tomonidan biosferaga ko‘rsatilayotgan ta’sirni tartibga solish, ijtimoiy taraqqiyot bilan qulay tabiy muhitni saqlab qolishning o‘zaro ta’sirini uyg’unlashtirish, inson va tabiatning o‘zaro munosabatlarida muvozanatga erishish muammolari borgan sari dolzarb bo‘lib bormoqda”[1].

So‘nggi 50 yilda yer yuzi aholisi soni deyarli uch marotabaga oshib, global o‘sish natijasida sayyoramiz aholisi soni 8 milliardga yaqinlashmoqda. “1961 yilda insoniyat Yerning barqaror hosildorligining 70 %idan foydalangan; 1980-yillardan beri bu ko‘rsatkich tez suratda oshib bormoqda”[2]. Statistikaga ko‘ra, yerning yuk tashish qobiliyati 2 milliarddan 40 milliardgacha odamni tashkil qiladi. Yer yana qancha odamni boqishi mumkin, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu kabi dolzarb ekologik muammolar sayyoramizda bioxilma-xillikka ham o‘z ta’sirini ko‘rsatib, 2050 yilga kelib, hayvonot turining 25% yo‘qolib ketish xavfi ostida qolishi extimolini bermoqda.

Shuningdek, bugungi kunda 1 mlyarddan ortiq aholi sanitar normalariga binoan xavfsiz ichimlik suviga ega emas, har kuni dunyoda 5000 kishi ifloslangan ichimlik suvidan foydalanish oqibatida barvaqt halok bo‘lmoqda. 2025 yilga borib suv tanqisligidan 2 mlrd. aholi aziyat chekish ehtimoli prognoz qilinmoqda.

Shuni alohida ta’idlash lozimki, **globallashuv jarayonida ekologik ongning shakllanishi va ekogumanistik qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyatini tahlil qilish,** ularning insoniyat va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni barqarorlashtirishdagi roli va istiqbolli rivojlanish strategiyalariga ta’sirini aniqlashdir. Tadqiqot natijalari ekologik ongni rivojlantirish va barqaror ijtimoiy-madaniy transformatsiyani ta’minlash bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Ekologik madaniyatni shakllantirish va uning jamiyatdagi ahamiyatini chuqur anglash uchun qadriyatlarning falsafiy, ilmiy va madaniy qarashlarini o‘rganish zarur. Bu borada bir qator fundamental manbalar va zamonaviy tadqiqotlar mavjud bo‘lib, ular ekologiya, falsafa,

[1] Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo’lida. T.6.-Toshkent: O’zbekiston, 1998.-B.109.
[2] http://blog.cul turalecology.info/2019/01/09/ecological-humanism/#:~:text=Ecological%20humanism%20offers%20a%20third,communitarian%20view%20of%20human%20culture.

axloqshunoslik va madaniyatshunoslik yo‘nalishlarini qamrab oladi. Ekogumanistik dunyoqarashini shakllantirish nazariyasining konseptual asoslariga qaratilgan izlanishlar muhim nazariy va amaliy ekologik-shakllantiruvchi potensialga ega bo‘lib bulardan J.Session[3], La Salle, T.[4], Kallis, Jahn L.[5], A.Pechchei[6], Avraam Maslou, Aldo Leopold, Reychel Karson, Elinor Ostrom, Tim Ingold kabi olimlarning tadqiqotlari ishimizning konseptual metodologik asosini to‘ldiradi. Aldo Leopold “A Sand County Almanac” asarida ekologik axloqning nazariy asoslari ishlab chiqilgan, inson va tabiat o‘rtasidagi etik munosabatlarning mohiyati yoritilgan. Leopoldning fikricha, ekologik madaniyat insonning axloqiy ongini shakllantirish orqali barqaror tabiat bilan uyg‘unlikni ta’minlaydi. Hans Jonas esa “The Imperative of Responsibility” asarida ekologik axloqiy mas’uliyat tushunchasi ilgari suriladi va insoniyatning kelajak avlodlar oldidagi burchi yoritiladi. Jonasning nazariyasi ekologik madaniyat va barqaror rivojlanish konsepsiyalarini chuqur falsafiy asos bilan bog‘laydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Ushbu maqolada ekologik globallashuv sharoitida ekogumanistik qadriyatlarning shakllanishi va ijtimoiy-madaniy ahamiyatini tahlil qilish uchun kompleks metodologiya qo‘llanildi. Tadqiqotning metodologik yondashuvi quyidagi usullarni o‘z ichiga oladi: ijtimoiy-falsafiy tahlil (Socio-philosophical analysis) ,tizimli-tahliliy yondashuv (Systematic-analytical approach), taqqoslash metod (Comparative method), kontent-tahlil (Content analysis), empirik metodlar (Empirical methods) bo‘lib, Bu metodlar kombinatsiyasi ekologik ong va ekogumanistik qadriyatlarning ijtimoiy-madaniy kontekstdagi rolini tizimli va izchil aniqlashga imkon berdi. Tadqiqot natijalari ekologik madaniyatni rivojlantirish va barqaror ijtimoiy-madaniy transformatsiyani ta’minlash bo‘yicha ilmiy asosli tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results)

Ekogumanistik dunyoqarashning genezisi inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik zarurligi haqidagi zamonaviy tushunchani shakllantirgan turli omillarning o‘zaro ta’sirining murakkab jarayonini aks ettiradi. Ekogumanizm ikkita muhim jihatni birlashtiradi: ekologik ong va gumanistik qadriyatlar. Shunday qilib, o‘quvchilarda ekologik-gumanistik dunyoqarashni shakllantirish zamonaviy ekologik muammolarning murakkabligini anglabgina qolmay, balki ularni insonparvarlik qadriyatlari asosida hal etishda faol ishtirok etishiga yordam beradi. Bu inson va tabiat muvozanatda mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan uyg‘un jamiyatni yaratishga yordam beradi. Ekogumanist olim Genrik Skolimovskiyning[7] 1975 yilda nashr etilgan "Ekologik gumanizm" nomli risolasida ilgari surilgan g‘oyalar argumenti sifatida gumanistik ekologik jihat qo‘shgan, gumanizmga ekologik jihat qo‘shgan g‘oya sifatida ekogumanistik dunyoqarash ilmiy iste’molga kirib kelishiga sabab desak mubolag‘a bo‘lmaydi. G‘arb tabiatshunosi Meri Midgli shunday deydi: “Mavjudotlar ichida insoniyat turining maxsus kuchlari va foydalaridan biri boshqalarni e’tiborsiz qoldirmasligidadir. Bu boshqa mavjudotlar bilan nafas olish, bo‘ysunish va birga yashashni anglatadi. Boshqa hech bir hayvon bu miqyosda kuch ko‘rsata olmaydi. Balki

[3] Session.G. (ed). Deep ecology for the Twenty first Century. Boston: Shambhala, 1995/ 520 p.
[4] La Salle, T. (2012). A cultural-ecological model for understanding student perceptions of school climate. (In development).
[5] Kallis, Jahn L. "An ecological approach to management of an important reservoir fishery." The Ohio State University, 2013. http://rave.ohiolink.edu/etdc/view?acc_num=osu1376957161.
[6] Печчеи А. Человеческие качества [Текст] / А. Печчеи; пер. с англ. О. В. Захаровой. — М. : Прогресс, 1980. — 120 с.
[7] Des Jardins, Joseph R. Çevre Etiği: Çevre Felsefesine Giriş. Çeviren: Ruşen Keleş. Ankara: İmge Kitabevi Yayınları, 2006.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

shuning uchun ham insonning bu noyob qobiliyatiga jiddiyroq yondashishimiz va uning ishlash mexanizmini takomillashtirishga harakat qilishimiz kerakdir” [8]-deya ta’kidlab o‘tadi.

Hozirgi vaqtda global ekologik inqiroz real voqelik sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bu inqirozning ekologik falokatga aylanib ketishi vaqt masalasi bo‘lib, insoniyat undan oldini olish uchun ma’lum choralar ko‘rishi yoki tabiiy muhitdan nazoratsiz foydalanishning avvalgi usullarida qolishi mumkin.

Global ekologik inqirozni turli yo‘llar bilan hal etish mumkin. Bu faqat texnologik qayta qurishni tashkil etishni o‘z ichiga olgan barqaror rivojlanish dasturini yaratish orqali emas, balki ekologik ta’lim-tarbiyani markazlashtirish va ekologik dunyoqarash bilan ishlash tizimini takomillashtirish orqali ham amalga oshiriladi.[9]

Ekologik inqirozning global muammolar fonida yuzaga kelishining sabablari qatoridir. Masalan, dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida rasmiy ta’lim tizimida tabiiy va gumanitar fanlar o‘qitilishi yetarlicha uyg‘unlashtirilmagan, shuningdek, turli san’at va madaniyat to‘garaklari soni kamayib bormoqda. Natijada, tabiiy bilimlar faqat nazariy jihatlar bilan cheklanib qolmay, balki amaliy va virtual ta’lim yo‘nalishlari bilan boyitilishi zarur.

Hozirgi davr global ekologik inqirozi sharoitida insoniyatning tabiatga bo‘lgan munosabatini qayta ko‘rib chiqish fundamental zaruriyatga aylandi. Olib borilgan nazariy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy antropotsentrik model o‘rniga **ekogumanizm** paradigmasining shakllanishi sivilizatsiya barqarorligining asosiy shartidir [10].

Ekogumanistik dunyoqarashning genezisi inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlik zarurligi haqidagi zamonaviy tushunchani shakllantirgan turli omillarning o‘zaro ta’sirining murakkab jarayonini aks ettiradi. Ekogumanizm ikkita muhim jihatni birlashtiradi: ekologik ong va gumanistik qadriyatlarga asoslanadi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, ekogumanistik qadriyatlar jamiyatning ma’naviy-axloqiy asosini tashkil etuvchi strategik resursdir. Ularni ta’lim va ijtimoiy siyosatga integratsiya qilish nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki shaxsning gumanistik mohiyatini ochib berish uchun ham xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik ma'naviyat tarixan inson xulqi me'yorlarini, uning jamiyat va tabiatga bo'lgan munosabatlaridagi mas'uliyatini aniqlaydigan mezon bo'lgan. O'zbek xalqi tarixi yosh avlodlarda ekologik madaniyatni shakllantirishga doir boy ijodiy merosga ega bo'lib, bu merosni o'rganish, hayotga tatbik etish hamda kelajak avlodlarga yetkazish shu kunning eng muhim vazifalaridan biridir. Global ekologik muammolar insoniyat hayotining barcha jabhalariga ta’sir ko‘rsatib, ekologik ong va ekogumanistik qadriyatlarning shakllanishini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ekogumanistik dunyoqarash inson va tabiat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, ekologik muammolarni insonparvarlik qadriyatlari asosida hal etish imkonini beradi. Shu bilan birga, ekologik ta’lim-tarbiyaga e’tibor qaratish, tabiiy va gumanitar fanlarni uyg‘unlashtirish hamda amaliy va virtual ta’lim yo‘nalishlarini rivojlantirish barqaror ijtimoiy-madaniy transformatsiyani rag‘batlantiradi. Natijada, ekogumanistik qadriyatlar nafaqat ekologik ongni shakllantirish, balki barqaror jamiyat yaratishning muhim omiliga aylanadi. ekologik muammolarni hal qilishda texnologik yondashuvlar bilan bir qatorda, madaniy va axloqiy yondashuvlarni kuchaytirish zarurati mavjud, bu esa ekologik globallashuv sharoitida ekogumanistik qadriyatlarning markaziy ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

[8] Midgley, Mary. Animals and Why They Matter. Athens, University of Georgia Press, 1983
[9] UNESCO. (2017). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO.
[10] Mamedov N.M. *Ekologicheskaya sivilizatsiya: teoreticheskie osnovaniya i prioriteti.* — M.: 2023. – B. 45-50.

Adabiyotlar (References)

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6.-Toshkent: O'zbekiston, 1998.-B.109.
2. http://blog.cul turalecology.info/2019/01/09/ecological-humanism/#:~:text=Ecological%20humanism%20offers%20a%20third,communitarian%20view%20of%20human%20culture.
3. Session.G. (ed). Deep ecology for the Twenty first Century. Boston: Shambhala, 1995/ 520 p.
4. La Salle, T. (2012). A cultural-ecological model for understanding student perceptions of school climate. (In development)
5. Kallis, Jahn L. "An ecological approach to management of an important reservoir fishery." The Ohio State University, 2013. http://rave.ohiolink.edu/etdc/view?acc_num=osu1376957161.
6. Печчеи А. Человеческие качества [Текст] / А. Печчеи; пер. с англ. О. В. Захаровой. — М. : Прогресс, 1980. — 120
7. Des Jardins, Joseph R. Çevre Etiği: Çevre Felsefesine Giriş. Çeviren: Ruşen Keleş. Ankara: İmge Kitabevi Yayınları, 2006.
8. Midgley, Mary. Animals and Why They Matter. Athens, University of Georgia Press, 1983
9. UNESCO. (2017). *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives*. Paris: UNESCO.
10. Mamedov N.M. *Ekologicheskaya sivilizatsiya: teoreticheskie osnovaniya i prioriteti.* — M.: 2023. – B. 45-50

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Yusupova G. T.
Qo‘qon davlat universiteti
Tarix kafedrasi t.f.f.d (PhD), dotsent
E-mail: gullolaxonyusupova @gmail.com

Received 6th October 2025, Accepted 11th November 2025, Online 30th December 2025

FARG‘ONA IQTISODIY RAYONI QISHLOQ XO‘JALIGI HOLATI

Annotatsiya. Maqolada 1946-1980 yillardagi besh yillik rejalarni bajarilishi O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlaridan biri bo‘lgan Farg‘ona iqtisodiy rayoning sanoat korxonalari, melioratsiya ishlarini olib borilishi to‘g‘risidagi tarixiy ma’lumotlar yoritilgan. SSSR Xalq Komissarlari Soveti VKP(b) Markaziy Komitetining qarorida Farg‘ona iqtisodiy rayonida olib borilgan iqtisodiy va ijtimoiy islohatlari to‘g‘risida arxiv ma’lumotlar bilan bayon etilgan.

Tayanch so‘zlar: besh yillik rejalar, O‘zbekiston, iqtisodiy rayonlar, Farg‘ona, sanoat korxonalari, melioratsiya, tarixiy, SSSR Xalq Komissarlari Soveti, Komitet, ijtimoiy islohatlari.

СОСТОЯНИЕ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА ФЕРГАНСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА

Аннотация. В статье освещены исторические данные о выполнении пятилетних планов 1946-1980 годов, промышленных предприятиях Ферганского экономического района, одного из экономических районов Узбекистана, и мелиоративных работах. В постановлении ЦК Совета Народных Комиссаров ВКП(б) экономические и социальные реформы, проводимые в Ферганском экономическом районе, описаны с использованием архивных данных.

Ключевые слова: пятилетки, Узбекистан, экономические районы, Фергана, промышленные предприятия, мелиорация, исторический, Совет Народных Комиссаров СССР, Комитет, социальные реформы.

THE STATE OF AGRICULTURE IN THE FERGANA ECONOMIC REGION

Annotation. The article covers historical data on the implementation of the five-year plans of 1946-1980, the industrial enterprises of the Fergana economic region, one of the economic regions of Uzbekistan, and the reclamation works. In the decision of the Central Committee of the Soviet of People’s Commissars of the USSR VKP(b), the economic and social reforms carried out in the Fergana economic region are described with archival data.

Key words: five-year plans, Uzbekistan, economic regions, Fergana, industrial enterprises, reclamation, historical, Soviet of People’s Commissars of the USSR, Committee, social reforms.

KIRISH

SSSR Xalq xo‘jaligining muayyan hududiy qismi iqtisodiy – geografik rayon deb hisoblanib, bu rayonlar o‘zining ishlab chiqarishi va kompleks rivojlanishi bilan bir-biridan farq qilardi. Chunki har bir respublikada kengaytirilgan ishlab chiqarish shakllantirilib, ulardagi rayonlar o‘zidagi mavjud ishlab chiqarishi bilan mamlakatdagi “sotsialistik” ishlab chiqarishni

“rivojlanib” borishini ta’minlagan edi. Aslida sovet hokimiyati o‘rnatilgan dastlabki yillardan boshlangan iqtisodiy rayonlashtirish ishlari urushdan keyingi yillarda ham davom ettirildi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid ko‘plab materiallari ham e’tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etdi. Jumladan, K.Bedrinsev, F.Kraveslarning Farg‘ona iqtisodiy ma’muriy rayoniga bag‘ishlangan maqolalari bu iqtisodiy rayon dastlabki tashkil topgan vaqtdagi xo‘jaligi haqida ma’lumotlarni bergan.

Kravets o‘z tadqiqotlarida Farg‘ona iqtisodiy rayoni tarixiga sanoat tarmoqlarining faqat paxtachilik va paxta yetishtirish sohasini rivojiga hissa qo‘shuvchi korxonalar yig‘ilib qolganligi[2] bag‘ishlangan.

O. Abdullayev ta’kidlashicha, Farg‘onada paxta qimmatbaho xom ashyo bo‘lib, undan 300 ga yaqin turli xil mahsulotlar ishlab chiqarilgan. Har 100 kg. paxtadan o‘rta hisobda 30-35 kg. sanoat uchun zarur bo‘lgan tola olingan. Bu tolani to‘qimachilik korxonalarida ishlash natijasida 3000 metr atrofida to‘qima olingan. 100 kg. paxtadan 6-8 kg. lint, 11-12 kg. yog‘, 2,5 kg. sovun va boshqa mahsulotlar olingan deya ta’kidlagan.

A.Axmedov tomonidan esa “1970 yillarda Namanganning shoyi va kastyumbop gazlamalar kombinatida 2800 stanok ishlab turganligi, kelajakda bu yerda mamlakat manfaatlariga xizmat qiluvchi g‘isht zavodi, tikuv fabrikalari, konserva zavodlar va boshqa korxonalar qurilishi belgilanganligi” – alohida ta’kidlab o‘tiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tarixiylik, obyektivlik, abstraklikdan konkretlikka qarab borish, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil singari umumilmiy va umumfalsafiy metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng butun mamlakatda, xususan O‘zbekistonda ham tinch qurilish ishlariga o‘tilishi munosabati bilan qishloq xo‘jaligini ham yanada rivojlantirish masalasi alohida mavzu bo‘ldi. Sug‘orma dehqonchilik uchun muhim bo‘lgan Farg‘ona vodiysida yangi yerlarni o‘zlashtirish ishlariga darhol kirishildi. KPSS s’ezdlari va plenumlarida yangi yerlarni o‘zlashtirish vazifalari, xususan besh yillik rejalarida yerlarni muntazam o‘zlashtirib borish vazifalari belgilab berilaverdi[1]. 1946-1950 yillardagi besh yillik rejalarda qishloq xo‘jaligining asosiy vazifasi – sug‘oriladigan deqonchilik rayonlarida irrigatsiya – melioratsiya ishlarini olib borish belgilandi. SSSR Xalq Komissarlari Soveti VKP(b) Markaziy Komitetining qarorida Farg‘onada ham irrigatsiya – melioratsiya ishlarini olib borish vazifasi belgilandi. Natijada ilgari boshlab qo‘yilgan Sarisuy kollektorlar tizimini, Bog‘dod kollektorlari tizimini, So‘z-Isfara kollektorlari tizimini tugatish va Farg‘ona viloyatining rayonlaridagi boshqa kollektorlar va irrgiatsiya shaxobchalarini yangitdan qurish bo‘yicha ishlar boshlandi. Masalan, o‘n ikkinchi besh yillik rejalarida paxtachilikni rivojlantirish uchun ko‘proq kapital mablag‘ ajratish, mavjud bo‘lgan ishlab chiqvarish resurslaridan samarali foydalanish, hosildorlikni oshirish, tola sifatini yaxshilash, ilmiy – texnika progressi yutuqlarini keng qo‘llash asosida paxta yetishtirish belgilandi.

1950 yillarda «Ferganavodstroy», «Andijanvodstroy», «Namanganvodstroy» trestlari tashkil etildi. Birgina «Ferganavodstroy» va yangi tuzilgan kolxozlararo kengash 1953 yildan 1973 yilga qadar 60 ming gektar yangi yerlarni o‘zlashtirib, bu yerdlarda 3 ta sovxoz, 5 ta kolxoz tashkil etishda ishtirok etdi. Farg‘ona iqtisodiy rayoniga kiruvchi hududlardagi viloyatlarning qulay iqlimi, mehnat resurslarining yetarli darajada ekanligi yerlarni o‘zlashtirish ishlarini yanada tezlashtirishga imkon berganligi sababli 1953 yil 20 oktyabrdagi O‘zKP MQ va O‘zSSR Ministrlar Sovetining «O‘zSSRda sug‘oriladigan yerlarni kengaytirish va suv xo‘jaligining bundan keyingi rivojlanishi chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori, 1954 yil 9 fevral SSSR Ministrlar Sovetining “O‘zSSRda 1954-1958 yillarda paxtachilikni yanada rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zSSR Qishloq xo‘jaligi vazirligining “Markaziy Farg‘ona yerlarini

sug‘orish va o‘zlashtirish ishlarini kuchaytirish to‘g‘risida”gi buyrug‘i, 1958 yilning 18 martida O‘zSSR Ministrlar Sovetining «1958 yilning hosili uchun yangi va qo‘riq (partov) yerlarni o‘zlashtirish to‘g‘risida»gi qarori, 1958 yil 21 aprelda O‘zKP MQ va O‘zSSR Ministrlar Soveti «Markaziy Farg‘onadagi yangi va qo‘riq yerlarni sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha ishlarni kuchaytirish to‘g‘risida»gi qarori, 1959 yil 23 yanvarda O‘zKP MQ va O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti «1959 yilda Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha qurilish ishi dasturini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qarori, 1959 yil 3 avgustda O‘zKP MQ va O‘zSSR Ministrlar Sovetining «1959-1965 yillarda Markaziy Farg‘onada qo‘riq va bo‘z yerlarni sug‘orish hamda o‘zlashtirish to‘g‘risida»gi qarori, 1960 yil 18 martda O‘zSSR Suv xo‘jaligi vazirligining «1960 yilda Markaziy Farg‘ona yerlarini sug‘orish va o‘zlashtirish bo‘yicha qurilish ishi dasturi to‘g‘risida»gi buyrug‘i, 1961 yil 12 mayda O‘zKP MQ va O‘zSSR Ministrlar Soveti «Markaziy Farg‘onada qo‘riq yerlarni o‘zlashtirishning borishi to‘g‘risida»gi kabi qaror va farmoyishlar asosida 1963 yilgacha Markaziy Farg‘onada 60 ming ga qo‘riq yer o‘zlashtirildi[6].

Bu boradagi tadbirlar tabiiyki, melioratsiya va irrigatsiya ishlariga ham ta’sir etdi. Farg‘ona vodiysidagi tashkil etilgan «Ferganavodstroy», «Andijanvodstroy» va «Namanganvodstroy» trestlari hamda viloyatlarning sug‘orish boshqarmalari 19 yil (1953-1972 yy.) mobaynida 1634039 m³ hajmda yer qazish, beton va temir-beton ishlarini amalga oshirdi, shundan 650526 m³ Farg‘ona, 833821 m³ Andijon, 149692 m³ Namangan viloyatiga to‘g‘ri keldi. Ayni paytda qo‘riq va bo‘z yerlarni o‘zlashtirish uchun davlat byudjetidan hamda jamoa xo‘jaliklarning bo‘linmas jamg‘armasidan kapital mablag‘lar ajratish yildan-yilga ortib bordi. Yangi ochilgan hududlarda tuman va posyolkalar, turar-joy binolari qad ko‘tardi. Biroq, bu hududlardagi yangi yerlarning noilmiy asoslarda o‘zlashtirilishi va ularning o‘rnida yirik paxta maydonlarining barpo etilishi, paxtadan hosil olishni ko‘paytirish uchun zaharli kimyoviy moddalardan foydalanilishi ekologiya va atrof-muhitning buzilishiga olib keldi. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, respublika qishloq xo‘jaligi mahsulotining ¾ qismi dehqonchilikka to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan qismi chorvachilikka to‘g‘ri keldi.

Eng achinarli tomoni shundaki, ko‘plab paxtachilikka ixtisoslashgan tuman va davlat xo‘jaliklarda paxta yetishtirishning ortishi vodiyda ham markazning paxta yakkahokimligi amaliyotini yanada kuchaytirib yubordi.

Paxta – respublika qishloq xo‘jaligining asosiy ekini bo‘lib, paxta yetishtirish bo‘yicha O‘zbekiston mamlakatda birinchi o‘rinda turib, SSSR paxtasining 64,1 foizini yetkazib bergan. Shuningdek, tarixchi olimlarining yozishicha, bo‘z yerlarni o‘zlashtirish sohani ekstensiv rivojlanish modelini yaqqol ifodasi bo‘lib, unga ilmiy jihatdan chuqur va har tomonlama ishlab chiqilmadi va unga yuzaki yondoshildi. SSSR siyosiy rahbariyati tomonidan paxta ekiladigan maydonlarning muttasil ravishda kengaytirilishi, sug‘orish ehtiyojlari uchun daryolarda ommaviy ravishda suv omborlarining qurilishi natijasida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan ekologik halokatlarga ham bepisand munosabatda bo‘lish mavjud ahvolni juda chuqurlashtirdi[8].

Sovet davlatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosati davom etib kelayotgan vaqtda qishloq xo‘jaligida ham islohotlar o‘tkazildi. KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining sovxozlarni butunlay xo‘jalik hisobiga o‘tkazish bo‘yicha o‘tkazgan tadbirlari natijasida 1967 yil 1 iyulga kelib O‘zbekistonning o‘zida sovxozlarning uncha katta bo‘lmagan guruhi xo‘jalik hisobiga o‘tdi. 19571960 yillarda respublika bo‘yicha iqtisodiy o‘sishi past bo‘lgan xo‘jaliklar hisobidan 84 ta katta ixtisoslashgan sovxozlar tashkil etildi. Asosan rayonning qo‘qon zonasida joylashgan xo‘jaliklarda yerlarning meliorativ holatini yaxshi emasligi, sho‘r yuvish ishlari bir yilda bir marotaba sifatsiz holda amalga oshirilishi kabi holatlar yetishtiriladigan mahsulot sifatini pasayib ketishiga sabab bo‘lgan. Birgina “Nayman” sovxozida yerlarning sho‘rlashish holatlari juda yuqori bo‘lgan. Hosildorlikni oshirish maqsadida bo‘lsa yangi tashkil etilgan yangi sovxozlar

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

texnik bazasini mustahkamlashda davlat tomonidan mablag‘ ajratildi. 1963 yilda bu tashkil etilgan sovxozlarning natijadorligi O‘rta Osiyo qishloq xo‘jaligi instituti xodimlarining yig‘ilishida ko‘rib chiqildi. Shu holda ham qishloq xo‘jaligida hosildorlikni oshirish maqsadida vazifalar turli belgilandi. Yig‘ilishda ta’kidlanishicha, bu tashkil etilgan sovxozlarda 74 ming tonna paxta topshirishga muvaffaq bo‘lganlar. Xo‘jalik hisobiga o‘tgan sovxozlarda ishlab chiqarishga ajratilgan mablag‘ni aniq hisobini olib borish, qishloq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini birdek rivojlanishi ta’minlanishi lozim edi. Biroq, 1960 yillarning o‘zida respublikada 71 ta sovxoz 13 mln. rubl bilan yilni yakunladi. 50 ta xo‘jalik belgilangan rejani 8,6 mln. rublga kam bajardi va sezilardi darajada moliyaviy muammoga uchradi. Farg‘onada ham uzoq yillarda davomida zarar hisobiga ishlangan sovxozlar bo‘lib, birgina “So‘x” sovxozi belgilangan 304.000 ming rubl daromad o‘rniga yilning bir millondan ortiq zarar bilan yakunladi.

Paxtachilikni rivojlantirish maqsadida butun respublikada suv inshootlari qurish ishlari ham amalga oshirildi. Buning uchun 1971-1975 yillarda sug‘orish ishlariga 3 mlrd.700 mln. rubl ajratildi. Biroq, respublikadagi sug‘orish tarmoqlaridan 16 mlrd. kub. suv yer osti sizot suvlariga qo‘shilib ketdi. Hatto, yer osti suvlaridan ham paxtachilikda foydalanish maqsadida gidrogeologlar hisob-kitob o‘tkazib, ularning ta’kilashicha, yer osti suvlarining hajmi 1970 yillarda Farg‘ona vodiysida m^3. sek.,ni, Toshkent viloyatida 135 m^3. sek., Quyi Amudaryoda – 315 m3. sek.,ni tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, farg‘ona vodiysi yer osti suvlari serobligi bilan ham alohida ajralib turgan va ularni ham keladkda paxtachilik uchun ishlatish belgilangan[10].

Rejalar, ilmiy farazlar ishlab chiqilgani bilan yillar o‘tishi davomida ekinlarga mahalliy o‘g‘it solish masalasi barcha viloyatlarda orqada qolaverdi. Belgilangan vazifalarni bajarish, uning ilmiy loyihalarini ishlab chiqish bilan o‘tib ketgan vaqtlar oralig‘ida 1970 yilning noyabr oyiga kelib 948,2 ming gektar yerda sug‘orish shahobchalarini yaxshilash zarurati kelib chiqdi, 787,2 ming gektar yerda zovurlarni yaxshilash va qurish, 989,3 ming gektarda kapital tekkislash ishlarini o‘tkazish belgilandi. Respublika bo‘yicha 1 mln. 400 ming gektarga yaqin yerning meliorativ holatini yaxshilash zarurati yuzaga keldi. Buning oqibatida yiliga 6-7 sentnerdan paxta kam hosil olinib, respublikada sug‘oriladigan yerlarning 37 foizdan ortig‘i sho‘rlandi, sho‘rlanish tufayli respublika bo‘yicha yiliga 400-500 ming tonna kam hosil olindi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sovet davlatiningn mamlakatda mintaqalarni umumittfoq miqyosida to‘g‘ri ixtisoslashuvini tashkil etish, kompleks ravishda rivojlangan xo‘jalik vujudga keltirish, iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan rayonlarni ko‘tarib, ishlab chiqaruvchi kuchlarni butun mamlakat bo‘yicha joylashtirish, ilg‘or rayonlar darajasiga ko‘tarish maqsadida amalga oshirgan iqtisodiy rayonlashtirish siyosati ma’lum darajada yutuqlarga erishishga olib kelgan bo‘lsada, biroq, xalq xo‘jaligini markaziy rejalashtiruv asosida boshqarilishi, erkin iqtisodiy munosabatlarga chek qo‘ydi, ma’muriy - buyruqbozlik tizimi saqlanib qoldi. Faqat ba’zi boshqaruv funksiyalari mahalliy boshqaruvga berildi. Oqibatda mamlakatda ma’muriy va iqtisodiy rayonlashtirishda qarama - qarshiliklar kelib chiqdi.

SSSRda mavjud bo‘lgan boshqa iqtisodiy rayonlar bilan bir-biriga iqtisodiy ta’sir qilish orqali bog‘lanib, bitta respublikada yoki bir necha respublikani birlashtirdi. Bir necha respublikani birlashtirgan rayonlar Katta iqtisodiy rayon deb ataldi. Katta O‘rta Osiyo iqtisodiy rayoni sovet davlati xalq xo‘jaligi tizimida mamlakatning asosiy paxta, ipak, qorako‘l, rangli metallurgiya, kimyo hamda tog‘-kon sanoati bazasi sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Mashanasozlik korxonalari paxtachilik uchun zarur bo‘lgan mashinalar hamda ularning ehtiyot qismlarini, irrigatsiya-melioratsiya ishlari uchun zarur bo‘lgan mashinauskunalarni, paxta tozalash va to‘qimachilik sanoatlari uchun uskuna va mashinalar ishlab chiqarsa, kimyo sanoati korxonalarida mineral o‘g‘itlar ishlab chiqarildi.

Adabiyotlar:

1. КПСС съездлари, конференциялари ва Марказий Комитет Пленумларининг резолюция ва қарорлари. III қисм. -Тошкент: Ўздавнашр, 1954. -Б.635.
2. Кравец Ф. Фарғона иқтисодий маъмурий райони // Қизил Ўзбекистон. 1957 йил 8 июнь.
3. СССР экономикасида пахтанинг аҳамияти // Қизил Ўзбекистон. 1953 йил 25 ноябрь
4. Абдуллаев О., Маҳмудов Н, Қозоқов О. Ўзбекистонда пахта тозалаш саноатининг ривожланиши. – Тошкент. Ўзбекистон, 1986. – 3 бет.
5. Ахмедов А. Наманган областининг бугуни ва эртаси. – Тошкент: Ўзб. ССР Билим жам, 1974. 3-4 бетлар.
6. Фарғона области. (Тарихий-иқтисодий справочник). – Тошкент. Ўзбекистон, 1974. - 95 бет.
7. Комилов О. Ўзбекистонда ирригация тизими ривожланиши ва унинг оқибатлари (1951-1990 йй.). Тарих фан. Докт. Илм.дараж. олиш учун тақдим этюдисс. – Андижон. 2017. - 173 бет.
8. Акрамов З. Ўзбекистоннинг хўжалиги. – Тошкент. Ўзбекистон ССР билим жамияти, 1977. -14 бет.
9. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Иккинчи китоб. 1939-1991 йиллар. – Тошкент. O‘ZDEKISTON, 2019. - 132 бет.
10. Гафуров Х. Совхозы-на полный хозяйственный расчет // Экономика ижизнь. 1967 год 12 декабря. – С.64.
11. Акрамов З. Ўзбекистоннинг хўжалиги. – Тошкент. Ўзбекистон ССР билим жамияти, 1977. -16-17 бетлар.
12. Берикбаев Р.Б. Совершенствование размышления и развития производительных сил Узбекистана. – Ташкент. Изд. ЦК КП Узбекистана, 1971.- С.28.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Xidirov Suxrob Norbo‘tayevich
sots.f.d. (PhD), dotsent.
suxrob.xidirov.82@gmail.com

Received 6th October 2025, Accepted 11th November 2025, Online 30th December 2025

RADIKALIZM VA EKSTREMIZMGA QARSHI KURASHISH IJTIMOIY XAVFSIZLIKNING USTUVOR YO‘NALISHI SIFATIDA

Annotatsiya: Mazkur maqolada radikalizm va ekstremizm hodisalari jamiyat barqarorligi hamda ijtimoiy xavfsizlikka tahdid sifatida ko‘rib chiqiladi. Ijtimoiy xavfsizlik tizimini ta’minlashda ushbu xavf-xatarlarga qarshi kurashishning ustuvor yo‘nalishlari, davlat va fuqarolik jamiyati institutlari hamkorligi hamda xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Shuningdek, profilaktika, tarbiya, huquqiy mexanizmlar va axborot xavfsizligini ta’minlashning o‘rni alohida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Radikalizm, ekstremizm, ijtimoiy xavfsizlik, profilaktika, fuqarolik jamiyati, barqarorlik, terrorizmga qarshi kurash, huquqiy mexanizmlar.

БОРЬБА С РАДИКАЛИЗМОМ И ЭКСТРЕМИЗМОМ КАК ПРИОРИТЕТНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ

Аннотация: В статье рассматривается феномен радикализма и экстремизма как угроза стабильности общества и социальному обеспечению. Анализируются приоритетные направления борьбы с этими угрозами в обеспечении системы социального обеспечения, сотрудничество между государственными и гражданскими институтами, а также международный опыт. Подчёркивается роль профилактики, просвещения, правовых механизмов и обеспечения информационной безопасности.

Ключевые слова: Радикализм, экстремизм, социальное обеспечение, профилактика, гражданское общество, стабильность, борьба с терроризмом, правовые механизмы.

COMBATING RADICALISM AND EXTREMISM AS A PRIORITY DIRECTION OF SOCIAL SECURITY

Abstract: This article examines the phenomena of radicalism and extremism as a threat to the stability of society and social security. The priority areas of combating these threats in ensuring the social security system, cooperation between state and civil society institutions, and international experience are analyzed. The role of prevention, education, legal mechanisms, and ensuring information security is also highlighted.

Keywords: Radicalism, extremism, social security, prevention, civil society, stability, combating terrorism, legal mechanisms.

KIRISH

So‘nggi yillarda globallashuv jarayonlari, migratsiya oqimlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi radikalizm va ekstremizmning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Bu jarayonlar nafaqat milliy xavfsizlik, balki ijtimoiy xavfsizlik uchun ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda. O‘zbekiston ham bu jarayonlardan chetda qolmagan. Shu sababli, radikalizm va ekstremizmga

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

qarshi kurashish ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida davlat siyosatida alohida o‘rin egallaydi. Radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashish ijtimoiy xavfsizlikning ustuvor yo‘nalishi sifatida davlatlar va xalqaro tashkilotlar uchun eng muhim masalalardan biridir. Ushbu muammoning ko‘lami global xarakterga ega bo‘lib, u nafaqat xavfsizlikka, balki ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy rivojlanish va inson huquqlari sohasiga ham jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilmiy adabiyotlarda radikalizm va ekstremizm o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar sifatida talqin etiladi. Radikal qarashlar muayyan sharoitlarda ekstremistik harakatlarga zamin yaratishi mumkin. Shu jihatdan, ularni faqat huquqiy emas, balki ijtimoiy, ma’naviy va mafkuraviy muammo sifatida ham ko‘rib chiqish lozim.

MUHOKAMA

Quyida radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashishning asosiy jihatlari, strategiyalari va O‘zbekiston kontekstida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida batafsil ma’lumot beriladi.

Radikalizm va ekstremizmning mohiyati

Radikalizm – bu jamiyatdagi mavjud tuzum yoki qadriyatlar tizimini tubdan o‘zgartirishga qaratilgan keskin g‘oyalar yoki harakatlar sifatida ta’riflanadi. Ekstremizm esa, ko‘pincha zo‘ravonlik, qo‘rqitish yoki noqonuniy usullar orqali ushbu g‘oyalarni amalga oshirishga urinishdir. Bu ikki tushuncha ko‘pincha bir-biriga bog‘liq bo‘lsa-da, radikalizm har doim ham ekstremizmga olib kelmaydi. Biroq, ekstremizmning ildizlari ko‘pincha radikal g‘oyalardan kelib chiqadi.

Radikalizm va ekstremizmning paydo bo‘lishiga bir qator omillar sabab bo‘ladi:

- Iqtisodiy omillar: Ishsizlik, qashshoqlik va iqtisodiy tengsizlik odamlarni radikal guruhlarga qo‘shilishga undashi mumkin.
- Ijtimoiy omillar: Adolatsizlik, diskriminatsiya, ijtimoiy chetlanish va integratsiya muammolari.
- Siyosiy omillar: Siyosiy beqarorlik, korruptsiya yoki davlat institutlariga ishonchsizlik.
- Diniy va ideologik omillar: Diniy yoki mafkuraviy g‘oyalarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki ulardan foydalanish.
- Global omillar: Xalqaro terrorizm tarmoqlari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekstremistik g‘oyalarni targ‘ib qilish.

Ijtimoiy xavfsizlik kontekstida radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashish

Ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlash uchun radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashish ko‘p qirrali yondashuvni talab qiladi. Quyida ushbu yo‘nalishdagi asosiy strategiyalar keltiriladi:

Preventiv choralar va ta’lim

Radikalizmning oldini olish uchun eng samarali usullardan biri – bu jamiyatda, ayniqsa yoshlar orasida ma’rifiy ishlarni kuchaytirishdir. Bunga quyidagilar kiradi:

- Ta’lim tizimida islohotlar: Maktablar va oliy o‘quv yurtlarida fuqarolik, tolerantlik, ko‘p madaniyatli muloqot va inson huquqlari haqida darslar kiritish.
- Jamoatchilikni xabardor qilish: Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekstremistik g‘oyalarning xavf-xatarlari haqida ma’lumot tarqatish.
- Yoshlar bilan ishlash: Yoshlarni ijtimoiy faoliyatga jalb qilish, ularga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratish, masalan, sport, san’at yoki ijtimoiy loyihalar orqali.

Qonuniy va huquqiy choralar

Radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda qonunchilik muhim rol o‘ynaydi:

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

- Qonuniy baza yaratish: Ekstremistik faoliyatni moliyalashtirish, targ‘ib qilish va tashkil etishga qarshi qat’iy qonunlar qabul qilish.

- Huquq-tartibot idoralari faoliyati: Maxsus xizmatlar tomonidan ekstremistik tashkilotlarning faoliyatini monitoring qilish, ularning noqonuniy harakatlarini aniqlash va oldini olish.

- Jazolarni qo‘llash: Ekstremistik harakatlarda ishtirok etgan shaxslarga nisbatan adolatli va qonuniy jazo choralarini qo‘llash, lekin shu bilan birga ularni jamiyatga reintegratsiya qilish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish.

Ijtimoiy-iqtisodiy omillarga e’tibor

Radikalizmning ko‘p sabablari iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga bog‘liq. Shu sababli:

- Ish o‘rinlari yaratish: Ishsizlikni kamaytirish va yoshlarga barqaror daromad manbai ta’minlash.

- Ijtimoiy tenglik: Diskriminatsiya va ijtimoiy adolatsizlikni bartaraf etish orqali jamiyatdagi keskinlikni kamaytirish.

- Infrastruktura rivojlantirish: Aholining turmush sharoitini yaxshilash, ayniqsa chekka hududlarda.

Xalqaro hamkorlik

Radikalizm va ekstremizm ko‘pincha transmilliy xarakterga ega bo‘lib, uni bartaraf etish uchun davlatlar o‘rtasida yaqin hamkorlik zarur:

- Axborot almashinuvi: Xalqaro xavfsizlik tashkilotlari (masalan, BMT, Interpol) bilan hamkorlikda ekstremistik tashkilotlarning faoliyatini monitoring qilish.

- Moliyaviy nazorat: Terrorizmni moliyalashtirishni aniqlash va oldini olish uchun xalqaro moliya tizimlarida hamkorlik.

- Birgalikdagi operatsiyalar: Ekstremistik guruhlarga qarshi birgalikda maxsus operatsiyalar o‘tkazish.

Madaniy va diniy dialog

Diniy ekstremizmning oldini olish uchun diniy yetakchilar va jamoat arboblari muhim rol o‘ynaydi:

- Dinlararo muloqot: Turli diniy jamoalar o‘rtasida o‘zaro hurmat va tushunishni targ‘ib qilish.

- Diniy ta’lim: Diniy g‘oyalarni noto‘g‘ri talqin qilishning oldini olish uchun to‘g‘ri diniy ta’limni targ‘ib qilish.

- Madaniy integratsiya: Turli madaniyatlar va etnik guruhlar o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish.

O‘zbekiston kontekstida radikalizm va ekstremizmga qarshi kurash

O‘zbekiston Respublikasi o‘zining ijtimoiy xavfsizlik strategiyasida radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashga katta e’tibor qaratadi. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan asosiy choralar quyidagilardan iborat:

“Mahallabay” tizimi: O‘zbekistonda mahalla instituti ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Mahalla qo‘mitalari orqali aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli monitoring qilinadi, yoshlarning radikal g‘oyalarga qo‘shilishining oldini olish uchun ular bilan doimiy ishlash amalga oshiriladi.

Yoshlar siyosati: O‘zbekiston hukumati yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni ta’lim va ish bilan ta’minlash orqali ekstremizmga qarshi immunitetni mustahkamlashga harakat qilmoqda. “Yoshlar kelajagimiz” kabi dasturlar bu yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega.

Diniy sohada islohotlar: O‘zbekiston diniy ekstremizmning oldini olish uchun diniy ta’limni tartibga solish va diniy yetakchilar bilan yaqin hamkorlik qilish yo‘lini tanlagan. Masalan,

Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda diniy ekstremizmga qarshi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Xalqaro hamkorlik: O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT), Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashmoqda. Bu jarayonda axborot almashinuvi va maxsus operatsiyalar muhim o‘rin tutadi.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarni nazorat qilish: Ekstremistik g‘oyalarning internet orqali tarqalishini oldini olish uchun maxsus monitoring tizimlari joriy etilgan.

XULOSA

Radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashish ijtimoiy xavfsizlikni ta’minlashning ajralmas qismidir. Bu jarayon nafaqat huquqiy va xavfsizlik choralarini, balki ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ta’lim sohasidagi keng ko‘lamli islohotlarni talab qiladi. O‘zbekiston bu yo‘nalishda muhim qadamlar tashlamoqda, ammo muammoning murakkabligi tufayli doimiy ravishda yangi yondashuvlar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, radikalizm va ekstremizmga qarshi kurash ijtimoiy xavfsizlikning eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Bu borada davlatning qat’iy siyosati bilan bir qatorda, jamiyatning barcha qatlamlari, xususan, yoshlarning faolligi ham zarur.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2000.
2. Huntington S. *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. – New York: Simon & Schuster, 1996.
3. Barber B. *Jihad vs. McWorld*. – New York: Ballantine Books, 1995.
4. Esposito J. *Unholy War: Terror in the Name of Islam*. – Oxford: Oxford University Press, 2002.
5. To‘xtaboyev O. “O‘zbekiston sharoitida diniy ekstremizmga qarshi kurash mexanizmlari.” – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
6. Yo‘ldoshev A. “Radikalizm va ijtimoiy xavfsizlik masalalari.” – Toshkent: Adolat, 2019.
7. BMT. *United Nations Global Counter-Terrorism Strategy*. – New York, 2019.
8. YeXHT. *Countering Violent Extremism: Best Practices*. – Vienna, 2021.
9. SHHT materiallari. *Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash dasturi*. – Moskva, 2020.
10. Abdurahmonov B. “Ijtimoiy xavfsizlik tizimida radikalizmga qarshi kurashning o‘rni.” – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
11. Qarshiyev I. “Globallashuv sharoitida ekstremizm va uning oldini olish.” – Samarqand, 2022.
12. OECD. *Preventing Radicalisation: Policy Responses*. – Paris, 2020.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Isoqov Zafarjon Zokirjonovich
Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan
davlat chet tillari instituti Turizm va Tarjima kafedrasi dotsenti v.b., PhD
zafarjon.isoqov.84@mail.ru

Received 6th October 2025, Accepted 11th November 2025, Online 30th December 2025

HUDUDLARDA MAHALLIY BUDJET SOLIQLI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Annotatsiya: Hududlarda mahalliy budjet daromadlari, xususan soliqli daromadlar — hududiy iqtisodiy mustaqillik, infratuzilma taraqqiyoti va ijtimoiy xizmatlar uchun asosiy moliyaviy manba hisoblanadi. Mahalliy soliqlarni samarali shakllantirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va hududning o'sish salohiyatini yuksaltirishda strategik ahamiyatga kasb etadi. Bu tadqiqot hududlarda soliqli daromadlar bazasini chuqur o'rganish, uning barqarorligini oshirish yo'llarini aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: mahalliy budjet, transfertlar, mahalliy budjetni rejalashtirish, mahalliy soliqlar, daromad bazalari, daromad siyosati, davlat byudjeti, hududlar moliyasi, mahalliy boshqaruv organlari, budjetlararo munosabatlar, yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, majburiy to'lovlar, soliq stavkalari, soliq tizimi, soliq siyosati, soliqli daromadlar.

ПЕРСПЕКТИВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЛОГОВЫХ ДОХОДОВ ДЛЯ МЕСТНОГО БЮДЖЕТА В РЕГИОНАХ

Аннотация: В регионах доходы местных бюджетов, в частности налоговые поступления, являются основным источником финансирования региональной экономической независимости, развития инфраструктуры и социальных услуг. Эффективное формирование местных налогов имеет стратегическое значение для обеспечения экономической стабильности и повышения потенциала роста региона. Цель данного исследования — провести углублённое изучение налоговой базы в регионах и определить пути повышения её устойчивости.

Ключевые слова: местный бюджет, трансферы, планирование местного бюджета, местные налоги, налоговая база, налоговая политика, государственный бюджет, региональные финансы, органы местного самоуправления, межбюджетные отношения, юридические лица, физические лица, обязательные платежи, налоговые ставки, налоговая система, налоговая политика, налогооблагаемый доход.

PROSPECTS FOR THE FORMATION OF TAX REVENUES FOR LOCAL BUDGETS IN THE REGIONS

Abstract: In the regions, local budget revenues, in particular tax revenues, are the main source of financing for regional economic independence, infrastructure development, and social services. Effective local tax formation is of strategic importance for ensuring economic stability and increasing the region's growth potential. The purpose of this study is to conduct an in-depth study of the tax base in the regions and identify ways to increase its sustainability.

Keywords: local budget, transfers, local budget planning, local taxes, tax base, tax policy, state budget, regional finances, local government bodies, interbudgetary relations, legal entities, individuals, mandatory payments, tax rates, tax system, tax policy, taxable income.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

KIRISH

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning yangi bosqichida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash maqsadida davlat moliyasi tizimini isloh etish, uni mazmun va sifat jihatdan zamon talablari asosida takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. So‘nggi yillarda budjet tizimi bo‘g‘inlari daromad va xarajatlarini mutanosibligini ta’minlash borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda budjetlararo munosabatlarni samarali tashkil etish mahalliy budjetlar daromadlarini oshirish va hududlarning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Mamlakatimizda mahalliy budjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash va nomarkazlashtirish asosida hududlarni kompleks rivojlantirish, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda aholi bandligini ta’minlash, ijtimoiy infratuzilmani jadal rivojlantirish hisobiga soliq salohiyatini kengaytirish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mahalliy budjetlar daromadlarini shakllantirish tartibi hamda mahalliy budjetlar daromadlarini mustahkamlashda budjetlararo munosabatlarning joriy holatini o‘rganishda ilmiy o‘rganish, mantiqiylik, tizimli tahlil va ilmiy abstraksiya, statistik tahlil, qiyoslash kabi usullardan foydalanilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mahalliy budjetlarning daromad bazasini tubdan mustahkamlash, ular daromadlari va xarajatlari mutanosibligiga erishish, shuningdek, mahalliy hokimiyat organlari vakolatlarini oshirish borasida iqtisodchi olimlar tomonidan qator izlanishlar olib borilgan.

Bir qator iqtisodchilar tomonidan soliq tushumlarini taqsimlash mexanizmiga oid qarashlarida budjet tizimi budjetlari muvozanati va barqarorligini ta’minlash, shuningdek mablag‘larni shakllantirish usul va vositalari, vakolatlar biriktirilishi nuqtai nazaridan yondashilgan.

Mahalliy olim M.Kimsanboyeva “Soliq tushumlari mahalliy moliyaviy mustaqillikni ta’minlashda muhim manba sifatida qaralib, ularning budjetlararo munosabatlardagi ahamiyati ochib beradi” - deb ta’kidlagan[1].

Olim N.Sharipov “Soliq salohiyati mahalliy budjet daromadlarini shakllantirish va ularning barqarorligini ta’minlashda moliyaviy mustaqillikni oshirishning asosiy vositasi hisoblanadi.” — Soliq salohiyati hududlarda soliqli daromadlar bazasini kengaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ifodalaydi[2].

U.Shoydaliyev esa “Mahalliy budjetlarning soliqli daromadlari manbalarini shakllantirish va daromadlar barqarorligini ta’minlash mexanizmlari tahlil qilgan” bo‘lib, mahalliy soliqlarni muntazam va tartibli yig‘ish orqali budjet barqarorligini ta’minlash zaruratini ko‘rsatadi [3].

G.Mukaddasova ham o‘z maqolasida “Mahalliy budjetlar uchun soliq siyosati, shu jumladan mahalliy soliqlar mexanizmini takomillashtirish, ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va soliq stimullarini kuchaytirish orqali budjet daromadlarini oshirish imkoniyatlari tahlil qilgan” — Bu fikr soliq siyosatining hudud daromadlariga ta’sirini yoritgan[4].

Shuningdek, Olim S.Zikirov “Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot hududiy budjet daromadlarini oshirish hamda soliq tushumlarini kuchaytirish uchun ijobiy imkoniyatlar beradi” deb

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ta’kidlagan[5]. Bu hududlar rivojlanishi va mahalliy budjetlar daromadlari o‘sishining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mahalliy budjetlar O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining muhim tarkibiy qismini tashkil etadi hamda mahalliy hokimiyatlarning faoliyat ko‘rsatishlarida muhim moliyaviy manba bo‘lib hisoblanadi. Mahalliy budjetlar mahalliy talab-ehtiyojlarni to‘laroq qondirishni hamda davlatning markazlashgan tartibda amalga oshiradigan tadbirlarini bajarilishi bilan chambarchas bog‘langan holda ijro etishga imkon beradi. Mahalliy hokimiyat organlariga mahalliy budjet daromadlarini ko‘payishi va resurslarni tejamkorlik bilan sarflanishi vazifasi yuklatiladi.

1-jadval. Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetining 2019-2023-yillar daromadlari miqdorlari to‘g‘risida ma’lumot (mlrd.so‘m) [6]

Hududlar	Yillar				
	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	2 833,3	1 869,3	2 499,5	2 843,7	2 933,10
Andijon viloyati	2 187,4	2 418,6	3 246,5	3 931,2	3 782,00
Buxoro viloyati	2 142,3	2 374,1	3 425,3	3 876,6	3 898,80
Jizzax viloyati	1 050,8	1 460,4	1 822,8	2 227,9	2 151,10
Qashqadaryo viloyati	2 935,7	2 722,1	3 920,0	4 607,5	4 572,50
Navoiy viloyati	1 353,6	1 947,8	2 432,9	3 039,4	2 690,30
Namangan viloyati	2 016,5	2 297,1	3 265,4	3 516,8	3 391,40
Samarqand viloyati	2 714,8	3 154,8	4 197,7	5 100,1	5 312,60
Surxondaryo viloyati	1 741,6	1 993,3	2 670,6	3 043,0	2 989,10
Sirdaryo viloyati	751,1	881,7	1 147,8	1 390,3	1 528,10
Toshkent viloyati	2 582,9	3 734,1	4 526,0	6 024,1	5 448,40
Farg‘ona viloyati	3 005,6	3 665,1	4 778,5	5 169,3	5 273,60
Xorazm viloyati	1 402,2	1 743,1	2 384,2	2 740,7	2 876,90
Toshkent shahri	3 556,1	4 911,4	7 073,2	8 218,3	10 176,90
Jami	**30 273,9**	**35 173,0**	**47 390,3**	**55 728,9**	**57 024,70**

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, 2020–2024-yillar davomida respublika hududlari mahalliy budjet daromadlari umumiy hisobda barqaror o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan. Xususan, jami mahalliy budjet daromadlari 2020-yilda 30 273,9 mlrd.so‘m hamda 2024-yilda esa 57 024,7 mlrd.so‘m bo‘lib, 5 yil davomida qariyb 1,9 baravarga oshgan. Bu holat hududlarda soliq bazasining kengaygani, iqtisodiy faollikning ortgani va soliq ma’muriyatchiligi samaradorligi oshganidan dalolat beradi.

Yuqori o‘sish sur’atidagi hududlar Toshkent shahri mahalliy budjet daromadlari bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Unda 2020-yilda 3 556,1 mlrd.so‘m va 2024-yilda 10 176,9 mlrd.so‘mni tashkil etadi. Bu 2,86 barobar o‘sish bo‘lib, poytaxtda sanoat, xizmatlar sohasi, savdo va investitsiya faolligi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Toshkent viloyati (2 582,9 → 5 448,4 mlrd so‘m) va Samarqand viloyati (2 714,8 → 5 312,6 mlrd so‘m) ham yuqori o‘sish sur’atlari bilan ajralib turadi.

Ushbu hududlarda sanoatlashuv, turizm va logistika salohiyati mahalliy budjet daromadlarining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Tahlilda Farg‘ona, Qashqadaryo, Buxoro va Andijon viloyatlarida daromadlar o‘rtacha o‘sish izchil oshgan. Farg‘ona viloyati daromadlari 2020-yildagi 3 005,6 mlrd.so‘mdan 2024-yilda 5 273,6 mlrd.so‘mga yetgan. Bu hududlarda qishloq xo‘jaligi, qayta ishlash sanoati va kichik biznesning rivojlanishi mahalliy soliqli tushumlarni kengaytirgan.

Nisbatan past o‘sish sur’atlari kuzatilgan hududlar esa Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida daromadlar hajmi boshqa hududlarga nisbatan pastdir. Sirdaryo viloyati 2024-yilda 1 528,1 mlrd.so‘m daromad bilan eng quyi ko‘rsatkichga qayd etgan. Bu holat mazkur hududlarda soliq bazasining torligi, sanoat va xizmatlar sohasi yetarli darajada rivojlanmagani hamda aholi daromadlari nisbatan pastligi bilan izohlanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida mahalliy budjet daromadlari beqaror, ammo o‘sishga moyil bo‘lgan hudud hisoblanadi. Hududda 2021-yilda keskin pasayish (1 869,3 mlrd so‘m) hamda 2022–2024-yillarda barqaror o‘sish kuzatilgan.

Bu hudud iqtisodiyotining iqlim sharoitlari, ekologik muammolar va ishlab chiqarish tarkibining cheklanganligi bilan bog‘liq bo‘lib, markazlashgan qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadval ma’lumotlari hududlararo moliyaviy nomutanosiblik mavjudligini ko‘rsatadi. 2024-yilda Toshkent shahri daromadlari Sirdaryo viloyatiga nisbatan 6,6 barobar yuqoriligini ko‘rish mumkin. Bu holat hududlarda iqtisodiy rivojlanish darajasi va soliq salohiyatining notekis taqsimlanganidan dalolat beradi.

Mazkur tafovutlarni kamaytirish uchun hududiy investitsiya dasturlarini kengaytirish, sanoatni hududlarga joylashtirish hamda mahalliy soliqlar bo‘yicha rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni kuchaytirish zarurdir.

Mahalliy budjet daromadlari umumiy o‘sish tendensiyasiga ega, bu hududiy moliyaviy mustaqillikning kuchayib borayotganidan dalolat beradi. O‘sish asosan iqtisodiy rivojlangan hududlarda yuqori bo‘lib, kam rivojlangan hududlarda davlat qo‘llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga kasb etadi.

Soliq bazasini kengaytirish, tadbirkorlikni rag‘batlantirish va mahalliy boshqaruv vakolatlarini oshirish hududiy budjet daromadlari barqarorligini ta’minlashning asosiy istiqbolli yo‘nalishlari hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mahalliy budjet soliqli daromadlari hududiy moliyaviy mustaqillikning asosiy manbai hisoblanadi. Ularning barqaror shakllanishi hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Hududlar o‘rtasida soliqli daromadlar hajmi va o‘sish sur’atlarida sezilarli tafovutlar mavjud bo‘lib, bu iqtisodiy salohiyat, soliq bazasi, sanoatlashuv darajasi va investitsiya faolligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, sanoat, xizmatlar sohasi va tadbirkorlik rivojlangan hududlarda mahalliy budjet daromadlari yuqori, iqtisodiy rivojlanishi nisbatan past hududlarda esa budjet daromadlari markaziy transfertlarga yuqori darajada bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Soliq salohiyatidan to‘liq foydalanilmasligi, yashirin iqtisodiyot ulushining mavjudligi va soliqlarni undirish mexanizmlarining yetarlicha samarali emasligi mahalliy budjet soliqli daromadlarining barqaror o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mahalliy hokimiyat organlarining soliq siyosatini amalga oshirishdagi vakolatlari cheklanganligi hududiy daromadlar bazasini mustaqil kengaytirish imkoniyatlarini susaytirmoqda.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, hududlarda mahalliy budjet soliqli daromadlarini

shakllantirish istiqbollarini ta’minlash maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- soliq salohiyatini aniqlash va to‘liq safarbar etish maqsadida har bir hudud bo‘yicha soliq salohiyatini kompleks baholash tizimini joriy etish;
- soliq tushumlari va real iqtisodiy imkoniyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash orqali yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish;
- soliq bazasini kengaytirish va diversifikatsiya qilish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali mahalliy soliqlar manbalarini ko‘paytirish;
- hududlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini kengaytirishga qaratilgan investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlash;
- soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish maqsadida soliq hisoboti va nazoratini to‘liq raqamlashtirish;
- soliq organlari va mahalliy hokimiyatlar o‘rtasida axborot almashuvini kuchaytirish orqali soliqlarni undirish samaradorligini oshirish;
- mahalliy hokimiyat vakolatlarini kengaytirish maqsadida mahalliy soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha stavkalarni belgilash va imtiyozlar berish vakolatlarini hududiy organlarga bosqichma-bosqich topshirish;
- mahalliy budjet daromadlarini oshirishga erishgan hududlarni moliyaviy rag‘batlantirish mexanizmini joriy etish;
- hududlararo moliyaviy tafovutlarni kamaytirish maqsadida kam rivojlangan hududlarda soliq bazasini kengaytirishga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini amalga oshirish;
- budjetlararo transfertlarni hududlarning soliq salohiyati va natijadorligi bilan bog‘lash;
- ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish maqsadida yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va rasmiy bandlikni kengaytirish orqali soliqli daromadlar bazasini mustahkamlash;
- hududiy infratuzilmani rivojlantirish orqali biznes muhiti jozibadorligini oshirish;

Umuman olganda, hududlarda mahalliy budjet soliqli daromadlarini shakllantirish istiqbollari soliq salohiyatidan samarali foydalanish, soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish va mahalliy boshqaruv organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ushbu yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan tizimli islohotlar hududiy rivojlanish barqarorligini ta’minlash va mahalliy budjetlarning mustahkam moliyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o‘rni, Maftuna Kimsanboyeva, GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT (2024).

2. Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliq salohiyatining ahamiyati, Narzullo Sharipov, GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT (2024).

3. Mahalliy budjetlar daromadlari barqarorligini ta’minlash yo‘llari, Umid Shoydaliyev, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (2024).

4. The Role of Local Budgets in Tax Policy, Gavxarxon Nodirxonovna Mukaddasova, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot (2024).

5. Prospects for increasing local budgets' revenues based on the social and economic development of the region, Zikirov Samandar Usmonovich, American Journal Of Social Sciences And Humanity Research (2025).

6. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyiot va moliya vazirligining imv.uz sayiti ma'lumotlari.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Islombek Rakhmonberdiev
Tashkent State University of Economics.
Senior Lecturer, Department of Economics and Management
Doctor of philosophy (PhD)
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-0078-3637
Email: islombekrakhmonberdiev@gmail.com

Received 4th October2025, Accepted 11th November 2025, Online 30th December 2025

THE IDEA OF "NEW UZBEKISTAN": STRATEGIC THINKING AND THE PHILOSOPHY OF INTER-CIVILIZATIONAL DIALOGUE

Abstract. This article analyzes the *New Uzbekistan* idea as a philosophically grounded framework of strategic thinking oriented toward inter-civilizational dialogue. It argues that New Uzbekistan represents more than a reformist political slogan; it constitutes a normative reconfiguration of how strategy, civilization, and social consciousness are conceptualized in a multipolar world. Drawing on qualitative discourse analysis and philosophical interpretation, the study situates New Uzbekistan between two competing paradigms: conflict-centered civilizational determinism and dialogical pluralism. Engaging the works of Samuel P. Huntington, Zbigniew Brzezinski, Jürgen Habermas, and Emmanuel Levinas, the article demonstrates that New Uzbekistan advances a hybrid strategic philosophy: one that integrates ethical responsibility, communicative rationality, and geopolitical awareness. The article concludes by outlining the philosophical and institutional conditions required for sustaining dialogical strategy in a complex regional and global environment.

Keywords: New Uzbekistan, strategic thinking, inter-civilizational dialogue, philosophy of strategy, communicative rationality, ethics of the Other

"YANGI O'ZBEKISTON" G'OYASI: STRATEGIK TAKLIF VA SIVILIZATSIYALARARO MULOQOT FALSAFASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston g'oyasi sivilizatsiyalararo muloqotga yo'naltirilgan strategik fikrlashning falsafiy asoslangan doirasi sifatida tahlil qilinadi. Unda Yangi O'zbekiston shunchaki islohotchi siyosiy shiordan ko'proq ahamiyatli ekanligi, u ko'p qutbli dunyoda strategiya, sivilizatsiya va ijtimoiy ong qanday kontsepsiyalanganligining me'yoriy qayta konfiguratsiyasini tashkil etishi ta'kidlanadi. Sifatli diskurs tahlili va falsafiy talqinga tayanib, tadqiqot Yangi O'zbekistonni ikkita raqobatdosh paradigma: mojaroga asoslangan sivilizatsiya determinizmi va dialogik plyuralizm orasiga qo'yadi. Samuel P. Huntington, Zbignev Bjezinski, Yurgen Habermas va Emmanuel Levinasning asarlarini o'rganib, maqolada Yangi O'zbekiston gibrid strategik falsafani ilgari surayotgani ko'rsatilgan: axloqiy mas'uliyat, kommunikativ ratsionallik va geosiyosiy ongni birlashtirgan falsafa. Maqola murakkab mintaqaviy va global muhitda dialogik strategiyani saqlab qolish uchun zarur bo'lgan falsafiy va institutsional shartlarni bayon qilish bilan yakunlanadi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, strategik fikrlash, sivilizatsiyalararo muloqot, strategiya falsafasi, kommunikativ ratsionallik, boshqalarning etikasi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

ИДЕЯ «НОВОГО УЗБЕКИСТАНА»: СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ПРЕДЛОЖЕНИЕ И ФИЛОСОФИЯ ДИАЛОГА МЕЖДУ ЦИВИЛИЗАЦИЯМИ.

Аннотация В данной статье анализируется идея Нового Узбекистана как философски обоснованная концептуальная основа для стратегического мышления, ориентированного на межцивилизационный диалог. Утверждается, что Новый Узбекистан – это не просто реформистский политический лозунг; он представляет собой нормативную перестройку того, как стратегия, цивилизация и социальное сознание концептуализируются в многополярном мире. Опираясь на качественный дискурсивный анализ и философскую интерпретацию, исследование помещает Новый Узбекистан между двумя конкурирующими парадигмами: конфликтно-ориентированным цивилизационным детерминизмом и диалогическим плюрализмом. Опираясь на работы Сэмюэля П. Хантингтона, Збигнева Бжезинского, Юргена Хабермаса и Эммануэля Левинаса, статья утверждает, что Новый Узбекистан продвигает гибридную стратегическую философию: философию, сочетающую моральную ответственность, коммуникативную рациональность и геополитическое сознание. В заключение статьи излагаются философские и институциональные условия, необходимые для поддержания диалогической стратегии в сложной региональной и глобальной среде.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, стратегическое мышление, диалог между цивилизациями, философия стратегии, коммуникативная рациональность, этика других.

Introduction

In the contemporary global order, strategic thinking is increasingly challenged by civilizational fragmentation, geopolitical rivalry, and normative uncertainty. Against this backdrop, the *New Uzbekistan* idea has emerged as a comprehensive framework guiding political reform, social transformation, and international engagement in Uzbekistan. Official discourse presents New Uzbekistan not only as a domestic modernization project but also as a strategic vision grounded in openness, dialogue, and cooperation across civilizational boundaries [1].

This dual orientation raises important philosophical questions. What conception of strategy underlies the New Uzbekistan idea? Is strategy understood merely as the rational management of power and interests, or does it incorporate ethical, communicative, and civilizational dimensions? More fundamentally, does New Uzbekistan offer a viable alternative to paradigms that frame civilizational interaction primarily in terms of conflict and competition?

This article situates the New Uzbekistan idea within two major intellectual debates. The first concerns the nature of civilization in international relations. Samuel P. Huntington's *Clash of Civilizations* thesis famously argued that cultural and civilizational identities would become the dominant source of conflict in the post–Cold War era [2]. In contrast, international organizations and dialogical theorists have promoted inter-civilizational dialogue as a normative foundation for peaceful coexistence. The second debate concerns the philosophy of strategy itself: whether strategic thinking should be confined to realist calculations of power—as exemplified by Zbigniew Brzezinski—or expanded to include ethical responsibility and communicative legitimacy [3].

By integrating these debates, this article argues that New Uzbekistan articulates a form of *philosophical strategy*: a strategic orientation that recognizes geopolitical realities while rejecting civilizational determinism in favor of dialogical pluralism.

Literature review

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

The ideas raised in Samuel Huntington's works, their extraordinary aspects of the dialogue between civilizations in the system of international relations that has passed and is passing in the 20th-21st centuries, sharply different from those of other political scientists and philosophers, are actively being actively discussed and critically interpreted to this day on topics related to his views. It is noteworthy that some of the views of the scientist, even before they took the form of major works, were already the basis for heated discussions when they were announced in analytical articles, conversations, conferences on controversial issues, and interviews. In particular, his controversial work “The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order” is a central theme in the research of several prominent scholars and researchers. In particular, American scientist Francis Fukuyama [4], European scholars Timothy Garton Ash [5], Peter J. Katzenstein [6], German researcher Amitai Etzioni [7], Edward Said [8], Chinese Wang Gungwu [9], Singaporean Kishore Mahbuba [10], American Noam Chomsky [11], Robert D. Kaplan [12], Farid Zakaria [13], Russian Alexander Dugin [14], Dmitry Suslov [15], Y.M. Reznik [16], M.N. Korotkova [17], V.I. Katrandzhiev [18], Y.V. Tumina [19], D.V. Serbinenko [20], Venezuelan Moises Naim [21], Argentine Guillermo O'Donnell [22], Mexican Jorge Castaneda [23], etc. have conducted research on it. In our study, we tried to reveal the inextricable connection between the idea of "New Uzbekistan" and the philosophy of dialogue between civilizations, based on the philosophical aspects, ideological features, regional and civilizational affiliation, interests, geopolitical aspects of the studies that studied the scientist's legacy, and the approaches to the heritage of researchers.

Methods

This study employs a qualitative, interpretive methodology combining discourse analysis, conceptual comparison, and normative philosophical synthesis. The primary empirical material consists of official speeches, policy statements, and programmatic texts articulating the New Uzbekistan idea. These texts were analyzed to identify recurrent strategic and civilizational themes, including dialogue, sovereignty, modernization, dignity, and cooperation.

The analytical framework unfolds in three stages. First, discourse analysis was applied to examine how strategy and civilization are framed in official narratives. Second, comparative conceptual analysis situated these narratives within established philosophical and geopolitical paradigms, particularly Huntington’s civilizational conflict model and Brzezinski’s realist strategic thought. Third, normative philosophical interpretation drew on the theories of Jürgen Habermas and Emmanuel Levinas to assess the ethical and communicative dimensions of New Uzbekistan’s strategic vision.

This methodology does not aim at causal explanation or policy evaluation. Instead, it seeks to clarify the conceptual architecture and normative assumptions embedded in strategic discourse, treating strategy as a culturally and philosophically mediated practice rather than a purely technical instrument.

Results

1. Strategy beyond instrumental rationality

The analysis reveals that New Uzbekistan discourse consistently frames strategy in terms that exceed instrumental rationality. Strategic thinking is linked not only to security and development but also to values such as dignity, openness, and mutual respect. This indicates an effort to redefine strategy as a long-term, value-oriented process rather than short-term power maximization.

2. Civilization as a dialogical space

Official narratives increasingly depict civilization as a shared, interactive space shaped by historical exchange rather than as a closed and antagonistic entity. Inter-civilizational dialogue is

presented as a strategic resource—one that enhances legitimacy, trust, and resilience in international relations [24].

3. Ethical orientation in strategic discourse

The language of responsibility, respect for difference, and peaceful coexistence suggests an implicit ethical orientation in strategic thinking. While not explicitly philosophical, this orientation resonates with Levinasian ethics, in which responsibility to the Other precedes strategic calculation [25].

Discussion

The findings support the interpretation of New Uzbekistan as a form of *dialogical strategic philosophy*. In contrast to Huntington's civilizational determinism, New Uzbekistan treats civilizational identity as historically contingent and politically mediated. Civilization is not destiny, but a field of interaction shaped by ethical and communicative choices.

Habermas's theory of communicative rationality illuminates how dialogue can function as a source of strategic legitimacy: policies gain durability not merely through coercive power but through discursive justification and shared understanding [26]. Levinas's ethics adds a critical corrective, reminding us that dialogue must remain ethically grounded and not be reduced to instrumental diplomacy.

At the same time, Brzezinski-style realism highlights the constraints within which dialogical strategy must operate. Central Asia remains a geopolitically complex environment, and dialogical aspirations must be balanced with strategic prudence. The originality of the New Uzbekistan idea lies precisely in this tension: it seeks to integrate ethical dialogue into strategic thinking without denying geopolitical reality.

Conclusion

This article has argued that the idea of New Uzbekistan represents a philosophically significant rethinking of strategy and civilization. By embedding inter-civilizational dialogue within strategic thinking, New Uzbekistan advances a hybrid model that combines ethical responsibility, communicative legitimacy, and geopolitical awareness.

The sustainability of this model depends on institutionalizing dialogical practices, cultivating civic and strategic literacy, and maintaining ethical coherence under geopolitical pressure. For scholars, the New Uzbekistan case offers a valuable example of how strategic thinking can be philosophically reimagined beyond determinism and pure realism.

Future research should explore how dialogical strategy operates in practice through comparative studies, empirical analysis of public perception, and theoretical modeling of the relationship between dialogue, legitimacy, and long-term stability in multipolar systems.

REFERENCES

1. United Nations. *Intercivilizational and Intercultural Dialogue* (reports). URL: https://www.unesco.org/en/interculturaldialogue
2. Huntington, Samuel P. (1996). *The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order*. New York: Simon & Schuster.
3. Brzezinski, Zbigniew (1997). *The Grand Chessboard*. New York: Basic Books.
4. Francis Fukuyama. The End of History and the Last Man. Free Press, 1992.
5. Free World: America, Europe, and the Surprising Future of the West (Random House, 2004).

6. Cohen, Benjamin J. (2008). International Political Economy: An Intellectual History. Princeton University Press. pp. 131-134.
7. Амитай Этциони. https://ru.wikipedia.org/wiki/
8. Edward Said. Culture and Imperialism. Chatto&Windus, 1993.
9. Ван Гунгву. https://wiki5.ru/wiki/Wang_Gungwu
10. Mahbubani, Kishore. The Great Convergence: Asia, the West, and the Logic of One World, PublicAffairs,2013, ISBN 978-1610390330
11. Noam Chomsky. World Orders Old and New. Columbia University Press, 1996.
12. Roberd D. Kaplan. The ends of the earth: a journey at the dawn of the 21st century. New York: Random House, 1996.
13. Fareed Zakaria. The American Encounter: The United States and The Making of the Modern World Essays from 75 Years of Foreign Affairs, 1997.
14. Alexandr Dugin. The United States and The New World Order (debate with Olavo de Carvalho). VIDE Editorial, 2012.
15. Suslov, Dmitri. Multipolarity: The promise of disharmony. Frankfurt / New York. Campus Verlag, 2018.
16. Ю.М.Резник. Два проекта цвилизационного будущего России: Хантингтон против Данилевского (Опыт актуальной ре конструкции).
17. Короткова М.Н. эволюция философско-политических концпций Ф.Фукуямы и С.Хантингтона: компаративный анализ. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата политических наук. Пермь-2011. 20 с.
18. Катранджиев В.И. Эволюция взглядов Сэмюэла Хантингтона по основным проблемам американской и мировой политики: 1955 - 2000 гг. Диссертация на соискание ученой степени кандидат исторических наук. Москва. 2000. 185 с.
19. Тумина Ю.В. Эволюция доктринальных основ внешней политики США в условиях глобализации. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидат исторических наук. Нижний Новгород – 2012. 18 с.
20. Сербиненко Д.В. Реорганизация системы национальной безопасности США в контексте формирования современной американской внешнеполитической стратегии: 1993-2004 г. Автореферат дисс. на соискани учено степени кандидат исторически наук. Москва-2005. 28 с.
21. Naim, Moises. Rethinking the World: 111 surprises of the XXI century.
22. O'Donnell, Guillermo, "Democracy, Law, and Comparative Politics", Studies in Comparative International Development Vol. 36, Nº 1 (2001): 7-36.
23. Castaneda, Jorje. America through Foreign Eyes, 2020.
24. UNESCO. *Dialogue among Civilizations and Cultures* (various publications).
25. Levinas, Emmanuel (1969). *Totality and Infinity*. Pittsburgh: Duquesne University Press.
26. Habermas, Jürgen (1984). *The Theory of Communicative Action*. Boston: Beacon Press.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Shermatov Avazbek G‘ofur o‘g‘li
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Received 4th November 2025, Accepted 11th December 2025, Online 30th December 2025

YANGI O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH TAJRIBASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy etish jarayonining hozirgi holati, mavjud muammolari hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va “Sun’iy intellektni 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” kabi normativ hujjatlar asosida davlat siyosati, infratuzilma, ta’lim tizimi va iqtisodiyot sohalaridagi o‘zgarishlar yoritilgan. Maqolada O‘zbekistonning raqamli transformatsiya, xususan SI ni joriy etish borasida olib borayaotgan siyosati ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt (SI), raqamli transformatsiya, raqamli infratuzilma, innovatsiya, ta’lim, huquq, axloq, iqtisod, SI strategiyasi.

ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В данной статье анализируется текущее состояние развития технологий искусственного интеллекта (ИИ) в Узбекистане, существующие проблемы и пути их преодоления. В исследовании освещаются изменения в государственной политике, инфраструктуре, системе образования и экономике на основе таких нормативных документов, как стратегия “Цифровой Узбекистан – 2030” и “Стратегия развития искусственного интеллекта до 2030 года”.

Ключевые слова: Искусственный интеллект (ИИ), цифровая трансформация, цифровая инфраструктура, инновации, образование, право, этика, экономика, стратегия ИИ.

EXPERIENCE OF USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE NEW UZBEKISTAN

Annotation. This article analyzes the current state of artificial intelligence (AI) technology development in Uzbekistan, its challenges, and ways to overcome them. The study highlights changes in public policy, infrastructure, the education system, and the economy based on regulatory documents such as the “Digital Uzbekistan 2030” strategy and the “Artificial Intelligence Development Strategy by 2030”.

Key words: Artificial intelligence (AI), digital transformation, digital infrastructure, innovation, education, law, ethics, economics, AI strategy.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish (Introdustion). Sun'iy intellekt (SI) bugungi global siyosiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy qismiga aylandi. U rvojlanayotgan davlatlar uchun an'anaviy modernizatsiya bosqichlarini tezkorlik bilan bosib o'tish imkonini beradi. Shu jihatdan, O'zbekiston uchun SI texnologiyalarini joriy etish davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va ta'lim tizimini transformatsiya qilishda strategik ahamiyatga ega.

O'zbekistonda 2020-yildan boshlab raqamli transformatsiya jarayonlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi[6], Prezidentning SI texnologiyalarini rivojlantirishga oid qarori[12] va 2030-yilgacha bo'lgan "Sun'iy intellekt strategiyasi" [11] milliy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu strategiyalar mamlakatni Markaziy Osiyoda raqamli markazga aylantirish, 100 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratish va IT eksportini 1,5 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan[11].

Prezident qarorlari, ixtisoslashtirilgan muassasalar bilan mustahkamlangan faol va markazlashgan yondashuv O'zbekistonda SI ni joriy qilishni tezlashtirishga qaratilgan kuchli siyosiy iroda mavjudligidan dalolat beradi. Bunday markazlashgan strategik rivojlantirish boshqa mamlakatlarda kuzatilayotgan fragmental(uzuq-yuluq) yondashuvdan farqli ravishda sohadagi siyosatni tezkorlik bilan amalga oshirishga va resurslarni taqsimlashga imkon beradi. Bu o'z navbatida O'zbekistonni rivojlanayotgan mamlakat bo'lishiga qaramay SI ga tayyorgarlik jabhasida mintaqaviy yetakchi ekanligini namoyish qiladi. Bunday yondashuv boshqa davlatlarda kuzatilayotgan mutlaq bozorga asoslangan yoki fragmentlangan strategiyalardan farq qiladi va O'zbekistonga tegishli siyosatni amalga oshirishda katta afzalliklarni taqdim qiladi. Biroq, qat'iy siyosiy irodaga qaramay, O'zbekiston raqamli siyosatining muvaffaqiyati qanday institutsional muammolar sababli xavf ostida qolishi mumkin ? Davlatning sun'iy intellekt siyosati amaliyotga samarali tadbiq etilishi uchun nimalar qilish yoki qilmaslik kerak ? SI nazorati xorij tajribasida qanday amalga oshirilmoqda ? SI bo'yicha milliy va xorijiy siyosat o'rtasida qanday umumiylik bor? Shu kabi savollarga javob topish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Tadqiqot deskriptiv-tahliliy usulda, davlat hujjatlari, rasmiy statistik ma'lumotlar, milliy va xalqaro ilmiy manbalarni tizimli tahlil qilish asosida amalga oshirildi. Tahlillar davlat boshqaruvi, ta'lim va iqtisodiyot kabi muhim sohalarda SI ni joriy etishning hozirgi holatini, muammolarini va yechim yo'llarini o'z ichiga oladi. O'zbekistonning xalqaro SI tayyorgarlik indeksidagi o'rni yaxshilanayotgan bo'lishiga qaramay texnologik infratuzilma (ma'lumotlar markazlari, serverlar) yetishmasligi, yuqori malakali kadrlar tanqisligi va huquqiy bazaning to'liq shakllanmaganligi kabi muammolar soha rivojidagi asosiy to'siqlar hisoblanishi ko'rsatiladi. O'zbekiston SI sohasida erishgan yutuqlariga qaramay uning oldida barqaror rivojlanish uchun infratuzilmani kengaytirish, kadrlar tayyorlashni jadallashtirish va huquqiy-tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabi vazifalar mavjud.

Tadqiqot materiallari O'zbekistonning sun'iy intellekt milliy strategiyasi, davlatning raqamli siyosatini tartibga soluvchi hujjatlar va sun'iy intellektning turli sohalarda qo'llanilishini tahlil qiluvchi boshqa ilmiy manbalardan iborat.

Masalaga ilmiy-nazariy jihatdan yondashish maqsadida milliy va xorijiy manbalar tahlil qilindi.

Xususan, tadqiqotchi A. Yo'ldoshev o'zining ilmiy ishlarida O'zbekistonda sun'iy intellektni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari, rivojlanish holati va istiqbollari, uning global miqyosda

insoniyatga ta’siri kabi muhim masalalarni tadqiq qilgan. Uning “O‘zbekistonda sun’iy intellektni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari” nomli maqolasida “O‘zbekistonda sun’iy intellektni huquqiy tartibga solishda hozirgacha amalga oshirilgan chora-tadbirlar ijobiy samara bermoqda. Biroq mavjud qonunchilik tizimidagi belgilangan normalar hali ham global miqyosdagi xavf-xatarlarni tartibga solish, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va algoritmik shaffoflikni ta’minlashda yetarli emas. Bu holat xorijiy tajribalar bilan solishtirilganda yaqqol seziladi” degan xulosani beradi[16].

S.Gulyamov va S.Bozarovlar o‘z ishlarida sun’iy intellekt (SI) rivojlanishining xalqaro tajribasi va O‘zbekistondagi istiqbollarini atroflicha tahlil qiladi. Mualliflar AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi, shuningdek Kanada, Yaponiya, Hindiston va BAAning milliy strategiyalarini solishtirib, ularning kuchli va zaif jihatlarini ko‘rsatgan. Mualliflar O‘zbekiston SI sohasida dastlabki qadamlarni qo‘yayotgani, muvaffaqiyat uchun esa aniq strategik hujjat, huquqiy baza va investitsion muhit zarurligini ta’kidlaydilar. Mualliflar mamlakatda ilmiy-ekotizim yaratish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish, SI ni qishloq xo‘jaligi, moliya, transport, tibbiyot va boshqaruv sohalariga joriy etish bo‘yicha takliflarni ilgari suradi. Ularning xulosa qilishicha, O‘zbekiston soha rivojida global yetakchilarga ergashish emas, balki milliy ehtiyojlarga mos, inson huquqlariga hurmat ruhida bo‘lgan, barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi strategiyani ishlab chiqishi lozim[9].

Hozirda O‘zbekistonning SI bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirishiga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan xalqaro tajriba o‘rganilib, ikkita asosiy global yondashuv mavjudligi aniqlandi: Yevropa Ittifoqining huquqlarga asoslangan gorizontal modeli va Xitoyning davlat nazoratiga asoslangan vertikal modeli. Bu modelga qo‘shimcha Amerika modeli borligini ham ajratib ko‘rsatish mumkin. U yaqin paytlargacha rivojlanishda ehtiyotkorlik va huquqlarni ustuvor deb bilgan Yevropa modeliga o‘xshashlikdan bugungi kunda texnologik poygada qanday bo‘lmasin yetakchi bo‘lish va maksimal foyda olishni asosiy o‘ringa qo‘yuvchi shaklga keskin transformatsiya bo‘ldi. Bunga 2025-yilda AQShda davlat rahbari o‘zgarishi bilan boshlangan siyosiy evrilishlar sabab bo‘ldi.

Yevropa Ittifoqi Sun’iy intellekt qonuni(EU AI Act) 2024-yil avgust oyida kuchga kirgan bo‘lib, u dunyodagi birinchi keng qamrovli SI ni tartibga soluvchi akt sifatida tan olinadi. Akt insonning asosiy huquqlarini, xavfsizligini va sog‘lig‘ini himoya qilishni ustuvor vazifa deb biladi[4].

Qounga ko‘ra Yevropa ittifoqida xavfsizlik, sog‘liq yoki insonning asosiy huquqlari uchun “qabul qilib bo‘lmaydigan xavf”larni yaratuvchi sun’iy intellekt tizimlari taqiqlanadi. Shuningdek, insonning ijtimoiy xulq-atvorini baholaydigan SI dasturlaridan foydalanish mumkin emas.

Xitoyning SI ni tartibga solish yondashuvi Yevropadagi gorizontal tizimdan farqli o‘laroq, “vertikal” bo‘lib, ma’lum bir texnologiya turiga, masalan, generativ SI yoki algoritmik tavsiyalarga qaratilgan[2]. Xitoyning asosiy maqsadi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va axborotni nazorat qilishdir.

E’tiborli jihati, Xitoyda SI ni nazorat qilishda Deep Synthesis nomli qoidalar majmui ishga tushirilgan. Bu sintetik mediaga (matn, tasvir, ovoz) majburiy belgilar (*labeling*) qo‘yishni talab qiladi[2]. Bu shaffoflik mexanizmi foydalanuvchiga kontentning sun’iy ekanligini osongina tanish imkoniyatini berishi kerak. Xitoyning mazkur yondashuvi O‘zbekistonda ham tobora ommalashayotgan generativ SI dasturlarining ijtimoiy xavflarini (masalan, dezinformatsiya, firibgarlik) boshqarish uchun tezkor va amaliy yechim bo‘lishi mumkin.

Qayd etish kerakki, SI rivojlanishida YeI yondashuvi Xitoyda amalda bo‘lgan SI ga asoslangan ijtimoiy reyting tizimlarini qat’iy rad etadi. Shuni hisobga olib, SI ning fuqarolarni kuzatish vositasiga, total nazorat mashinasiga aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadga muvofiq. Umumiy qilib aytganda, dunyo mamlakatlari kabi O‘zbekiston tajribasi ham sun’iy intellektni rivojlantirishda kuchli nazorat va qat’iy taqiqlarni asosiy o‘ringa qo‘yishdan ko‘ra, texnologiyaning yutuqlarini o‘z vaqtida hayotga tadbiq etishni maqsad qilganligini ko‘rish mumkin.

Siyosiy jarayonlarda sun’iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin. O. A. Yamanovaning fikricha, SI siyosiy jarayonlarni tezkor va shaffof qilish, davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish, ijtimoiy kayfiyat va jamoatchilik fikrini tahlil etish, xavfsizlikni ta’minlashda muhim vosita bo‘lishi mumkin[19]. Misol uchun, Belgiyada CitizenLab loyihasi orqali fuqarolar talablarini SI yordamida tahlil qilib, davlat siyosatini shakllantirish ishlari amalga oshirilmoqda[19, 288]. SI shuningdek, AQShda parlamentdagi qonun loyihalari, tuzatishlar va amaldagi qonunlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash jarayonini avtomatlashtirish uchun ham qo‘llanilmoqda[19, 288]. Umuman olganda, SI siyosatda qo‘llanganda samaradorlik, shaffoflik va fuqarolar ishonchini mustahkamlash imkonini beradi, ammo buning uchun huquqiy me’yorlar va axloqiy tamoyillar bilan uyg‘un mexanizmlar ishlab chiqilishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology).

SI ning boshqaruv va davlat xizmatlariga ta’siri

O‘zbekiston 2026-yilga kelib davlat xizmatlarini raqamlashtirishni 70 foizga oshirishga intilmoqda. 760 dan ortiq davlat xizmatlari allaqachon raqamlashtirilgan va o‘tgan 2024-yilda 10 million fuqaro ushbu raqamli platformalardan foydalangan. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish masalasi davlat rahbarining ham doimiy e’tibor markazida turadi. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyev mas’ullar bilan uchrashuvda ta’lim, sog‘liqni saqlash, qurilish va kommunal xizmatlar kabi muhim sohalardagi raqamli yechimlarga ustuvor ahamiyat berib, “raqamli hukumat” ning keyingi bosqichiga o‘tish zarurligini ta’kidlagan edi[18].

O‘zbekiston sun’iy intellektga tayyorgarlik xalqaro indeksida katta o‘sishga erishdi. 2024-yilda 17 pog‘onaga yuqorilab, 70-o‘rinni band qildi[16]. 2025-yilda esa yana 8 pog‘onaga yuqorilab, 62-o‘rinni egalladi[20]. Hukumat sun’iy idrok texnologiyasini jamiyat hayotiga keng joriy etish yuzasidan bir qator amaliy harakatlarni amalga oshirmoqda. Yaqin kelajakda davlat xizmatchilarini sun’iy intellekt bo‘yicha o‘qitib, malakasini oshirish, hududlarda “bulutli” ma’lumotlar markazlarini ishga tushirish, SI ga asoslangan loyihalar sonini oshirish singari amaliy chora-tadbirlar o‘tkazish bilan bog‘liq muhim rejalar ishlab chiqilgan[7].

Sun’iy intellektni davlat boshqaruvi sohasiga olib kirish shaffoflik, samaradorlik va tezkorlikni oshirishi va vaqti kelib ko‘proq ijtimoiy qiymat yaratishi mumkin. SI byurokratik jarayonlarni kamaytirish, shaffoflikni oshirish va korrupsiyaning oldini olishda katta yordam beradi. Biroq, O‘zbekiston sun’iy intellektni tartibga solish va uni keng joriy etishda bir qator muammolarga ham duch kelayotganini qayd etish lozim. Bu eng avvalo, soha rivoji uchun zarur texnologik infratuzilmaning cheklanganligi, katta hajmli ma’lumotlarni qayta ishlash uchun data-markazlar, milliy serverlarning yetishmasligida ko‘rinadi. Shuningdek, kadrlar salohiyati pastligi, davlat tilidagi ochiq ma’lumotlarning yetarli emasligi, moliyaviy resurslarning kamligi, normativ-huquqiy bazaning to‘liq

shakllanmaganligi kabi boshqa bir qator muammolar mamlakatda sun’iy intellekt sohasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko‘rsatadi.

Ta’lim va yoshlarga ta’sir

Sun’iy intellekt (SI) O‘zbekistonning ta’lim tizimini isloh qilishda, yoshlarning ta’lim sifatini oshirish va ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. SI va raqamli texnologiyalarni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish ularning ta’limga integratsiyalashuvini rag‘batlantiradi. Taraqqiyot strategiyasi markazi ekspertlari J.Sharipov va R. Nuridinovlarning ta’kidlashicha, sun’iy intellektni ta’lim jarayoniga muvaffaqiyatli va xavfsiz integratsiya qilish uchun axloqiy jihatlarni hamda o‘quvchilar va o‘qituvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishni nazarda tutuvchi ta’lim sohasida sun’iy intellektdan foydalanishni tartibga solishning aniq huquqiy asoslarini belgilash zarur[10]. Shuningdek, O‘zbekistonda ta’limda sun’iy intellekt tizimlarini sertifikatlashning milliy standartini ishlab chiqish talab etiladi[10].

SI ning ijobiy ta’siri shaxsiylashtirilgan ta’lim va ta’lim qamrovini oshirishda namoyon bo‘ladi. Masalan, UNICEF kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda O‘zbekistonda o‘qituvchilarning raqamli savodxonligini oshirish, raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha turli sinov loyihalari amalga oshirilmoqda[1]. Bunday loyihalar ustozlarning ta’limda sun’iy intellekt yechimlarini qo‘llash malakasini shakllantirishni ham nazarda tutadi.

O‘zbekistonda bolalarni SI bilan ishlashga maktab yoshidanoq o‘rgatish ishlari olib borilayotganini ta’kidlash kerak. Xususan, 2025-yilning sentyabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida mamlakatda keyingi, 2026-2027 o‘quv yilidan boshlab umumta’lim maktablarining yuqori sinflari uchun sun’iy intellekt bo‘yicha darslar joriy qilinishi e’lon qilindi[5]. Yangi fanlarni samarali o‘qitish uchun 2 mingta sinf xonasi kompyuterlar bilan jihozlanadi, 6,3 mingta interfaol doska o‘rnatiladi. Ushbu maqsadlar uchun zarur mablag‘lar keyingi yilgi davlat budjetida ko‘zda tutiladi. Avvalroq 1-sinfdan boshlab axborot texnologiyalari darslari yo‘lga qo‘yilgani hisobga olinsa, yuqori sinf bosqichiga yetgan o‘quvchilar SI ni ishlatish uchun zarur texnologik qurilmalardan foydalanishni yetarlicha o‘zlashtirgan bo‘lishadi. Shunday qilib, maktab o‘quvchilari sun’iy intellekt tadriji bilan hamohang ravishda rivojlanib borish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Bu esa mamlakatning global texnologik poygada eng muhim potensial – yoshlari bilan munosib qatnashishiga imkon berib, milliy manfaatlariga to‘la javob beradi.

Shuningdek, sun’iy intellektning ta’limdagi xatarlarini ham inobat olish lozim. SI ga haddan tashqari bog‘lanib qolish bolalarda ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni kamaytirishi, raqamli tengsizlikni kuchaytirishi, algoritmlarning biryoqlamaligi va shaxsiy xavfsizlikka putur yetishi kabi axloqiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday xavflarni minimallashtirish uchun ta’limda an’anaviy usullar va samarali tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Iqtisod.

SI strategiyasining eng muhim maqsadlaridan biri mamlakat iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shishdan iborat. O‘zbekiston kabi mamlakatlarda SI texnologiyalarini qo‘llash raqamli transformatsiyani tezlashtirish va iqtisodiy raqobatbardoshlikni oshirish uchun ajoyib imkoniyat sanaladi. O‘zbekistonda raqamlashtirish siyosati tezlik bilan amalga oshirila boshlandi. Buni hukumatning innovatsiyalarni rivojlantirish va ilg‘or texnologiyalarni qishloq xo‘jaligi, ishlab chiqarish va moliya kabi muhim hayotiy sohalarga integratsiyalashga qaratilgan tashabbuslari

tasdiqlaydi[8]. Masalan, O‘zbekiston Jahon banki tomonidan tayyorlangan GovTech Maturity Index 2025 da davlat raqamli texnologiyalarining yetukligi eng yuqori bo‘lgan mamlakatlarning A guruhiga kiritildi[22]. O‘zbekistonning ushbu toifaga kiritilishi so‘nggi yillarda davlat boshqaruvini raqamlashtirishda erishilgan sezilarli yutuqlarni o‘zida aks ettiradi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi O‘zbekistonda yangi biznes yo‘nalishlarining paydo bo‘lishiga imkon beradi. Raqamli ilm-fan, mashinaviy o‘rganish va algoritmlarni ishlab chiqish kabi sohalarda ish bilan ta’minlashning yangi imkoniyatlari yaratiladi. SI ga asoslangan texnologiyalar tufayli mamlakatning yoshlardan iborat ishchi kuchiga yangi imkoniyatlar paydo bo‘ladi[2, 402).

O‘zbekistonda sun’iy idrok dasturlarining soni va ulardan foydalanish ko‘rsatkichlari barqaror o‘smoqda. 2024-yilda SI ishlanmalari asosida ishlovchi “MyID” va “UzFace” dasturlari 70 dan ortiq tashkilot, bank, elektron savdo maydonchalari va to‘lov tizimlarida joriy qilinib, millionlab foydalanuvchilarni masofaviy biometrik identifikatsiya qilish imkoniyati yaratildi. “O‘zbekkosmos” sun’iy intellektni qo‘llab, 2024-yilda 43 mingga yaqin yer qa’ridan noqonuniy foydalanish va ruxsatsiz qurilish holatlarini aniqladi[13].

O‘zbekistonda iqtisodiyotning bank sektorida sun’iy intellektdan foydalanish ko’rsatkichlari tez o‘sib bormoqda. SI mijozlarga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash(chatbotlar), firibgarlikni aniqlashni kuchaytirish va aniqroq kredit skoringini amalga oshirishda bankirlarga katta yordam bermoqda. Shunga qaramay, malakali mutaxassislarning yetishmasligi, sohani nazorat qilish va ma’lumotlarning maxfiyligi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjud ekanligini qayd etish zarur. Ularni hal qilishda hukumat darajasida idoralararo kompleks, yaxlit yondashuv talab qilinadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

SI ni joriy etishdagi muammolar va yechimlar

O‘zbekiston Axborot texnologiyalari vaziri Sherzod Shermatov “Oxford insights” nashriga bergan intervyusida ta’kidlashicha, mamlakatda sun’iy intellektni rivojlantirishning bosh maqsadi – insonlar hayotini yaxshilashdir. O‘zbekiston huquqiy asoslarni yaratish, inson kapitalini mustahkamlash va axborotni qayta ishlash imkonini beradigan texnik infrastrukturani kuchaytirish orqali sun’iy intellektning yaxlit ekotizimini yaratishni maqsad qilgan. Shu o‘rinda vazir sohani rivojlantirishda asosiy urg‘u chuqur nazoratdan ko‘ra malakalarni rivojlantirish, chetdan kapital chaqirish, infrastruktura yaratish kabi innovatsion yechimlarga berilishi kerak deb hisoblaydi[3].

Sun’iy idrokning bugungi rivojlanish bosqichida uni joriy qilishda qat’iy nazoratdan qochish muhim ahamiyatga ega. O‘zbekiston kripto-valyuta texnologiyalarini samarasiz va innovatsiyalarni bo‘g‘uvchi kuchli nazorat tajribasidan tegishli xulosa chiqarib, endi innovatsiyalarga to‘sqinlik qiladigan sun’iy intellekt cheklovlaridan qochishi kerak. Buning o‘rniga, foydali tavsiyalarni ishlab chiqish, raqamli savodxonlik va kiberxavfsizlik infratuzilmasiga yetarli sarmoya kiritishi kerak. Bu mamlakatga sun’iy intellekt orqali samaradorlikni oshirishda foydalanish imkonini beradi[4].

Sun’iy idrok texnologiyasi global miqyosdagi barqaror rivojlanishga ham ijobiy, ham salbiy tarafdan ta’sir qilishi mumkin. U ayni paytda barcha o‘yin qoidalarini o‘zgartiruvchi favqulodda muhim texnologiya sanalsada, uning inqilobiy imkoniyatlaridan barcha davlatlar birdek unumli foydalana olish darajasida emas. SI ning ilg‘or modellari bugun asosan rivojlangan mamlakatlarda yaratilib, amaliyotga joriy qilinmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarning aksariyatida esa sun’iy intellekt

haqidagi birlamchi tushunchalar yetishmaydi. Uni jamiyat hayotiga joriy etish imkoniyatlari juda past. Bunday vaziyat rivojlanishda davlatlararo global tengsizlikning raqamli tengsizlik ta'sirida yanada kuchayishiga olib keladi.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalaridan foydalanishdagi mamlakatlararo tengsizlikning kuchayishi global iqtisodiyot va jamiyatda sezilarli tafovutlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu jarayon "raqamli bo'linish" (ingliz. "*digital divide"*) fenomenini yanada chuqurlashtirib, rivojlanayotgan mamlakatlardagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning yanada chuqurlashuviga olib kelishi ehtimoldan holi emas. O'zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida dunyo e'tiborini boshqa masalalar qatorida mamlakatlar o'rtasidagi raqamli rivojlanish va sun'iy intellektdan foydalanishdagi tengsizlikning oldini olish masalasiga ham qaratgani mazkur muammo global ahamiyatga ega masala ekanligini tasdiqlaydi[17 - 2 b.].

O'zbekistonda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt rivojida jiddiy to'siq sanalgan milliy ma'lumotlar markazlarining mavjud emasligi muammosini hal qilish bo'yicha ham muhim amaliy qadamlar tashlanmoqda. Xususan, Toshkentda o'tgan ICT Week 2025 doirasida O'zbekistonda milliy ma'lumot markazlari barpo etilishi e'lon qilindi.

Saudiya Arabistonining DataVolt kompaniyasi bilan Uzum ekotizimi hamkorligida amalga oshiriladigan loyihaning investitsiyalar hajmi $6,5 milliardgacha baholanmoqda. Bu bilan mamlakatimizda suveren raqamli infratuzilma yaratish boshlanadi. Endi milliy kompaniyalar o'z mahsulotlarini tashqi serverlarga qaram bo'lmasdan, O'zbekistonning o'zida joylashgan serverlar orqali rivojlantira oladi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, sanoat va davlat xizmatlari uchun bu keng imkoniyatlarni yaratadi[15].

O'zbekiston xalqaro maydonlarda SI masalasida bir qator muhim tashabbus va takliflarni ilgari surmoqda. Xususan, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqida sun'iy intellekt sohasida muhim tashabbusni ilgari surgani alohida ahamiyat kasb etadi:

"Sog'liqni saqlash, ta'lim va madaniyat sohalarida sun'iy intellektning amaliy yechimlari va modellarini beg'araz almashishga qaratilgan Xalqaro hamkorlik mexanizmi yaratishni taklif etamiz"[17, - 2 b.].

Sun'iy intellekt sohasida yutuqlar bilan birga jiddiy kamchiliklar ham borligini e'tirof etish kerak. Katta maqsadlar, rejalarga qaramay O'zbekiston SI ni rivojlantirish va joriy etishda bir qator muammolarga ega. Asosiy muammolardan biri xususiy sektorning o'z SI tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish uchun zarur mablag' ajratish uchun iqtisodiy imkoniyatlarining yetishmasligidir. Bu esa sun'iy intellektning rivojlanishi ko'p jihatdan davlatning faol ishtiroki va davlat byudjetidan moliyalashtirishga bog'liq bo'lishini anglatadi.

Mazkur muammolarning yechimini ta'minlash uchun raqamli infratuzilmani riojlantirish uchun xorijiy investitsiyalar oqimini faol ko'paytirish, Toshkent, Buxoro, Qo'qon kabi shaharlarda ulkan ma'lumotlar markazlarini barpo etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini yanada takomillashtirish reja qilinmoqda.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations). O'zbekiston so'nggi yillarda SI rivojlanishi uchun siyosiy va infrastruktura asoslarini yaratishda sezilarli yutuqlarga erishdi. Yuqori

maqsadli milliy strategiyalar, ixtisoslashtirilgan muassasalar va davlat xizmatlari, moliya va ta’limni raqamlashtirishdagi sezilarli oldinga siljishlar buni tasdiqlaydi.

O‘zbekiston inklyuziv rivojlanishga ustuvorlik bergan holda o‘z imkoniyatlaridan oqilona foydalanish orqali mavjud muammolarni hal qilishga va Markaziy Osiyoning yetakchi IT va SI habi bo‘lish potensialiga ega.

Mavjud tadqiqot natijalariga asoslanib aytish mumkinki, O‘zbekistonda sun’iy intellekt sohasida dastlabki amaliy harakatlar o‘z vaqtida boshlangan. Biroq, bu jarayon hozircha shakllanish bosqichida.

Sun’iy intellektni rivojlantirish yo‘lida milliy strategik hujjatlar va huquqiy-me’yoriy baza yaratish ishlari olib borilmoqda. Shunga qaramay, global xavf-xatarlarni tartibga solish, fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish va algoritmik shaffoflikni ta’minlash kabi muhim yo‘nalishlarda sezilarli bo‘shliqlar saqlanib qolmoqda.

Davlat xizmatlari tizimida SI yechimlarining qo‘llanilish doirasi izchil kengayib bormoqda, bu esa raqamlashtirilgan xizmatlar sonini oshirish orqali shaffoflik va samaradorlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Ammo, ayni damda, malakali kadrlar tayyorlash, ma’lumotlar infratuzilmasini mustahkamlash hamda moliyaviy resurslarni jalb qilish cheklovchi asosiy omillar sifatida e’tirof etilmoqda.

Ta’lim sohasida SI ni umumiy o‘rta va oliy ta’lim tizimlariga integratsiya qilish bo‘yicha tegishli dasturlar ishlab chiqilgan. Xususan, yuqori sinflarga SI fanini joriy etish rejalari kelajakda yosh avlodning texnologik savodxonligi va salohiyatini yuqori darajaga ko‘tarish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, axloqiy dilemmalar, raqamli resurslardan foydalanishdagi tengsizlik va ijodiy fikrlash qobiliyatining susayishi xavfi ehtimoldan xoli emas.

Iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, jumladan qishloq xo‘jaligi, bank sektori, kosmik monitoring va xizmat ko‘rsatish sohalarida SI texnologiyalari sezilarli amaliy samara bermoqda. “MyID” va “UzFace” kabi biometrik identifikatsiya loyihalari millionlab fuqarolarga xizmat ko‘rsatmoqda. Biroq, yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabning qondirilmasligi va nazorat mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganligi sohaning jiddiy muammolari qatoriga kiradi.

Natijalar O‘zbekistonning sun’iy intellektni joriy etishda ijobiy o‘sish sur’atlarini namoyon etayotganini ko‘rsatadi. Biroq, bu o‘zgarishlarning barqaror va xavfsiz rivojlanish uchun texnologik, huquqiy va institutsional choralar majmuini kuchaytirish zarurati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Advancing digital education in Uzbekistan: Wendy Gorton's mission to empower teachers, https://www.unesco.org/en/articles/advancing-digital-education-uzbekistan-wendy-gortons-mission-empower-teachers

2. China Deep Synthesis Regulation 2025: Essential Guide, https://www.chinalegalexperts.com/news/china-deep-synthesis-regulation

3. Erdoğan, Oğuzhan. (2025). UZBEKISTAN'S NATIONAL ARTIFICIAL INTELLIGENCE STRATEGY, p. 402, Researchgate: https://www.researchgate.net/publication/388146491_UZBEKISTAN'S_NATIONAL_ARTIFICIAL_INTELLIGENCE_STRATEGY

4. The EU Artificial Intelligence Act, https://artificialintelligenceact.eu/

5. Grau, Gonzalo. (2024). Harnessing AI for development: Uzbekistan's progress towards becoming a regional IT hub. Oxfordinsights: https://oxfordinsights.com/insights/harnessing-ai-for-development-uzbekistans-progress-towards-becoming-a-regional-it-hub/

6. Kucharov, Kuvonchbek. (2025). "Regulating AI in Uzbekistan: Balancing Innovation and Risk". Uzbekistan Law Blog, 05.05.2025. https://uzbekistanlawblog.com/regulating-ai-in-uzbekistan-balancing-innovation-and-risk/

7. Maktablarda yuqori sinflar uchun sun'iy intellekt darslari joriy etiladi. Kursiv.uz: https://uz.kursiv.media/uz/2025-09-09/maktablarda-yuqori-sinflar-uchun-suniy-intellekt-darslari-joriy-etiladi/?utm_campaign=endless_feed

8. "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020-yildagi PF-6079-son, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/ru/docs/-5030957

9. Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish rejalari ko'rib chiqildi. President.uz: https://president.uz/oz/lists/view/7792

10. Rashidov, X., Muslimov, O. (2024). "USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN DEVELOPING THE DIGITAL ECONOMY". European Journal of Economics, Finance and Business Development 2 (12): 38-46. https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/1066.

11. "STRATEGIES AND FUTURE PROSPECTS OF DEVELOPMENT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: WORLD EXPERIENCE". (2022). World Bulletin of Management and Law, 9 pp. 66-74. https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/841.

12. Sun'iy intellekt: ta'lim sifatini oshirish drayveri. "Taraqqiyot strategiyasi" markazi: https://strategy.uz/index.php?lang=uz&news=2096

13. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: https://www.lex.uz/docs/-7158604

14. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 17.02.2021 yildagi PQ-4996-son, O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: https://lex.uz/docs/-5297046

15. Sun’iy intellekt va startap loyihalarni rivojlantirish bo‘yicha taqdimot o‘tkazildi. President.uz, 2024: https://president.uz/oz/lists/view/7464

16. Uzbekistan rises 17 places in AI readiness index. Pivot.uz: https://pivot.uz/uzbekistan-rises-17-places-in-ai-readiness-index/

17. Uzum va DataVolt O‘zbekistonda IT infratuzilmasini rivojlantirish uchun sa’y-harakatlarni birlashtirmoqda. Kursiv.media: https://uz.kursiv.media/uz/2025-09-23/uzum-va-datavolt-ozbekistonda-it-infratuzilmasini-rivojlantirish-uchun-say-harakatlarni-birlashtirmoqda/

18. Yo‘ldoshev, A. (2025). O‘zbekistonda sun’iy intellektni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy asoslari. Namangan Davlat Universiteti ilmiy axborotnomasi, 7, 2025; – 337-340 bb.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi. “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2025-yil 24-sentyabr, №197(1523), - 2 bet.

20. O‘zbekiston sun’iy intellekt sohasida «sakrash» qildi, https://vaqt.uz/uz/news/ozbekiston-suniy-intellekt-sohasida-sakrash-qildi-16451

21. “Представлены планы в сфере цифровых технологий”, president.uz, https://president.uz/ru/lists/view/8280

22. Яманова Ольга Александровна. “Применение искусственного интеллекта в политике: кейс-анализ в различных странах”. Социально-гуманитарные знания, No. 10, 2024, pp. 287-293. doi:10.24412/0869-8120-2024-10-287-293

23. Узбекистан вошел в число мировых лидеров по цифровизации госсектора. Kursiv.media: https://uz.kursiv.media/2025-12-20/uzbekistan-voshel-v-chislo-mirovyh-liderov-po-czifrovizaczii-gossektora/

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Abrarov Islomiddin Jamolovich
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Received 4th November 2025, Accepted 11th December 2025, Online 30th December 2025

YANGI O‘ZBEKISTON SHAROITIDA DAVLAT HOKIMIYATI VA BOSHQARUVIDA YOSHLAR ISHTIROKINI TA’MINLASH MASALALARI

Annotasiya. Mazkur maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida yoshlar ishtirokini ta’minlashning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada yoshlarni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish, ularning fuqarolik faolligini oshirish hamda kadrlar zaxirasini shakllantirish masalalari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yoshlar siyosati, davlat hokimiyati, davlat boshqaruvi, siyosiy ishtirok, fuqarolik jamiyati.

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УЧАСТИЯ МОЛОДЁЖИ В СИСТЕМЕ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ И УПРАВЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В данной статье анализируется социально-политическая значимость обеспечения участия молодёжи в системе государственной власти и управления в условиях Нового Узбекистана. Также с научно-теоретической точки зрения освещаются вопросы вовлечения молодёжи в процессы принятия решений, повышения их гражданской активности и формирования кадрового резерва.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, молодёжная политика, государственная власть, государственное управление, политическое участие, гражданское общество.

ISSUES OF ENSURING YOUTH PARTICIPATION IN STATE POWER AND GOVERNANCE IN THE CONTEXT OF THE NEW UZBEKISTAN

Abstract. This article analyzes the socio-political significance of ensuring youth participation in the system of state power and governance in the context of the New Uzbekistan. It also examines, from a scholarly and theoretical perspective, the issues of engaging young people in decision-making processes, increasing their civic activity, and forming a кадровый reserve for public administration.

Keywords: New Uzbekistan, youth policy, state power, public administration, political participation, civil society.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Kirish (Introdustion). Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan jadal ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sharoitida yoshlar jamiyat taraqqiyotida etakchi kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash demokratik davlat qurish, ochiq va samarali boshqaruvni shakllantirish muhim ahmiyat kasb etadi.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari amaliyotida yoshlarning davlat hokimiyati va boshqaruvidagi ishtirokini ta’minlash demokratik jamiyat barpo etishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.Mamlakatimizda ham keyin yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida yoshlarni davlat va jamiyat boshqaruviga faol jalb etish masalasi ustuvor yo‘nalish sifatida alohida e’tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida yoshlarga oid davlat siyosati ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanib, “Yoshlar - Yangi O‘zbekiston tayanchi” tamoyili davlat boshqaruvi amaliyotiga izchil joriy etilmoqda. Mamlakat aholisining bugungi kunda katta qismini tashkil etuvchi yoshlarning intellektual, tashabbuskorlik va innovasion salohiyatini davlat boshqaruviga jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlar ishtirokini ta’minlashda davlat hokimiyati va boshqaruvida ishtirok etishi demokratik boshqaruv nazariyasining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. O‘z navbatida, yoshlarning qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etishi davlat boshqaruvining qonuniyligi va samaradorligini oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasida fuqarolarning davlat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqi mustahkamlangan. Shuningdek, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonunda yoshlarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirokini ta’minlash mamlakatimizning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilab qo‘yilgan. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitusiyada inson qadri, ochiqlik va jamoatchilik ishtiroki tamoyillarining mustahkamlanishi yoshlarning davlat boshqaruvidagi rolini yanada oshirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi.

Yurtimizda keyingi yillarda xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish borasida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar, xususan, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholini tashvishga solayotgan dolzarb masalalarni hal etish bo‘yicha vakolatlarining takomillashtirish maqsadida yangilangan Konstitusiyada mahalliy Kengash raisi va hokim lavozimlari bir-biridan ajratilishi belgilangan edi. Shundan kelib chiqib, “Kuchli Kengash, hisobdor va tashabbuskor hokim” tamoyilini ro‘yobga chiqarish maqsadida 2025 yil 23 iyunda “O‘zbekiston Respublikasida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatini 2030 yilga qadar rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-98-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni[1] qabul qilingan edi. O‘z navbatida, mazkur farmonni qabul qilishdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar etib quyidagilar belgilangan edi:

mahalliy darajada xalq hokimiyatchiligini to‘laqonli ro‘yobga chiqarish, jumladan, jamiyat va davlat hayotining muhim masalalarini hal etishda mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining rolini oshirish, fuqarolarning mahalliy boshqaruvda keng ishtirok etishiga oid demokratlashtirish jarayonlarini mustahkamlash, ijro hokimiyati organlarining mahalliy xalq vakillari oldidagi hisobdorligini oshirish, hududiy boshqaruvni «aholi manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida nomarkazlashtirish va Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari hamda tuman va shahar Kengashlari vakolatlarini muvozanatli taqsimlash, har bir bo‘g‘indagi mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarining vazifa va funksiyalarini aniq belgilash hamda hududlararo savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarni kuchaytirish maqsadida mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari xalqaro hamkorligining huquqiy asoslarini mustahkamlash[2] ga alohida e’tibor qaratilgan. Shu bilan birga, yurtimizda keyingi yillarda yoshlarni davlat hokimiyati va boshqaruviga jalb etish maqsadida qator institusional islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Ayniqsa, bu borada, Prezident

huzurida Yoshlar parlamenti tashkil etilib, u yoshlarni qonun ijodkorligi jarayoniga jalb etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (literature review). Bu borada Yoshlar ishlari agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari huzuridagi yoshlar kengashlari, davlat organlarida joriy etilgan stajirovka dasturlari yoshlarning boshqaruv tajribasini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, "Yosh kadrlar zaxirasi" tizimi orqali iqtidorli yoshlarni davlat xizmatiga tayyorlash amaliyoti yo'lga qo'yilgani va raqamli boshqaruv tizimlarining joriy etilishi, jumladan, elektron murojaatlar, ochiq byudjet va jamoatchilik muhokamalari platformalari yoshlarning davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar siyosatiga oid amalga oshirilayotgan tizimli ishlar natijasida tashabbuskor, o'zining innovasion g'oyalariga ega, islohotlarni amalga oshirish va joylardagi muammolarni hal etishga qodir bo'lgan yosh kadrlar zaxirasi shakllantirish ishlari tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda yurtimizda aynan mana shunday yoshlarga ishonch bildirilib, ularni mas'ul lavozimlarga tayinlanmoqda. Bu borada, yoshlarga oid bunday islohotlar tizimli amalga oshirilishi natijasida har tomonlama ularni qo'llab-quvvatlash, ularga yanada ko'proq imkoniyat va sharoitlar yaratish borasida yangicha yondashuvlar asosida keng ko'lamli islohotlar izchil davom etmoqda.

Bugungi kunda taraqqiyot sari dadil odimlayotgan Yangi O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish va kreativ yosh avlodni tarbiyalash mamlakatimizning o'z oldiga qo'ygan strategik vazifalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2025 yil 26 dekabr kuni Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida alohida to'htalib o'tgan edi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "**Mening niyatim – yoshlarimiz talab yuqori bo'lgan kasblar bo'yicha dunyoda raqobatdosh bo'lsin, kerak bo'lsa, boshqalardan bir pog'ona ustun tursin**"[3], - deya ta'kidlagani ayni haqiqatdir. Binobarin, yurtimizni dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga chiqishda eng avallo, kreativ fikrlaydigan kadrlarni tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida yoshlarning davlat hokimiyati va boshqaruvidagi ishtirokini ta'minlash dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Mamlakat aholisining katta qismini tashkil etuvchi yoshlarning intellektual, ijtimoiy va innovasion salohiyatini davlat boshqaruvi tizimiga jalb etish demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim sharti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Researsh Methodology). Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – yoshlar mamlakati" g'oyasi yoshlarning jamiyat va davlat hayotida faol sub'ekt sifatida ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining konseptual asosini tashkil etadi. Shu o'rinda, "Yangi O'zbekiston - yoshlar mamlakati" g'oyasi - mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot strategiyasi sifatida ushbu g'oyaning markazida mamlakatning strategik zaxirasi, ijtimoiy o'zgarishlarning quvvati va kelajak boshqaruvining asosiy resursi sifatida yoshlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, "Yangi O'zbekiston – yoshlar mamlakati" g'oyasiga ko'ra, yoshlar nafaqat ta'lim oladi, balki mamlakatimizda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy hayotda amalga oshirilayotgan islohatlarning faol ishtirok etuvchilarga aylanishi zarur ekanligi belgilangan. Ayniqsa, yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan yoshlarni mamlakatning asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida ularni ijtimoiy, texnologiyaviy va innovasion rivojlanishning hal qiluvchi omili sifatida alohida e'tibor qaratmoqda.

Shu bilan birga, "Yangi O'zbekiston – yoshlar mamlakati" g'oyasi O'zbekistonning milliy taraqqiyot strategiyasida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarni ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotda asosiy kuchga aylanishiga xizmat qilmoqda. Mazkur g'oya bugungi kunda, ijtimoiy barqarorlik, innovasion rivojlanish va kelajak boshqaruvida yoshlar ishtirokini ta'minlaydigan

kompleks davlat siyosati sifatida amalga oshirilmoqda. Shu o‘rinda, ushbu g‘oyaning asosiy mohiyati - yoshlar uchun munosib shart-sharoit yaratish, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, intellektual va ma’naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarishdan iborat. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev o‘z nutqlarida yoshlarni “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” deya atab, davlat siyosatida ularga ustuvor o‘rin ajratish zarurligiga alohida e’tibor qaratib kelmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasi bilan o‘zaro uzviylikda amalga oshirib kelinmoqda. Mazkur konsepsiya mamlakatni har tomonlama rivojlantirish, inson qadrini ulug‘lash, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishni strategik maqsad qilib qo‘yadi. Shu o‘rinda, mazkur jarayonda jamiyatning faol qatlami albatta, yangi O‘zbekiston bunyodkorlari muhim o‘rin tutadi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shuni alohida ta’kidlash joizki, yurtimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar yangi taraqqiyot bosqichini boshlab berdi. Albatta, bu jarayon “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi bilan o‘zaro ifodalanib, uning markazida inson, ayniqsa yosh avlod manfaatlari mujassamdir. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutq va ma’ruzalarida yoshlarni jamiyatning eng faol, tashabbuskor qatlami sifatida baholab, ularni “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” deya alohida ta’riflashi mazkur yondashuv orqali yoshlarning mamlakat taraqqiyotidagi strategik o‘rnini belgilab beradi. Bu yondashuv davlat siyosatining strategik va insonparvarlik mohiyatini aks ettiradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda “Yoshlarning huquq va manfaatlarini ta’minlash, ularning o‘qishi, mehnat qilishi, bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqdamiz. Zero, butun xalqimiz qatori yoshlar – Yangi O‘zbekistonning bunyodkorlaridir!”[4], - degan so‘zlari zamirida naqadar katta ishonch mujassam ekanligini teran anglash mumkin.

Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan Shavkat Mirziyoev ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi jamiyat hayotining barcha sohalarida sifat o‘zgarishlarini nazarda tutadi. Yoshlar xalqimizning asosiy tayanchi va suyanchi mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlarni samarali amalga oshirishda ular hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqmoqda. Mamlakatimiz kelajagi hisoblanmish yoshlar islohotlarning ob’ekti emas, balki ularning bevosita sub’ekti sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, bugungi globallashuv shiddati aynan zamonaviy bilim olgan, ilg‘or kasb-hunarlarni, innovasion texnologiyalarni, xorijiy tillarni puxta egallagan, yangicha fikrlaydigan yangi-yangi g‘oyalarni ilgari suradigan yoshlarga bo‘lgan ehtiyojni talab etmoqda.

Dunyoviy taraqqiyotdan ma’lumki, yoshlar barcha davrlarda mamlakatning faol qatlami sifatida alohida e’tirof etib kelingan. Shu bois, mazkur qatlam, muntazam shakllanib boruvchi hamda doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu haqda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda: “Buyuk yunon olimi, Sharqda “Birinchi muallim” deb ulug‘lanadigan Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so‘zlari, qarang, miloddan 350 yil avval aytilgan. Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi, doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda”[5]. Binobarin, bugungi kunda mustaqillik va javobgarlik mas’uliyatini chuqur anglagan uni vijdonan his etadigan yoshlarni tarbiyalash dolzarb vazifa hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Conslusion/Resommendations). Hozirgi global murakkab ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar jarayonida yurtimiz aholisini keng qatlamini tashkil etuvchi yoshlar jamiyatning intellektual resursi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimiz kelajagi bo‘lgan yoshlarimizni har tomonlama etuk, ruhan tetik, jismonan sog‘lom, yuksak ma’naviyatli, ajdodlar merosiga sadoqatli qilib tarbiyalash davlatimiz siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu o‘rinda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida yoshlarni “Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” deb atashida ham ramziy va amaliy ma’no mujassam. Bu, avvalo, yoshlarga bo‘lgan

ishonch ifodasi sifatida yoshlarni faol fuqarolik pozisiyasiga undaydi, ularda jamiyat taqdiri uchun mas'uliyat, dahldorlik hissini kuchaytirishga zamin yaratadi. Yoshlarni bunyodkor kuch sifatida e'tirof etish orqali ularning bilim olishi, kasb egallashi, innovasion tafakkurga ega bo‘lishi Yangi O‘zbekistonni barpo etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xulosa qilib aytganda, Prezident Shavkat Mirziyoyev: "Yoshlarimizga qarab, ular erishayotgan yutuqlarni ko‘rib, ko‘ksimiz tog‘dek ko‘tariladi, qanday ulkan bunyodkor kuch safimizga qo‘shilayotganidan g‘ururlanib ketamiz[6],- deya ta'kidlashi alohida e'tirofga molikdir. Zero, davlatimiz rahbarining davlat siyosatida yoshlarga berilgan yuksak baho va ishonchi bu eng avallo, ularni mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlariga bo‘lgan dahldorlik, mas'uliyat va tashabbuskor fuqarolar sifatida shakllantirishga zamin yaratib, Yangi O‘zbekistonning bugungi tayanchi va ertangi kelajagini belgilab beruvchi asosiy kuch hisoblanishini barcha yurtdoshlarimiz teran anglashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 23.06.2025 йилдаги ПФ-98-сон https://www.lex.uz/ru/docs/7594283

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 23.06.2025 йилдаги ПФ-98-сон https://www.lex.uz/ru/docs/7594283

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси https://president.uz/uz/lists/view/8834

4. Мирзиёев Ш.Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O‘zbekiston" нашриёти, 2021.Б-54.

5. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "O‘zbekiston"нашриёти, 2021. Б.224

6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси https://president.uz/uz/lists/view/8834

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Shoyuldashova Billura
Institute for the Study of Youth Problems and Training of Promising Personnel
under the Agency for Youth Affairs of the Republic of Uzbekistan
Independent researcher (PhD)

Received 4th October2025, Accepted 11th November 2025, Online 30th December2025

PROGRESS OF YOUTH TRANSFORMATION IN NEW UZBEKISTAN

Annotation. This article analyzes the stages of socio-psychological and intellectual formation of young people in the conditions of New Uzbekistan and their transformation in the life of society. At the same time, the progress of reforms in the field and their strategic effectiveness are revealed by studying the foundations of state youth policy. The role of educational, cultural and sports projects in the formation of the modern worldview of young people is substantiated using statistical data.

Keywords: youth activity, progress, social transformation, youth policy, intellectual potential, institutional reforms, social activism, spiritual renewal.

РАЗВИТИЕ ПРОГРЕСС МОЛОДЁЖНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. В статье анализируются этапы социально-психологического и интеллектуального формирования молодёжи в условиях Нового Узбекистана и их трансформация в общественной жизни. Одновременно, на основе изучения основ государственной молодёжной политики раскрывается развитие реформ в этой области и их стратегическая эффективность. Роль образовательных, культурных и спортивных проектов в формировании современного мировоззрения молодёжи обосновывается статистическими данными.

Ключевые слова: молодёжная активность, процесс развития, социальная трансформация, молодёжная политика, интеллектуальный потенциал, институциональные реформы, социальный активизм, духовное обновление.

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR TRANSFORMATSIYASINING TARAQQIYOT TADRIJI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston sharoitida yoshlarning ijtimoiy-psixologik va intellektual shakllanish bosqichlari hamda ularning jamiyat hayotidagi transformatsiyasi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, yoshlarga oid davlat siyosatining asoslarini o‘rganish orqali sohadagi islohotlarning taraqqiyot tadriji va ularning strategik natijadorligi ochib beriladi. Yoshlarning zamonaviy dunyoqarashi shakllanishida ta’lim, madaniyat va sport loyihalarining o‘rni statistik ma’lumotlar yordamida asoslangan.

Kalit so‘zlar: yoshlar faoliyati, taraqqiyot tadriji, ijtimoiy transformatsiya, yoshlar siyosati, intellektual salohiyat, institutsional islohotlar, ijtimoiy faollik,, ma’naviy yangilanish.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

KIRISH (INTRODUCTION)

Har bir zamon o‘z avlodini yaratadi. Har bir avlod esa o‘z zamonining ruxini, og‘riqlarini, orzu-umidlarini, ichki kurashlarini va tashqi dunyo bilan to‘qnashuvini o‘zida mujassam etgan holda ulg‘ayadi, kamol topadi va o‘z izini tarix sahnasida muhrlaydi. Bu jarayon – insoniyat taraqqiyotining uzviy bo‘lagi, ijtimoiy rivojlanishning yuragi bo‘lmish yoshlar transformatsiyasidir. “Transformatsiya” tushunchasi o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy tuzilmalarning tubdan o‘zgarishi, moslashuvi va yangilanishini anglatadi. Yoshlar transformatsiyasi esa bu o‘zgarishlarning avvalo yosh avlod ongida, hayot tarzida, qadriyatlar tizimida, ijtimoiy rol va vazifalarida namoyon bo‘lish jarayonidir. Bu o‘zgarish oddiy shakldan shaklga o‘tish emas, balki butun boshli tafakkur, dunyoqarash va ma’naviy-estetik mezonlarning mutanosib tarzda yangilanishidir.

Har bir davr, har bir siyosiy tuzum yosh avlodni o‘z qadriyatlar tizimi asosida shakllantirishga uringan. Bu jarayonda yoshlar ba’zan itoatkor voris, ba’zan g‘ayratli islohotchi, ba’zida esa qiyofasiz iste’molchi bo‘lishgan. Transformatsiya esa ana shu rol o‘zgarishlarini, ularning sotsial tafakkurdagi yangi yo‘nalishlarga o‘tishini bildiradi.

Bugungi shiddat bilan o‘zgarayotgan zamon, murakkab va raqobatga boy globallashuv jarayonlari har bir xalqdan, har bir millatdan o‘z tarixiy yo‘lini yangicha ruhda davom ettirishni, milliy o‘zligini yo‘qotmasdan yangilanishni, o‘z taraqqiyot modelini yaratishni talab etmoqda. Yurtimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, ma’naviy yuksalish va ilmiy-intellektual taraqqiyot sari intilish aynan mana shu global ehtiyojlarning ichki ijtimoiy zaruriyatiga javoban yuzaga chiqmoqda. Lekin, bu yo‘l og‘ir va sharafli, murakkab, ammo ilhombaxsh yo‘ldir. Uni faqat o‘z kuchiga ishongan, Vatanga sadoqatli, bilimli va tafakkurli yoshlargina bosib o‘ta oladi. Zero, har qanday yuksalish zamirida kuchli tafakkur, qat’iyatli iroda va halol mehnat mujassam bo‘ladi. Ana shunday buyuk o‘zgarishlar arafasida yosh avlod zimmasiga tarixiy mas’uliyat yuklanmoqda. Chunki ertangi taraqqiyot, milliy tiklanish, yangilanish va Yangi O‘zbekistonning yorqin manzarasi – yoshlarimizni ko‘zida, qalbida, intilishlarida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bois, Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev yosh avlodga alohida ishonch bildirib, 2020-yil 25-dekabr kunidagi birinchi “Yoshlar forumida” quyidagicha so‘zlarni ta’kidladilar: “Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo‘l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g‘ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o‘z oldimizga ulkan marralar qo‘yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo‘lg‘usi Renessansning eng muhim bo‘g‘inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar.”[1]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Tadqiqotning huquqiy asosi sifatida O‘zbekiston Konstitutsiyasi, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun va PF-5106-sonli farmon xizmat qilib, ular yoshlar huquqlari va davlat kafolatlarini belgilab beradi. Prezident Sh.M.Mirziyoyevning asarlari va Yoshlar forumidagi nutqlari sohadagi konseptual va strategik yo‘nalishlarni shakllantirgan bo‘lsa, D.G.Shkaev, Q.Quronboyev va A.Saidov kabi tadqiqotchilar bugungi yoshlar mentaliteti va dunyoqarashidagi transformatsiyalarni ilmiy asoslab bergan. Shuningdek, N.Jo‘rayev va A.Zamonovning darsliklarida yoshlar siyosatining mustaqillik davridagi tarixiy taraqqiyoti tizimli yoritilgan.

TAHLIL VA MUHOKAMA (ANALYSES AND RESULTS)

Haqiqatdan ham, Prezidentimiz tomonidan yosh avlodga nisbatan yuksak ishonch va katta mas'uliyat yuklatilayotgani yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu bejiz emas, chunki har qanday yangilanish, taraqqiyot va rivojlanish jarayoni avvalo yoshlarning bilimga chanqoqligi, ma'naviy yetukligi va vatanparvarlik tuyg'usiga bog'liq. Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish g'oyasi esa shunchaki siyosiy shior emas, balki jamiyatda ma'naviyat, ma'rifat, ilm-fan va ijodiy tafakkurga asoslangan tub burilish yasashga qaratilgan strategik yo'nalishdir. Bunday ulkan maqsadni ro'yobga chiqarish uchun esa oiladan boshlab, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, oliy ta'lim va ilmiy markazlargacha bo'lgan barcha bo'g'inlarning uyg'un ishlashi lozim. Chunki, yoshlar islohotlarning passiv kuzatuvchisi emas, balki faol ishtirokchisi, ilhom manbai va harakatlantiruvchi kuchi sifatida qaralmoqda. Bu esa yosh avlod oldiga nafaqat imkoniyat, balki ma'naviy mas'uliyat ham qo'yadi. Shunday ekan, har bir yosh bu ishonchni oqlash, o'z bilim va salohiyati bilan yurt taraqqiyotiga hissa qo'shish, o'zini buyuk tarixning faol ishtirokchisi sifatida tarbiyalashi zarur. Zero, kelajak bugun qaror topmoqda va bu kelajakni yoshlar o'zlari barpo etadilar.

Jamoaviy ong va ijtimoiy-siyosiy tizimlarning transformatsiyasi, fuqarolik institutlarining rivojlanishi hamda davlat boshqaruvi mexanizmlarining evolyutsiyasi – bularning barchasi yoshlarni jamiyatning alohida bir qatlami sifatida yana bir bor ajratib ko'rsatishga asos bo'ladi. Ularning sifati nafaqat mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy, demografik va boshqa jarayonlarni oldindan belgilaydi, balki shubhasiz, butun sayyoraning tarixiy taraqqiyoti istiqbollarini ham aniqlaydi. Yosh avlodning mental xususiyatlari ertami-kechmi davlatning milliy rivojlanish strategiyasida bevosita aks etadi va uni globallashuv jarayonlarida qanday o'rin egallashi bilan bog'liq ravishda belgilaydi.[2]

Bugungi yoshlar kim? Bugungi yoshlar – bu XXI asrning murakkab sharoitida shakllanayotgan, an'anaviy tushunchalarni qaytadan baholayotgan va global axborot oqimi ichida o'z o'rnini izlayotgan noyob ijtimoiy qatlamdir. Ular postan'anaviy tafakkur egasi sifatida zamonaviylik va o'tmish o'rtasidagi ziddiyatlarni yuragida, tafakkurida va tanlovlarida his etadi. Bu avlod klassik me'yorlarga sig'maydigan, ammo o'z qoidalarini hali to'liq shakllantirmagan, kechagi haqiqatlarga savol beruvchi, ertangi haqiqatlarni esa o'zi yaratmoqchi bo'lgan insonlar jamoasidir. Ularning tafakkuri doimiy savollar, shubhalar va izlanishlar girdobida shakllanadi. "Nega men bundayman?", "Bu jamiyat nega meni tushunmayapti?", "Qanday yashash kerak?" – bu singari savollar ular uchun faqat falsafiy mushohada emas, balki kundalik psixologik zaruratga aylangan. Ular o'zini doimiy tahlil qiladi, o'z "men"ini anglashga urinadi, o'zligining chegaralarini sinovdan o'tkazadi. Bunday izlanishlar esa ularning ijtimoiy portretini murakkab, ko'p qatlamli va ziddiyatli qiladi.

Shu bois, yoshlar transformatsiyasini o'rganish faqat sotsiologik yoki psixologik yondashuv bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu masalaga falsafiy yondashuv zarur: inson mohiyati, axloqiy mezonlar, taraqqiyot mazmuni va jamiyatning ma'naviy istiqboli nuqtai nazaridan tahlil qilish talab etiladi. Masalan, bugungi yoshlar orasida "ma'no" izlash tendensiyasi kuchaymoqda. Ular faqat moddiy yutuqlar emas, balki hayotiy maqsad, shaxsiy qadriyatlar, mavjudlik falsafasini qidirmoqda. Bu esa ularning transformatsiyasini g'oyaviy va ruhiy darajalarda tahlil qilish zaruratini tug'diradi. Shu jihatdan qaralganda, yoshlarning ijtimoiy faolligi nafaqat ularning jamiyatdagi tizimlarda ishtiroki yoki siyosiy jarayonlardagi roli bilan belgilanmaydi. Aksincha, bu faollik – ularning san'atda, texnologiyada, ekologik harakatlarda, gender tenglikka bo'lgan munosabatida, hatto memlar orqali jamiyatni tanqid qilishida ham namoyon bo'ladi.

Bugungi kunda 15 yoshdan 24 yoshgacha bo'lgan 1,2 milliard yoshlar mavjud bo'lib, ular global aholi sonining 16 foizini tashkil etadi. 2030-yilga kelib – ya'ni "Barqaror rivojlanish maqsadlari" xalqaro tashkiloti (SDG) belgilangan muddatga – yoshlar soni 7 foizga o'sib, deyarli 1,3 milliardga yetishi taxmin qilinmoqda. Yoshlar jamiyatda tobora adolatli, teng huquqli va ilg'or imkoniyatlar hamda yechimlarni talab qilayotgan bir paytda, ularning ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va gender tengligi kabi ko'p qirrali muammolariga yechim topish har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda.

Yoshlar kerakli bilim va imkoniyatlar bilan ta’minlanganda, ular taraqqiyotning ijobiy kuchiga aylanishi mumkin. Ayniqsa, ular samarali iqtisodiyotga hissa qo‘shishi uchun tegishli ta’lim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi, shuningdek, ularni mehnat bozoriga jalb qila oladigan ish o‘rinlariga ega bo‘lishi lozim.

Xalqaro hamjamiyat tomonidan belgilangan 15 ta ustuvor faoliyat yo‘nalishi quyidagilardan iborat: ta’lim, bandlik, ochlik va qashshoqlik, sog‘liqni saqlash, atrof-muhit muhofazasi, giyohvandlikning oldini olish, voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish, qizlar va yosh ayollar masalasi, yoshlarning jamiyat hayotida va qarorlar qabul qilish jarayonida to‘liq va samarali ishtirok etishi, shuningdek, globallashuv, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), mojarolar, avlodlararo farq, va generatsiyalararo ixtiloflar.

O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, salomatligi va ijtimoiy faolligiga alohida e’tibor qaratilib kelinmoqda. Bu masala davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllangan. 1991-yil noyabr oyida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi qonun mamlakat tarixida ilk bor yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy poydevorini yaratdi. 1997-yilda esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining iqtidorli yoshlarni chet ellarda o‘qishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan “Umid” jamg‘armasi tashkil etilishi bu boradagi sa’y-harakatlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. “Umid” jamg‘armasi orqaligina yuzlab yigit-qizlar rivojlangan davlatlarning nufuzli oliygohlarida tahsil olib, bugungi kunda turli sohalarda yetuk kadrlar sifatida faoliyat yuritmoqdalar. 2014-yilda Prezident tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qaror esa yoshlarga qaratilgan siyosatning yangi bosqichini boshlab berdi.

2016-yilda O‘zbekiston Respublikasida “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi 4 bob, 33 ta moddadan iborat qonun qabul qilindi. Ushbu qonun asosida 30 yoshgacha bo‘lgan barcha toifadagi fuqarolar “yoshlar” toifasiga kiritilishi belgilandi. Bu esa mamlakatimizda yoshlarga nisbatan olib borilayotgan siyosatning aniq huquqiy asosga ega ekanini ko‘rsatadi. Qonunning qabul qilinishi bir qator dolzarb maqsadlarni ko‘zlaydi. Jumladan, yosh avlodning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishini ta’minlash, shuningdek, yoshlarga oid davlat siyosatini samarali amalga oshirishda davlat organlari hamda fuqarolik jamiyati institutlarining mas’uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu qonunning 4-moddasida “Yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy prinsiplari” keltiriladi. Bu prinsiplar quyidagilardan iborat:

- ochiqlik va shaffoflik;
- yoshlarga oid davlat siyosatini ro‘yobga chiqarishda yoshlarning ishtirok etishi;
- yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- ma’naviy, axloqiy va madaniy qadriyatlarning ustuvorligi;
- yoshlarning kamsitilishiga yo‘l qo‘yilmasligi.[3]

Mazkur hujjat doirasida sog‘lom, intellektual va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijtimoiy faolligini kuchaytirish, ularni vatanparvarlik, yuksak ma’naviyat va fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Ana shunday dastlabki tashabbuslardan biri sifatida, yoshlarning manfaatlarini ifoda etish, ularni yagona g‘oya va maqsad atrofida birlashtirish uchun “Yoshlar ittifoqi” tashkiloti tuzildi. Tashkilot o‘z faoliyatida plenumi va konferensiyalarida qabul qilingan qarorlar asosida yoshlar bilan ishlashga harakat qildi. Biroq, bu qarorlarda yoshlarning haqiqiy ehtiyojlari va manfaatlari yetarli darajada inobatga olinmaganligi sababli, tashkilot kutilgan natijalarni bermadi va 1996-yilda rasmiy ravishda

tugatildi. Ushbu holatdan kelib chiqib, o‘rniga yangi tuzilma – O‘zbekiston Respublikasi yoshlarining “Kamolot” jamg‘armasi tashkil etildi. “Kamolot” jamg‘armasining asosiy vazifasi yoshlarning ehtiyojlarini o‘rganish, ularni hal etishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish va bu dasturlarni davlat ko‘magida amaliyotga joriy etishdan iborat edi. Biroq, mazkur jamg‘arma ham o‘z oldiga qo‘yilgan vazifalarni samarali bajara olmadi. U yoshlarning keng qatlamini qamrab ololmaganligi, yetakchilik va tashabbuskorlik xususiyatlarini to‘liq namoyon eta olmaganligi sababli, u haqiqiy ma’nodagi yoshlar yetakchisiga aylana olmadi, degan xulosaga kelindi.[4]

2001-yilda Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan yoshlar qurultoyida yangi bosqich sifatida o‘zini o‘zi boshqaradigan nodavlat notijorat tashkilot – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati tashkil etildi. Harakatning asosiy maqsadi – O‘zbekiston yoshlarini birlashtirish, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, intellektual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat edi. Harakat yoshlarning manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyatda munosib o‘rin egallashlariga ko‘maklashish kabi ezgu vazifalarni o‘z zimmasiga oldi. “Kamolot” harakati Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tuman va shaharlar, ta’lim muassasalari, harbiy qismlar hamda huquq-tartibot idoralarida boshlang‘ich tashkilotlarini tuzdi. Bu tashkilotlar 14 yoshdan 28 yoshgacha bo‘lgan O‘zbekiston fuqarolarini o‘z saflariga ixtiyoriy ravishda birlashtirib, yoshlar orasida keng ko‘lamli ishlar olib bordi.

Biroq vaqt o‘tishi bilan bu tuzilmaning ham faoliyati takomillashishga muhtoj ekani ayon bo‘ldi. 2017-yil 30-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakatining IV-qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

“Kamolot” butun O‘zbekiston yoshlarini birlashtirgan, tom ma’nodagi ommaviy harakatga aylana olmadi. U asosan o‘z atrofida Harakat faoliyatiga xayrixoh bo‘lgan yoshlarni uyushtirib, faqat ularni qiziqtirgan masalalar yuzasidangina ish olib bordi. Natijada yoshlarning keng qatlamlariga taalluqli bo‘lgan dolzarb masalalar, avvalo, yoshlarning bandligini ta’minlash, ularni katta maqsadlar sari safarbar etish, uyushmagan yoshlar bilan ishlash, qisqacha aytganda, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha o‘zini haqiqiy yoshlar tashkiloti sifatida ko‘rsata olmadi.[5] Shuning uchun ham, ushbu tarixiy qurultoyda “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati faoliyati tugatilgani va uning o‘rniga yangi – “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” tashkil etilgani e’lon qilindi.

Yangi tashkilot – “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” oldiga zamonaviy talablarga mos, keng ko‘lamli vazifalar qo‘yildi. Eng asosiysi, yoshlar muammolari va tashabbuslari bevosita O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining diqqat markazida bo‘lishini ta’minlash maqsadida, tashkilot raisining bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va sport masalalari bo‘yicha maslahatchisining birinchi o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritishi belgilandi. Bu esa yoshlar masalalariga yondashuvda yangi davrni boshlab berdi.

2017-yil 5-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmon mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash siyosatida keskin o‘zgarish bo‘ldi. Mazkur huquqiy hujjat yoshlarga oid davlat siyosatini tizimli asosda rivojlantirish, ularning ijtimoiy faolligi, vatanparvarlik tuyg‘ulari va tashabbuskorligini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.[6]

O‘zbekiston yoshlaridagi transformatsion jarayonlarni tahlil qilishda K.Manngeymning “Avlodlar sotsiologik muammosi” nazariyasiga ham to‘xtab o‘tsak bo‘ladi. Avlodlar muammosi yetarlicha muhim bo‘lib, jiddiy ko‘rib chiqishni talab etadi. U ijtimoiy va intellektual harakatlar tuzilishini tushunishda ajralmas yo‘riqnomalardan biridir. Uning amaliy ahamiyati hozirgi davrimizga xos bo‘lgan ijtimoiy o‘zgarishlarning tezlashgan sur’atini yanada aniqroq tushunishga urinish bilanoq yaqqol namoyon bo‘ladi[7]. Manngeym ta’kidlaganidek, tarixiy burilish nuqtalari yangi avlodning ijtimoiy ongini shakllantiradi

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

XULOSA (CONCLUSION)

Shunday qilib, O‘zbekistonda yoshlar siyosatining institutlashuvi, uni tashkilotlar orqali tizimli boshqarish va takomillashtirish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanib bordi. Har bir bosqich o‘zining ijtimoiy-siyosiy sharoitiga mos holda yoshlar bilan ishlashning yangi uslublarini shakllantirdi. Bugungi kunda “O‘zbekiston yoshlar ittifoqi” mamlakat yoshlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda, ularni davlat va jamiyat taraqqiyotiga daxldor etish yo‘lida samarali faoliyat yuritmoqda.

Ayniqsa, so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar doirasida “Yoshlar daftari”, “Yoshlar ishlari agentligi”, “Yoshlar parlamenti”, “Tashabbusli yoshlar” kabi tashabbuslar yoshlar hayotini faol transformatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ortig‘ini 30 yoshgacha bo‘lganlar tashkil etayotgani, yoshlarga oid masalalarni strategik muhim masalaga aylantirmoqda. Bugun yurtimizda yoshlar soni 18 milliondan ziyod. Mamlakatimiz tarixida hech qachon o‘g‘il-qizlarga bugungidek keng imkoniyat va sharoitlar yaratib berilmagan. 1991-yildan 2016-yilgacha yoshlarga oid jami 25 ta qonun, farmon, qaror va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan bo‘lsa, 2016-yildan 2025-yilgacha qabul qilingan me’yoriy-huquqiy hujjatlar 100 dan ziyodni tashkil etadi.[7]

Demografik o‘zgarishlar har bir mamlakat taraqqiyot strategiyasining yuragida turuvchi asosiy omildir. O‘zbekiston Respublikasi aholisining 2040-yilga borib 50 millionga yetishi prognozi – bu shunchaki statistik raqam emas, balki davlat, jamiyat va iqtisodiyot zimmasiga tushadigan ulkan mas’uliyatdir.

Bu ko‘rsatkichlar o‘zida nafaqat son jihatidan o‘sishni, balki sifat jihatidan yangilanish, keng ko‘lamli islohotlar va zamonaviy yondashuvlar zaruratini mujassam etadi. Ayniqsa, shu davrga kelib aholining qariyb 60 foizini yoshlar tashkil etishi kutilayotgani, masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. Shuning uchun ham, o‘sib kelayotgan yoshlar bugunning zaxirasi emas, balki ertaning tayanchidir. Ularning ma’naviy barkamolligi, intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligi jamiyatning taraqqiy etish darajasini belgilovchi muhim omilga aylangan. Shunday ekan, yoshlar ehtiyojlarini faqat ta’lim yoki bandlik masalalari doirasida emas, balki kompleks yondashuv asosida ko‘rib chiqish zarur: ular uchun xavfsiz davlat, samarali boshqaruv, barqaror iqtisodiyot va ijtimoiy himoya tizimi yaratilishi shart.

Birinchidan, xavfsiz davlat deganda nafaqat jismoniy xavfsizlik, balki axborot, ekologik va iqtisodiy xavfsizlik tushuniladi. Yoshlar o‘z fikrini erkin bildirishi, huquqiy jihatdan himoyalangan bo‘lishi va har qanday zo‘ravonlikdan xoli yashashi – bu zamonaviy demokratik jamiyatning ajralmas belgilaridir.

Ikkinchidan, samarali boshqaruv – yoshlar ovozi eshitiladigan, ular siyosiy va ijtimoiy qarorlar qabul qilish jarayoniga bevosita jalb qilinadigan ochiq, adolatli va inklyuziv tizimni anglatadi. Bu borada raqamli boshqaruv, ochiqlik, hisobdorlik va korrupsiyaga qarshi kurash kabi tamoyillar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Uchinchidan, barqaror iqtisodiyot – yoshlar uchun munosib mehnat bozorini yaratish, innovatsion startaplar, texnologik rivojlanishga yo‘naltirilgan bilimlar asosida yangi imkoniyatlar yaratishdir. O‘qishni bitirgan har bir yosh shaxsiy qobiliyatiga muvofiq ravishda o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun ochiq va adolatli raqobat muhitiga ega bo‘lishi kerak.

To‘rtinchidan, ijtimoiy kafolatlar – bu sog‘liqni saqlash, ta’lim, uy-joy, transport va madaniyat xizmatlarining barcha uchun teng va sifatli bo‘lishi demakdir. Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va qishloq joylarda yashovchi yoshlar e’tibordan chetda qolmasligi zarur.

Yoshlar sonining oshishi, bir tomondan, katta imkoniyat bo‘lsa, ikkinchi tomondan – noto‘g‘ri boshqarilgan taqdirda – ijtimoiy bosim va muammolarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli bugun yoshlarga qaratilayotgan e’tibor kelajakda barqaror jamiyat poydevorini yaratish bilan barobar. Bunday kafolatlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yildi. Konstitutsiyamizning

XIV “Oila, bolalar va yoshlar” bobining 79-moddasiga ko‘ra, “davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta’minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotidagi faol ishtirokini rag‘batlantiradi. Yoshlarning ta’lim olishi, ijtimoiy va tibbiy himoyasi, uy-joyli bo‘lishi, ish bilan bandligi uchun shart-sharoit yaratish davlatning konstitutsiyaviy majburiyati[8] sifatida belgilangani esa yoshlar hayotdagi g‘oyat muhim hodisadir.

2021-yildan boshlab O‘zbekistonda yoshlar muammolarini tizimli hal etish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida yangi, innovatsion yondashuv – “Yoshlar daftari” tizimi joriy etildi. Ushbu mexanizm bugungi kunga kelib minglab yoshlar bilan tizimli va manzilli ishlash imkonini yaratib, davlat e’tibori va g‘amxo‘rligini amalda namoyon etayotgan muhim tashabbusga aylandi. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining tegishli qaroriga muvofiq, har bir tuman, shahar va viloyatda moliyaviy manbalari aniq belgilangan, mustaqil faoliyat yurituvchi “Yoshlar daftari” jamg‘armalari tashkil etildi. Bu jamg‘armalar orqali ehtiyojmand, ishsiz, ijtimoiy himoyaga muhtoj va o‘z salohiyatini namoyon etishga intilayotgan yoshlarni qo‘llab-quvvatlash mexanizmi shakllantirildi.

2021–2024-yillar mobaynida “Yoshlar daftari” tizimi orqali 1 million 157 mingdan ortiq yoshga ko‘mak ko‘rsatildi. Ularning ta’lim olish, bandligini ta’minlash, tadbirkorlik faoliyatini boshlash, sog‘lig‘ini tiklash, uy-joy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun 1,5 trillion so‘mga yaqin mablag‘ ajratildi. [9] Ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo‘llab-quvvatlashga, bilim va kasb o‘rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo‘lgan, ishsiz yoshlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini yuritish bo‘yicha ishlab chiqilgan ma’lumotlar bazasi – “Yoshlar daftari” orqali ko‘rsatiladigan yordam turlari soni 30 taga yetdi, murojaatlarni ko‘rib chiqish muddati esa 30 kundan 5 kungacha qisqardi. Yoshlar etakchilari tavsiyasi bilan 338 ming yigit-qizga 444 milliard so‘mlik yordam ko‘rsatildi. Xususan, talabalarning shartnoma puli to‘landi, xorijiy tillar va zamonaviy kasblarga o‘qitish xarajatlari qoplab berildi. Ishsiz yoshlarga mehnat qurollari ajratildi. Bugunga kelib ko‘rsatilgan yordamlar natijasida yoshlar tadbirkorlik, dehqonchilik va biznes bilan shug‘ullanmoqda.

Toshkent viloyati Parkent tumanining Gulbog‘ mahallasida 14-30 yosh oralig‘idagi jami 1336 nafar yosh istiqomat qiladi. Mazkur yoshlar orasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslarini o‘rganish hamda ushbu sohadagi amalga oshirilayotgan islohotlarga bo‘lgan qiziqish darajasini aniqlash maqsadida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazildi. So‘rovnomada jami 756 nafar yosh ishtirok etdi. So‘rovnoma doirasida respondentlarga quyidagi savol yo‘naltirildi: “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati doirasida qabul qilinayotgan so‘nggi normativ-huquqiy hujjatlar va islohotlarni qanchalik muntazam kuzatib borasiz?” Mazkur savolga javob variantlari quyidagicha belgilandi:

A) Doimiy kuzatib boraman va o‘zimga tegishli imtiyozlardan foydalanaman;
B) Faqat ijtimoiy tarmoqlarda duch kelib qolsam tanishaman;
C) Islohotlar haqida umumiy tasavvurga egaman, biroq hujjatlarni bevosita o‘qimayman;
D) Umuman qiziqmayman va kuzatmayman.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, ishtirok etgan yoshlarning 690 nafari (respondentlarning asosiy qismi) yoshlarga oid davlat siyosatini muntazam kuzatib borishini va amaldagi imtiyozlardan foydalanayotganini ma’lum qildi. Bu holat Gulbog‘ mahallasidagi yoshlar orasida davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlarga nisbatan yuqori darajadagi qiziqish va xabardorlik mavjudligini ko‘rsatadi. Shuningdek, 10 nafar respondent yoshlarga oid islohotlar haqida faqat ijtimoiy tarmoqlar orqali tasodifan ma’lumot olishini bildirgan. Qolgan respondentlar esa mazkur soha bo‘yicha yetarli darajada qiziqish bildirmasligini yoki islohotlarni muntazam kuzatmasligini qayd etgan.

Doimiy kuzatadi	91,3 %
Faqat ijtimoiy tarmoqlarda	1,3 %
Qiziqmaydi / kam qiziqadi	7,4 %

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatadiki, hudud yoshlarining aksariyati yoshlarga oid davlat siyosatining mazmun-mohiyati bilan xabardor bo‘lib, yaratilayotgan imkoniyat va imtiyozlardan amaliy jihatdan foydalanishga intilmoqda. Shu bilan birga, ayrim yoshlar orasida axborotdan foydalanish faolligini oshirish, normativ-huquqiy hujjatlar mazmunini sodda va tushunarli shaklda yetkazish zarurati mavjudligi ham ayon bo‘ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Reference)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 25-dekabrda o‘tkazilgan “1-Yoshlar forumi”dagi nutqi. https://president.uz/uz/lists/view/4040.
2. Шкаев Д. Г. Менталитет молодежи в постсоветский период // Менталитет молодежи в постсоветский период. – 2009. – №. 2009. – С. 1-56.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi O‘RQ–406-son Qonuni 4-moddasi.
4. Jo‘rayev N., Zamonov A. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri). O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinf o‘quvchilari uchun darslik. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. 91-bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 507 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 5-iyulda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi PF-5106-son farmoni.
7. Quronboyev Q. Bugungi yoshlar kechagi yoshlar emas, ularning ongi, dunyoqarashi, orzu-istaklari, talablari o‘zgardi. https://yuz.uz/uz/news/bugungi-yoshlar-kechagi-yoshlar-emasularning-ongi-dunyoqarashi-orzu-istaklari-talablari-ozgardi.
8. https://1989after1989.exeter.ac.uk/wp-content/uploads/2014/03/01_The_Sociological_Problem.pdf
9. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi. 79-modda.
10. Saidov A. Yoshlarimiz – Yangi O‘zbekistonning buguni va kelajagi!. https://parliament.gov.uz/articles/2097#!.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Gulshira Saparbaeva
Head of the Department of Cultural Activities,
Associate Professor,
Nukus Branch of the Uzbek State Institute of Arts and Culture

Received 4th November 2025, Accepted 11th December 2025, Online 18th December 2025

INNOVATIVE MANAGEMENT METHODS IN THE CULTURAL SPHERE

Annotation. The article analyzes innovative management methods in the cultural sector and their impact on socio-economic efficiency. At the same time, the issues of project-based management, program-targeted planning, investment, public-private sector cooperation, and promotion of innovative activities are considered. In particular, the introduction of innovative management methods shows the possibility of improving the quality of cultural products and services, strengthening competitiveness, and ensuring the strategic development of the sector.

Keywords: innovative management, culture and art, socio-cultural infrastructure, strategic development, management.

ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ В КУЛЬТУРНОЙ СФЕРЕ

Аннотация. В статье анализируются инновационные методы управления в культурном секторе и их влияние на социально-экономическую эффективность. Одновременно рассматриваются вопросы проектного управления, целевого планирования программ, инвестиций, сотрудничества государственного и частного секторов и продвижения инновационной деятельности. В частности, внедрение инновационных методов управления демонстрирует возможность повышения качества культурных продуктов и услуг, повышения конкурентоспособности и обеспечения стратегического развития сектора.

Ключевые слова: инновационное управление, культура и искусство, социально-культурная инфраструктура, стратегическое развитие, управление.

MADANIYAT SOHASIDA BOSHQARUVNING INNOVATSION USULLARI

Annotatsiya. Maqolada madaniyat sohasida boshqaruvning innovatsion usullari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. Shu bilan birga, loyiha asosidagi boshqaruv, dasturiy-maqsadli rejalashtirish, investitsion, davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish masalalari ko‘rib chiqiladi. Ayniqsa, innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish orqali madaniy mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish hamda sohaning strategik rivojlanishini ta’minlash imkoniyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: innovatsion boshqaruv, madaniyat va san’at, ijtimoiy-madaniy infratuzilma, strategik rivojlanish, boshqarish.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

KIRISH (INTRODUCTION)

Bugungi kunda madaniyat sohasi ma’naviy boylik emas, iqtisodiy taraqqiyotning ham strategik resursiga aylanib bormoqda. Madaniyat sohasidagi boshqaruv an’anaviy modelidan innovatsion rivojlanish modeliga o‘tmoqda. Bu esa soha mutaxassislaridan yangicha boshqaruv texnologiyalarini ishlab chiqishni talab qiladi. Madaniyat sohasining eng muhim ustuvor maqsadlari quyidagicha belgilanishi mumkin:

- shaxs va jamiyatning ijtimoiy-madaniy qadriyat yo‘nalishlari tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- aholiga ma’naviy o‘zligini anglash va namoyon etishida, ijtimoiy va individual ongni shakllantirish hamda rivojlantirishda ko‘maklashish;
- ijtimoiy manfaatlar va ehtiyojlarni rivojlantirish, aholi turmush sifatini yaxshilash;
- odamlarni ma’naviy va intellektual boyishga yo‘naltirish;
- xayrixoh madaniy hamkorlikka, muloqotga bo‘lgan ehtiyojni tarbiyalash, milliy, konfessiyaviy (diniy) va ijtimoiy-siyosiy yakkalanishni bartaraf etish;
- umuminsoniy qadriyatlarning milliy madaniyatning chuqur mazmuni bilan o‘zaro bog‘liqligini anglash.

Natijada, jamiyat madaniy hayotidagi turli-tuman jarayonlarning asosiy qismi odamlarning jamoaviy hayot faoliyatidagi ijtimoiy o‘z-o‘zini tashkil etishining chuqur qonuniyatlariga bo‘ysungan holda o‘z-o‘zidan (stixiyali) kechadi. Shu bilan birga, ushbu murakkab jarayonning ayrim tarkibiy qismlari oqilona va maqsadli tartibga solishga, muayyan tendensiyalarni rag‘batlantirish hamda boshqalarini qisqartirishga imkon beradi.

Madaniy siyosatning maqsad va vazifalarini belgilashdagi eng muhim tamoyil madaniyatning ambivalentligi, uning ko‘p ma’noliligi, mazmun va mohiyatining ko‘p qirraliligini anglashdan iboratdir. Hech bir madaniy fenomen faqat birgina vazifani (monofunksional) bajarmaydi, balki o‘zida butun bir ijtimoiy funksiyalar majmuasini tashiydi. Hech bir madaniy hodisa faqat bitta ma’no va bevosita mazmun bilan cheklanib qolmay, o‘zida ham dolzarb, ham xotira (memorial) xarakterdagi turli mazmunlar yig‘indisini ifodalaydi. Aynan shu sababli madaniyat sohasidagi boshqaruv strategiyasi va taktikasi o‘ziga xos murakkablikka ega bo‘lib, ijtimoiy-madaniy jarayonlarni tartibga solishda ko‘p bosqichli yondashuvni talab qiladi. Shunga ko‘ra, madaniy siyosat:

Birinchidan, istisnosiz ravishda davlat siyosatining barcha yo‘nalishlarining ajralmas qismi bo‘lishi, uning ma’naviy-axloqiy va me’yoriy jihatlarini aks ettirishi lozim;

Ikkinchidan, zamonaviy sharoitda faqatgina majmuaviy (kompleks) ijtimoiy-madaniy-ma’rifiy xarakterga ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy siyosatning muhim tarkibiy qismiga aylanishi kerak;

Uchinchidan, xususiy ma’nodagi madaniy siyosatni davlat tomonidan tartibga solinadigan o‘ziga xos ijtimoiy faoliyat yo‘nalishi sifatida shakllantirishi zarur. Bunda asosiy e’tibor insonning ijtimoiy maqbul va afzal ko‘rilgan ma’naviy-axloqiy qarashlarini hamda uning ijtimoiy va shaxsiy hayot shakllarini rag‘batlantirishga qaratiladi[1]. Madaniy siyosatni belgilashdagi eng muhim tamoyil madaniyatning ambivalentligi, ya’ni uning ko‘p ma’noliligi va ko‘p qirraliligini anglashdir. Hech bir madaniy hodisa faqat bitta ma’no bilan cheklanib qolmay, o‘zida ham tarixiy meros (memorial), ham dolzarb (aktual) mazmunlarni birlashtiradi. Shu sababli, innovatsion boshqaruv strategiyasi ko‘p bosqichli yondashuvni talab qiladi. Madaniyat sohasida boshqaruvning innovatsion usullarini joriy etish moddiy-texnik bazani yangilash bilan birga boshqaruv falsafasini o‘zgartirishni anglatadi. Bu esa o‘z navbatida shaxs va jamiyatning ijtimoiy-madaniy qadriyatlarini zamonaviy talablar darajasida shakllantirishga xizmat qiladi.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI (LITERATURE REVIEW)

Madaniyat sohasida boshqaruvning innovatsion usullari bo‘yicha adabiyotlar ikki asosiy yo‘nalishga e’tibor qaratadi: iqtisodiy-innovatsion rivojlanish va boshqaruvning metodologik jihatlari. Popova v.b. (2015) madaniy xizmatlar sifatini oshirish va samaradorlikni yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3920 qarori (2018) davlat va xususiy sektor hamkorligini rivojlantirish hamda innovatsion investitsiyalarni rag‘batlantirish zaruratini ta’kidlaydi. Meshkov (2013) loyihalash va dasturiy-maqsadli rejalashtirish orqali innovatsion boshqaruvni samarali amalga oshirish imkoniyatlarini yoritadi. Redkina (2005) esa davlat boshqaruvini takomillashtirish va institutsional infratuzilmani rivojlantirish orqali innovatsion jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashni tavsiya qiladi.

TAHLIL VA MUHOKAMA (ANALYSIS AND DISCUSSION)

Madaniyat sohasida boshqaruvning innovatsion usullarini joriy etish zaruriyati, birinchi navbatda, sohadagi bir qator tizimli muammolarni bartaraf etish ehtiyojidan kelib chiqqan. PQ-3920-sonli qarorda ta’kidlanganidek, sohada innovatsiyalarga to‘sqinlik qiluvchi quyidagi asosiy kamchiliklar mavjud edi.

Moliyaviy mexanizmlarning sustligi ya’ni metsenatlar va homiylar yordamini jalb qilishni rag‘batlantiruvchi samarali huquqiy mexanizmlar yo‘qligi sababli muassasalar budjet mablag‘lariga haddan ortiq qaram bo‘lib qolgan. Xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishi ayniqsa, xodimlarning kasbga tayyorgarlik darajasi hamda ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati zamonaviy xalqaro standartlarga mos kelmasligi sababli, ularning turistlar uchun jalb etuvchanligi past darajada qolmoqda. Shu bilan birga, jahon madaniy makoniga integratsiyaning yetishmasligi bial xarakterlanadi. Mavjud boy madaniy-tarixiy merosdan hamda san’atning zamonaviy yo‘nalishlaridan mamlakatning ijobiy qiyofasini shakllantirishda to‘liq foydalanilmayotgan edi[2].

Zamonaviy sharoitda ijtimoiy-madaniy muassasalar jiddiy o‘zgarishlar va yangilanishlar jarayonini boshidan kechirmoqda. Ular ijtimoiy-madaniy tashabbuslarni shakllantirish markazlariga aylanib, turli tashkilotlar va jamoatchilikni shartnomaviy sheriklik hamda yangi ishbilarmonlik aloqalari asosida taraqqiy etmoqda. Ijtimoiy va madaniy jarayonlarning dinamikligi madaniyat institutlaridan turli vaziyatlarga tezkor munosabat bildirishni talab etadi. Bu esa murakkab ijtimoiy-madaniy texnologiyalarni qisqa muddatda amalga oshira oladigan loyiha va dasturlarni shakllantirish zaruriyatini keltirib chiqaradi hamda boshqaruvning innovatsion usullarini qo‘llashni taqozo etadi.

Bu borada madaniy siyosatning vazifalari moliyaviy qo‘llab-quvvatlashga, moddiy-texnik bazani takomillashtirishga, ijtimoiy-madaniy sohaning barcha muassasalari faoliyatini yanada samarali qilish uchun innovatsion faoliyat shakllarini joriy etishga yo‘naltirilgan maqsadli dasturlar doirasida muvaffaqiyatli hal etilib, amaliyotga tatbiq etilmoqda. Ijtimoiy-madaniy soha muassasalari ushbu maqsadli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda faol ishtirok etadi, ijtimoiy-madaniy faoliyat rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha prognozlar tuzadi. Shuningdek, boshqaruv faoliyatida loyihalash usulidan faol foydalaniladi, u ijtimoiy-madaniy (ko‘ngilochar, rivojlantiruvchi, sog‘lomlashtiruvchi) muhitni shakllantirish loyihalarini, bo‘sh vaqt dasturlari va bolalar ijodiy festivallari loyihalarini ishlab chiqishga, an’anaviy xalq madaniyatini hamda havaskor ijodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan. Ijtimoiy-madaniy soha uchun loyihalar mavzusini tanlash aniq ijtimoiy buyurtma, aholining turli guruhlarining istak va takliflari bilan belgilanadi[3].

Shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-madaniy soha boshqaruvida innovatsion yondashuv sifatida loyihalash usulidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu usul ijtimoiy-madaniy muhitni shakllantirish, bo‘sh vaqtni mazmunli tashkil etish, madaniy-ma’rifiy tadbirlar va ijodiy loyihalarni

samarali rejalashtirish hamda amalga oshirish imkonini beradi. Loyiha asosidagi boshqaruv ijtimoiy buyurtma va aholining turli guruhlari ehtiyojlarini hisobga olish orqali soha faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, zamonaviy sharoitda madaniyat sohasining innovatsion rivojlanishini ta'minlash uchun quyidagi vazifalarni hal etish zarurligini ta'kidlash mumkin:

ustuvor yo‘nalishlar sonini qisqartirish, moliyaviy ta'minotga qo‘yiladigan talablarni kuchaytirish hamda ijtimoiy-madaniy sohani rivojlantirishda davlatning innovatsion siyosatdagi rolini oshirish sharoitida maqsadli dasturlarni shakllantirish, ko‘rib chiqish va tasdiqlash jarayonini tartibga solish;

eskirgan, resurs talabchan texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarishlarni qo‘llab-quvvatlash uchun ajratiladigan investitsiyalarni bosqichma-bosqich kamaytirish va ushbu resurslarni yangi texnologiyalarga yo‘naltirish;

yuqori samarali va raqobatbardosh madaniy mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish;

madaniyat sohasida raqobatni rivojlantirish;

texnika xarid qilish uchun lizing va imtiyozli kreditlash tizimini takomillashtirish;

kichik korxonalarni, jumladan rivojlanish byudjeti mablag‘lari hisobidan qo‘llab-quvvatlash;

fundamental ilmiy tadqiqotlarning eng muhim natijalarini amalga oshirishda davlat ishtirokini kengaytirish;

ijtimoiy-madaniy xizmatlar sohasida davlat buyurtmasi hajmini oshirish;

kredit resurslari hisobidan davlat investitsion maqsadli dasturlarini amalga oshirishda ijtimoiy-madaniy soha tashkilotlarining ustuvor ishtirokini ta'minlash.

Redkina Tatyana Markovna tomonidan taklif etilgan ushbu chora-tadbirlar ijtimoiy-madaniy sohaning innovatsion rivojlanishini boshqarish mexanizmini takomillashtirish orqali mavjud salbiy tendensiyalarni bartaraf etishga xizmat qilishi mumkin[4].

XULOSA (CONCLUSION)

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda madaniyat sohasining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishi boshqaruv tizimiga innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan bevosita bog‘liqdir. Madaniyat endilikda ma'naviy qadriyatlar ishlab chiqaruvchi soha sifatida emas, iqtisodiy samaradorlikka ega bo‘lgan, investitsion jozibador tarmoq sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Shu sababli an'anaviy ma'muriy-buyruqbozlik usullaridan voz kechib, tahliliy, loyiha asosidagi va strategik boshqaruv mexanizmlarini qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsion boshqaruv usullarining joriy etilishi madaniy mahsulot va xizmatlar assortimentini kengaytirish, iste'molchilar ehtiyojlarini chuqurroq hisobga olish, sohada raqobat muhitini shakllantirish hamda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, loyihalash, dasturiy-maqsadli rejalashtirish, investitsion va marketing yondashuvlarning qo‘llanilishi ijtimoiy-madaniy muhitni rivojlantirishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, madaniyat sohasida boshqaruvning innovatsion usullarini izchil tatbiq etish institutsional infratuzilmani takomillashtirish, intellektual mulkni himoya qilish, innovatsion faoliyatni rag‘batlantirish hamda aholining madaniy ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun zarur shart hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, madaniyat sohasining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi strategik rolini yanada mustahkamlashga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar (REFERENCE):

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv.
2. Nosirova A. “Sahna nutqi” (Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik) O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “Tafakkur-Bostoni”, 2013, - 244 b.
3. Xodjiimatova M. “Sahna nutqi” Toshkent- 2019. 434 b.
4. Tojiboyeva O. Epos va teatr. O‘zbek teatr san’atida milliy madaniy merosning o‘rni. Ikkinchi kitob – Toshkent. “SAN’AT” jurnal nashriyoti – 208 b.
5. Kiyamovich, R. V. (2025). APPLICATION OF DIRECTING ART IN THE ORGANIZATION OF CULTURAL AND MASS EVENTS. *AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, *3*(11), 182-186.
6. Kiyamovich, R. V. (2025). THE ROLE OF LITERATURE IN THE ART OF STAGING. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, *3*(11), 42-45.
7. Rustamov, V., & Umarov, X. (2023). Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalalari. *Oriental Art and Culture*, *4*(1), 496-502.
8. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*, 259-262.
9. Yusupalieva, D. K. (2020). Development of mutually beneficial cooperation of Uzbekistan within the SCO. *ISJ Theoretical & Applied Science*, *5*(85), 901-903.
10. Yusupalieva, D. K. (2020). Political role of television in the development of national ideology. *ISJ Theoretical & Applied Science*, *6*(86), 665-667.

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

Xatira Juldikarayeva
O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti
“Sahna nutqi” kafedrasi professori v.b.

Received 4th October 2025, Accepted 11th November 2025, Online 30th December 2025

SAHNA NUTQINING TEATR SAN’ATIDA TUTGAN O‘RNI

Annotatsiya: Ushbu maqola sahna nutqining teatr san’atidagi muhim o‘rni, uning aktyor ijrosidagi badiiy va estetik ahamiyati hamda dolzarbligini yoritishga bag‘ishlangan. Sahna nutqi obrazni yaratish, dramatik matn mazmunini tomoshabinga aniq va ta’sirchan yetkazish, spektaklning umumiy g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasini ochib berishda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Maqola bilan tanishish jarayonida sahna nutqi yordamida obrazning ichki kechinmalari, xarakteri va hissiy holatini ifodalash, sahnaviy ta’sirchanlikni kuchaytirish masalalari tahlil qilinganiga guvoh bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: *Sahna nutqi, teatr san’ati, mahorat, obraz, aktyorlik mahorati, temp va ritm, diksiya, artikulyatsiya, ovoz madaniyati, badiiy ta’sirchanlik, sahnaviy ifoda.*

РОЛЬ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ В ТЕАТРАЛЬНОМ ИСКУССТВЕ

Аннотация: Данная статья посвящена освещению важной роли сценической речи в театральном искусстве, ее художественно-эстетической значимости и актуальности в актёрской игре. Сценическая речь является одним из основных средств создания образа, точной и впечатляющей передачи зрителю содержания драматического текста, раскрытия общей идейно-художественной концепции спектакля. В процессе ознакомления со сватьей вы увидите, что с помощью сценической речи анализируются вопросы выражения внутренних переживаний, характера и эмоционального состояния образа, усиления сценического воздействия.

Ключевые слова: *Сценическая речь, театральное искусство, мастерство, образ, актёрское мастерство, темп и ритм, дикция, артикуляция, культура голоса, художественное воздействие, сценическое выражение.*

THE ROLE OF STAGE SPEECH IN THEATRICAL ART

Annotation: This article focuses on highlighting the significant role of stage speech in theatrical art, its artistic and aesthetic significance, and its relevance in acting. Stage speech is one of the main means of creating an image, accurately and impressively conveying the content of the dramatic text to the viewer, and revealing the overall ideological and artistic concept of the performance. In the process of reviewing the article, you will see that through stage speech, issues of expressing inner experiences, character and emotional state of the image, and enhancing stage impact are analyzed.

Key words: *Stage speech, theatrical art, mastery, image, acting skills, tempo and rhythm, diction, articulation, voice culture, artistic impact, stage expression.*

International Journal of Intellectual and Cultural Heritage
Volume: 5 Issue: 06 | 2025
ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich

“O‘zining tarixiy, madaniy va intellektual merosini asrab-avaylashga, boyitish va ko‘paytirishga, shuningdek, unib-o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashga yetarlicha e’tibor qaratmaydigan, har tomonlama uyg‘un rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, o‘z qarash va yondashuviga, grajdanlik pozitsiyasiga ega bo‘lgan shaxsni kamol toptirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymaydigan har qanday davlat va jamiyat tarix va taraqqiyot yo‘lidan chetda qolib ketishga mahkum ekanini biz o‘zimizga yaxshi tasavvur qilib kelganmiz va yaxshi tasavvur etamiz”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Sh.M.Mirziyoyev

Kirish (Introduction)

Istiqlol yillarida o‘zbek teatr san’ati ancha rivojlanib, xalqimiz uchun noyob asarlarni namoyish qilib kelmoqda. Asrlar davomida insoniyat ma’naviy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shib kelayotgan bu qadimiy san’at yangi bosqichga ko‘tarildi. “Teatr – bu ibratxonadir” degan hikmatga amal qilib, ma’naviy jasorat namunasini ko‘rsatib yashagan Mahmudxo‘da Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Cho‘lpon singari ma’rifatparvar bobolarimiz, teatr san’ati fidoyilarining amalga oshirgan ishlarini yoshlarimizga va xalqimizga yetkazish biz yosh olimlarning burchi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugun zamon shiddat bilan o‘zgarmoqda. Dunyo hamjamiyatida ko‘plab o‘zgarishlar, yangiliklar va islohotlar amalga oshirilyapti. Lekin bunday ishlarning barchasi ezgu maqsadlarga yo‘naltirilgan deya olmaymiz. Vayronkor, yod g‘oyalar bilan yashayotgan xalqlarning tinchligiga, yoshlarning ma’naviy olamiga havf soluvchi kuchlar ham

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review) Muhtaram Prezidentimiz jamiyatimizning kamolotida ijodkorlarning xizmati beqiyos ekanini alohida ta’kidlab, taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida barcha sohalar vakillari qatori madaniyat va san’at ahlidan ham yanada faollik, yangi-yangi ijodiy g‘oya va tashabbuslar bilan yashash, izlanish ruhi talab etilayotganini ta’kidladi[1]. Insonlarning qalbiga beqiyos ta’sir o‘tkazib, ularni mudom ezgulik va olijanoblikka chorlab kelayotgan milliy teatrimiz ma’naviy hayotimizning muhim bo‘lagiga aylangan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology),

Teatr san’ati inson ruhiyati, tafakkuri va hissiyotlarning badiiy ifodalashning eng ta’sirchan vositalaridan hisoblanib, unda sahna nutqi muhim o‘rin tutadi. Sahna nutqi vositasida dramaturg tomonidan yaratilgan g‘oya va mazmun tomoshabinga yetkaziladi, obrazning ichki dunyosi, xarakteri va ruhiy kechinmalari ochib beriladi. Aktyorning ovozi, talaffuzi, intonatsiyasi, nutq ogangi va pauzalarni mahorat bilan ishlata olishi sahnaviy ijroning badiiy saviyasini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda teatr san’atining rivojlanishi, aktyorlik maktabining takomillashuvi sahna nutqiga bo‘lgan talabni yanada kuchaytirmoqda. Tomoshabinning estetik didi oshib borar ekan, sahnadagi nutq ham aniq, tiniq, ravon, mantiqan izchil va emotsional jihatdan ta’sirchan bo‘lishi zarur. Sahna nutqi nafaqat matnni to‘g‘ri yetkazish vositasi, balki aktyorning ichki kechinmalarini ifodalovchi, sahnaviy harakatni to‘ldiruvchi va obrazning badiiy yaxlitligini ta’minlovchi asosiy unsurlardan biridir.

Tahlil va natijalar (Analysis and results),

Teatr san’ati tarkibiga kiruvchi ommaviy bayram tomoshalarida ham sahna nutqining ahamiyati yuqori hisoblanadi. Hozirgi davrdagi xalq bayramlarida sahna nutqining mavqei nihoyatda kengaydi, teranlashda va g’oyatda yuksaldi. Shuni aytish lozimki, istiqlol davri xalq bayramlarining badiiy so’z qatlami jonli so’z ijrochilik san’atining barcha tur va janrlarni o’ziga qamrab oladi. Bunday yuksak mavqeli xalq ommaviy bayramlari eng yuksak iste’dodli professional san’atkorlarning mumtoz ijodkorlari asarlaridan keltirilgan monologlardan boshlab, jahon va milliy mumtoz adabiyotning eng sara asarlarigacha, folklor durdonalaridan toki ichakuzdi askiya-payrovlarigacha bo’lgan janrlarni qamrab oladi. Ayniqsa, professional san’atkorlar bilan bir sahnada ijodiy bahslashish imkoniyatiga ega bo‘lgan minglab havaskor she’rxon, hikoyachi, qiziqchi, askiyachilarning chiqishlari, bayramning badiiy “fon”ini tashkil etuvchi o’nlab professional diktorlarning tabrik va she’rxonliklari jozibador musiqalar jo’rligida yangrab turishi bayram ruhiga yanada ulug’vorlik va jozibadorlik bag’ishlamoqda[2].

“Sahna nutqi” o‘quv mashg’ulotlari jarayonida, har qanday ilg’or pedagogik texnalogiyalarni, interfaol usullarni joriy qilish jarayonidan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ijodiy-ilmiy, kasbiy, amaliy faoliyati til zabon bilan bog’liq aktyor, rejissor, notiq, ta’lim-tarbiya, targ’ibot-tashviqot, ommaviy axborot tizimlarida suhandon boshlovchi va boshqa turli soha vakillari uchun ham bu muhim ahamiyat kasb etadi[3]. Mazmunli, ta’sirchan, ravon va faol ifodaviy imkoniyatlarni o’rganish va joriy qilish uchun, o’z nutqini o’stirish, faollashtirish yo’lida nutqiy texnik ko’nikmalar erkinligi va faolligi rang-barangligiga erishish, so’z bilan ishlashning uslubiy amaliy ijodiy asoslarini o’rganish sahna nutqiga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

So’zning qudrati uning jonli va ta’sirchan ekanligi bilan belgilanadi. Shu boisdan ham u hamisha o’z tinglovchisiga yetib boradi, uning ongiga ta’sir etib, kayfiyatida, dunyoqarashida o‘zgarish yasaydi. Demak, so’z san’ati, til madaniyati, sahnada adabiy tilga e’tibor badiiy ijro bilan shug’ullanuvchi barcha yosh san’atkorlar zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Chunki biz bilgan va bilmagan hikmatli so‘zlar, obrazli iboralar, maqollar zamonlar osha sayqallanib, mazmunan boyib, teranlashib xalqimizning ma’naviy mulkiga aylandi. Allomalarimiz tomonidan yaratilgan va og’izdan-og’izga o’tib kelayotgan o’gitlar xalq ruhiyati, ularning ichki kechinmalari, orzu-istaklari, falsafiy mushohadalari mahsuli hisoblanadi. Endigi muhim vazifa so’z ifodasi orqali jonli ijroda uni jonlantirish, tinglovchiga, tomoshabinga teran mazmunni anglatib, ta’sir etish, his-hayajonni junbushga keltiradigan yuksak ijro madaniyatiga erishishdan iborat.

Teatr san’atini madaniy meros sanalsa-da, bugungi kunga qadar yetib kelgan muqaddas kitoblar hamda mumtoz adabiyot namunalariga asoslangan asarlarning sahna san’ati taraqqiyotidagi o‘rni beqiyosdir. Milliy madaniy merosning teatr san’ati va yozma yodgorliklardek ikki ulkan hodisaning o‘zaro munosabatlari, san’atlarning o‘zaro birikuvi (integratsiyasi) hamda biri ikkinchisidan quvvat olib, yangi badiiy kashfiyotlarni yuzaga keltirishi masalalari azaldan ahamiyatli hisoblangan. Teatr va mumtoz adabiyot namunalarining birikishi ko‘plab ijobiy xususiyatlarni yuzaga keltiradi. Epos – insoniyat tafakkuriga xos turfa olamni o‘zida jo qilgan bebaho manbadir. Shu bois ham xalq ma’naviy mulkining gultoji bo‘lmish epik ijodiyot namunalari adabiyot va san’at taraqqiyoti uchun hamisha, har qanday davrda dolzarb ahamiyat kasb etgan. Asrlar qa’ridan bizning kunlargacha rivoyat, afsona, ertak, hikoyat tariqasida yetib kelgan epik ijodiyot nihoyatda sermazmun va badiiy barkamolki, bu ma’naviy qadriyatlardan har bir avlod o‘z zamonasi ehtiyojiga ko‘ra bahramand bo‘ladi[4].

Xalq badiiy merosi milliy qadriyat sifatida urf-odat, madaniyat, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlardagi o‘ziga xos jihatlarni, xalqimizga xos betakror fazilat va sifatlarni ifoda etadi. Xalq qahramonlari talqini vositasida Vatanga, tug‘ilgan yerga muhabbat, insoniy burch va mas’uliyatni anglash, ota-onaga hurmat, suyukli yorga sadoqat, umum manfaatini o‘z manfaatlaridan ustun qo‘yish, el-yurt xizmatiga hamisha shay turish, xalqning og‘irini yengil qilish, himmatli va saxovatli bo‘lish kabi fazilatlar o‘rnak sifatida namoyish etilgan.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, sahna nutqi teatr san’atining ajralmas muhim bo’lagi va asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, u aktyorning obraz yaratish mahoratini to’liq namoyon etilishida hal qiluvchi o’rin egallaydi. Sahna nutqi orqali asarning g’oyaviy-mazmuniy mohiyati tomoshabinga aniq, ta’sirchan va tushunarli yetkaziladi, personajning ichki kechinmalari, xarakteri hamda ruhiy holati ochib beriladi. To’g’ri va madaniyatli nutq aktyorning sahnadagi ishonchliligini oshiradi, uning ijrosiga badiiy yaxlitlik bag’ishlaydi va spektaklning umumiy estetik saviyasini belgilaydi. Bundan tashqari sahna nutqi aktyorning nafaqat texnik mahoratini balki

uning tafakkuri, badiiy didi va madaniy saviyasini ham namoyon etadi. Nutq ustida muntazam ishlash, talaffuz, intonatsiya, nafas, urg'u va ritm ustida mashq qilish aktyorning kasbiy yetukligini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 3-avgust kuni mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuv.
2. Nosirova A. "Sahna nutqi" (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Tafakkur-Bostoni", 2013, - 244 b.
3. Xodjiimatova M. "Sahna nutqi" Toshkent- 2019. 434 b.
4. Tojiboyeva O. Epos va teatr. O'zbek teatr san'atida milliy madaniy merosning o'rni. Ikkinchi kitob – Toshkent. "SAN'AT" jurnal nashriyoti – 208 b.
5. Kiyamovich, R. V. (2025). APPLICATION OF DIRECTING ART IN THE ORGANIZATION OF CULTURAL AND MASS EVENTS. *AMERICAN JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN*, *3*(11), 182-186.
6. Kiyamovich, R. V. (2025). THE ROLE OF LITERATURE IN THE ART OF STAGING. *AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE*, *3*(11), 42-45.
7. Rustamov, V., & Umarov, X. (2023). Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va unda insonni qadrlash masalalari. *Oriental Art and Culture*, *4*(1), 496-502.
8. Nazarbaevna, Q. A., & Serjanovich, K. S. (2024). The Importance of Scenario in Cultural Events. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, *4*, 259-262.
9. Yusupalieva, D. K. (2020). Development of mutually beneficial cooperation of Uzbekistan within the SCO. *ISJ Theoretical & Applied Science*, *5*(85), 901-903.
10. Yusupalieva, D. K. (2020). Political role of television in the development of national ideology. *ISJ Theoretical & Applied Science*, *6*(86), 665-667.